

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ



100 YIL



D.G'. Muhamedova, N.M. Mullaboyeva, A.I. Rasulov

UMUMİY PSIXOLOGIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MUHAMEDOVA D.G., MULLABOYEVA N.M., RASULOV A.I.

UMUMIY PSIXOLOGIYA

5210200-Psixologiya (umumiy psixologiya) ta'lif
yo'nalishi uchun darslik

Toshkent
«MUMTOZ SO'Z»
2018

Mazkur darslik "Umumiy psixologiya" fanining "Evolutsion psixologiyaga kirish" va "Shaxs psixologiyasi" bo'limganligiga bag'ishlangan bo'lib, oly o'quv yurtlari belgilangan talablarga moslab tuzilgan. Kitobda jahon psixologiyasi fanida qo'lga kiritilgan so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar, ilmiy izlanishlar, xorijlik psixolog olimlarining qarashlari va nazariyalaridan milliy muhitga moslashtirilgan holda keng foydalanilgan.

Darslikda evolutsion psixologiyaga kirish, evolutsion nazariyalar, instinktlar, kognitiv jarayonlar, miyaning asab tizimiga aloqadorligi, ontogenezda rivojlanish bosqichlari, zoopsixologiya, zoopsixologiya usullarini o'rGANISH, shaxs fenomeni, shaxsning psixologik nazariyalar, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari masalalari o'z ifodasini topgan. Darslikdan boy nazariy va amaliy psixologik materiallar o'ren olgan. Darslik psixolog mutaxassislarini nazariy va amaliy ma'lumotlar bilan qurollantirishi mumkin.

Darslik 5210200-Psixologiya (umumiy psixologiya) ta'lim yo'nalishi tabalariga, oly o'quv yurtining o'qituvchilariga, amaliyotchi psixologlarga hamda malaka oshirish tizimi xodimlariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:
psixologiya fanlari doktori, professor E.G'.G'oziyev.

Taqribchilar:
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent O'.Shamsiyev;
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent X.Qodirova

81.5(O')

Umumiy psixologiya / Muhammedova D.G', Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I.; mas'ul muharrir E.G'.G'oziyev. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2018. – 298 b.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2018-yil 14-iyundagi 531-sonli buyrug'iiga asosan nashrga
ruxsat berilgan (ro'yxatga olish raqami 531-270)*

ISBN 978-9943-5561-4-0

© MUHAMEDOVA D.G' va boshq.
© «MUMTOZ SO'Z», 2018

KIRISH

“Umumiy psixologiya” o‘quv kursi psixik taraqqiyot qonuniyatları, psixologiya taraqqiyotining asosiy bosqichlari, fanning tarmoqlari, shaxs haqida psixologik qarashlar, fanning boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning tamoyillari va metodlari, vazifalari, faoliyatning psixologik tahlili, shaxs haqida tushuncha, muloqot, psixik jarayonlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari masalalarini qamraydi.

XXI asr buyuk o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu o‘zgarishlar, eng avvalo, inson tafakkuriga, uning fikrlash tarzida ro‘y berishi muqarrar. Tabiiyki, bu holat shaxs ma’naviyati va u orqali jamiyatning ma’naviy qiyofasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

“Umumiy psixologiya” fani inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘rinishlari va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tadbiq etadi. Bu fan yoshlarning ongida va ruhiyatida yangicha sifatlarning shakllantirilishini psixologiya masalalari doirasida yechishga yordam beradi, yuksak madaniyatli va ma’naviy etuk xalqqa munosib vorislarni tarbiyalashga hissa qo’shamdi. Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o‘ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o‘zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati Inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalgalashish uchun bo‘lg‘usi mutaxassis, pedagog-o‘qituvchi ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalanib, turmush meyorlariga bo‘ysungan holda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo‘lishini darkor. Shu nuqtai nazardan “Umumiy psixologiya” shaxs va uning munosabatlari qonuniyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlash madaniyatiga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish va muomala sirlarini o‘rgatishdan iborat bo‘lib, pirovardida bu bilim va ko‘nikmalar orqali talaba umumiy psixologiya fanining kelajak professional faoliyatidagi o‘rni va rolini aniqlash, psixologik bilimlarni amaliyotga tadbiq etish soha va yo‘nalishlarini aniq tasavvur qilishga ko‘maklashadi.

“Umumiy psixologiya” kursining asosiy maqsadi – talabalarda umumiy psixologik bilimlarni egallashga, milliy istiqlol g‘oyasi va milliy mafkurani yoshlarni ongiga singdirilish davrida yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishning psixologik tamoyillari, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot

qonuniyatlari, shaxsni etnopsixologik metodlar yordamida o'rganish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Kursning asosiy vazifalariga talabalarga voqelik va jamiyatdagi hodisalarning, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o'rgatish, talabalar ijodiy faolligini rag'batlantirishdan iborat.

Ushbu darslikning mualliflari faqatgina psixologik bilimlar tizimini ko'rsatish bilan cheklanmasdan, balki talabalarni faol, ijodiy faoliyatga undashga ham harakat qildilar.

O'quv materialining mazmuni va uni bayon qilish shakli bilim va ko'nikmalarni egallashda talabalarning bilish faoliyatini oshirishga qaratilgan.

Mazkur darslikda jadvallar, chizmalar mavjud bo'lib, bu taqdim etilayotgan materialni aniq va tushunarli o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Mualliflar o'quv materialini o'rganish bo'lajak mutaxassislarning psixologik madaniyati darajasini oshishiga, shaxsiy rivojlanishiga hamda muvaffaqiyatli kasbiy pedagogik faoliyatning samarali zaminini yaratishga xizmat qiladi deb, umid qiladilar.

Birinchi bo‘lim. UMUMIY PSIXOLOGIYAGA EVOLUTSION KIRISH

1-bob. Evolutsion psixologiyaga kirish

Reja:

1. “Psixologiya” fanining predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari.
2. Psixologiya tarixi.
3. Psixologiyaning fanlar tizimidagi o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Ilmiy va hayotiy psixologiya. Psixologlar haqida afsonalar.
5. Psixologiya fanlari tizimi va tamoyillari.

“Psixologiya” fanining predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari

Psixologiya bu psixika, psixik qonuniyatlar, psixikaning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi fan bo‘lib, u quyidagi qismlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- psixik jarayonlar: bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tasavvur, xayol, diqqat, xotira, tafakkur, nutq); emotsiyal (hissiyotlarning paydo bo‘lishi, ularning ehtiyojlarga ta’siri) va irodaviy jarayonlar (ehtiyoj, motiv, iroda, qaror qabul qilish, maqsad va boshqalar);
 - psixik xususiyatlar (temperament, xarakter, qobiliyat, mayllar, yo‘nalganlik va boshqalar);
 - psixik holatlар (stress, affekt, g‘am-anduh, monotonlik, yordamga muhtojlik, tush ko‘rish, bedorlik, holatlarning o‘zgarishi va boshqalar).
- Demak, psixologiya fanining predmeti psixika bo‘lsa, uning obyekti inson va hayvonlar (zoopsixologiya), kichik va katta guruqlar (sotsial psixologiya) bo‘lib hisoblanadi.

Psixologiya tarixi

1-bosqich. *Psixologiya ruh haqidagi fan (mil. av. VI asr – milodiy XVI asr)*. Har bir olim ruh haqidagi o‘z ta’limotlarini ilgari surishga harakat qilgan. Birlamchi tushunchalar animistik xarakterga ega bo‘lgan, ya’ni har bir predmetning o‘z qalbi bor deb e’tirof etilgan. Ruhning har bir predmetda mavjudligini harakat va ko‘rinishda aks ettirilganini kuzatganlar. Arastu barcha organik jarayonlarda psixik jarayonlar aks

etgan deb aytib o'tgan. O'simliklar dunyosi va hayvonot olamiga ruh ta'limotini kiritgan.¹

So'ngra psixika haqida ikkita qarama-qarshi fikr paydo bo'lgan: materialistik (Demokrit) va idealistik (Aflatun). Demokritning fikriga ko'ra, psixika o'z tabiatiga ko'ra moddiy hisoblanadi, ruhning holati kichik atomlardan tashkil topgan, atomlar jismoniy tanada aks etganlar. Dunyonи bilish psixika va organizmning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalaridan tarkib topgandir.²

Aflatunning fikriga ko'ra, ruh mukammal hisoblanadi. Dunyonи anglash esa, mukammal ruhdagi g'oyalar dunyosini anglashdan iboratdir, ruh inson tanasiga tushmasdan oldin ham rivojlanadi.

2-bosqich. Psixologiya ong haqidagi ta'limotdir (XVII-XIX asrlar).

Psixologiyaning ong ta'limoti ortida rivojlanishi. Psixologiya faniga eksperimental usullarning kirib kelishi.

R.Dekart hayvonlarning ruhi yo'q degan fikrni aytib o'tgan. Hayvonlarning xatti-harakat shakllari reflekslar deb ataladi. Uning fikriga ko'ra, ongning paydo bo'lishi va tafakkurning rivojlanishi ichki nutq orqali shakllanar ekan. Dj. Lokkning fikriga ko'ra, ong insonning hissiyotlari orasiga yashiringandir, u ongni atomik tarzda tahlil qilish usulini qo'llagan, bunga ko'ra psixik holatlар birlamchi holatlар sifatida e'tirof etilgan [7].

XVII asrda ingлиз olimlari T.Gobbs, D.Gartli, P.Golbax determinizm tamoyillarini ishlab chiqishgan, ular inson psixikasining ijtimoiy g'oyalarini rivojlantirishga harakat qilishgan.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi 1879-yilda Vilgelm Vundt tomonidan dunyoda birinchi bo'lib eksperimental psixologiya laboratoriyasining tashkil etilishi bilan bog'liqdir.³

3-bosqich. Psixologiyani mustaqil fan sifatida tarkib topishi. Ochiq inqiroz.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga, albatta, shartli reflekslar haqidagi ta'limotlar va psixik kasalliklarni davolash usullarining tadqiq etilishi va umuman, fiziologiya fanining rivojlanishi asos bo'ldi. Psixologik eksperimentlarning o'tkazilishi, albatta, mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos yaratildi. Turli xil yo'nalishdagi maktablarning paydo bo'lishi (bixevoizm, psikoanaliz, psixodinamik maktab, geshtalt psixologiya).

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. p. 2.

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 2.

³ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 3

Psixoanaliz (Z.Freyd). Bu ta'limot bo'yicha insonning ongi, ongsiz holatlar va jarayonlar orasida bevosita bog'liqlik mavjuddir. Bu ta'limotga ko'ra, inson xatti-harakatlari asosida anglanilmagan mayllar yotishini kuzatishimiz mumkin. Psixikaning uchta darajasi tafovut qilinadi: ongsizlik, ong osti va onglilik. Insonning motivatsion holatini aks ettiruvchi jarayonlar ongsiz jarayonlarni anglash hisoblanadi, Freyd ta'limotida jinsiy qoniqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.¹

Bixevoirizm (J.Uotson). Psixologiya – inson va hayvonlarning xulq-atvori haqidagi fan sifatida talqin etilgan. Dj.Uotson psixologiyada ongni o'rganishga ehtiyoj yo'qligini ta'kidlab o'tgan, u hamma e'tiborni faqat kuzatishga qaratilishini taklif qilgan. Aynan bixevoirizm namoyandalari stimul S (qo'zg'atuvchi, tashqi muhitning ta'siri), reaksiya (R barcha obyektiv qo'zg'atuvchilarga nisbatan organizmning reaksiyasi) tamoyilini qo'llashni taklif qilganlar. Bixevoiristlarning fikricha, psixologiyaning funksiyasi stimul va reaksiya o'rtaсидаги qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir, maqsad esa subyektning u yoki bu holatda qanday tutishi nazarda tutiladi.²

Gumanistik psixologiya ularning talqinida psixologiya fani tabiiy fanlarning namunasi asosida shakllanishi tanqid ostiga olganlar, inson tadqiqot obyekti bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirganlar, bunda insonning tabiatи emas, balki xatti-harakat usuli tahlil qilinishi kerak, degan g'oyalarni ilgari surganlar.

1963-yilda gumanistik assotsiatsiativ psixologiyaning prezidenti J.Byujental psixologiya yo'naliشining asosiy 5 g'oyasini ilgari surdi.³

1. Inson yaxlit mavjudot bo'lib, hammadan ustundir (boshqacha aytganda uning ba'zi bir funksiyalari tahlil qilinmasdan, umumiy holati tahlil qilinishi kerak).

2. Insoniy sifatlar insoniy munosabatlar tizimida takomillashadi (boshqacha aytganda shaxslararo tajribalar shaxsiy funksiyalarni shakllantirmaydi).

3. Inson o'zini anglaydi (u o'zining ongini shakllantirmasligi va psixologiyasini tushunmasligi mumkin).

4. Insonning tanlov imkoniyati mavjud (inson passiv kuzatuvchi emas, u shaxsiy tajribalariga tayangan holda o'z tajribasini yaratadi).

5. Inson intensialdir (inson kelajakka umid qiladi, uning maqsadlari, qadriyatları va g'oyalari mavjuddir).

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 5.

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p.5.

³ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p.5.

Gumanistik psixologiya asosida bir qator yo‘nalishlar tarkib topadi: psixoterapiya va gumanistik pedagogika.¹

Geshtaltpsixologiya yo‘nalishining asoschilari bo‘lib M.Vertgeymer, V.Kyoller, K.Koffkalar hisoblanishadi. Geshtaltpsixologiya ong fenomenlari o‘zini kuzatish metodlaridan voz kechmasdan, ularni yaxlit holda o‘rganishni tavsiya qiladi. Geshtaltpsixologiya namoyandalarining asarlarida maydon g‘oyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Geshtaltpsixologiyada yagona maydon sifatida ma’lum bir obrazning tuzilishi sezgilar bilan bog‘liq holatda tahlil qilinadi. Geshtaltpsixologiya namoyandalari maqsadga erishish usuli sifatida inson idrokidan foydalanishadi, hozirgi kunga qadar geshtaltpsixologiya namoyandalarining fikrlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gitlerni hokimiyat tepasiga kelishi natijasida geshtaltpsixologiya maktabi tarqalib ketdi, biroq uning g‘oyalari psixologiyaning rivojlanishiga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi.

4-bosqich (hozirgi zamон). Inqirozning tamom bo‘lishi, ilmiy mакtabлar evolutsiyasi.

Bu bosqichda turli xil yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiya fanini bir qator amaliy fanlar qatoriga kiritishni rivojlantirish, bunda, albatta, insonning faoliyati va qiziqishlari inobatga olina boshlandi.

Tabiiy tanlanish. Bu asosiy evolutsion jarayon bo‘lib, bunda tarqalish usuli orqali tanlanish holati ro‘y beradi. Bunda, albatta, maksimal darajada moslashgan turlar ko‘proq tanlanadi, zaif turlar esa nobud bo‘la boshlaydi. Hozirgi zamон evolutsiya nazariyasida tabiiy tanlanish adaptatsiyaning rivojlanishini asosiy holati sifatida talqin etilgan. Moslashish tabiiy tanlanishning yagona natiji hisoblanadi, biroq evolutsiyaning yagona maqsadi emas. Moslashish mumkin bo‘limgan holatlarga biz genetik dreyf, chekinish holati va mutatsiyalarni misol qilishimiz mumkin.

“Tabiiy tanlanish” atamasini CH.Darvin har tomonlama o‘rganib ommaboplasmashirdi, bu jarayonni sun’iy tanlanish jarayoni bilan solishtirib undagi ijobjiy va salbiy jihatlarini tahlil qildi. Tabiatda ham tanlanish jarayonlari mayuddir, biroq tabiatda eng yaxshi nav tanlab olinadi, tabiat insondan ko‘ra mukammalroq qilib tanlaydi. Albatta, tabiiy tanlanishda ham sun’iy tanlanishda ham nasliy omillar muhim

¹ Myers D.G. Psychology.Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p.5.

o'rın tutadi. Bu omillar esa asrlar davomida takomillashib rivojlanib keladi.¹

Tabiiy tanlanish jarayonida organizmning moslashuvchanligi ortadi, mutatsiyalar mukammalashadi. Tabiiy tanlanish jarayoni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, bular, albatta, quyidagilarga bog'liqdir:

1. Organizmlar o'zlariga nisbatan ko'proq sonda nasl qoldirishadi.
2. Har qanday tur populyasiyasiga irlsiyat va o'zgaruvchanlik xosdir.

Bunday shart-sharoitlar organizmlarning raqobatiga va yashab ketishlariga, albatta, ta'sir ko'rsatishi mumkin va populyasiyaning tabiiy tanlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, irlsiyat xususiyatlarga ega bo'lgan organizmlar boshqalardan ko'ra ko'proq genotipni kelajak avlodga qoldiradilar.

Tabiiy tanlanish konsepsiyasining asosiy mohiyati bu organizmning moslashuvchanligidir. Moslashuvchanlik organizmning yashab ketishi va keyingi avlodga qoldiradigan genetik ulushi orqali baholanadi. Biroq bunda naslning ko'pligi emas, balki moslashuvchanlik xususiyatlari tahlil qilinadi. Masalan, agar nasl qoldiradiganlar zaif bo'lsa, buni yangi tur uchun, albatta, foydasi bo'lmaydi, shuning uchun ham ularning raqobatbardoshligi inobatga olinishi zarurdir. Albatta, bunday holatda zaif organizmlarga e'tibor kamayadi.

Agar ma'lum gen organizmning moslashuvchanligini oshirsa, bu genning rivojlanish imkoniyati, albatta, yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham olimlar yaxshi naslni qoldirib, yomon naslni yo'qotishga urinishadi. Organizmlarning moslashuvchanligini ta'minlovchi genlar ayrim holatlarda salbiy ta'sirga olib kelishini, shuningdek, ba'zi foydali genlar ham foydasizga aylanishi mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Ko'pincha tabiiy tanlanish jarayonlariga jinsiy tanlanishni kiritishimiz mumkin. Bunda, albatta, qo'shiladigan individning jozibadorligi muhim o'rın tutadi. Tabiiy tanlanish jarayonlari, albatta, muayyan hayvonlarning erkak va ayollarida yaqqolroq namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, katta shox, yorqin rang va boshqalar.

Tanlanish turli xil darajalarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin.²


Psixosotsial yondashuv.

Har bir inson murakkab jarayonni o'zida mujassam etadi, bu esa ijtimoiy tizimning salmoqli qismini tashkil etadi. Biroq har bir individning o'zi ham kichik tizimlardan iborat. Masalan, nerv tizimi, yurak-qon tomir, endokrin, tayanch-harakat a'zolari va boshqa tizimlar.

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 76

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 7-8.

Bu ko‘p darajali tizimlar turli xil tahlil darajalarini taqozo etadi. Turli xil darajalarda har xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning yig‘indisi biopsixosotsial yondashuvni hosil qiladi. Biopsixosotsial yondashuvda biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar inobatga olinadi.¹



Psixologiyaning fanlar tizimidagi o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqasi

Psixologiyaning predmeti psixika bo‘lganligi sababli uning asosiy funksiyasi obyektiv dunyo haqidagi jarayonlarni aks ettirishni hisobga oladi. Psixologiya boshqa fanlar qatori falsafa fanining negizida vujudga keldi. Falsafa aynan bilish nazariyalarini psixika haqidagi tasavvurlarni tahlil qiladi. Bunda psixika birlamchi, ong ikkilamchi holatlarni sifatida e’tirof etiladi. Psixologiya inson faoliyatida psixikani va uning rivojlanishini o‘rganadi.

Psixologiya barcha fanlarni integratsiya qilib, ularga ta’sir ko‘rsatadi va ular insoniy bilimlarning umumiyligi modeli sifatida talqin qilinadi. Psixologiya faoliyatni tadqiq qilish va insomning aqliy, amaliy faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

A. Psixologiya va falsafa.

Psixologiya falsafaning tarkibida shakllanib, 1879-yilda mustaqil fan sifatida tarkib topdi. Psixologiyada falsafaning ikki yo‘nalishi saqlanib qolgan: materialistik va idealistik. Materializm faoliyatning asosiy ko‘rinishlaridan bo‘lib, psixik funksiyalarni vujudga kelishini o‘rganadi. Idealizm mas’uliyat muammosi, vijdon, hayotiy maqsad, ma’naviylik

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 8.

tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotning psixologik metodologiyasi dunyonи bilish nazariyalariga asoslanadi.¹

B. Psixologiya va sotsiologiya.

Sotsiologiya fani psixologiya fanidan bir qator metodlarni o‘zlashtirib oladi, bunga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: shaxsni o‘rganish, insoniy munosabatlarni o‘rganish, kichik guruhlar, shaxs nazariyalarini, kichik guruhlar tuzilish nazariya metodlarini o‘z ichiga oladi.

Psixologiya sotsiologiyadan quyidagilarni olgan ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish usullari (so‘rov, anketa, intervju), sotsial o‘rganish nazariyalarini va boshqalar.

Umumiy muammolar insonlar bilan o‘zaro aloqalar, katta guruhlarning ta’siri (etnopsixologiya, siyosiy psixologiya, iqtisodiy psixologiya va boshqalar), ijtimoiylashish (identifikatsiya, sotsial fasilitatsiya va ingibitsiya)

V. Pedagogika va psixologiya.

Pedagogika o‘qitish metodikalarini psixologiya metodikalaridan o‘zlashtiradi, bundan tashqari qobiliyatlarga nisbatan yondashuvlar ham psixologik jarayonlardan olingan.

Boshqa fanlarning qo‘shilishi natijasida pedologiya fani vujudga kelgan. Pedologiya 20 asrning birinchi yarmida mavjud bo‘lgan fanlardan biri hisoblanib, hozirgi kunda bunday fan mavjud emas.

Ilmiy va hayotiy psixologiya. Psixologlar haqida afsonalar.

Kundalik hayotda psixologlar haqida turli xildagi mish-mishlarni eshitish mumkin. Ularning ba’zilarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

1. Psixologiya bu insonning butun qalbini, yuragini biladigan fandir, psixologlar insonning ichini yaxshi biladi.

2. Psixolog – bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi.

3. Psixolog – bu insonlarning xatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shu kabilarga maxsus o‘rgatilgan insondir. U shunga xos bo‘lgan texnikalardan foydalana oladi, Masalan, gipnoz bilan.

4. Psixolog bu o‘zini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham o‘zini boshqara oladiga inson.

5. Psixolog – bu hayot haqidagi ko‘proq tasavvurlarga ega bo‘lgan donishmanddir, uning funksiyasi qiyngalgan insonlarga to‘g‘ri yo‘l

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 2.

ko'rsatishdan iboratdir, hayotda o'z yo'lini yo'qotganlarga to'g'ri maslahat beradi.

Har bir afsonaning tagida ozgina bo'lsa-da, haqiqat yashiringandir, ularning tagida qandaydir asos mavjuddir, biroq insonlar haqiqatni bo'rttirilgan holda idrok qilishga o'rganib qolishgan. Shuning uchun ham ba'zi bir holatlarda psixologlarning faoliyatini yolg'onga qorishtirishlari mumkin. Bu fikrlarning bo'rttirilganligi ba'zi hollarda insonlarning nafaqat o'zlariga, balki boshqalarga ham zarar keltirishi mumkin. Shuning uchun ham biz afsonadan haqiqatni ajratishimiz talab qilinadi.

Biz yuqorida keltirilgan afsonalarni diqqat bilan tahlil qilishga harakat qilamiz. Demak:

1. Psixologiya bu insonning butun qalbini, yuragini biladigan fandir, psixologlar insonning ichini yaxshi biladi.

Psixologlarning insonlarning ichidagi hamma gaplarni biladi degan taxminga kelsak, bu jihatdan bo'rttirish kerak emas. Biroq ko'pgina holatlarni oddiy insonlarga nisbatan tezroq anglashi va kuzatuvchan bo'lishi mumkin, chunki psixologiya bilan shug'ullanadigan insonlar oddiy insonlarga nisbatan o'ta kuzatuvchan bo'lishlari mumkin. Biroq shuni nazarda tutish kerakki hamma fikrlar bu ehtimoliy fikrlar hisoblanadi. Agar psixolog "men sizni mutlaqo tushuna olmayman" desa, demak, bu haqiqiy psixolog hisoblanmaydi.

2. Psixolog – bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi.

Har bir inson ma'lum bir qobiliyatlar majmuasi bilan tug'iladi, biroq biz buni hayot davomida bilib boramiz. Biz insonlarning ayrim xatti-harakatlarining tug'ma ekanligini sezishimiz mumkin, bular individual xatti-harakatlar bo'lishi mumkin. Masalan, asab tizimining kuchi, harakatchanligi va boshqalar. Biroq muloqotdagi empatiya holati qiyinroq kechishi mumkin. Psixologlar orasida turli-tuman xulq-atvor egalari uchrab turadi. Biroq amaliy psixolog bir qator qobiliyatlarga ega bo'lishi talab qilinadi. U o'zida muloqotga moyillik va odamlarni tushuna olish qobiliyatini shakllantirishi zarur. Bunga mos bo'lgan psixologik metodlar mavjuddir.

3. Psixolog – bu insonlarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, fikrlarini boshqara oladigan va shunga maxsus o'rgatilgan insondir. U shunga xos bo'lgan texnikalardan foydalana oladi, masalan, gipnoz bilan.

Haqiqatdan ham amaliy psixolog insonlarga ta'sir ko'rastishning ma'lum bir usullaridan foydalana oladi, biroq ular gipnoz bilan

shug‘ullanmaydilar. Gipnoz bilan asosan tibbiyot xodimlari shug‘ullani-shadi, biroq psixologlar ham insonlarni ishontirish uchun bir qator usullardan foydalanishadi. Psixologmijozning ishonchiga kirishda, muammolarini yumshatishda ularni ishlatishlari mumkin. Biroq ular bu usulni ishlatganda mijozga zarar emas, baiki foyda keltirishlari lozim. Psixolog insonning ishonchini qozonib, o‘z foydasi yo‘lida uning psixikasiga ta’sir ko‘rsatishi axloqiy nuqtai nazaridan to‘g‘ri emas. Holbuki, ayrim psixologlar amaliyotida shunday holatlarni kuzatishimiz mumkin.

4. Psixolog – bu o‘zini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham o‘zini boshqara oladigan inson.

O‘zini yaxshi tushunish mumkin emas. Agar inson “men o‘zimni juda yaxshi bilaman” desa adashgan bo‘ladi. Biroq o‘zini tushunish psixologlar uchun xosdir. Amaliy psixolog boshqalarni osonroq va tezroq tushunishini mumkin va shunga asoslanib u mijozga yordam berishi mumkin.

Hayotiy psixologik bilimlar	Ilmiy psixologik bilimlar
Aniq, misollarga boy, ziddiyatlarga boy, ma’lum bir vaziyatga qaratilgan.	Umumlashtirishga moyil, ilmiy tushunchalar ishlatalidi, bunda predmetlarning xususiyatlarini aks ettirish mumkin.
Intuitiv xarakterga ega, xatolar va qayta ko‘rishlar orqali aniqlanadi.	Ratsional, anglangan xarakterga ega. Dastlab, faraz shakllantirilib, so‘ngra ular tekshiriladi.
Tushuntirish qiyin, insonlar tomonidan o‘zlashtirishda murakkabliklar mavjud.	O‘qitish jarayonida tez o‘zlashtirish mumkin, hamma olingan natijalar adabiyotlarda qayd qilinadi.
Asosiy usuli: kuzatish va fikrlash.	Asosiy usullari: kuzatish, suhbat, test, eksperiment, sotsiometrik tahlil, statistik tahlil.
Alovida insonlar guruhining xotirasi bilan cheklanadi.	Ilmiy ma’lumotlarga boy adabiyotlarga ega.
Umumlashtirishda ma’lumotlarning chegaralanganligi yangi vaziyatga o‘tkaza olmasligi bilan bog‘liq.	Ma’lumotlarni umumlashtirish xususiyatiga ega, bilimlarni boshqa yo‘llar bilan uzatish mumkin.

Psixologiya fanlari tizimi va tamoyillari.

Akademik psixologiya psixik ko'rinishlarni, holatlarni va jarayonlarni o'rganadi. U nafaqat insonlarni, balki hayvonlardagi psixik o'zgarishlarni ham o'rganadi.

Tatbiqiyl psixologiya psixologik qonuniyatlarning umumlashmasini, ularning ma'lum bir sohadagi kasbiy faoliyatini o'rganadi.

Amaliy psixologiya psixologik bilimlarning amaliy tomonlarini tahlil qiladi.

	Akademik psixologiya	Tatbiqiyl psixologiya	Amaliy psixologiya
Predmeti	Psixik hayotning barchasi	Inson kasbiy faoliyatini aniqlash jabhasi	Aniq individlar
Funksiyasi	1. Alovida kuzatishlarni umumlashtirish. 2. Nazariy taxmin va farazlarni ilgari surish. 3. Alovida psixik faktlarni bashorat qilish va ularning dinamikasi.	Alovida kuzatishlar asosida umumiy qonuniyatga ega bo'linadi. Amaliy funksiyalarini yechishni o'rganish Inson faoliyatini bashorat qilish.	Insonlar yoki guruuhlar asosida individuallikni anglash. Psixodiagnostik metodlarni, konsultatsiyani, profilaktika va korreksiyani qo'llash. Alovida insonlar yoki guruuh xatti-harakatini bashorat qilish.
Metodlari	Kuzatish, so'rov, test, eksperiment, sotsiometriya, statistik tahlil.	Akademik psixologiyadagilarning barchasi va kasbiy faoliyatni o'rganish.	Akademik psixologiyadagilar ning barchasi va xususiy psixoterapevtik usullar.
Yo'nalishlari	Umumiyl psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, anomal rivojlanish psixologiyasi, shaxs	Pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yuridik psixologiya, iqtisodiy psixologiya, siyosiy psixologiya, mehnat	Psikoanaliz, geshtaltterapiya, NLP, emotiv terapiya va boshqalar

	psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, zoopsixologiya, psixofiziologiya va boshqalar.	psixologiyasi, sport psixologiyasi va boshqalar.	
--	---	--	--

Nazorat savollari:

1. Psixologiya predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlarini ta'riflang.
2. Psixologiya tarixi qanday?
3. Psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rni va boshqa fanlar bilan aloqasi nimalarda ko'rinadi?
4. Ilmiy va hayotiy psixologiya. Psixologlar haqida afsonalar nimalardan iborat?
5. Psixologik fanlar tizimi va tamoyillarini ko'rsating?

2-bob. PSIXIKANING VUJUDGA KELISHI VA EVOLUTSIYASI

Reja:

1. Inson psixikasini umumiy qonuniyatlarini va funksiyalari.
2. Inson psixikasi murakkab tizim sifatida.
3. Evolutsiyada tabiiy tanlanishning o'rni.
4. Psixikani rivojlanish bosqichlari. Xatti-harakat shakllari.
5. Tug'ma va individual xatti-harakat. U.Jeymsning instinktlar nazariyasi.

Inson psixikasini umumiy qonuniyatlarini, tizimi va funksiyalari.

Psixikani o'rganish qator birlamchi tamoyillarga tayanadi, bu tamoyillar tadqiq etilayotgan obyektni mazmunli bayon etish, tajriba ma'lumotlariga ega bo'lish operatsiyalarini rejalashtirish, ularni umumlashtirib, izohlash, shuningdek, ilmiy farazlarni ilgari surib, ularni tekshirish imkonini beradi.

Psixologiyaning asosiy metodli tamoyillari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

1. Determinizm tamoyili. Bu tamoyilga, asosan, barcha mavjudotlar ma'lum sabab, qonuniyatga ko'ra paydo bo'ladi, o'zgaradi va nobud bo'ladi. Psixologik tadqiqotda psixika hayot tarzidan kelib chiqib, mavjudotning turli tashqi sharoitlari ta'sirida o'zgarishini bildiradi.

Hayvonlar psixikasi haqida so'z yuritilganda, uning rivojlanishi biologik qonun sifatidagi tabiiy tanlanish bilan belgilanishini ta'kidlash lozim. Odam psixikasini oladigan bo'lsak, inson ongi kelib chiqishining shakllari va rivojlanishi oxir-oqibat hayot uchun zarur moddiy vositalarni ishlab chiqish usulining rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Determinizm tamoyilidan kelib chiquvchi xulosa sifatida inson ongingin ijtimoiy-tarixiy xususiyatini tushunish xizmat qiladi.

2. Ong va faoliyatning birligi tamoyili. Ong va faoliyat uzviy birlikni tashkil etadi, lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ong faoliyat jarayonida uning ichki rejasini, dasturini hosil qilgan holda shakllanadi. Aynan ongda vogelikning harakatchan ko'rinishlari yuzaga keladi, ular yordamida inson atrof-muhitda o'z yo'nalishini aniqlay oladi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili psixologlarga xulq-atvor, faoliyatni o'rgangan holda, samarali maqsadga muvofiq harakatlarning

ichki psixologik mexanizmlarini aniqlash, ya'ni psixikaning obyektiv qonuniyatlarini olib berish imkonini beradi.

3. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanish tamoyili. Ushbu tamoyil psixika haqida uning faoliyat jarayoni va natijasi sifatida uzlusiz rivojlanishda ko'rib chiqilgandagina to'g'ri tushuncha hosil bo'lishini bildiradi.

Har bir psixik hodisaning tadqiq etilishi shu hodisaning aynan hozirgi vaqtga tegishli bo'lgan xususiyatlarining ta'rifini, yuzaga kelish va shakllanish tarixini, shuningdek, rivojlanish istiqbollarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Inson psixikasi murakkab tizim sifatida

Olimlar inson psixologiyasi va xulq-atvorini o'rganishda ularni bir tomonidan, organizmning biologik tuzilishi va faoliyati nuqtai nazaridan, ikkinchi tomonidan, ijtimoiy rivojlanish qonunlari yordamida tushuntirib berishga harakat qiladilar. Birinchi vaziyatda psixika va xulq-atvorning irlsiyat bilan belgilanadigan tug'ma, anatomiya va fiziologiya bilan bog'liq bo'lgan genotipga tegishli xususiyatlarnamoyon qilinadi va tadqiq etiladi. Bunda psixologlarning tadqiqot predmeti bo'lib inson organizmi faoliyatining tabiiy qonunlari bilan bog'liq ravishda psixikaning rivojlanish jarayoni xizmat qiladi. Ikkinci vaziyatda psixika va odam xulq-atvorining uning jamiyatda tutgan o'rni, bajaradigan ijtimoiy funksiyasi, atrofdagi odamlar bilan turlicha munosabatlari bilan bog'liqligi tadqiq etiladi. Shunday qilib, individual xulq-atvordan tashqari psixologlar, shuningdek, odamlarning shaxslararo munosabatlarini ham o'rganadilar. *Psixikaning rivojlanishi* deb tirik mavjudotlar psixikasining ketma-ketlik bilan taraqqiy etuvchi (garchi tanazzulning ayrim holatlarini namoyon qilsa-da) qaytmas miqdoriy va sifat o'zgarishlariga aytildi.

Psixikani aks ettiruvchi-boshqaruvchi noyob hodisa sifatida tushunish uchun aks ettirish – jismning umumiy xossasi ekanligini e'tiborda tutish lozim.

Yer yuzida hayotning dastlabki belgilari 2-3 milliard yil avval, dastlab asta-sekin murakkablashib borgan kimyoviy, organik birikmalar, so'ngra esa sodda tirik hujayralar ko'rimishida paydo bo'lgan. Ular tiriklikka xos bo'lgan rivojlanish, yaratish va orttirilgan, irlsiyat tomonidan belgilangan xossalarni keyingi avlodga o'tkazish xususiyati bilan bog'liq bo'lgan biologik evolutsiyani boshlab bergenlar.

Ma'lum psixik xususiyatlarga ega bo'lgan tirik mavjudotlarning ko'plab shakllari mavjud.

Tashqi muhit ta'siriga javoban oddiy tanlovchan ta'sirlanish xususiyati tirik jismning sodda shakllarida ham kuzatiladi. Xuddi shu tarzda, bir hujayrali amyoba ba'zi ta'sirotlardan uzoqlashib, boshqalariga yaqinlashadi. Amyobaning harakatlari o'z mohiyatiga ko'ra, sodda organizmlarning tashqi muhitga moslashishining dastlabki shakllari bo'lib hisoblanadi.

Tiriklikning yuzaga kelishi aks ettirishning alohida turi – *qo'zg'aluvchanlik*ning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Qo'zg'aluvchanlik – bu tirik organizmlar (o'simlik va hayvonlar)ning biologik foydali yoki zararli ta'sirlarga nisbatan o'z holatlarini o'zgartirish bilan javob qaytarish xossasi. Qo'zg'aluvchanlik tashqi tomondan tirik organizmning majburiy faolligining namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Organizm rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, yashash muhiti sharoitlarining o'zgarishi holatida organizm faolligining ifodalanishi shunchalik murakkab shaklga ega bo'ladi.

Tirik mavjudotlarda ta'sirlanishning keyingi rivojlanishi murakkab anatomik tuzilishga ega bo'lgan rivojlangan organizmlar yashash sharoitlarining murakkablashuvi bilan yuqori darajada bog'liqidir.

Tirik mavjudotlarning evolutsiya natijasida o'zini takomillashirib borishi bilan ularning organizmlarida o'z zimmasiga rivojlanish, xulq-atvor va yaratish kabilarning boshqaruvi funksiyasini olgan maxsus organ ajralib chiqdi. Bu – *nerv tizimi*. Uning murakkablashishi va takomillashib borishi (boshqa to'qima va organlardan alohida ravishda gangliy tuzilmalarning ajralishi va bo'linishi, bosh va orqa miyaning tarkib topishi, avval qadimiy, so'ngra eski va yangi bosh miya po'stlog'ining paydo bo'lishi va rivojlanishi, MNT va tananing boshqa organlari o'rtasidagi aloqalarning murakkablashishi) jarayonida xulq-atvor shakllarining rivojlanishi sodir bo'ldi va hayotiy faoliyatning psixik boshqarish darajalarining qatlamlari: sezgilar, qabul qilish, xotira, tasavvurlar, tafakkur, ong, reflekslar yuzaga keldi.

Nerv tizimi tuzilishi va funksiyalarining takomillashishi psixikaning rivojlanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Shu asnoda evolutsiya rivojlanishi natijasida hayvonlar organizmlari faqatgina biologik muhim ta'sirotlardan ta'sirlanmasdan, balki, o'z-o'zidan indifferent bo'lgan, biologik jihatdan muhim bo'lmasada, xabar berish ahamiyatiga ega bo'lgan ta'sirotlardan ta'sirlana boshladilar. Voqelikda muhim hayotiy hodisalar haqida xabar beruvchi biologik

indifferent ta'sirotlar aks etsalar, voqelikni aks ettirishning bunday shakli **sezgirlik** deb ataladi. Xuddi mana shu psixikaning o'zi bo'ladi. Sezgirlik sezgilarga nisbatan umumiy qobiliyatni ifodalaydi. A.N.Leontevning tasdiqlashiga ko'ra, hayvonlarda sezgirlikning yuzaga kelishi psixika paydo bo'lishining obyektiv biologik belgisi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Keyinchalik tirik mavjudotlarda organik jismning rivojlanish jarayonida asta-sekin psixikaning asosiy xossalardan biri – olamdag'i voqelikni yaxlitligicha va ilgarilab ketib aks ettirish shakllanadi. Bu evolutsiya jarayonida yuqori rivojlangan psixikaga ega bo'lgan hayvonlarda atrof-olam haqida axborot qabul qilish, uni tahlil qilib, biologik jihatdan muhim va neytral xususiyatli barcha o'rab turgan obyektlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan ta'sirlarga javoban harakat namoyon qilish layoqati mavjudligini bildiradi.

Ma'lum sinfga tegishli hayvonlarda sezgilarning paydo bo'lishi faqat psixikaning bunyodga kelishi sifatida emas, balki, tashqi muhitga moslashishning umuman yangi ko'rinishi sifatida ham o'rganilishi mumkin. Moslashish ushbu ko'rinishining asosiy farqi hayvonlarni muhit bilan bog'lovchi – xulq-atvor jarayonlari kabi alohida hodisalarning yuzaga kelishidan iborat.

Xulq-atvor – bu tirik organizmning tashqi muhit ta'sirlariga javoban yuzaga keladigan murakkab reaksiyalar majmuasi hisoblanadi. Tirik mavjudotlar psixikasi rivojlanganligining darajasiga ko'ra, murakkabligi turlicha bo'lgan xulq-atvorga ega ekanliklarini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Xulq-atvorning sodda reaksiyalarini, masalan, chuvalchangning to'siqqa duch kelganida, o'z harakat yo'nalishini o'zgartirishini kuzatganimizda ko'rishimiz mumkin. Bunda tirik mavjudotning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, xulq-atvori ham shunchalik murakkablashadi. Xuddi shunday holatni itlarda ilgarilangan aks ettirishning namoyon bo'lishini kuzatamiz. Masalan, it ma'lum tahdidga ega bo'lgan obyekt bilan to'qnashishdan o'zini olib qochadi. Lekin odamda tashqi muhit sharoitlarining to'satdan o'zgarib qolishiga javoban ta'sirlanish bilan birga, hayvonlardan farqli o'laroq, motivatsiyalangan (anglangan) va maqsadli xulq-atvorni shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lgan eng murakkab xulq-atvor kuzatiladi. Bunday murakkab xulq-atvorning amalga oshirilish imkoniyati odamda ongning mavjudligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar asosida, tirik organizmlar psixikasi rivojlanganligining to'rt asosiy darajasini ajratish mumkin, bular:

qo‘zg‘aluvchanlik, sezuvchanlik (his-tuyg‘ular), yuqori tuzilgan hayvonlarning xulq-atvori (tashqi namoyon bo‘lgan xulq-atvor), inson ongi (sababiy xulq-atvor)dir. Ushbu darajalarning har biri o‘z rivojlanish bosqichlariga ega ekanliklarini ta’kidlab o‘tish zarur. Psixika rivojlanishining yuqori darajasi faqat insonga xosdir.

Evolutsiyada tabiiy tanlanishning o‘rnai

Hayvonlar psixikasi taraqqiyotini o‘rganuvchi ushbu yondashuvdan tashqari boshqa yondashuvlar ham mavjud. Masalan, fransiyalik biolog-olim, birinchilar qatorida sinantrop odamning qoldiqlarini aniqlagan tadqiqotchi-antropolog va taraqqiyarvar arbob Per Teyyar de Sharden ushbu muammoni o‘rganishga idealizm nuqtai nazaridan yondashadi.

Bunda Teyyar de Sharden olamda ideal asosning abadiy mavjudligi, uning moddiy asos bilan uyg‘un ravishda taraqqiy etishi qoidaligiga tayanib ish ko‘radi.

U psixik manbalarni, «ruhiy quvvat» tushunchasini jismning «ichki tomoni» bilan tenglashtirgan holda ko‘radi va uning vujudga kelish tarixini «boshlang‘ich hayot» deb nomlanuvchi qadim zamonalarga taqaydi. Ruhiy quvvat jismoniy quvvat bilan uyg‘unlashgan holda unga qarshilik ko‘rsatadi. U rivojlanishda moddiy dunyoning xilma-xilligini hosil qiluvchi jismoniy quvvatdan farq qilib, o‘z taraqqiyot yo‘lida sodda hayvonlardan tortib, odamgacha bo‘lgan tirik mavjudotlarga xos psixologik hodisalarning turli-tumanligini yuzaga keltiradi. Teyyar de Shardenning yozishicha: «Ikkala – jismoniy va ruhiy quvvatlar mos ravishda dunyoning tashqi va ichki tomonlarida ... o‘zaro muntazam birlashgan holatda bo‘ladi va ba‘zi hollarda bir-biriga o‘tib turadi».

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, birinchidan, moslashish vositalari va darajalari hayvonlar psixikasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, hayvonlar psixikasi rivojlanishining jismlarni idrok qilish bosqichida turgan eng yuqori darajasi hayvonlarning boshlang‘ich idrokli xulq-atvori haqida fikr yuritish imkonini beradi. Lekin hayvonlar xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyati, asosan, o‘zining biologik ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Hayvonot dunyosida psixika rivojlanishi insondagi kabi ong darajasiga o‘tmasdan, idrokli xulq-atvor darajasida tugaydi.

Psixikaning inson darajasidagi keyingi rivojlanishi xotira, nutq, tafakkur va ong hisobidan faoliyatning murakkablashishi va atrof-olamni tadqiq etish vositasi sifatidagi mehnat qurollarining takomillashishi, shuningdek, belgi tizimlarining kashf etilishi va keng

qo'llanilishi evaziga amalga oshdi. Odamda tabiat tomonidan berilgan psixik jarayonlarning tuban tashkiliy darajalari bilan bir qatorda yuqori darajalari ham yuzaga keladi.

Inson psixik tarraqqiyotining jadallahishiga insoniyat erishgan uchta asosiy yutuq ko'mak berdi. Bular: mehnat qurollarining kashf etilishi, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarining ishlab chiqarilishi hamda til va nutqning paydo bo'lishi. Inson mehnat qurollari yordamida tabiatga ta'sir ko'rsatish va uni chuqurroq bilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'z navbatida, qurollarni va ular yordamida bajariladigan mehnat funksiyalarini takomillashtirish qo'l yordamida bajariladigan funksiyalarning o'zgarishiga va yaxshilanishiga olib keldi, buning evaziga qo'l vaqt o'tishi bilan ish qurollari orasida eng nozik va aniq qurolga aylandi. Qo'l misolida inson ko'zi voqelikni bilishni o'rgangan, uning yordamida tafakkur taraqqiy etib, inson ruhining asosiy ijod namunalari yaratilgan. Olam haqidagi bilimlarning kengayib borishi bilan inson imkoniyatlari ham oshdi, u tabiatdan mustaqil bo'lish va o'z tabiatini (psixika va xulq-atvorni) ongli ravishda o'zgartirish layoqatini egallab bordi.

Avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari bejiz ketmaydi, ular avloddan-avlodga o'tib, qayta ishlaniib, takomillashib boradi. Insonlarning yangi avodi uchun ularni yangitdan kashf etish zaruriyati tug'ilmadidi, ulardan foydalanishni bunday mahoratga ega odamlar yordamida o'rganib olishning o'zi kifoya edi.

Layoqat, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni irsiyat orqali o'tkazilish mexanizmi o'zgardi. Endilikda psixologik va xulq-atvor shakllanishida yangi pog'onaga ko'tarilish uchun organizm ichki tuzilishi va unda kechadigan jarayonlarni, irsiy axborotni o'zgartirish imkoniyatlari olimlar tomonidan o'rganilmoqda.

Psixikaning rivojlanish bosqichlari. Xatti-harakat shakllari

Uzoq vaqtlar davomida psixologiya tabiiy, ijtimoiy fanlardan ajratilib o'rganiladigan ilm sohasi sifatida qaralgan. Buning asosiy sababi shundaki, o'sha paytlarda psixologiya, inson ruhi idealistik nuqtai nazaridan talqin etilgan. Psixologiya oldida turgan asosiy funksiya, asosan, inson ichki olamini o'rganish bo'lib, bu ichki olamga tashqi dunyoga aloqasiz ravishda organizm ichida paydo bo'ladigan ichkarida kechadigan jarayonlar, holatlar sifatida talqin etilgan. Masalan, R.Dekartning ta'kidlashicha, insonning o'zini o'zi anglashi uning ruhiy

hayotiga xos bo'lgan narsa bo'lib barcha psixik kechinmalarning murakkabligi faqat ana shu ichki jarayonlargagina bog'liqdir.

O'tgan asrda ana shu ichki olamni tashqi olamga qarshi qo'yib, uni ajratgan holda talqin etish g'oyalariga qarshi kurash avj olib ketgan edi bundan 100 yilcha muqaddam I.M.Sechenov tomonidan his etiladigan va amalga oshiriladigan psixologik faoliyatlarning o'rganishi kerak deb aytadi.

I.M.Sechenov tomonidan taklif qilingan reflektor nazariya konsepsiysi dualizm qarashlarini psixik hayotga tadbiq etish bo'yicha birinchi ilmiy qarash bo'lмаган.

Psixologiyani tabiat va jamiyat haqidagi fan sifatida joriy qilish sobiq sovet psixologlarining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan.

Chet el psixologlarining ishida psixologiya ichki dunyo haqidagi fan sifatida emas, balki tashqi ko'rinishlar haqidagi fan deb hisoblangan. Psixologiyani ruhiy hayotning o'ziga xosligi haqida emas, balki hayot faoliyatining uzoq muddat rivojlanishi natijasi sifatida unda organizmning atrof-muhit bilan faol o'zaro aloqaga kirishadi, u o'z o'rnini topishga intiladi. Bunday aks ettirish jarayonida, atrof-muhitning ta'siri ostida miyada psixik jarayonlar vujudga keladi. Bu holat esa psixikaning ichki dunyo haqidagi fan tushunchasini yo'qotgan va buning natijasida evolutsion rivojlanish vujudga keladi. Psixik jarayonlar shu tariqa o'rganish obyekti bo'lib qolgan.

Chet el psixologlarining fikriga ko'ra, psixika hayot faoliyatida vujudga kelmay, balki organizmning hayot faoliyatini ma'lum shart-sharoitlarda vujudga keltiradi. Masalan, notirk tabiatda alohida buyumlarning o'zaro aloqasi mavjud. Biroq bunday aloqalar ularning yashashi uchun sharoit hisoblanmaydi qoya suvdan mustaqil ravishda bo'lishi mumkin, suv qirg'oqdan mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, kerosinda mavjud bo'lgan kakliy ochiq havoga qo'yilganda uchib ketishi mumkin. Yerning rivojlanishi jarayonida juda murakkab qo'shilishlar vujudga kelgan. Bu katta molekulalar konservatlar deb atalgan. Ularning asosiy xususiyatlari ularning qismlarga tez ajrala oladilar, chunki modda almashinuvি ko'proq bo'lar ekan. Bu molekulalar yangi moddalarni qabul qilib, o'zlashtirishi tashqi olam maxsulotlarini sochishi kerak. Shu tariqa o'sha katta molekulalar atrof-muhitda moddalar almashinuvি uchun kerak. Moddalar almashinuvি passiv jarayon hisoblanmaydi. U oqsil molekulalarning hayotiy faoliyat jarayonini amalga oshiradi. Shu tariqa tirik hayot vujudga keladi. Bu hayotda mayda organizmlar vujudga keladi. Bu to'qimalarning

mavjudligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular moddalarga qo'zg'ovchilarni har doim topa oladilar. Shu darajada ham tirik moddalarda ehtiyojlar paydo bo'la boshlagan. Hamma tashqi olam ko'rinishidan hayotni qo'llash uchun biotik ta'sir va mavjud bo'lman abiotik ta'sir mavjud edi. Agar biz hayot evolutsiyasini diqqat bilan kuzatsak, ularni ma'lum bir bosqichlarga ajratishimiz mumkin. Birinchi bosqich – bu o'simliklar olami. Bu shakl evolutsiyaning hamma bosqichlarida uchraydi. Sodda bir to'qimali suv o'tlaridan tortib, to zamonaviy o'simliklarga qadar.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'simliklar olamining o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ma'lum bir joyga bog'langanlar, harakat qilmaydilar. O'simliklar olami ma'lum bir moddalar almashinuvida to'xtaydi. O'simliklarning hayot faoliyati 1 biotik omillarga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'simliklar ma'lum bir sharoitlarga nisbatan sezuvchan bo'lib qoladilar. Demak, o'simliklar ham o'z ehtiyojlariga egadirlar. O'simliklar ularga ta'sir qilagan omillarga nisbatan ta'sirlarga javob berish xususiyatlariiga egadirlar. O'simliklar ma'lum bir hududga bog'langandirlar, undan ortiqcha harakat qilmaydilar. O'simliklar yorug'likka, haroratga, kimyoviy ta'sirlarga nisbatan ta'sir berish xususiyatlariiga egadirlar. Bunday harakatlar *tropizmlar* deb ataladi.

Tropizmlar fototropizm (yorug'likka javob), termotropizm (haroratga), geotropizm (yer markaziga intilishi), xemotropizm (kimyoviy ta'sirlarga)larga bo'linadi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tropizmlar ijobjiy (taassurot kelgan yo'nalishga qarab intilish) yoki salbiy (zararli taassurotlarga intilish) xarakterga ega bo'lishi mumkin.

O'simliklar dunyosidan farq qiluvchi bosqich bu hayvonot olami hisoblanadi. Hayvonot olamining o'simliklar dunyosidan farqlanuvchi xususiyatlari – bu hayvonlarda harakatning mavjudligidir. Bu ba'zida etarli hisoblanmaydi, chunki ba'zi bir o'simliklar harakatlanish xususiyatlariiga egadirlar. Masalan, kungaboqar yoki pashsha yutuvchi o'simlik, kungaboqar quyoshga qarab harakatlansa, pashsha yutuvchi pashshalarga qarab harakatlanadi. Lekin bunday harakatlar hayvonlarning xatti-harakatlaridan farqlanadi. Hayvonlarning harakati faol xarakterga ega. O'simliklar dunyosidan hayvonot dunyosiga o'tishdagi yangilik bu hayvonlarda yangi qo'zg'atuvchining ko'rinishi vujudga kelishidir. Hattoki eng sodda tuzilgan hayvonlar ham biotik qo'zg'atuvchilarni paydo bo'lishini namoyon qilishlari mumkin. Bu

A.N.Leontev talqiniga ko'ra, sezuvchanlik deb nomlangan. Hayvonlarda sezuvchanlikning paydo bo'lishi yangi xususiyatlardan biri hisoblanadi va bu esa yangi organizmlarni vujudga keltiradi, bu holat esa psixikaning vujudga kelishining asosiy omili hisoblanadi.

Tug'ma va individual xatti-harakat. U.Jeymsning instinktlar nazariyasi

Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra instinktlar bu ongdagi maqsadlarning yo'qligida hayvonlarning maqsadli xatti-harakatidir. Demak, instinkt bu nasldan naslga hech qanday o'zgarishsiz o'tadigan tug'ma xatti-harakat shaklsidir. Bu xatti-harakat shakli umurtqasizlarning hayotida etakchi ahamiyat kasb etadi, Masalan, qumursqlarda bu xatti-harakat shaklsi asosiydir, quyi darajada rivojlangan umurtqalilarda ham instinktlar etakchi o'rinni egallaydi faqat asta-sekinlik bilan individual o'zgaruvchan xatti-harakatlarga o'rinni bo'shata boshlaydi. Agar yomg'ir chuvalchangini bosh gangliyasini olib tashlaganda u harakat qilishi ma'lum. Yomg'ir chuvalchangi o'yini qishda issiq tutishi uchun va oziqlanishi uchun uyiga daraxt bargini olib kirar ekan. Tadqiqotchilar shuni kuzatishdiki yomg'ir chuvalchangi bargni oxiridan tortib uyiga olib kirar ekan. Bu xatti-harakatni ko'rganlar u aqlii xatti-harakat qilayapti degan fikrga borishlari mumkin. Shuning uchun ham olimlar uni ustidan tadqiqot o'tkazib chuvalchanglarning harakatini kuzatganlar. Ular chuvalchangda shaklni idrok qilish shaklsi bormi yoki yo'qligini kuzatganlar. Ular bargning shakliga o'xshash shaklni bargdan kesib olganlar, bargni asosi hisoblangan barg shakli hozirda oxiri hisoblana boshlagan, shunda chuvalchang oxiri hisoblangan tomonidan uyiga torta boshlagan. Demak, chuvalchang boshqa omillar orqali xatti-harakatini boshqarishi ma'lum bo'lgan. Demak, chuvalchanglar ma'lum bir tug'ma xatti-harakatni amalga oshirishini kuzatishimiz mumkin. Bu xatti-harakat shakllarining murakkabligi nimadan iboratligini kuzatganimizda, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki evolutsiya jarayonida qandaydir noma'lum yo'llar bilan hayvonlarning yashashi uchun shart-sharoit yaratiladi, bunda ularning tana shakllari, yashash sharoitlari hisobga olinadi. Kapalak yoki pashshaning qanoti uchish uchun eng maqbul asbob hisoblanadi. Asalarining tumshug'i esa asal yig'ish uchun eng maqbulidir. Har bir qumursqlarning xatti-harakati yashash uchun eng maqbul holtdardan biri hisoblanadi. Darvining fikriga ko'ra bu evolutsiyaning natijasida, tabiiy tanlanish vaqtida vujudga kelgan hisoblanadi. Ularning nasl

qoldirishga bo‘lgan xatti-harakatida ham instinkt shakllarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, chivinlar o‘z tuxumlarini suvgaga qo‘yadilar, agar ular quruq joyga tuxumlarini qo‘ysalar tuxumlar nobud bo‘lishlari mumkindir. Ipak qurti o‘z ipagini katta qilib o‘raydi, chunki bunda uning kapalagi o‘sha joyda harakatlana olishi kerakdir. Oddiy ari tuxumini chuvalchangga qo‘yadi bunda u chuvalchangni etakchi gangliyasini zararlab, tuximini qo‘yadi. Bu holatda chuvalchang halok bo‘lmaydi, balki arining bolasiga yem bo‘ladi. Bunday murakkab xatti-harakatlar o‘zining maqsadliligi jihatidan hayron qoldiradi. Asalarining in qurishi ham juda murakkab hisoblanadi, u xuddi arxitektor kabi hamma qismlarni hisobga olgan holda in qurgandek ko‘rinadi. Masalan, baliqlar, qushlar ma’lum bir hududda yashab ikkinchi hududga qishlash uchun keladilar. Bu holatda murakkab xatti-harakat shakllari programmalashtirilgan hisoblanadi. Instinktni to‘rt asosiy xususiyatini ajratishimiz mumkin, bular quyidagilardir: nasliylik, o‘qitishdan mustaqillik, bixillik, bir tomonlamalikdir.¹

Masalan, asalarilar 140 ga yaqin hidrlarni ajratish xususiyatiga egadirlar. Asallarilar to‘lqinlarni ham tez va oson ajrata oladilar. Inson tebranishlar chastotasini sekundiga 20 dan 20 mingga yaqinini ajratadi, qumursqalar esa faqat ultrazvuk tebranishlariga javob beradi. Qumursqalarda yana ko‘rishi yaxshi rivojlangan. Ularning ko‘zlarini umurtqalilardan farqli ravishda bir necha ming alohida bo‘limchalardan iboratdir. Demak, qumursqalarda yuqori darajada rivojlangan umurtqalilalar kabi hamma sezgi organlari mavjuddir. Ularda qo‘zg‘alish aynan shu organlarda paydo bo‘ladi va so‘ngra oldingi gangliyaga etkaziladi. Oldingi gangliyada uchta turli xil qismlar mavjuddir: oldingi qism ko‘rish retseptoring tolalari boradi, o‘rta qism hid bilish retseptorlari boradi va orqa qism og‘iz qismining retseptorlari boradi. Shu tariqa asalarilarda oldingi gangliyasi tasniflangan hisoblanadi, ularni esa umurtqalilar miyasi bilan ham solishtirish mumkindir. Asalarilarning gangliyasi chuvalchanglarnikiga o‘xshamagan tarzda tuzilgan, ularning gangliyalari tartiblangan tarzda tuzilgandir. Bu xatti-harakatlar yorug‘lik signallariga javob berishga mo‘ljallangandir. Asalarining oldingi gangliyasi kelgan ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatiga egadir, bular murakkab xatti-harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Har bir xatti-harakatlar instinctiv darajada tuzilganligi sababli ulardagi ma’lum

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition, The University of Texas at Austin, 2008. - p. 27.

o'zgarishlarga hayvonlar javob berishmasligi mumkin. Instinktiv xatti-harakatning besh xil turi mavjud: 1) oziqlanish, 2) nasl qoldirish, 3) naslga g'amxo'rlik, 4) himoyalanish, 5) in qurish va gala bo'lib yashash. Har bir xatti-harakatlar shu instinktlar asosida amalga oshiriladi. Ular murakkab holatlarga duch kelsalar instinktlar chegarasidan chiqib keta olmaydilar. Masalan, o'rgimchak to'riga pashsha tushganini vibratsiya orqali sezadi va ozuqaga intiladi. Agar iniga boshqa narsa tushsa ham unga intiladi, chivin suvgaga tuxum qo'yadi, lekin oynani ko'rsa ham tuxum qo'yishi mumkindir.

Nazorat savollari

1. Determinizm tamoyili nimani anglatadi?
2. Ong va birlik tamoyilini vujudga kelishiga sabablarni ko'rsating?
3. Inson psixikasini tizimi nimalardan iborat?
4. Tabiiy tanlanishda nimalar sabab bo'ladi?
5. Inson psixikasini rivojlanishi nimalarga bog'liq?

3-bob. TABIIY VA JINSIY TANLANISH NAZARIYALARI

Reja:

1. "Evolutsiya" tushunchasi tabiiy tanlanish nazariyasini kelib chiqish shartlari.
2. Evolutsion nazariyaning asosiy shartlari, tabiiy tanlanish natijalari
3. Evolutsion nazariyaning mazmuni
4. Jinsiy tanlanish nazariyalari
5. "Evolutsiya" tushunchasi tabiiy tanlanish nazariyasini kelib chiqish shartlari.

Evolutsion nazariyaning asoschisi bo'lmish CH.Darvin 1809-yili 12-fevralda Angliyaning Shryusberi shahrida shifokor oilasida tavallud topdi. U mактабни tugatgach, Edinburg universitetining shifokorlar tayyorlaydigan fakultetiga o'qishga kirdi. Biroq ko'pgina tibbiyat fanlarining lotin tilida o'qitilishi hamda bemorlarni narkozsiz operatsiya qilinishi Darvinda tibbiyatga nisbatan hech qanday qiziqish uyg'otmadи. Shu sababli, u universitetni tashlab otasining tavsiyasiga ko'ra Kembridj universitetining cherkov xodimlari tayyorlaydigan fakultetiga o'qishga kirdi. Bu yerda Darvin diniy aqidalar bilan unchalik shug'ullanmasdan professorlar D.Guker va A.Sedjvik rahbarligida tabiiy fanlar bilan shug'ullandi va tabiatga uyushtirilgan ekspeditsiyalarda faol qatnashdi. 1831-yili universitetni tamomlasa ham cherkov xodimi bo'lib ishlamadi. Yosh Darvinniн tabiiy fanlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqining zo'tligi va tabiat qo'ynda kuzatish ishlari olib borish mahoratidan xabardor bo'lgan prof. Genslo uni dunyo safariga otlanayotgan "Bigl" (Iskovich) kemasiga tabiiyotshunos sifatida qabul qilinishiga tavsiya berdi. Mazkur kemaning tabiatshunosi sifatida Darvin besh yil mobaynida Atlantika, Tinch va Hind okeanlarida, ko'pgina orollarda, Janubiy Amerikaning sharqiy va g'arbiy qirg'oqlarida, Avstraliya, Afrikaning janubiy o'lkalarida bo'ldi va u erlarda qadimgi davrlarda va hozirgi vaqtida tarqalgan o'simlik va hayvonlar bilan tanishdi. U ilgari vaqlarda o'lib ketgan va hozir yashayotgan hayvonlar o'rтasida juda ko'п o'xshashlik va farqlar borligini e'tirof etdi. U Shimoliy va Janubiy Amerika hayvonlarini o'zarо taqqoslab, Janubiy Amerikada lama, tapir, yalqov, chumolixo'r, zirxli hayvonlar borligini, ular Shimoliy Amerikada uchramasligini aniqladi. Darvinniн uqtirishicha qadimgi davrlarda bu ikki qit'a yagona bo'lgan. Keyinchalik Meksika tog'lari

tufayli yagona qit'a ikkiga bo'lingan. Natijada ularning hayvonot va o'simlik olamida farqlar paydo bo'lgan. Darvinni, ayniqsa, Janubiy Amerikaning g'arbiy qirg'og'idan 900 km uzoqlikdagi Galapagos arxipelagining hayvonot va o'simliklar olami hayratga soladi. U erda qushlar, sudralib yuruvchilar ko'p uchraydi. Chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi vyuroklar, sudraluvchilardan toshbaqalarni har bir oroldagi xillari o'ziga xos tuzilishga ega. Umuman olganda, Galopogoss arxipelagining hayvonot va o'simliklar olami Janubiy Amerika hayvon va o'simliklariga o'xshash. Lekin ayrim belgi, xossalari bo'yicha farq qiladi.

Darvin besh yillik safardan juda boy kolleksiya, gerbariy va qotirilgan, fissirlangan hayvon va o'simliklar bilan qaytdi. Bu safar unga organik olam evolutsiyasi haqidagi ta'limot uchun asos bo'lgan dalillarni to'plash imkonini yaratdi va uning kelajagini belgilab berdi.

Darvin dunyo safaridan qaytgach, to'plangan materiallar ustida Angliyaning ko'zga ko'ringan tabiiyotshunos olimlari bilan hamkorlikda shug'ullana boshladи. Shu bilan bir qatorda yangi hayvon zotlari, o'simlik navlarini chiqarish tajribasini o'rgandi. Ilgari o'tgan va o'zi bilan tengdosh olimlarning asarlari bilan tanisha boshladи. Shularga asoslanib, u organik olam evolutsiyasi haqida dastlab 1842-yili ilmiy asar yozdi va uni yana 15 yil davomida kengaytirdi, chuqurlashtirdi, ishonchli dalillar bilan asosladi. Nihoyat 1859-yili "Turlarning paydo bo'lishi" degan mashhur asarini nashr ettirdi. U yana bir necha asarlar yozdi. Ulardan "Xonakilashtirilgan hayvon, madaniy o'simliklarning o'zgaruvchanligi" (1868), "Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish" (1871), "O'simliklar olamida chetdan va o'z-o'zidan changlanishning ta'siri" (1876) kabilarni e'tirof etish mumkin. Bu asarlarda olim organik olam evolutsiyasining harakatlantiruvchi kuchlari: irsiyat, o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash va tabiiy tanlanish ekanligini e'tirof etdi.

Ch.Darvin 1859-yili yozgan "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi"¹ va 1971-yili nashrnga chiqqan "Odamning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish" asarida organik dunyoning evolutsion taraqqiyotining asosida uchta omil yotadi deb ko'rsatadi. Ular o'zgaruvchanlik, irsiyat va tabiiy tanlanish. O'zgaruvchanlik tufayli organizmlarning tuzilishi va funksiyalarida yangi belgililar paydo bo'ladi, irsiyat esa bu o'zgarishlarni mustahkamlaydi, tabiiy tanlanish tufayli yashash uchun kúrash jarayonida hayotning o'zgargan muhitiga

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. - p. 145.

moslasha olmagan organizmlar yo'qolib boradi, moslasha olganlari esa yashashini, taraqqiyotini davom ettiradi. Shunday qilib Charlz Darwin organik dunyo evolutsiyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchlarini topdi. Lekin insonning vujudga kelishidagi sotsial omillarni ko'rsatib bera olmadi. Bu jihatlar antroposotsiogen konsepsiysi tarafdarlari tomonidan takomillashtirildi. Bu konsepsiya tarafdarlari odamning paydo bo'lishida mehnatning konstruktiv rolini ko'rsatib berishdi. Ularning fikricha, qo'lning, nutqning, miyaning, tafakkurning rivojlanishida, kishilarning o'zaro hamkorligi va sotsial jamoalarning vujudga kelishida mehnat faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Chunki mehnat qilish jarayonida odamlarda mehnat qurollarini takomillashtirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Odamlar mehnat qurollarini takomillashtirish jarayonida o'zlarini ham takomillashtirib borgan. Bu jarayon ham tabiiy tanlanish bilan chambarchas bog'langandir. Yangi va samarador, qulay mehnat qurollari esa eskirgan, samaradorligi kam, noqulay mehnat qurollarini siqib chiqaravergan.

Darvin nazariyasini kurashchan materializm va ateizm targ'iboti uchun, g'oyaning haqqoniyligini isbotlovchi nazariya deb, uni g'oyaviy qurol sifatida ishlatishga intildi. Aslida bu konsepsiya maskuradan xoli bo'lgan, organik dunyoning evolutsion taraqqiyotini aks ettiruvchi tabiiy-ilmiy nazariya edi.

Odamning paydo bo'lishi haqida turli xil boshqa konsepsiylar ham mavjud bo'lib, ular kreatsionistik (teistik) antropologiya nazariyasi, genetik populyasiyali evolutsion nazariya, mutatsiyali evolutsion nazariya, sintetik evolutsion nazariya, saltatsionistik (hayotning vujudga kelishini sakrashlar tarzida aks ettiruvchi) evolutsion konsepsiya, neokatastrofizm konsepsiylari hisoblanadi. Bu nazariy konsepsiyalarda ham insonning paydo bo'lishiga turli rakurslardan yondashilgan. Bu konsepsiyalarning mualliflari Ch.Darvinni konsepsiyasini turli tarafdan rad etishga intilishgan. Lekin Ch.Darvinni evolutsion nazariyasi organik olam taraqqiyotining umumiyo mexanizmini ochib berishda muhim rol o'ynaydigan fundamental asoslarga ega bo'lgan haqqoniy tabiiy-ilmiy konsepsiyadir. Bu konsepsiya tolerant yondashib, unga hozirgi zamon sinergetik taraqqiyot metodologiyasini tadbiq etsak, organik dunyoning evolutsiyasini chiziqli rivojlanish tarzida emas, balki o'zini-o'zi sozlovchi, o'zini-o'zi takomillashtiruvchi, nochiziqli rivojlanuvchi sistema sifatida yondashsak, bu konsepsiyaning qadri yanada oshadi va shunda evolutsion konsepsiyaning o'ta murakkab hislatlarini ham to'g'ri anglab etish imkoniyati vujudga keladi.

Bu konsepsiya hali tabiatshunoslikda kreatsionistik konsepsiya, teistik konsepsiya hukmronlik qilib turgan bir sharoitda, masalalarga murakkab tizim nuqtai nazaridan qarash hali rasmga kirmagan bir sharoitda ishlab chiqilgan edi. Shu sababli bu nazariyaning qiyomiga etmagan jihatlari ham bo'lgan. Masalan, Ch.Darvin organik dunyoning evolutsion taraqqiyoti zanjiri ketma-ketligiga nazar tashlab, odam va maymunlarning ajdodlari bir ekanligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Aynan shu g'oya ruhoniylarni g'azablantirgan. Aslida, u barcha jonivorlarning, jumladan insonlar va maymunlarning kelib chiqishi, yaratilishining ildizi borib-borib bir nuqtada birlashadi deyishi ham mumkin edi. Ammo ilmiy haqiqatlar quruq e'tiqodgagina, noma'lum, mavhum dalillargagina asoslanib ilgari surilmaydi. Mavjud ilmiy dalillar esa odam va maymun organizmining bir-biriga juda yaqinligini, ularning ajdodlari ham tobora bir-biriga yaqinlashib borganligini isbotlaydi. Ch.Darvin ana shu haqiqatni isbotlovchi ilmiy dalillarni to'play olgandi. Ch.Darvin ilgari surgan bu nazariya rivojlanishning evolutsion yo'lini ifodalab beruvchi, muhim ratsional fikr bo'lib, bu fikr insoniyatga, uning taraqqiyoti uchun doimo xizmat qiladigan konstruktiv (bunyodkor) mazmunga egadir. Uni inkor etish, insoniyat erishgan ilmiy qadriyatlarga nisbatan notolerant yondashuv va ularni ko'r-ko'rona rad qilish, obro'sizlanirishdir.

Agar bugun evolutsion nazariyaga nisbatan tolerantlikni cheklab qo'ysak, ertaga nisbiylik nazariyasiga, indin esa sinergetikaga, xullas, barcha ilmiy haqiqatlarga nisbatan tolerant yondashuvning inkor etilishiga yo'l ochiladi. Ilmiy nazariyalar olimlarning yillab olib borgan mashaqqatli izlanishlari tufayli vujudga keladi va ular keyingi avlodlar tomonidan sayqallanib, takomillashtirilib boriladi. Darvinnинг evolutsion nazariyasi bugungi kundagi ilg'or metodologik uslublar yordamida yanada takomillashtirish, organik dunyo taraqqiyotining kelajagini bashorat qila oladigan nazariya darajasiga ko'tarish bugungi ilm ahli oldidagi, tabiatshunoslar oldidagi eng mas'uliyatli funksiyalardan biridir. Bu nazariya organik dunyo taraqqiyotini to'g'ri tushuntiruvchi ilmdir. Fan taraqqiyotida Darvinnинг evolutsion nazariysi o'zining mustahkam o'miga egadir, uni siqib chiqarishga bo'lgan har qanday intilishlar fan taraqqiyoti qonuniyatlarini yaxshi bilmaslikdan, yoki bu nazariyaning mohiyatini chuqr anglab etmaganlikdan dalolat beradi.² Boshqa ilmiy nazariyalar singari

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 142.

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 140.

Darvinning evolutsion nazariyasi ham fan tarihida o‘z o‘rniga ega va unga tolerant yondashish lozim.

Jinsiy tanlanish holatlarni tahlil qilish vaqtida biz quyidagi holatlarga duch kelamiz. Erkak yoki ayol bo‘lishidan qat’iy nazar bizning yashash tarzimiz bir-biriga o‘xshashdir, shu sababli bizning ijtimoiy holatlarni idrok qilishimiz deyarli bir xil hisoblanadi.¹

Jinsiy farqlarni tahlil qilganda psixologlar R.Buamaster, K.Kataniz va K.Borg ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tafovutlarni o‘rganishgan. Hozirgi kunda erkaklarga xos bo‘lgan faoliyatlar ayollar tomonidan bajarilishi mumkinligi haqida fikrlarni keltirib o‘tishgan.² Masalan, kim ko‘proq avtomobil haydashga moyil, kim ko‘proq jinsiy mayllar haqida o‘ylaydi, g‘oyalarning boshlovchisi kim degan savollarning barchasiga erkaklar degan javob qaytarilgan. VVS tomonidan 200000 ta sinaluvchida 53 mamlakatda tadqiqot ishlari olib borilgan, bunda jinsiy maylni boshlovchilar erkaklar sifatida tan olingan M.Segal (1990).³

Jinsiy farqlar turli xil jins vakillarida turlicha ekanligini kuzatishimiz mumkin. Munosabatlarda gender farqlar, albatta, ularning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Evolutsion nazariyaning asosiy shartlari, tabiiy tanlanish natijalari

O‘zgaruvchanlik tur ichidagi individlarning o‘zaro tafovut qilishidir. Bir turning individlari o‘rtasida kuzatiladigan tafovutlar organizmdagi irlsiy xossalarning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘zgaruvchanlik organizmning tashqi sharoit bilan o‘zaro munosabatini aks ettiradi. Genetik nuqtai nazardan qaraganda, o‘zgaruvchanlik organizmning individual rivojlanishi jarayonida genotipning tashqi sharoit bilan o‘zaro reaksiyasi natijasidir.

Organizmlarning o‘zgaruvchanligi organik olam rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib, sun’iy tanlash bilan tabiiy tanlanish uchun asosiy manbadir.

O‘zgaruvchanlik xillari. Biologiyada irlsiy va noirsiy o‘zgaruvchanlik xillari ma’lum. Noirsiy o‘zgaruvchanlik organizm belgilarining o‘zgarishi bo‘lib, bu o‘zgarish jinsiy ko‘payishda nasldan-nasliga o‘tmaydi. Bunday o‘zgaruvchanlikni Darvin aniq o‘zgaruvchanlik deb atagan edi.

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 146.

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 146.

³ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 146.

Hozir u genetikada modifikatsion yoki fenotopik o'zgaruvchanlik deyiladi.

Irsiy o'zgaruvchanlik genotip bilan bog'liq bo'lganligidan organizmning o'zgargan belgi-xususiyatlari nasdan-naslga o'tadi.

Genlarning kombinatsiyasi va rekombinatsiyasidan vujudga keladigan o'zgaruvchanlik kombinatsion o'zgaruvchanlik deyiladi. Genlar kombinatsiyasi va ularning o'zaro ta'siri irsiy o'zgaruvchanlikni vujudga keltiradi. Genlar kombinatsiyasi ikki jarayon: 1) meyoza xromosonalarning mustaqil tarqalishi va urug'lanishda ularning tasodifan qo'shilishi; 2) xromosomalarning chalkashuvi va genlar rekombinatsiyasi asosida amalga oshadi. Kombinatsion o'zgaruvchanlikda genlar o'zgarmaydi, balki genotipda ularning qo'shilish va o'zaro ta'sir mexanizmigina o'zgaradi.

Irsiy o'zgaruvchanlikning ikkinchi xili mutatsion o'zgaruvchanlik bo'lib, bunda organizmlarning genotipi o'zgaradi. Demak, irsiy o'zgaruvchanlik organizm genotipining, noirsiy o'zgaruvchanlik organizm fenotipining o'zgarishidir. Ushbu bobda modifikatsion va mutatsion o'zgaruvchanlik bilan tanishamiz.¹

Hayotning hujayraviy shakllari. Tirik mavjudotlarning asosiy massasini hujayralar tashkil etadi. Hujayra hayotning hamma asosiy xususiyatlarini o'zida namoyon qiluvchi eng kichik sodda tuzilmadir.

Hujayralar o'z tuzilishiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

Prokariot hujayralar. Prokariot (yunoncha pro – oldin, karion – yadro so'zlaridan olingan) hujayralar eng oddiy tuzilgan bo'lib, qadimiy organizmlardir. Yerda hayot rivojlanishining eng dastlabki bosqichlarida paydo bo'lib, hozirgi davrgacha saqlanib qolgan. Prokariotlarga bakteriyalar va ko'k-yashil suv o'tlari, (sianobakteriyalar) kiradi. Bakteriyalar 0.5 mkm dan 10 mkm gacha bo'lib, tashqi tomonidan qalin qobiq bilan o'rالgan, ba'zilardida esa shilimshiq kapsula bo'lishi mumkin. Qobiq tagida membrana joylashadi.

Prokariotlarda xaqiqiy yadro o'rниga membrana bilan ajratilmagan genofor yoki nukleoid bo'lib, u bitta xalqasimon xromosomadan iborat. Xromosoma tarkibida ikki spiralli DNK molekulasi, juda oz miqdorda oqsil va RNK joylashgandir. Eukariotlardan farqli o'laroq prokariotlar xromosomasida gistonli oqsillar bo'lmaydi. Xromosoma hujayra membaranasiga birkkan bo'ladi. Bakteriyalar bo'linganda DNK yoki RNK ham ikki marta ko'payadi.

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 146.

Prokariotlarda organoidlar rivojlanmagandir. Ularda ichki membranalar yo‘q, uning o‘rniga hujayra membranasining burmalari mavjud. Bu burmalar bakteriyalarda plastidalar va mitokondriyalar funksiyasini bajarishi mumkin. Prokariotlarda 5000 dan 50000 gacha ribosomalar bo‘lib, ular eukariotlarnikidan farq qiladi. Prokariotlarda mitoz kuzatilmaydi. Ular ikkiga bo‘linishi yo‘li bilan ko‘payadi. Bakteriyalarda jinsiy jarayon – konyugatsiya kuzatiladi. Bunda ikki hujayra o‘zaro irlsiy axborot almashinadi. Natijada bakteriyalarning irlsiy o‘zgaruvchanligi ortadi.

Bakteriyalar juda katta ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtida ulardan biotexnologiyada, genetik injeneriyada keng foydalanilmoqda. Bakteriyalardan spirt, sirka kislota, har xil antibiotiklar, fermentlar, biologik aktiv moddalar, oziqbop oqsillar, dori-darmonlar, gormonlar olishda keng foydalanilmoqda.

Inson qadim zamонлардан beri sariyog‘, pishloq, qatiq, sut va non mahsulotlarini tayyorlashda bakteriyalardan foydalanib kelmoqda.

Proktariotlar tabiatda moddalarning davriy almashinishida katta ahamiyatga ega. Ko‘k-yashil suv o‘tlari (sianobakteriyalar) organik moddalarni sintezlashda, bakteriyalar esa minerallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bakteriyalar har xil kasalliklarning ko‘zg‘atuvchilari sifatida odam, hayvon va o‘simliklarga katta zarar etkazadi. Masalan, dizenteriya, qorintifi, vabo, o‘lat va yiringli kasalliklarning ko‘zg‘atuvchilari har xil bakteriyalar hisoblanadi.

Eukariotlar. Bir hujayrali suv o‘tlari va sodda hayvonlardan tortib yuqori tuzilgan gulli o‘simliklar, murakkab hayvonlar va odamlargacha bo‘lgan hamma mavjudotlar eukariot organizmlarni tashkil etadi. Eukariot hujayralar prokariot hujayralarga qaraganda murakkab va xilma-xil tuzilgan. Ularda haqiqiy yadro va organoidlar mavjud. Eukariot yunoncha «eu» – haqiqiy, yaxshi, «karion»-yadro so‘zlaridan olingan. Hujayralar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan: 1) hujayra qobig‘i, 2) sitoplazma, 3) yadro.

Eukariot hujayralarning kattaligi va shakli asosan ular bajaradigan funksiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Ularning o‘rtacha diametri 10 *mkm* dan 100 *mkm* gacha bo‘ladi. Tuxum hujayralar tarkibida oziq moddalar ko‘planganligi uchun ancha yirik bo‘ladi. Tuyaqush tuxumining diametri 150 *mm* gacha boradi. Hujayralarning o‘lchami organizmning kattaligiga bog‘liq emas. Masalan, yirik sut emizuvchilarning qizil qon

tanachalarining diametri 10 *mkm* dan oshmaydi. Organning yoki butun organizmning kattaligi esa hujayralar miqdoriga bog'liqdir.

Evolutsion nazariyaning mazmuni

Biologlarning fikriga ko'ra tabiiy tanlanish jarayonlari hozirgi kunda eng maqbul usullardan biri hisoblanadi. Tabiiy tanlanish jarayonida insonning biologik mayllar ortadi.¹ Tabiiy tanlanish inson munosabatlarga kirish vaqtida o'z xohish irodalarini ko'rsatishga, o'zining ijobjiy hislatlarini namoyon qilishga urinadi, shu sababli insondagi o'zgarishlarni biz boshqacha tahlil qilishimiz ham mumkin. Erkak va ayollarni tabiiy tanlanishga munosabatlari, albatta, turlicha kechadi ayollarda jinsiy munosabatlarga yondashuv nisbiyidir, erkaklarda esa jinsiy munosabatlар xordiq chiqarish usuli sifatida e'tirof etiladi² (Schmitt, 2005, 2007).

Zambiyada nasl qoldirishga moyil bo'lgan ayollar ko'proq qadrlanadi va farzanlari ko'p ayollarni alohida hurmat bilan e'tirof etiladi. Ularning tanasi qanchalik katta bo'lsa, ular shunchalik ulug'lanishi ham ma'lumdir. Turmush qurish vaqtida yoshi katta erkakalar, albatta, yosh ayollar bilan turmush qurishni afzal bilishadi. Ayollar ham o'z vaqtida o'zlaridan bir mucha katta erkaklar bilan turmush qurish istagini bildiradilar. Hozirgi vaqtda ham bu odatlar saqlanib qolgan, faqat ba'zi bir holatlarda ayollar o'zlaridan kichik erkaklar bilan turmush qurishlari mumkin. Bu misollar evolutsion (tadrijiy) yondashuvlar haqida fikrlashga undaydi. Avlodlardan olingan genotiplar albatta saqlanib, kelajak avlodga yetkazib beriladi va shu genlar orqali ba'zi bir xususiyatlar shakllanishi mumkin.³

Organizm genotipining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik mutatsion o'zgaruvchanlik deyiladi, o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan organizm mutant deb ataladi. Mutatsion o'zgaruvchanlik modifikatsion o'zgaruvchanlikdan tubdan farq qiladi, hosil bo'lgan yangi belgi va xususiyatlar (mutatsiyalar) tashqi muhitqanday bo'lishidan qat'i nazar nasldan-nasnga berilaveradi. Mutatsiyalar hosil bo'lishi hujayraning nodir tuzilishi – xromosomalarning o'zgarishiga bog'liq.

Mutatsiya tashqi omillar yoki ichki sabablar ta'sirida hujayraning irsiy tuzilishida yuz beradigan o'zgarish bo'lib, organizmlarda yangi belgi va xususiyatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Boshqacha aytganda,

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 147.

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 147.

³ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 147.

mutatsiya genlarning molekulyar o'zgarishi, genlar miqdorining hamda xromosomalar soni va tuzilishining o'zgarishidir.

Irsiy o'zgaruvchanlik Darvinga ham ma'lum bo'lib, uni noaniq (yoki muayyan) o'zgaruvchanlik deb atagan edi. U bunday o'zgaruvchanlik kuchsiz tafovutlardan to ko'zga tashlanadigan darajada yaqqol va keskin bo'lishi mumkinligini aniklagan. Masalan, 1891-yilda Shimoliy Amerikadagi Massachusetts degan joyda normal qo'ylardan oyoqlari juda kalta qo'zichoqlar tug'ilgan. Bunday keskin o'zgarishlar o'simliklarda ham uchraydi. XVIII va XIX asrlarda Angliyalik bog'bonlar mevali va manzarali o'simliklar shohidagi kurtaklardan morfologik jihatdan asosiy novdalardan keskin farqqiladigan novdalar o'sib chiqqanligini aniqlagan edilar. Ammo Darwin zamonida hali irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini kashf etilmagan, shu sababli o'zgaruvchanlikning turli shakllari urtasidagi tafovutlar anik emas edi. O'zgaruvchanlik shakllari haqidagi masala XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ilmiy asosda ishlab chiqildi.

«Mutatsiya» atamasini fanga gollandiyalik botanik G. Friz kiritgan. U organizm irsiy belgilarining keskin o'zgarishi hodisasini mutatsiya deb atadi. G. Frizning asosiy ta'limoti «Mutatsiya nazariyasi» (1901-1903) degan asarida bayon qilingan bo'lib, hozirgacha o'z mohiyatini saqlab kelmoqda.

Jinsiy tanlanish nazariyaları

Darvin organik olamning evolutsiyasi haqidagi ta'limotni irsiy o'zgarishlarning tabiiy tanlanishiga asoslanib tuzgan edi. U ma'lum bir tomonga yo'nalmagan noaniq o'zgaruvchanlikka katta ahamiyat bergen edi. Darwin noaniq o'zgarishlar deb nom bergen o'zgaruvchanlik hozirgi genetika nuqtai nazaridan mutatsiyalardir.¹ Mutatsiyalar tabiiy tanlanish va seleksiya uchun muhim ahamiyatga ega. Tabiiy tanlanish natijasida turlar o'zgaradi, tevarak, atrof-muhit sharoitiga moslashgan yangi turlar va tur xillari vujudga keladi. Bundan ko'rinish turibdiki, irsiy o'zgaruvchanlikning o'zi tur kelib chiqishiga sabab bo'lmaydi, balki u turlarning rivojlanishida tabiiy tanlanishga boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi. Mutatsiyalar organizmning har qanday morfologik, fiziologik, bioximiayiv belgilarini o'zgartiradi.

Morfologik mutatsiyalar tufayli o'simlik va hayvonlarning o'sish va shakllanish xarakteri o'zgaradi. Masalan, bir qancha chorva mollari (qoramol, qo'y va boshqalarining) kalta oyoqli, hasharotlar qanotsiz va

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. – p. 4.

ko'zsiz bo'lishi, o'simliklar har xil organlarining tuksiz bo'lishi va albinizm hodisalari morfologik mutatsiyaga misoldir.

Fiziologik mutatsiyalar organizmlardagi fiziologik jarayonlarni o'zgartiradi, natijada ularning yashovchanligi ortishi yoki pasayishi mumkin.

Bioximiyyaviy mutatsiyalar tufayli organizmdagi ma'lum ximiyaviy moddalarning sintezlanishi o'zgaradi yoki to'xtaydi. Bunday mutatsiyalar organizmda moddalar almashinishini va uning ximiyaviy tarkibini o'zgartiradi.

Organizm hujayralari rivojlanishining qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, mutatsiyalar istalgan hujayralarda hosil bo'laveradi. Agar jinsiy hujayralarda mutatsiya hosil bo'lsa, generativ mutatsiya, vegetativ (jinssiz) hujayralarda hosil bo'lsa, somatik mutatsiya deyiladi.

Jinsiy hujayralardagi mutatsiyalar navbatdagi bo'g'inning zigota bosqichida namoyon bo'ladi. Agar mutatsiya dominant bo'lsa, birinchi bo'g'in duragayning zigotasida, agar retsessiv bo'lsa, keyingi (F_2F_3 va hokazo) bo'g'inlarda, ya'ni gomozigota holatga o'tish vaqtida hosil bo'ladi.

Somatik mutatsiyalar o'z tabiatiga ko'ra, generativ mutatsiyalardan farq qilmaydi, faqat jinsiy yo'l bilan ko'payadigan organizmlarda uchraydigan somatik mutatsiyalar evolutsiya uchun va seleksiya amaliyoti uchun hech qanday ahamiyatga ega emas. Chunki bunday mutatsiyalar (odam sochida bir to'p oq paydo bo'lishi, bir ko'zning qoraroq, ikkinchisining ochroq bo'lishi, qorako'l terida qora dog'ning paydo bo'lishi va hokazolar) keyingi bo'g'inga o'tmaydi.

Jinssiz yo'l bilan ko'payadigan organizmlardagi somatik mutatsiyalar seleksiya uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, ba'zan o'simlik novdalarida boshqalardan farq qiladigan barg, gul va mevalar paydo bo'ladi. Bunday o'zgaruvchanlik poyaning o'sish nuqtalaridagi meristema to'qima hujayralarining mutatsiyalanishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday kurtak mutatsiyasi (spora) deyiladi, o'simliklar vegetativ yo'l bilan ko'paytirilganda ular saqlanib qoladi. Qizil qoraqat (smorodina) butasida oq mevalar hosil bo'lishi bunga misol bo'ladi.

Kurtak mutatsiyasidan seleksiya amaliyotida keng foydalaniladi. Urug'siz olma, nok, uzum navlari somatik mutatsiya natijasida chiqarilgan. Michurin o'zining «600 grammlı Antonovka» olma navini kurtak mutatsiyasidan foydalanib chiqqagan.

Jinssiz yo'l bilan ko'payadigan organizmlarning somatik mutatsiyasi evolutsiya uchun katta ahamiyatga ega. Ulardagi har bir somatik

mutatsiya yangi belgilarga ega bo'lgan klon avlodini beradi (klon vegetativ yo'l bilan ko'payadigan orgnizmlar avlodidir).

Antropogenez. Odamning paydo bo'lishida biologik omillar katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, biroq ularning o'zining antropogenezni tushuntirish uchun yetarli emas. Bu jarayonda biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy omillar ham muhim rol o'yagan.

Maymunlar birdaniga tik yura boshlagan emaslar, atrof-muhitning o'zgarishi, o'rmon sharoitidan ochiq yerda yashashga o'tish tufayli ayrim maymunlarda paydo bo'lgan mutatsion o'zgaruvchanlik tik yurishga birmuncha layoqatli bo'lish, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish orqali million yillar mobaynida saqlanib, takomillashib borgan. Tik yurish natijasida odamsimon maymumlarning harakatlanish darajasi cheklanib qolgan. Dumg'aza suyaklari birlashib harakatlanmaydigan holga o'tgan. Bu esa tug'ilishni birmuncha qiyinlashtirgan bo'lsa-da, tik yurishga o'tish odamsimon maymunlarda uzoqdan xavf-xatarni ko'ra bilish, quroq ushlashga xizmat qiluvchi qo'llarining ozod bo'lishiga imkon yaratgan. Shu sababli ham Ch.Darvin va F.Engels tik yurish maymumlarni odamga aylanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblaganlar.

Odam shakllana boshlashi jarayonida uning qo'li dastlab yaxshi rivojlanmagan bo'lib, faqat oddiy harakatlarni bajargan, xolos.

Mutatsion o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish tufayli mehnat operatsiyalari uchun foydali bo'lgan qo'llari o'zgargan individlar saqlana borgan. Dastlabki, odamsimon maymunlar tayyor narsalardan quroq sifatida foydalanibgina qolmay, balki ularning o'zlarini taylorlay boshlagunlaricha million yillar kerak bo'lgan. Mehnat qurollarini yasash odam qo'lini tobora maymun qo'lidan farq qilishga olib kelgan va odamning tashqi muhitga bo'lgan tobeligini engillashtirgan. Qisqacha qilib aytganda, odamni mehnat yaratgan.

Maymunning odamga aylanish jarayonida jamoa bo'lib yashash ham muhim kasb etgan. Har qanday quroqla ega bo'lgan ayrim individ yirtqich hayvonlar hujumiga bardosh bera olmas edi. Shu sababli eng qadimgi odamlar jamoa bo'lib yashay boshlaganlar. Shu yo'sinda ular yirtqich hayvonlardan himoyalanganlar, ov qilganlar, yosh bolalarni tarbiyalaganlar. Jamoaning kattalari yosh a'zolarini quroq yasashga, ov qilishi usullariga, olovni saqlashga, yemishli o'simlik va hayvonlarni qidirib topishga o'rgatganlar.

Nazorat savollari

1. "Evolutsiya" tushunchasining tabiiy tanlanish nazariyasini kelib chiqish shartlari.
 2. Evolutsion nazariyaning asosiy shartlari.
 3. Tabiiy tanlanish natijalarini tahlil qilish.
 4. Evolutsion nazariyaning mazmuni.
 5. Jinsiy tanlanish nazariyalari sistemalni yondashuv qilish.

4-bob. EVOLUTSIYA JARAYONIDA SHAXSNING RIVOJLANISHI

Reja:

1. *Shaxs nazariyalarining tarixi.*
2. *Shaxs nazariyalariga zamonaliviy qarashlar.*
3. *Shaxs filogenezi va ontogenezi.*
4. *Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.*

Shaxs nazariyalarining tarixi

Shaxs tushunchasi rus tilidagi “lichnost” so‘zidan to’g’ridan to’g’ri olingan bo‘lib, «yuz», «soxta qiyofa» ma’nolarni anglatadi. Qadimgi rus tilida «soxta qiyofa» so‘zi «rol», ya’ni odam boshqalar bilan muloqotda bo‘lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma’nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha “personae” so‘zi ham shu ma’noni anglatadi. *Per sonare* – niqob ortidan so‘zlashish. Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi Rim teatrlarida akter sahnaga u yoki bu yovuz, laganbardor, payg‘ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqqanlar. Niqobning bo‘yoqlari ijtimoiy funksiyani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insонning axloqiy belgilariga ishorat edi.

Qadimgi Yunonistonda «shaxs» tushunchasiga mos keluvchi atama ishlab chiqilmagan edi. O‘zining betakror taqdiriga ega bo‘lgan shaxs haqida Aflatun bilmas edi, bilishni ham xohlamasdi. Uning o‘rnini ruh egallagan edi. Arastuning «Jon haqida» asari hozirgi zamон psixologiyasiga yo‘l ochib berdi.

Qadimgi Rim oldinga qadam tashladi. Rim huquq ilmida yunoncha boshning yuz qismini, tashqi ko‘rinish, bundan tashqari, tragediyada ishtirok etuvchi ijrochini belgilovchi prosopon o‘rniga, lotincha persona so‘zi qo‘llanildi, bu so‘z avvaliga, yunoncha so‘zga o‘xshab, tragediyadagi aktering roli va niqobini anglatar edi. Lekin keyinchalik alohida individning nomi sifatida saqlanib qoldi. Rim fuqarosi huquqiy va diniy zot, avlodlar ismi-sharifi va mulk egasi sifatida ta’riflanadi.

Sharqda, umuman, boshqacha holat edi. Induizm va buddizmda shaxs inkor etilib, faqatgina «o‘zlik» e’tirozsiz tan olinadi.

K.Yungning¹ psixoanaliz nazariyasiga asosan «shaxs» tushunchasi odamning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq. Hayoti jarayonida u ijtimoiy talablarga mos ravishda o‘zini tutishni o‘rganadi. Har bir kasb

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. – 3 rd ed p. 410.

uchun, masalan, jamiyat a'zosi taqib yuradigan ma'lum niqob xosdir. Shaxs xarakterni tashkil etuvchi bo'lib hisoblanmaydi, lekin u bilan uzviy bog'liq bo'lib, ichki «men»ning himoyasi sifatida faoliyat yuritadi.

Ko'pgina tillarda mayjud bo'lgan «o'zlikni yo'qotish» iborasi o'zining egallab turgan o'rnnini va darajasini yo'qotishni bildiradi.

Sharq tillarida (xitoy, yapon) shaxs tushunchasi odamning yuzi bilan emas, balki butun tanasi bilan bog'lanadi. Evropa an'analarida yuz tana bilan birqalikda o'rganiladi, chunki inson chehrasi ruhining timsolidir, xitoyliklar tafakkurida esa «yashovchanlik» tushunchasiga individning ham ma'naviy, ham vujudiy sifatlari kiradi.

Shu asosda, avval boshidan «shaxs» tushunchasiga ma'lum hayotiy rollarni ijro etganda o'ziga xoslikka ega bo'ladigan tashqi, yuzaki ijtimoiy obraz – qandaydir «shaxs», atrofdagilarga qaratilgan ijtimoiy yuz ifodasi kiritilgan edi.

XIX asrning dastlabki o'n yilliklarida shaxs psixologiyasi muammolari bilan faylasuflar bilan bir qatorda shifokor-psixiatrlar ham shug'ullana boshladi. Ular birinchilar qatorida klinika sharoitlarida bemor shaxsi ustidan muntazam ravishda kuzatuvlari olib bordilar, uning xulq-atvorini yaxshiroq tushunish maqsadida bemor hayoti tarixini o'rgandilar. Psixiatrlarning diqqat markazida bemor odamda odatda aniqlanadigan shaxs xususiyatlari bo'ldi. Keyinchalik ular tomonidan aniqlangan o'ziga xos xususiyatlar sog'lom odamlarning deyarli barchasida mavjudligi, lekin ularda kuchsiz holatda, bemorlarda esa o'ta kuchli tarzda ifodalanishi aniqlandi. Bu, masalan, xavotirlik va rigidlik, tormozlanganlik va qo'zg'alganlik holatlariga tegishlidir.

Shaxsni aniqllovchi hislatlar shifokor-psixiatrlar tomonidan shunday atamalar bilan belgilangan ediki, ular yordamida ham normal, ham patologik, ham aksentuatsiyalangan shaxsga ta'rif berish mumkin edi. Shunga qaramasdan, ushbu yondashuv psixologiya nuqtai nazaridan mukammal deb hisoblanmaydi. Bunday yondashuvlar normal shaxsni yaxlit holda ta'riflash uchun juda qisqa va etarli emas. Bunday aniqlash turiga turli sharoitlarda aniq ifodalanuvchi, doimo ijobiy, «mutanosib» bo'lgan shaxs xususiyatlari kiritilmagan edi. Bularga misol qilib, layoqatlar, axloqiy sifatlар va boshqa shaxs xususiyatlarini keltirish mumkin.

XX asrning dastlabki o'n yilliklariga kelibgina, shaxs, ungacha inson holatlari va bilish jarayonlarini tadqiq etish bilan shug'ullanayotgan psixologlar tomonidan o'rganila boshladi. XX asrda psixologiyada

tajriba tadqiqotlari jadal olib borilgani uchun, ularga farazlarni aniq tekshirish va asoslangan faktlarga ega bo'lish maqsadida ma'lumotlarni matematik-statistika usulida hisoblash qo'llanildi. Shu asosda psixologlar uchun uzoq yillar davomida mutanosib shaxsni tadqiq etishning ishonchli va valid test metodlarini ishlab chiqish birinchi navbatdagi funksiya bo'lib qoldi. Shaxsga tegishli bo'lgan nazariyalar va konsepsiyalarni tasniflashga nisbatan yondashuvlarning turli xillari mavjud. Masalan, R.S.Nemov shaxsga doir nazariyalarning 48 tasini keltiradi, ularning har biri tasniflashga asos bo'ladigan besh ko'rsatkich bo'yicha baholanishi mumkin. Bularga xulq-atvorni tushuntirib berish usuli; shaxs haqida ma'lumotlarga ega bo'lish usuli; shaxsga burchak ostidan qarash; yosh darajalari; shaxsni tasvirlab beruvchi tushunchalar kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Mavjud bo'lgan shaxs nazariyalarining barchasini xulq-atvorni tushuntirib berish usuli bo'yicha *psixodinamik*, *ijtimoiy-dinamik* va *Interaksion* nazariyalarga bo'lish mumkin. Psixodinamik nazariyalarga shaxsning ruhiy yoki ichki xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ta'riflovchi va xulq-atvorini tushuntirib beruvchi nazariyalar kiradi. Ijtimoiy-dinamik nazariyalarga ko'ra xulq-atvor determinatsiyasida asosiy o'rinni tashqi vaziyatlar egallaydi. Interaksion nazariyalar insonning dolzarb faoliyatini boshqarishdagi ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri tamoyiliga asoslangan.

Shaxs haqida ma'lumotlarga ega bo'lish usuliga ko'ra barcha nazariyalarни *eksperimental* va *noeksperimental*larga bo'lish mumkin. Eksperimental shaxs nazariyalariga tajriba o'tkazish yo'li bilan to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan nazariyalar, noeksperimentalarga esa – mualliflari ilmiy eksperimentga murojaat qilmasdan turib, hayotiy taassurotlarga, kuzatishlar va kundalik tajribalarga tayangan holda nazariy bilimlarni umumlashtiradigan nazariyalar kiradi.

Navbatdagi nazariyalarini tasniflashga asos bo'lib xizmat qiladigan nuqtai nazar mualliflarning shaxsni *tuzilmaviy* xarakterga ega bo'lganyoki *dinamik* hosila sifatida tasvirlovchi qarashlardir. *Tuzilmaviy* nazariyalar qatoriga tushunchalar tizimi yordamida tasvirlanuvchi shaxs tuzilishini aniqlash asosiy muammo bo'lib hisoblanadigan nazariyalar kiritiladi. *Dinamik* nazariyalar debasosiy mavzusi shaxs taraqqiyotida qayta tuzish, o'zgartirish, ya'ni uning dinamikasiga taalluqli bo'lgan nazariyalarga aytildi. Shuningdek, yosh va pedagogik psixologiyada yuzaga kelgan bir qator shaxs nazariyalarini

mavjud. Bunday nazariyalar shaxs taraqqiyotining inson tug'ilganidan boshlab matabni bitirishigacha bo'lgan, chegaralangan yosh davrini ko'rib chiqishga asoslangan. Bundan tashqari, mualliflari o'z oldilariga shaxs taraqqiyotini insonning butun umri davomida kuzatish funksiyasini qo'ygan nazariyalar ham mavjud.

Shaxs nazariyalarini tasniflash uchun asos bo'ladigan yana bir holat, bu nazariyalardagi shaxsning ichki xossalari, hislatlari va sifatlari yoki uning tashqi ifodalanishi, masalan, xulq-atvori va harakatlariga qaratilgan e'tibordir. Shu asosda hislatlar nazariyalarini ajratish mumkin. Nazariyalar ushbu guruhining holatlarga ko'ra, barcha odamlar bir-biridan alohida, mustaqil hislatlarning rivojlanganligining to'plami va darajasi bilan farqlanadi, shaxs haqidagi ma'lumotlarni esa, test yoki shaxs hislatlarini aniqlash va tasvirlashning boshqa usuli yordamida, masalan, ma'lum insonni kuzatgan turli odamlarning hayotiy kuzatishlarini umumlashtirish asosida olish mumkin. Shaxs hislatlariga baho berishning ikkinchi usuli barcha odamlarni tipologik guruhlarga birlashtirishdan iborat. Bunda bir xil tipologik guruhga tegishli bo'lgan odamlar yaqin psixologik xususiyatlarga ega bo'ladilar va ular o'zlarining xulq-atvori bilan bir-birlariga juda o'xshash bo'ladilar.

R.S.Nemov tomonidan ko'rib chiqilgan shaxs nazariyalarining tasniflardan tashqari, boshqa tasniflar ham mavjud. Shulardan biri B.V.Zeygarnik tomonidan ko'rib chiqilgan mavjud bo'lgan shaxs nazariyalarini mazmun-mohiyat va tarixiy tamoyillarda, ularning yuzaga kelishi va taraqqiyoti sharoitlariga bog'liq holda o'rganishdir. Bunda nazariyalarining quyidagi guruhlari ajratiladi: freydizm va neofreydizmning shaxs nazariyalari, shaxsning umuminsoniy nazariyalari, ekzistensial psixologiyaning shaxs nazariyalari, fransuz ijtimoiy matabining shaxs nazariyalari va boshqalar.

Shaxs nazariyalariga zamonaviy qarashlar

Shaxsning asosiy psixologik nazariyalarini qisqacha ko'rib chiqamiz. Amerikalik psixolog G.Ollport va ingliz psixologi R.Kettel tomonidan ishlab chiqilgan *shaxs hislatlari nazariyasi* shular jumlasidandir.

Shaxs *hislati* deganda inson tomonidan hayoti davomida uning tajribasi, irsiyati va organizmining fiziologik xususiyatlari asosida egallanadigan barqaror xossa tushuniladi. Shaxs hislatlariga xarakter hislatlari kiradi.

G.Ollport tan olgan shaxs hislatlarini aniqlash va baholashning usullaridan biri chet tilini o'rganishga, shaxsni har tomonlama ta'riflash mumkin bo'lgan so'z-tushunchani tanlab olishga asoslangan. Tanlab olingan so'zlarning yetarli tarzda qisqartirish yo'li bilan bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiy hislatlarning ma'lum odamda ularni keyinchalik baholash maqsadida to'la ro'yxati tuziladi. G.Ollport shaxsiy hislatlarni o'rganish metodikasini tuzishga xuddi mana shu yo'l bilan erishdi.

Shaxs hislatlarini baholashning R.Kettel tomonidan qo'llanilgan boshqa usulida hozirgi zamон statistikasining murakkab metodi – *faktorli tahlil* ishlataladi, bu metod o'zini tahlil qilish, so'rov o'tkazish, odamlarning hayotiy kuzatishlari natijasida olingan ko'plab turli ko'rsatkichlar va shaxsga baho berishni yetarlicha kamaytirish imkonini yaratadi. Natijada statistik jihatdan mustaqil holatdagi inson shaxsining alohida hislatlari bo'lib hisoblanadigan omillar to'plami hosil bo'ladi. Ushbu metod yordamida R.Kettel 16 xil turdagи shaxs hislatlarini ajratib tashhis etishga erishdi. Ularning har biri kuchli va kuchsiz rivojlanganlik darajasini anglatuvchi ikkita nomga ega bo'ldi. Tajribada aniqlangan hislatlar to'plami asosida R.Kettel 16-omilli shaxs so'rovnomasini tuzib chiqdi.

Shaxsning psixoanalitik nazariyasi (Z.Freyd, A.Adler, K.yung¹, E.Fromm, K.Xorni). Bu nazariyaga ko'ra, shaxs uch qism: Id, Ego va Superegodan iborat insonning ichki, psixologik hosilasidir. Id – bu ongsizlik bo'lib, bunga ichki biologik hislar va insonning hayvonlar bilan umumiy bo'lgan organik ehtiyojlari kiradi. Z.Freyd jinsiy ehtiyojlar va tajovuzkorlikni, A.Adler – hokimiyatga intilishni, K.Xorni – turli-tuman komplekslarni, E.Fromm – odamning ozodlikka yoki uni cheklashga intilishini ajratib ko'rsatadilar. Bu – shaxsning o'zini anglashi. Superegoga inson qadriyatları, uning hayotiy maqsadları, idealları kiradi. Shaxsning bu uch tarkibiy qismlari, odatda, uyg'unlik holatida bo'lmaydi, ular o'rtasida nevrozlariga, inson ruhiyati va xulq-atvoridagi nuqsonlarga sabab bo'lувchi nizolar yuzaga keladi.

K.yung Z.Freydnинг undan ajralib chiqqan birinchi o'quvchilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ular o'rtasidagi har xil fikrlilikning paydo bo'lishiga Z.Freydnинг panseksualizm g'oyasi sabab bo'ldi.

Yung bo'yicha, inson psixikasi uch daraja: ong, shaxsiy anglanmaganlik va jamoaviy anglanmaganlikdan iborat. Inson shaxsi tuzilishida qadimgi o'tgan insoniyatdan qolgan xotiralardan hosil

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 407.

bo‘lgan jamoaviy anglanmaganlik asosiy o‘rinni egallaydi. Jamoaviy anglanmaganlik umumiylilik xususiyatiga ega. U ham o‘z navbatida, turli darajalardan iborat. Bu milliy, irqiy va umuminsoniy meros bilan belgilanadi. Eng chuqur daraja odamgacha bo‘lgan davrdan, ya’ni odamning avlodni bo‘lgan hayvonlarning tajribasidan boshlanadi. Shunday qilib, yung ta’risiga ko‘ra, jamoaviy anglanmaganlik – bu qadimgi ajdodlarimizning ongi bo‘lib, ular o‘ylagan va his etgan, hayot va dunyo, xudolar va inson mavjudotlarini o‘rganish vositalaridan iborat.

Jamoaviy anglanmaganlik ba’zi odamlarda faqat tushlarida emas, balki, real ijodkorlikda arxetipler ko‘rinishida namoyen bo‘ladi. Masalan, ona arxetipi – bu hissiyot va obraz mazmuniga ega bo‘lgan o‘z onasidan kelib chiqqan umumiyliga ona g‘oyasi. Bola bu arxetipni tayyor ko‘rinishda irsiyat orqali oladi va shu asosda o‘z onasining aniq obrazini yaratadi.

Yung fikriga ko‘ra, jamoaviy anglanmaganlikdan tashqari shaxsiy anglanmaganlik ham mavjuddir, lekin u ongdan ajralmagan holatdadir. Shaxsiy anglanmaganlik qachondir anglangan bo‘lib, keyinchalik yoddan chiqarilgan yoki ongdan siqib chiqarilgan kechinmalardan iborat. Shaxsiy anglanmaganlikning tuzilish birligini mulohazalar va xotiralar, tuyg‘ular qorishmasi, yig‘indisi tashkil etadi.

Shuningdek, yung «men» tushunchasini kiritdi. Bu tushuncha orqasiga insonning yaxlitlikka va bir butunlikka intilishi yashiringan. Bu orqali onglilik va anglanmaganlik o‘rtasidagi mutanosiblikka erishiladi. «Men» turlicha ifodalaniishi mumkin. Uning ifodalaniishiga bog‘liq ravishda odamlarni ma’lum tiplarga ajratish mumkin. yung insonning o‘ziga yoki obyektga yo‘nalganligi asosida shaxs tiplarining tasniflanishini keltiradi. Bunga muvofiq ravishda u barcha odamlarni ekstravertlar va introvertlarga bo‘ladi.

Freydning yana bir ustozidan uzoqlashgan mashhur o‘quvchilaridan biri, individual psixologiyaning asoschisi – Alfred Adler¹ hisoblanadi. U Freydning biologiyalashtirish nazariyasini keskin qoraladi. Adler, insonda asosiysi – uning tabiiy ichki sezgilari emas, balki, o‘zi «kumumiylilik tuyg‘usi» deb nomlagan ijtimoiy tuyg‘ulari ekanligini ta’kidladi. Bu tuyg‘u tug‘ma bo‘lsada, ijtimoiy jihatdan rivojlantirilgan bo‘lishi zarur.

Bundan tashqari, Adler Freydning shaxsni uch bo‘lakka bo‘linishi haqidagi fikriga qarshi chiqdi. Uning fikricha, shaxs tuzilishi bir butun

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 407.

bo'lib, shaxs taraqqiyotidagi bo'linadigan qism bo'lib, insonning ustunlikka intilishi hisoblanadi. Lekin bu intilish har doim ham amalga oshavermaydi. Masalan, inson tanasidagi organlarning nuqsonlari tufayli o'zining mukammal emasligi tuyg'usini boshidan kechiradi, shuningdek, bu tuyg'u bolalikdagi noqulay ijtimoiy sharoitlar tufayli paydo bo'lishi mumkin. Inson mukammal emaslik tuyg'usini yengish uchun turli ko'rinishdagi to'ldiruvchilarni izlay boshlaydi. Masalan, Adler yuqori to'ldiruvchini ishlab chiqish imkoniyati haqida fikr yuritadi. Bu o'zining mukammal emasligiga qarshi reaksiyaning o'ziga xos ko'rinishidir. Yuqori to'ldiruvchanlikni ishlab chiqish malakasi, jismonan zaif va irodasiz odamlarning matonat bilan faoliyat yuritishlariga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori to'ldiruvchanlikda Adler ijodkorlik mexanizmi, fuollilikni ko'radi. Misol tariqasida, u Napoleon shaxsiga izoh berishni yoqtirardi va Napoleonning sarkarda sifatidagi alohida layoqatlarini, xususan, undagi kichik bo'y o'lchami tufayli yuzaga kelgan mukammal emaslik tuyg'usi bilan tushuntirib berar edi. Shunday qilib, ko'rganimizdek, mukammal emaslik tuyg'usi o'z tabiatiga ko'ra tug'ma bo'lgani uchun, Adler Freydning nazariy qarashlarini ijtimoiylashtirishga harakat qilib ko'rgan bo'lsa-da, biologiyalashtirishdan to'liq voz kecha olmadi.

Z.Freydning izdoshlaridan biri Karen Xornining fikriga ko'ra, inson mohiyatining asosini, bolada tug'ma bo'lgan, xavotirlanish tuyg'usida ko'rish mumkin ekan. Bu tuyg'u, Xorni fikricha, inson muntazam ravishda boshidan kechiradigan dunyodagi qarama-qarshiliklar tuyg'usi va uni bartaraf etish istagi inson harakatlari motivatsiyasining asosi bo'lgan xavotirlanishni yuzaga keltirishidan hosil bo'ladi.

Xornining ta'kidlashi bo'yicha, inson ikki tendensiya: xavfsizlikka intilish va o'z xohishlarini qondirishga intilish orqali boshqariladi. Bu ikkala intilish ko'p hollarda bir-birini inkor etadi, shunda inson xulq-atvorning ma'lum usullarini ishlab chiqqan holda, o'zi so'ndirishga harakat qiladigan asabiy lashish holati yuzaga keladi. Xorni xulq-atvorni to'rt turga ajratdi: birinchi turida «muhabbatga nevrotik intilish» hayotda xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida ifodalanadi; ikkinchisi qandaydir obyektiv sabablar bilan emas, balki, odamlarga nisbatan qo'rqinch va dushmanlik bilan tushuntiriladigan «hokimiyatga asabiy holatda intilish» da ifodalanadi; uchinchi turida xulq-atvor odamlardan yakkalanishga intilishda ifodalanadi; to'rtinchi turi o'zning yordamga muhtojligini («asabiy tobelik») tan olishda ifodalanadi.

Xorni yo‘nalishlar sonini ko‘paytirishga harakat qildi, lekin umumiy hisobda uch turida to‘xtaldi: a) odamlarga intilish; b) odamlardan uzoqlashishga intilish, mustaqillikka intilish; c) odamlarga qarshi harakat qilishga (tajovuzga) intilish. Munosabatlarning bunday uch xil turiga mos ravishda Xorni shaxs asab tizimining uch turini ajratadi: barqaror, bartaraf etilgan va tahdid soluvchi. Xulq-atvorning bunday turlari sog‘lom insonlarga xosdir. Sog‘lom va nevrozga chalingan odamlar o‘rtasidagi farq shundan iboratki, nizoli tendensiyalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik sog‘lom odamda kasallikka chalingan odamga nisbatan ancha kam darajada bo‘ladi.

Shunday qilib, Xorni¹ Freyd ta‘limotining biologiyalashtirish mohiyatini keskin tanqid ostiga olgan bo‘lsada, o‘zining asosiy holatidagi «dastlabki xavotirlik» va «negizli xavotirlanish» haqidagi fikrlari bilan Freydn takrorlaydi.

Shaxs ijtimoiy rollari nazariyasi (amerikalik psixolog E.Bern va nemis psixologgi K.Levin). Ushbu psixologik nazariya insonning hayotda ma’lum, o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy rollarni ijro etishidan kelib chiqadi. Aynan, mana shu rollar ushbu odam shaxsining asosiy xususiyati bo‘lib hisoblanadi.

Bunday nazariyaning ma’lum bo‘lgan turlaridan biri amerikalik psixolog Erik Bern tomonidan taklif etilgan. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, odam boshqa rollardan ko‘proq quyidagi ijtimoiy rollarni ijro etadi: bola roli, ota-onal roli va katta odam roli.

Bola roli katta odamning o‘zini boladek his etishda davom etishida va bola sifatida tutishida namoyon bo‘ladi (mas’uliyatsiz, harxasha qiladi, arazlaydi, e’tibor va g‘amxo‘rlik talab etadi va h.). Ota-onal roli odamning boshqalar uchun mas’uliyatni, ularga g‘amxo‘rlikni o‘z yelkasiga olishida, boshqalarga o‘rgatishi, jazolashi, talab qilishida va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Ota-onal roli o‘zini katta odamlar haqiqatda o‘zlarini bir-birlariga nisbatan qanday tutishlari lozim bo‘lsa, shunday tutishlaridan iborat. Har kimning shaxsiy erkinligi va mustaqilligini hurmat qiladilar, huquqini tan oladilar, ishonadilar, qo‘llaydilar va b.

Fizikaviy «maydon» tushunchasi va topologiyada qabul qilingan tasvirlash tamoyillarini qo‘llagan holda, K.Levin² individ va muhit o‘rtasidagi mutanosiblik buzilgan holatdagi xulq-atvorning dinamik tizimi konsepsiyasini ishlab chiqdi.

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 411.

² Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 410.

K.Levin konsepsiyasida boshlang'ich holat sifatida individning «hayotiy makoni» ichida ma'lum yo'naliш, kattalik va tayanch nuqtasiga ega bo'lgan, uning psixologik kuchlari (intilishlar, istaklar va b.) hosil bo'ladigan va o'zgaradigan yaxlit maydon sifatida qabul qilinadi. «Maydon»ning bir xil hududiari individni tortadi, boshqalari itaradi. Obyektlarning bu sifati xulq-atvor «maydon» kuchlari bilan harakatlanadigan xulq-atvorning motivatsiyali tuzilishini xarakterlovchi *valentlik* (musbat yoki manfiy) deb ataladi. Valentlik shaxs va uning maqsadlari, yo'ldagi to'siqlar va hokazolar jamlangan psixologik «makonni» o'z ichiga oluvchi yaxlit vaziyatning funksiyasi bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan nazariyalardan tashqari, turli ilmiy-psixologik yo'naliшlар ham mavjud. Bunday yo'naliшlардан biri bo'lib, gumanistik psixologiya hisoblanadi. Gumanistik yo'naliш psixologlari uchun shaxs faqat atrofdagi voqelikka emas, balki shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan psixologik hosisadir. Gumanistik psixologiyaning vakkillari K.Rodjers va A.Masloudirlar.

Terapiyadagi o'zining metodini K.Rodjers nodirektiv, ya'ni bemorda jamlangan metod deb nomladi. Bu metodga, asosan, shifokor bemorga bosim o'tkazishi kerak emas. Shifokor va bemor o'rtasidagi aloqa bir-biriga nisbatan hurmatga asoslangan bo'lishi kerak, bunda ularning ikkisi ham suhabat yoki aloqaning teng huquqli ishtirokchisi bo'lib hisoblanadilar. Terapevtning funksiyasi shifokorning bemor uchun ikkinchi «men»i sifatida namoyon bo'lishi va uning ichki olamiga e'tiborli bo'lgan vaziyatni yaratishdan iborat. Bunday vaziyatda mijoz barcha kechinmalari, hissiyotlari qiziqish va mammuniyat bilan idrok etilishini his etadi, bu tajribasida yangi qirralarni ochishga, ba'zida esa u yoki bu kechinmalar ma'nosini birinchi marta anglab etishga yordam beradi.

Keyinchalik Rodjersning nodirektiv terapiya g'oyasi nodirektiv xulq-atvor psixologiya nazariyasigacha rivojlandi. Bu nazariyaga asosan, sog'lom odamlarning o'zaro muloqoti ham xuddi shunday nodirektiv bo'lishi kerak.

Rodjers¹ shaxs nazariyasining markaziy xalqasi – *o'zini baholash* darajasidir. Bolaning kattalar va boshqa odamlar, bolalar bilan o'zaro munosabatlarga kirishishi natijasida unda o'zi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Lekin o'zini baholashning shakllanishi nizolarsiz o'tmaydi. Ko'p hollarda atrofdagilarning baho berishi o'zini baholash bilan mos

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 410.

kelmaydi. Inson ko'pda atrofdagilar bahosini qabul qilish yoki o'z fikrida qolishdan birini tanlay olmay, qiyin ahvolda qoladi. Murakkab «solishtirish» jarayoni sodir bo'ladi, buni Rodjers «jonli baholash jarayoni» deb ataydi, chunki dastlab baholash manbai bola organizmida bo'lib o'tadi, ya'ni bu erda biz yana bir bora tug'ma sifatlar tushunchasi bilan to'qnashamiz.

Psixologiyadagi gumanistik yo'nalishning boshqa vakili amerikalik psixolog Abraxam Harold Maslou¹ bo'ladi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, insonning asosiy ehtiyoji – bu o'zini aktuallashtirish, o'zini mukammallashtirish va o'zini namoyon etish. A.Maslouning yozishicha: «O'zini aktuallashtiruvchi odamlarning barchasi qandaydir faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi. Ular o'z funksiyalariga, ishlariiga astoydil kirishadilar, o'z ishlarini juda qadrlaydilar». Bu toifadagi odamlar yuksak qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar (ular ichida – yaxshilik, haqiqat, insoflik, go'zallik, haqqoniylik, etuklik va boshqalar), bunday odamlar uchun bu hislatlar hayotiy muhim ehtiyoj bo'lib xizmat qiladi. Shaxs tuzilishi Maslou bo'yicha tartibli tizimdan yoki ehtiyojlar tadrijiylidan iborat. Bu ehtiyojlarni tubandan yuqoriga sanab o'tamiz: fiziologik (organik) ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlar, mansublik va muhabbatga bo'lgan ehtiyojlar, hurmat qozonish ehtiyojları, bilish ehtiyojları, estetik ehtiyojlar va o'zini aktuallashtirish ehtiyojları.

Yuksak taraqqiy etgan shaxs insonda mavjud bo'lgan o'zining barcha qobiliyatlarini to'la rivojlantirish, ma'nani o'sish va axloqiy yuksalishga intilish kabi aktuallashtirish ehtiyojlarini bildiradigan xususiyatlarga ega bo'ladi.

Inson ehtiyojlar tadrijiyligi va u yoki bu ehtiyojning shaxs tuzilishida egallagan o'rnining o'zgarishini belgilovchi quyidagi qonunlar mavjud: yuqoriroq darajadagi ehtiyojlar insonning quyiroq darajadagi ehtiyojlar oz darajada bo'lsa ham qondirilgan holatdagina yuzaga kelib, muhim va dolzarb ehtiyojga aylanadi; agar insonda yangi ehtiyoj yuzaga kelib, dolzarblastishganida, uning yaxlit ehtiyojlar darajasi ham qaytadan tuziladi. Maslou fikricha, o'zini aktuallashtirish – bu doimiy taraqqiyot va o'z imkoniyatlarini amaliyatga joriy etish jarayonidir. Maslou o'zini aktuallashtirish – tug'ma hodisa bo'lib, inson tabiatiga kiradi deb hisoblaydi. Inson yaxshilik, axloqiylik, samimiylilikka bo'lgan ehtiyojlar bilan tug'iladi. Ular insonning asosini tashkil etadi va odam bu ehtiyojlarni joriy qilishni bilishi kerak bo'ladi.

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 407.

Rossiya psixologiyasida shaxs sohasida ma'lum bo'lgan tadqiqotlar L.S.Vigotskiy maktabi vakillarining nazariy ishlari bilan bog'liq. Shaxs muammosini hal etishga A.N.Leontev va L.I.Bojovich katta hissa qo'shganlar.

L.S.Vigotkiy, L.I.Bojovich tomonidan kiritilgan yetakchi faoliyat va taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati tushunchalariga tayanib ish ko'rish bola hayotining turli davrlarida faoliyatning o'zaro ta'siri va shaxslararo muloqotning murakkab dinamikasida ichki nuqtai nazar deb ataladigan dunyoga ma'lum nigoh bilan qarash shakllanishini ko'rsatdi. Bu nuqtai nazar shaxsning muhim xususiyatlaridan biri, faoliyat yetakchi motivlari yig'indisi sifatida tushuniladigan taraqqiyotning sharti bo'lib hisoblanadi.

A.N.Leontev o'zining markaziy o'rinni faoliyat tushunchasi egallagan shaxs tuzilishi va taraqqiyoti konsepsiyasini taklif etdi. L.I.Bojovichning konsepsiyasiga o'xshash, bu konsepsiada hamshaxsning asosiy ichki xususiyati shaxsning motivatsiya sohasi bo'lib hisoblanadi. Uning nazariyasidagi muhim tushuncha inson faoliyati maqsadlarining uning motivlariga, ya'ni ayni damda bevosita qo'zg'atuvchiga yo'nalganlikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi shaxsiy mohiyatdir. Shaxsga tegishli bo'lgan faoliyat turlari qanchalik keng, turli-tuman bo'lsa, ular shunchalik taraqqiy etgan va tartibli, shaxsning o'zi esa shunchalik ma'nан boy bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs bo'yicha tadqiqotlar hozirda ham faoliik bilan olib borilayotganini ta'kidlab o'tish joiz. Hozirgi zamон tadqiqotlarining muhim xususiyati nazariy qarashlar eksperimental tadqiqotlar asosida shakllanishidan iborat.

Pedagogika, psixologiya va falsafada shaxsga singari ko'plab qarama-qarshi ta'riflari keltirilgan ilmiy tushunchani uchratish amri mahol. Mashhur psixolog V.P.Zinchenko fikriga ko'ra: «Inson tushunchasi bilan faqat «shaxs» tushunchasi raqobatlashishi mumkin». Olim D.B.Elkonin adabiyotlarda shaxsning yigirmaga yaqin ta'rifini ko'rib chiqqandan so'ng uning o'zi shaxs emasligini xulosa qildi.

Narx tushunchasini tilla tanga yoki qimmatli qog'ozning fizik-kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bilan tushuntirish qiyinchilik tug'dirgani kabi faylasuf E.V.Ilenkovning yozishi bo'yicha, shaxs sir-sinoatini inson miyasi xususiyatlariga tenglashtirib bo'lmaydi. Shaxs miya tuzilishi bilan emas, balki insonning insonga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanadi.

Voqeiy shaxs o'zini «yumumiyl natijalar» nomini olgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarni yaratishda anglaydi. Aflatun va Spinoza, Betxoven va Napoleon, Tolstoy va Mikelandjelo – bunday, odatiy holatlarni sindiradigan ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar mujassam bo'lgan shaxslarni boshqalar bilan adashtirib yuborish mumkin emas. Shaxslar ko'lami E.A.Ilenkovning odilona fikriga ko'ra faqat ularnigina emas, boshqalarni ham qiziqtiradigan o'zlarining faoliyatları ko'lami bilan o'lchanadi.

Yana bir mashhur faylasuf M.K. Mamardashvilining tasdiqlashicha: «Shaxs – bu turmush tarzi, uning shakli, hayotning alohida holati, evolutsiyasining noyob topilmasi. Shaxs – bu «tabiatning yirik mushohadasi». Shunday ta'rif bergen bo'lardim. Uning ifodalanihsrlarga moyilligi barcha narsalarni bilishga yoki boshqa yuksak belgilarga bog'liq emas. Tushunsangiz-chi, axir insonning eng muhim ehtirosi – bu ro'yobga chiqmoq, amalga oshmoq, sodir bo'lmoq».

Psixologlar individning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shaxsnинг asosiy belgilari deb hisoblaydilar. B.G.Ananев «shaxs»ga «jamiatning insonga uning ma'lum tarixiy rivojlanishi davrida ko'rsatadigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa ta'sirlari obyekti» sifatida ta'rif beradi. A.N.Leontev fikriga ko'ra, «shaxs insonning ijtimoiytarixiy va ontogenezdagi taraqqiyotining nisbatan kechki mahsulotidir. Shaxs o'zlashtirib olingen rollar tizimidir («rol» – bu biron bir ijtimoiy guruh tuzilishida ma'lum o'rinni egallagan insonning kutilgan xulq-atvoriga javob beradigan dastur; bu insonning jamiyat hayotidagi ishtirokining muayyan tuzilishga ega bo'lgan usulidir)». Shaxs taraqqiyoti individning ijtimoiylashuvi va tarbiya topishi sharoitlarida amalga oshiriladi. Umumiyl psixologiyada ko'pchilik hollarda shaxs sifatida qandaydir yadro, mag'iz, individning turli ruhiy jarayonlarini birlashtiruvchi va uning faoliyatiga zaruriy ketma-ketlik va barqarorlik bag'ishlovchi yig'indi va nomodal boshlang'ich modda tushuniladi.

L.S.Vigotskiy ijtimoiy tajribasiz, uning ichki ishlanmasiz, so'ngra uni yana qayta ishlangan shaklda ichkaridan ishlab chiqarmasdan turib, shaxsnинг taraqqiy etishi mumkin emasligi (interiorizatsiya va eksteriorizatsiya qonunlari) haqida yozgan edi.

Bu xususda psixologlarga tarix fanining ba'zi bir namoyandalari ham qo'shiladilar. G.S.Knabenning ta'kidlashiga ko'ra, «shaxs» insonning jamiyat hayotidagi ishtiroki va hayotda tutgan o'rni nuqtai nazaridan insonga xos xususiyatdir». V.A.Shkuratov quyidagi definitsiyani

keltiradi: «Shaxs jamiyat a'zosi va faoliyatdagi mavjudotning ifodalanishini ijtimoiy turlarga ajratish... Shaxsnинг ijtimoiy va madaniy doirasi, kelib chiqishi, kasbi, o'z tipi va hokazolarning xususiyatlaridan yig'ib olish mumkin». Hozirgi kunda psixologiya shaxsnинг insonning jamiyatdagi hayotida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik hosila sifatida tushuntiradi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishganida va bu munosabatlar uning shaxsini shakllantiruvchi hal qiluvchi omilga aylanganida, u yangi sifatlarga ega bo'ladi.

Chet el psixologiyasida inson shaxsi sifatida barqaror belgilar majmuasini tashkil etuvchi temperament, sezgirlik, motivlar, layoqatlar, mayllar, turli hayotiy vaziyatlarga moslashayotganida aynan shu insonga xos bo'lgan fikrlar oqimi va xulq-atvorini belgilab beradigan ma'naviyat tushuniladi. J.Godfruaning fikricha, shaxs umumiy holda ham irsiy, ham ijtimoiy-madaniy ta'sirlar bilan belgilanadi. «Shaxs» tushunchasi o'z ichiga tabiiy xossalari (jins, temperament va h.) asosida ijtimoiy muhit (oila, maktab, «muhim o'zgalar») va faoliyat (o'yin, bilish, mehnat) bilan faol o'zaro ta'sirlar jarayonida hosil bo'lgan individga xos bo'lgan ijtimoiy sifatlar yig'indisini birlashtiradi.

Inson shaxsi, keng tarqalgan tasavvurlarga qarshi o'laroq, 30yoshga yetgunicha o'zgarmasdan qolmaydi. Masalan, Kaliforniya universitetining bir guruh olimlari 130 mingdan ortiq odamlarning «Katta Beshlik» (vijdonlilik, murosaga moyillik, nevrotizm va ekstravertlik) nomi bilan ma'lum shaxsiy sifatlarini tahlil qilganlar. Bu sifatlar kayfiyatga bog'liq emas, shuning uchun yetarlicha ishonchli tarzda namoyon bo'ladi. Odamlar yosh o'tishi bilan hayotiy ixtiyoflarni tezda bartaraf etishga o'rGANADILAR, xususan, shafqatliroq va mehribonroq bo'lishga intiladilar.

Aniqlanishicha, ayollarda, erkaklardan farqli o'laroq, yosh o'tishi bilan nevroz holatlari kamayadi. Ikki jins vakillarida samimiylik bir oz kamayadi. Olimlarning fikriga ko'ra, 20–30 yoshlilarda murakkab funksiyalarni bajarishda va tashkilotlar tuzishda ko'mak beradigan vijdonlilikning kuchayishi kuzatiladi. Murosaga kelishga moyillik, aksincha, ko'pchilik holatlarda 30 yoshdan so'ng yorqin namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar va psixologlarda shaxs tushunchasining turlicha talqinlari mavjud. Bizesa R.S.Nemov tomonidan berilgan shaxsning, nazarimizda, yanada aniq va to'liq psixologik ta'rifidan foydalananamiz.

Shaxs asosini uning tuzilishi tashkil etadi, bu esa shaxsning yaxlit hosila sifatida har taraflama nisbiy barqaror aloqa va o'zaro ta'sirga ega bo'lishidan iborat. Psixologlar shaxs tuzilishida turli tarkibiy qismalarni ajratadilar. S.L.Rubinshteyn temperament, xarakter, layoqtatlarda; bilimlar, malakalar va ko'nikmalarda; yo'nalghanlikda namoyon bo'ladijan individual-tipologik xususiyatlarni ko'rsatib *o'tadi. A.G.Kovalev yo'nalghanlik, xarakter, imkoniyatlar va mashqlar tizimini ajratadi. M.I.Enikeyev temperament, yo'nalghanlik, layoqtatlar va xarakterni sanab o'tadi. Mashhur psixolog K.K.Platonov yo'nalghanlik tarkibini, ijtimoiy tajriba tarkibini, psixologik tarkibni va biologik asoslangan tarkibni ajratib ko'rsatadi.

Shaxs filogenezi va ontogenezi

«Shaxsning shakllanishi» tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) shaxsning shakllanishi uning rivojlanish jarayoni va natijasi sifatida. Shaxsning shakllanishi tushunchasining xuddi shu ma'noda qo'llanilishi psixologik o'r ganish predmeti bo'lib hisoblanadi, uning funksiyasiga esa *mavjud bo'lganlarni* (mavjud, tajribada ma'lum bo'ladijan) va rivojlanayotgan shaxsda maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlar sharoitida *mavjud bo'lishi mumkinlarni* aniqlash kiradi. Bu shaxs shakllanishini o'r ganishga *psixologik yondashuvdir*; 2) shaxs shakllanishi maqsadga yo'naltirilgan tarbiya sifatida. Bu shaxs shakllanishiga doir masalalarni va usullarni hal etishga bo'lgan *pedagogik yondashuv*. Pedagogik yondashuv jamiyatning ijtimoiy talablariga mos kelishi uchun shaxsda *shakllanishi kerak bo'lganlarni* aniqlashtirish zarurligini belgilaydi.

Inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, unga aylanadi. Shaxs taraqqiyoti bo'ysunadigan qonunlarga doir turli nuqtai nazarlar mavjud. Turli xil shaxs nazariyalari ko'pchilikni tashkil etadi, ularning har birida shaxs taraqqiyoti muammosi o'ziga xos holatda ko'rib chiqiladi. Psixologik tahlil nazariyasi rivojlanishni insonning biologik tabiatini jamiyatdagi hayotga moslashuvi, insonda ehtiyojlarni qondirishning ma'lum himoya mexanizmlari va usullarining ishlanmasi sifatida tushuntiradi. Hislatlar nazariyasiga ko'ra shaxs xususiyatlari hayot davomida shakllanadi, ularning hosil bo'lish, o'zgarish va barqarorlashish jarayonlari nobiologik qonunlarga bo'ysunadi. Ijtimoiy ta'limot nazariyasiga ko'ra shaxs taraqqiyoti jarayoni odamlar o'zaro ta'sirlashuvi ma'lum usullarining shakllanishi sifatida o'rganiladi. Umuminsoniy va boshqa noyob hodisalar bilan bog'liq nazariyalar «Men»ning vujudga kelish

jarayoni sifatida tushuntiradilar. Shaxs taraqqiyoti uning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi jarayonida sodir bo‘ladi. Mavjudligining birinchi kunlaridan boshlaboq, inson o‘ziga o‘xshaganlar qurshovida bo‘ladi, turli xil ijtimoiy munosabatlari va o‘zaro harakatlarda qatnashadi. Birinchi ijtimoiy tajribani oilasi sharoitida orttiradi, so‘ngra turli jamoalar sharoitida shaxsining ajralmas qismiga aylangan subyektiv tajribani to‘plab boradi. Bu jarayon, shuningdek, individ tomonidan ijtimoiy tajribaning faol tarzda ishlab chiqarilishi *ijtimoiylashuv* jarayoni deb ataladi.

B.G.Ananев консепсијасига ко‘ра, ijtimoiylashuv jarayoni insонning shaxs sifatida va faoliyat subyekti sifatida bunyodga kelishini ikki yo‘nalishli jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday ijtimoiylashuvning yakuniy maqsadi individuallikning shakllanishidan iborat bo‘ladi. Individuallashtirish deganda aniq shaxsning rivojlanish jarayoni tushuniladi.

Ijtimoiylashuv bilan birgalikda yana bir jarayon – *madaniylashuv* ham amalga oshiriladi. Agar ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish bo‘lsa, madaniylashuv – bu individning umuminsoniy madaniyat va turli davrlardagi inson faoliyatining moddiy va ma’naviy qadriyatlarini jamlangan tarixiy tarkib topgan faoliyat usullarini o‘zlashtirishdan iborat.

Shaxs taraqqiyoti muammosining u yoki bu nazariya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishdan tashqari, shaxsni turli yondashuvlar nuqtai nazaridan integratsiyalashtirilgan holda, yaxlitligicha ko‘rib chiqish g‘oyasi ham mavjud. Shu asosda shaxs barcha hislatlarining kelishilgan holda, tizimli shakllanishi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarini e’tiboriga qabul qiluvchi bir qancha konsepsiylar shakllandi. Ushbu taraqqiyot konsepsiyalari integratsiya konsepsiyaliga kiradi.

Shunday konsepsiyalardan biri amerikalik psixolog olim E.Erikson tomonidan ishlab chiqilgan nazariya hisoblanadi, u taraqqiyotga nisbatan o‘z qarashlarida *epigenetik tamoyil*: inson o‘z shaxsiy taraqqiyotida tug‘ilishidan boshlab, to so‘nggi kunlarigacha majburiy ravishda bosib o‘tadigan bosqichlarning irlsiy belgilanganligiga rioya qiladi. E.Erikson har bir odamda muqarrar ravishda ro‘y beradigan sakkiz xildagi hayotiy ruhiy inqirozlarni ajratib, ta’riflab berdi:

1. Ishonch inqirozi – ishonchsizlik (hayotining birinchi yili davomida).
2. Gumonsirash va uyatchanlikka qarshi o‘laroq, o‘zini idora qilish (2-3 yoshlar atrofida).

3. Aybdorlik hissiga qarshi o'laroq, tashabbuskorlikning paydo bo'lishi (taxminan uch yoshdan olti yoshgacha).

4. Mukammal emaslik kompleksiga qarshi o'laroq, mehnatsevarlik (7 dan 12 yoshgacha).

5. Individual g'o'rlik va konformizmga qarshi o'laroq, shaxsiy yo'naliishga ega bo'lish (12 dan 18 yoshgacha).

6. Shaxsiy ruhiy yakkalanishga qarshi o'laroq, samimiylilik va muloqotchanlik (20 yoshlar atrofida).

7. «O'ziga g'arq bo'lish»ga qarshi o'laroq, yangi avlod tarbiyasi haqida qayg'urish (30-60 yoshlar orasida).

8. Umidszylanishga qarshi o'laroq, bosib o'tilgan hayot yo'lidan mammunlik (60 yoshdan katta) (7.2 jadval).

Erikson konsepsiyasida shaxsning vujudga kelishi har bir bosqichda sodir bo'ladigan inson ichki olami va atrofdagi odamlar bilan munosabatlarining sifat o'zgarishlari almashinuvি tarzida tushuniladi. Buning natijasida u shaxs sifatida rivojlanishning aynan hozirgi bosqichiga tegishli bo'lgan va butun umri davomida saqlanib qoladigan yangi xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunda yangi shaxsiy hislatlar, Erikson fikricha, faqat avvalgi rivojlanish asosida yuzaga keladi.

Inson shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida ijobjiy sifatlar bilan birga kamchiliklarga ham ega bo'ladi. Turli xildagi ijobjiy va salbiy yangi hosilalarni birgalikda yagona nazariyada izchil tarzda umuman tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun Erikson o'z konsepsiyasida shaxs rivojlanishining faqat ikkita keskin yo'naliishini: normal va anomral yo'naliishlarini aks ettirdi. Hayotda ular sof ko'rinishda deyarli uchramaydi, lekin aniq chegaralangan qutblar yordamida inson shaxsiyati taraqqiyotining barcha oraliq turlarini tasavvur qilish mumkin.

Shaxs taraqqiyoti muammosini o'rganishda mualliflar inson rivojlanishini belgilab beruvchi sabablarni aniqlashga harakat qiladilar. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi shaxs taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida turli ko'rinishdagi ehtiyojlar majmuasini tan oladilar. Bunday ehtiyojlar orasida o'z-o'zini o'stirishga bo'lgan ehtiyoj asosiy o'rinni egallaydi. O'z-o'zini o'stirishga bo'lgan intilish qandaydir erishib bo'lmaydigan yetuklikka intilishni bildirmaydi. Shaxsning aniq maqsad yoki ijtimoiy darajaga erishishga bo'lgan intilishi o'ta muhimdir.

Shaxs taraqqiyotining umumiyl muammolari qatorida o'rganiladigan masalalardan yana biri shaxsiy xossalarning barqarorlik darajasi

haqidagi masala hisoblanadi. Ko‘pchilik shaxs nazariyalarining asosida shaxs ijtimoiy-psixologik noyob hodisa sifatida o‘zining asosiy ifodalishida hayotiy barqaror tuzilma bo‘lib hisoblanishi haqidagi farazi tushuncha yotadi. Aynan shaxs xususiyatlarining barqarorlik darajasi harakatlarining ketma-ketligini va ma’lum xulq-atvorni belgilaydi, uning harakatlariga qonuniylik xususiyatini beradi. Lekin qator tadqiqotlar natijasida inson xulq-atvori anchayin o‘zgaruvchanligi aniqlandi. Shuning uchun qonuniy ravishda inson shaxsi va xulq-atvoring barqarorligi haqiqatdan ham nimada va qanchalik ifodalishni haqidagi savol tug‘iladi.

Tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, tug‘ma anatomik va fiziologik xususiyatlар, asab tizimi xossalari bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning dinamik xususiyatlari yuqori darajadagi barqarorlikka ega bo‘ladi. Ularga temperament, emotsional reaktivlik, ekstraversiya – introversiya va boshqa ba’zi bir sifatlar kiradi. Shuningdek, aniqlanishicha, shaxsning ham barqaror, ham o‘zgaruvchan real xulq-atvori doimiy ijtimoiy vaziyatlarga bog‘liqdir.

«Umumiy psixologiya» (2002) darsligining muallifi A.G.Maklavning fikriga ko‘ra, inson barcha odamlarga xos bo‘lganligidan o‘ta barqaror hosilani tashkil etuvchi shaxsning qator xususiyatlariga egadir. Bular integrativ xususiyatlardir, ularga shaxsning **moslashuvchanlik potensiali** kiradi. Maklavoning nuqtai nazari bilan qaraganda, har bir odam shaxsiy moslashuvchanlik potensialiga, ya’ni ijtimoiy muhit sharoitlariga samarali moslashish imkonini beruvchi ma’lum psixologik xususiyatlar to‘plamiga ega. Shaxsiy moslashuvchanlik potensialining rivojlanish darajasiga ko‘ra inson turli vaziyatlarda o‘z xulq-atvorni u yoki bu darajada samarali shakllantiradi. Shunga ko‘ra xulq-atvoring mutazamliligi haqida emas, balki turli sharoitlarda mutanosib xulq-atvorni belgilovchi hislatlar doimiyligi haqida so‘z yuritish lozim.

Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchalari

Shaxs “Psixologiya” fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Shaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini ta’riflash imkonini beruvchi asosiy xossalari ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson – individ – shaxs – individuallik» qatorida ko‘rib chiqamiz.

Inson o‘ta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrrog‘i, ko‘plab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri yurgen Xabermas asosiyлari sifatida

uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim», individuallik va betakrorlilik «mening mavjudligimning» betakrorligi) ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilihda va ularni o‘z maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qo‘llashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyat olamidir. Bu barcha narsa isbōt talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir.

Ijtimoiy dunyo – bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi *jismli faoliyat* bo‘lgan olam. Insonni atrofdagi olamga va o‘ziga nisbatan munosabatlarining rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yo‘nalishini anglash uchun insomning olamda tutgan o‘rnini aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondashish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan o‘rni bilan aniqlanuvchi jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog‘liqdir. Insonni biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o‘rganishda dastlabki holat bo‘lib uning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi.

Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliliği va bu bilan bog‘liq kechinmalar ma’nosida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u holda inson mavjud bo‘la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to‘la. Bu dunyoga jismli faoliyat o‘z shaklini o‘zgartirgan holda oddiy holatdagи foydali faoliyat, shaklini yo‘qtotgan jismli harakat bo‘lib emas, balki «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy xulq-atvor esa «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o‘zini ochishning vositasi, o‘zini namoyon etish sifatida kirib keladi. «Mening» dunyosida unga xos bo‘lgan maxsus faoliyat turlari: o‘yin, san’at, din, ichki dunyolar yaqinlashuvi sifatidagi muloqot paydo bo‘ladi.

«Individ» tushunchasini turlicha talqin qilish mumkin. Avvalambor, individ – bu yagona tabiat mavjudoti sifatidagi odam, *Homo sapiens* turiga mansub vakil. Ushbu holatda individ biologik turning umumiy irlisi xossalari tashuvchi biologik organizm (har bir odam individ bo‘lib tug‘iladi) sifatida tushuniladi, ya’ni insonning biologik mohiyati ta’kidlanadi. Lekin* ba’zida «individ» tushunchasi odamni insoniy

umumiylilikning alohida vakili, mehnat qurollaridan foydalanuvchi ijtimoiy mayjudot sifatida belgilash uchun qo'llaniladi.

Agar «inson» tushunchasi o'z ichiga odamlarga xos bo'lgan barcha insoniy sifatlarning yig'indisini, ularning ma'lum insonda mavjudligi yoki mayjud emasligidan qat'i nazar, jamlagan bo'lsa, u holda «individ» tushunchasi aynan uni xarakterlaydi va qo'shimcha sifatida shaxsiy hislatlar qatori psixologik va biologik xossalarni ham kiritadi. Bundan tashqari, ushbu tushunchaga ma'lum odamni boshqalardan ajratib turuvchi sifatlar bilan birga, aynan shu odamga va ko'plab boshqa odamlarga tegishli bo'lgan umumiy xossalarni ham kiradi.

Shaxs tushunchasining mohiyatli tomonlarini belgilab beruvchi turli xil ta'riflar mavjud. A.N.Leontev ta'rifiga ko'ra: «Shaxs – faoliyat subyekti», A.G.Kovalevning – «shaxs ijtimoiy munosabatlarni subyekti va obyekti sifatida», K.K.Platonovning – «shaxs – o'z o'rmini anglashga qodir bo'lgan jamiyat a'zosisi», S.L.Rubinshteynning – «shaxs – tashqi ta'sirlarning oldini oluvchi ichki sharoitlar yig'indisi», A.V.Petrovskiyning – «shaxs – individ tomonidan jismli faoliyat va muloqotda orttirilgan, unga ijtimoiy munosabatlarga kirishganlik nuqtai nazaridan ta'rif beruvchi tizimli sifat», G.Ollportning – «shaxs hayoti davomida shakllanib boruvchi o'ziga xos psixofiziologik tizimlar – ushbu insonga xos bo'lgan tafakkur va xulq-atvorni belgilab beruvchi shaxs hislatlari yig'indisi» va boshqalarning ta'riflari shulardan iborat.

Biz esa R.S.Nemov tomonidan shaxsga berilgan ta'rifni qo'llaymiz: «Shaxs – bu ijtimoiy asoslangan, ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladigan, barqaror, odamning o'zi va atrofidagilar uchun ahamiyatli bo'lgan axloqiy harakatlarni belgilab beruvchi o'zining psixologik xususiyatlari tizimidagi inson».

Shunday qilib, inson, birinchidan, tirik tabiat vakili, biologik obyekt sifatida, ikkinchidan, ongli faoliyat subyekti sifatida va uchinchidan, ijtimoiy mayjudot sifatida o'r ganilishi mumkin, bu uch darajaning yaxlit uyushmaga birlashishi insonning yig'indi xususiyatlarini – uning individualligini shakllantiradi.

Individuallik – bu ma'lum insonning, uning noyobligi, betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi.

Individuallik – bu ko'rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalarni jamlaydi. Individuallik turli xildagi tajriba, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter

va temperamentlardagi farqlar, o'zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo'ladi. Motivlar, temperament, xarakter, layoqatlar – individuallikning asosiy ko'rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfofiziologik (bo'y o'lchami, tana tuzilishi, yuz tuzilishi va h.) xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Individuallik – o'z mohiyatiga ko'ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir odamning boshqasidan farqini, ya'ni uning individualligini aytib berishi mumkin.

Shunday qilib, biz ko'rib chiqqan «adam, individ, shaxs va individuallik» tushunchalari ko'lam jihatidan turlichadir. Bular orasida keng ma'no kasb etib, boshqa tushunchalarni ham o'zida jo etadigan tushuncha «inson» atamasidir, eng tor atama esa «individuallik» tushunchasidir.

Nazorat savollari

1. Shaxsnинг evolutsion jihatdan rivojlanishi.
2. Shaxs nazariyalariga zamonaviy qarashlar.
3. Evolutsion nazariyalar va shaxs.
4. Shaxs filogenezi va ontogenezi.
5. Ijtimoiy ishlab chiqarish inson hayotining usuli sifatida.

5-bob. KOGNITIV JARAYONLARNING SHAKLLANISHI

Reja:

1. *Insonda psixik aks ettirish darajalari.*
2. *Ongning vujudga kelishi va rivojlanishi.*
3. *Individual va jamoaviy ong.*

Insonda psixik aks ettirish darajalari

Barcha psixologik mexanizmlar ma'lum bir tahlillarni talab qiladi, ular muayyan bir muammolarning yechimlariga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu muammolar o'zining holatlariga ko'ra ijtimoiy tarixiy tabiatga egadir. Kognitiv psixologiya boshqa insonlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Barcha kognitiv jarayonlar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kompleks tarzdagi ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. An'anaviy kognitiv jarayonlar tarixiy muammolarni tahlil qilish holatini yaratishi mumkin.

Psixika ta'rifidan kelib chiqqan holda, ikki asosiy funksiyani bajaradi: *aks ettiruvchi va regulativ* (moslashuvchanlik). P.A.Ponomarev psixikaning quyidagi funksiyalarini ko'rsatib o'tadi: atrof-olam ta'sirlarining aks etishlari; insonlar xulq-atvorlari va faoliyatlarini tartibga solish; insonlarning atrof-olamdagи o'zlarini tutgan o'rinnarini anglashlari.

Vogelikni psixik aks ettirish o'ziga xos xususiyatlarga ega: psixika obyektiv vogelikni haqqoniy aks ettiradi; haqqoniy aks ettirish amaliyotda tekshiriladi; u rivojlantiriladi va takomillashtiriladi; faol harakatda namoyon bo'ladi; psixika shaxsiyat orqali o'z ma'nosini o'zgartiradi; u ilgarilab ketish xususiyatiga ega.²

Psixik vogelikni shartli ravishda: ekzopsisixika, endopsisixika va intropsixikaga ajratish mumkin. *Ekzopsisixika* – inson psixikasining bu bo'lagi organizmga nisbatan tashqi bo'lgan vogelikni aks ettiradi. *Endopsisixika* – inson organizmining holatini aks ettiruvchi psixik vogelikning bir bo'lagi. *Intropsixika* – fikr, iroda kuchi, xayolot, tushlarni o'z ichiga olgan psixik vogelikning bir qismi.

Psixika rivojining ikki darjasini mavjud: tuban va yuqori. Psixikaning tuban darjasini anglanmagan ong ostimi, yuqorisi esa ongni tashkil etadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, psixika ongdan ko'ra anchagina kengroqdir. Ong – muzlikning ko'rinyayotgan qismi bo'lib, uning katta

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 389.

² Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 389.

qismini esa insonning anglangan nazoratidan yashiringan ong osti tashkil etadi.

Inson psixikasi tarkibiga: psixik jarayonlar: bilish, hissiy, irodaviy va anglanmagan jarayonlar; psixik holatlar: motivatsion sohada – ehtiyojlar, qiziqishlar, istaklar, intilishlar; emotsiyal sohada – sezgilarning hissiy toni, emotsiyal aks ta'sir, kayfiyat, stress, affekt; irodaviy sohada – tashabbuskorlik, qaror qabul qilish, maqsadga yo'nalganlik, qat'iyatlilik; ongning umumiy tarkibini ifodalovchi – diqqatning turli darajalari, frustratsiya, apatiya va boshqalar; psixik xossalari: yo'nalganlik, temperament, fe'l-atvor, qobiliyatlar kiradi.

Shu tarzda, inson psixikasi aks ettirish va tartibga solish faoliyatining yaxlit psixik hodisasi demakdir.

Psixikani tushunishga oid turli yondashuvlar mavjud:

1. Antropsixizm ta'limoti (R.Dekart) – psixika faqat insonga xos.
2. Panpsixizm ta'limoti (fransuz materialistlari) – tabiatning umumiy ruhlanganligi; psixika butun tabiatga, butun olamga xos (shu jumladan toshga ham).
3. Biopsixizm ta'limoti – psixika – bu tirik tabiatning xossasi (o'simliklarga ham xos).¹
4. Neyropsixizm ta'limoti (Ch.Darvin)² – psixika asab tizimi mavjud bo'lgan organizmlargagina xos.
5. Miya psixizmi ta'limoti (K.K.Platonov) – psixika faqat bosh miyali, naysimon asab tizimiga ega organizmlarda mavjud (bunga ko'ra hasharotlarda psixika mavjud emas, chunki ular bosh miyasiz tugunli asab tizimiga ega).
6. Tirik organizmlarda psixika kurtaklarining namoyon bo'lish mezoni bo'lib qo'zg'aluvchanlik hisoblanadi (A.N.Leontev) – hayotiy ahamiyatsiz bo'lgan muhit omillariga (tovush, hid va b.) javoban qo'zg'alish, ular obyektiv barqaror aloqasiga ko'ra muhim hayotiy qo'zg'atuvchilar (ozuqa, xavf) uchun ogohlantiruvchi bo'lib xizmat qiladi.

Psixologianing fan sifatida rivojlanishi tarixiy bosqichlari.

Shunday qilib, psixologiya predmetini to'liq bayon etish psixologiya fanining o'zini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

«Psixologiya» so'zi birinchi marta 1590-yilda nemis teolog olimi R.Goklenius tomonidan qo'llanilgan edi. XVIII asrda esa nemis olimi X.Volf birinchi marta ilmiy atamalar qatoriga «psixologiya» atamasini

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 387.

² Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p. 388.

krittdi. U dastlabki yirik ilmiy-psixologik asarlar: «Empirikpsixologiya» (1732) va «Ratsionalpsixologiya» (1734) ni yaratdi.

Psixologiya – ham qadimiy, ham ma'lum darajada yangi fan. Qadimiy fan sifatida u ikki ming yil avval paydo bo'lgan.

Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar qadimgi dunyo (Hindiston, Xitoy, Misr, Bobil, yunoniston)da falsafa bag'rida paydo bo'lgan va jamiyatdagi amaliyat, davolanish va tarbiya ehtiyojlardan kelib chiqqan edi.

XIX asrning 70-80-yillarida psixologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Ilmiy psixologiyaning, xususan, eksperimental psixologiyaning asoschisi sifatida 1879-yilda Leypsig shahrida dunyoda birinchi bo'lib eksperimental psixologik laboratoriyani ochgan nemis tadqiqotchisi V.Vundt tan olingen. Bunga mos ravishda ushbu yil psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelgan sanasi hisoblanadi. Dastlab eksperimental psixologiyaning asosiy mavzulari sifatida sezgilar va ta'sirlanish vaqt (F. Donders), keyinchalik esa assotsiatsiyalar (G.Ebbingauz), diqqat (Dj.Kettel), hissiy holat (U.Jeyms, T.A.Ribo), ong va iroda (Vyursburgskaya shkola, A.Bine) xizmat qildi.

XX asrning birinchi yarmida amaliy psixologiyaning ko'plab maxsus bo'limlari yuzaga keldi: bu – mehnat psixologiyasi, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi va boshqalar, shu bilan bir qatorda ilmiy psixologiyaning ko'plab maxsus sohalari: psixofiziologiya, oila, yosh, differensial psixologiya va boshqalar ajralib chiqdi. Ilmiy amaliy psixologiya turli yo'nalishlar bo'yicha rivojlanib bordi, inqiroz ma'lum darajada bartaraf etilgan bo'lsa-da, ko'plab masalalar hal etilmagan edi.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilob psixologiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Fanda matematika, kibernetika, inshakltika nazariyalari metodlari, shuningdek, elektron-hisoblash texnikasi kengroq qo'llanila boshladи. Psixologiya tibbiyot va biologiya sohalaridagi eng so'nggi yutuqlardan faol tarzda foydalana boshladи.

Shunday qilib, psixologiya rivojlanish yo'lida uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan holda, o'rganish predmeti va fan sifatidagi nomlanishini o'zgartirib bordi. L.D.Stolyarenko psixologiyaning fan sifatidagi rivojlanishini to'rt bosqichga ajratadi.

Birinchi bosqich. Psixologiya – ruh haqidagi fan (Arastu). Psixologiyaning bunday ta'rifi ikki ming avval keltirilgan edi. Ruhning mavjudligi bilan inson hayotidagi barcha noma'lum hodisalarni tushuntirib berishga urinar edilar.

Ikkinch bosqich. Psixologiya – ong haqidagi fan (R.Dekart, B.Spinosa, D.Lokk, G.Leybnits, D.Gartli). XVII asrda tabiiy fanlar rivoji bilan yuzaga keldi. Fikrlash, sezish, xohishga bo‘lgan layoqat ong deb ataldi. O‘rganishning asosiy metodi bo‘lib insonning o‘zini kuzatishi va voqelikni bayon etishi hisoblanar edi.

Uchinchi bosqich. Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan sifatida XX asrda paydo bo‘ldi (D.Uotson, E.Torndayk). Psixologiyaning funksiyalari – tajribalar o‘tkazish va bevosita ko‘rish mumkin bo‘lganlarni, aniqrog‘i, insonning xulq-atvori, harakatlari, ta’sirotlarga nisbatan javoblarini kuzatish (harakatlarni keltirib chiqaruvchi motivlar hisobga olinmas edi).

To‘rtinchi bosqich. Psixologiya obyektiv qonuniyatlarini, psixikaning faoliyat va ifodalanish mexanizmlari, shuningdek, faktlarni o‘rganuvchi fan sifatida.

Ongning vujudga kelishi va rivojlanishi

Inson ongingining birlamchi psixologik xossasi o‘zini bilish subyekti sifatida his etish, mavjud va tasavvurdagi voqelikni xayolan tasvirlash layoqati, shaxsiy psixik va xulq-atvor holatlarini nazorat qilish, ularni boshqara olish, atrofdagi reallikni tasavvurlar shaklida ko‘rish va idrok qilish layoqati kabilarni o‘z ichiga oladi. O‘zini bilish subyekti sifatida his etish insonning olamni o‘rganish va bilishga, ya’ni olam haqida u yoki bu darajada aniq bilimlarni egallahsha tayyor va layoqatli, bu olamdan bo‘lak qilingan mavjudot sifatida anglashini bildiradi. Ongsizlik (uyqu, gipnoz, kasallik va b.) holatlarida bunday layoqat yo‘qoladi.

Xayolan tasavvur qilish va voqelikni tasvirlash – ongning ikkinchi muhim psixologik xossasi. U ong kabi yaxlit voqelik bo‘lib, iroda bilan uzviy bog‘langan. Odatda, tasavvurlarni ongli boshqarish va tasavvur qilish haqida ularning inson iroda kuchi yordamida yuzaga kelgan va o‘zgarishlarga uchragan holatlarda so‘z yuritiladi. Ushbu holatda inson ixtiyoriy, ya’ni ongli ravishda atrofni idrok qilishdan, taalluqli bo‘limgan xayollardan chalg‘igan holda, o‘z diqqatini qandaydir g‘oya, tasavvur, xotira va shu kabilarda jamlab, o‘z tasavvurida ushbu damda bevosita ko‘rolmaganlarini aks ettiradi va rivojlantiradi.

Ong uzviy ravishda nutq bilan bog‘langan bo‘lib, o‘zining yuksak shakllarida usiz mayjud bo‘la olmaydi. Ongli aks ettirish sezgilar va idrofdan, tasavvurlar va xotiradan farqli o‘laroq, qator o‘ziga xos xossalari bilan ajralib turadi. Ulardan biri – tasavvur etilayotganlarning

anglanganligi, ya'ni ularning so'z-tushunchaviy ma'nodorligi, inson madaniyat bilan bog'liq holda ma'lum mohiyatga ega ekanligi.

Ongning keyingi xossasi ongda jism, voqeal va hodisalarning faqat asosiy tub mohiyatga ega bo'lganlarining aks ettirishidir.

Inson ongining to'rtinchi xossasi – bu uning kommunikatsiyaga, ya'ni ma'lum odamning o'zi bilgan ma'lumotlarni til va boshqa belgi tizimlari yordamida boshqalarga yetkaza olish layoqati. Insonlar bir-biri bilan turli axborotlar bilan almashinuv jarayonida asosiy xabarni ajratib oladilar. Shu tarzda mavhumlashtirish, ya'ni ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ikkinchi darajalilaridan ayirib olish sodir bo'ladi.

Inson tabiat muhitiga oddiy holatda moslashibgina qolmasdan, ongli ravishda mehnat qurollari yasagan holda, uni o'ziga bo'ysundirishga intiladi. Shu asnoda inson turmush tarzi ham o'zgarib boradi. Atrofdagi tabiatni o'zgartirish maqsadida mehnat qurollari yashash qobiliyati ongli ravishda mehnat qilish layoqati mavjudligini bildiradi. Mehnat – insonni yashash sharoitlari bilan ta'minlash, shuningdek, moddiy va ma'naviy boylik yaratish maqsadida tabiatga ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishdan iborat bo'lgan, faqat inson uchun xos maxsus faoliyat turi. Shunday qilib, mehnat faoliyati inson ongining ahamiyatga molik bo'lgan xossasidir.

Inson ongi quyidagi muhim va ahamiyatlari bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Inson o'z xulq-atvoriga tegishli bo'lgan irsiy va tajribada ortirilgan shakllari bilan bir qatorda, so'z orqali yetkaziladigan, insoniyat tajribasi ko'rinishidagi atrof-olamda o'z yo'nalishini belgilab olishning yangi vositasi – bilimlarga ega.¹

2. Inson ongi vogelikning ahamiyatlari tomonlarini, qonuniyatga ega bo'lgan aloqalarini aks ettiradi. Ong – bu insonning olamga uning obyektiv qonuniyatlarini haqidagi bilimlarga ega bo'lgan holdagi munosabati. Bu munosabat hayotiy muammolarni sinov va xatolar metodi yordamida emas, balki, atrofdagi muhitning turli tomonlari o'rtasida aniq, qonuniyatli aloqalarni o'rnatish asosida hal etish imkonini beradi.

3. Ong faoliyat maqsadining anglanganligi, kelajakda sodir bo'ladigan hodisalarni tushunchalar orqali modellashtirish, umuminsoniy tushunchalar, bilimlar tizimida harakatlarining natjalarini oldindan sezish kabi xususiyatlarga ega. Inson oldindan ko'ra oladi, o'z

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. – 3 rd ed p. 389.

harakatlaridan kutilayotgan natijalarini rejalashtiradi, ularga erishishning muvofiq usul va vositalarini tanlaydi.

4. Shaxs ongi ijtimoiy ong bilan belgilanadi. Ijtimoiy ongning to‘rt xil shakli mavjud: fan – ilmiy bilimlar, tasavvurlar, konsepsiylar va dunyoqarashlar yo‘nalishlari tizimi; ijtimoiy ongning jamiyat qonunlari sohasi – ma’lum jamiyatning axloqiy, g‘oyaviy, siyosiy va huquqiy qadriyatlar va qoidalar tizimi; san‘at – voqelikni tasviriy vositalar orqali ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning maxsus turi, inson turmush tarzining turli tomonlarini tasviriy modellashtirish; din, e’tiqod – o‘zida yuksak sifatlarni mujassamlashtirgan g‘ayritabiyy kuchlarga ishonish, e’tiqodli odamlarning ruhiy tayanchi.

Ijtimoiy ongning barcha shakllari birqalikda g‘oyaviylikni – insonlarning voqelikka va bir-birlariga bo‘lgan munosabatni, jamiyat hayotiy faoliyatini boshqaruvchi tub negizli qadriyatlar, asosiy g‘oyalar tizimini shakllantiradi.

5. Ong o‘zlikni anglash, shaxsiy refleks bilan bog‘liq. Inson o‘z atrofidagi olamni anglashda o‘zini u bilan taqqoslaydi. O‘zlikni anglash – bu insonning olamga nisbatan ahamiyatga molik hamda zarur, shuningdek, shaxsiy munosabatlar tizimi.

Ong inson psixikasining xossasi sifatida bidominantlik – shaxs ichki kommunikatsiyasi, insonning o‘zi bilan bo‘lgan muloqoti mexanizmi orqali amalga oshiriladidi. Va bu shaxsnинг ichki dialogi ijtimoiy mezonlar bilan belgilanadi.

Voqeiy hodisalar ong orqali intensional (lotinchadan intentio – intilish) – har taraflama tanlagan holda inson amaliyotida tutgan o‘rniga bog‘liq ravishda aks ettiriladi. Ong tafakkurga nisbatan kengroqdir. U o‘zida psixik faoliyatning barcha shakllari: olamni hissiy aks ettirish, ilmiy bilish, psixik o‘zini boshqarishning hissiy-iroda sohasining jamlangan, tashqi olamning birlashtirilgan, yaxlitlangan aksidir.

Shunday qilib, ong – psixik taraqqiyotning yuksak darajasi bo‘lib, obyektiv reallikka nisbatan faqat insonga xos bo‘lgan odamlar ijtimoiy-tarixiy faoliyatining umumiyligi shakllari vositasidagi obyektiv reallikka bo‘lgan munosabatdan iborat.

Amaliy nuqtai nazar bo‘yicha ong subyekt ichki olamining bevosita ko‘z oldidagi sezgi va aqliy obrazlarining uzluksiz o‘zgaruvchi yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ong qator protsessual va mazmundor xususiyatlarga ega. U faoliyk, ya‘ni individning voqelik bilan hayotiy muhim aloqalarini ta‘minlovchi dinamika, intensionallik – jismga yo‘nalganlik; ko‘p tomonlama mustaqillik – insonning asosan

ichki o'chov va modellarga yo'nalishi; refleksivlik – nomutanosib aks ettirishdan himoyalash, o'zini baholash layoqati; yaqqolik va tashkil etilganlikning turli darajalari bilan xarakterlanadi.

Ong muayyan tuzilishga ega bo'lib, unga: birinchidan, atrof-olam haqidagi bilimlar yig'indisi; subyekt va obyektni, ya'ni insонning «Men»i va «Men emas»iga tegishli bo'lganlarni aniq farqlash; insонning maqsadga muvofiq faoliyati; muayyan munosabat tarkibi – «mening o'z muhitinga munosabatim mening ongimdir».

Mazmuniga ko'ra odamlar ongi ijtimoiy-tarixiy sharoitlar ta'siri ostida bo'ladi. Ongning barcha tarkibiy qismlari antropogenez jarayonida shakllanib, ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'ladi.

Inson ongingin paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sharti bo'lib odamlarning hamkorlikdagi samarali nutq vositasidagi qurolli faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat odamlarning muloqoti va o'zaro ta'siri, ishning taqsimlanishini talab etadi. U hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilari tomonidan hamkorlik maqsadi sifatida anglanadigan mahsulot yaratishni taqozo etadi. Individual ong insoniyat tarixi boshlanishida jamoaviy faoliyat jarayonida uni tashkil etishning zarur sharoiti sifatida yuzaga keldi: axir odamlarga u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun ularning har biri hamkorlikdagi faoliyat maqsadini aniq tasavvur qilishlari lozim. Bu maqsad aniqlanib, so'z bilan ifodalanishi kerak. Avval jamoa ongi, undan so'ng individual ong paydo bo'ladi, bunday ketma-ketlikdagi rivojlanish faqat ong filogenezi uchun emas, balki ong ontogenezi uchun ham xarakterlidir. Bolaning individual ongi jamoa ongi asosida va uning mavjudligi sharoitida uni o'zlashtirish yo'li orqali shakllanadi (interiorizatsiya, ijtimoiylashuv).

Inson ongingin rivojlanishida inson faoliyatining ijodiy xarakteri muhim ahamiyatga ega. Ong inson tomonidan tashqi olamnigina emas, balki o'zi, hissiyotlari, obrazlari, tasavvur va sezgilar anglanishini taqozo etadi. Odamlar obrazlari, fikrlari, tasavvurlari va sezgilar ularning ijodiy mehnatlari mahsulida mujassamlantiriladi va bu jismalarning keyingi idrok qilinishida, aynan, o'zlarida yaratuvchilari psixologiyasini gavlantirgan holatda anglanadilar. Shuning uchun ijod inson o'zining shaxsiy ijod namunalarini idrok qilishi orqali o'zini anglash va ongini rivojlantirish yo'li va vositasi bo'lib hisoblanadi.

Inson unga tabiatdan berilgan sezgi organlari yordamida olamni undan uzoqlashgan va undan mustaqil mavjud bo'lgan holda idrok qilishini anglaydi. Keyinchalik refleksiv qobiliyat, ya'ni insонning o'zi uchun bilish obyektiga aylanishi va zarurligini anglash hissi paydo

bo‘ladi. Ongning filo va ontogenetika rivojlanish ketma-ketligi mana shundan iborat. Ong rivojlanishidagi ushbu birinchi yo‘nalishni refleksiv yo‘nalish sifatida belgilash mumkin. Ikkinci yo‘nalish tafakkur rivojlanishi va fikrning so‘z bilan asta-sekin birlashishi bilan bog‘liq. Inson tafakkuri borgan sayin rivojlanib, narsalar mohiyatiga kirib boradi. Bu bilan birgalikda orttiriladigan bilimlarni belgilash uchun qo‘llaniladigan til ham rivojlanadi. *Til* so‘zi chuqr mohiyat bilan to‘ldiriladi, va nihoyat, fanlar rivojiana boshlaganida, tushunchalarga aylanadi. *So‘z* – tushuncha ong birligi, hosil bo‘ladigan fikrlar oqimi esa tushunchali yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi.

Har bir yangi tarixiy davr uning zamondoshlari ongida o‘ziga xos tarzda aks etadi va odamlar mavjudligining tarixiy sharoitlari o‘zgarishi bilan ularning ongi ham o‘zgaradi. Uning filogenezinini tarixiy rakursda tasavvur qilish mumkin. Lekin xuddi shuning o‘zi inson ontogenetikaning rivojlanishi davomida inson ongiga nisbatan ham haqqoniyidir, individ insonlar tomonidan yaratilgan san’at, madaniyat asarlari orqali ungacha yashab o‘tgan xalqlarning psixologiyasiga kirib boradi. Ong rivojlanishidagi bu yo‘nalish tarixiy yo‘nalish sifatida belgilanadi.¹

Tarixning hozirgi davrida insonlar ongi rivojlanishda davom etmoqda, bu rivojlanish ilmiy, madaniy va texnikaviy taraqqiyotning yuqori tezlanishi yordamida jadallik bilan bormoqda.

Insoniyat ongi rivojlanishining keyingi asosiy yo‘nalishi insonning o‘zi va atrof-olamdagisi anglanuvchilar sohasining kengayishi bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘z navbatida madaniy-axloqiy inqilobga o‘sib boradigan dunyoviy ijtimoiy-iqtisodiy inqilob bilan, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish bilan bog‘liq.

Bunday o‘tishning birlamchi belgilari hozirdanoq sezilmoqda. Bu – turli xalqlar va mamlakatlardan iqtisodiy farovonligining o‘sishi, ular mafkurasi va siyosatining xalqaro va ichki maydonda o‘zgarishi, davlatlararo harbiy qarama-qarshilikning pasayishi, odamlar muloqotida diniy, madaniy va axloqiy qadriyatlar ahamiyatining oshishida ko‘rinadi. Shu bilan birga insonning hayot, makro va mikrodunyolar tilsimotlariga kirib borishi sodir bo‘lmoqda. Fan yutuqlari natijasida insonni bilish va boshqarish, o‘zi va dunyo ustidan hukmronligi sohasi kengaymoqda, insonning ijodiy imkoniyatlari, shuningdek, ongi ham oshmoqda.

¹ Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. – 3 rd ed p. 389.

Individual va jamoaviy ong

Odamning asosiy xususiyatlaridan biri uning mehnat qilish qobiliyatidir, mehnatning istalgan turi esa faoliyat bo'lib hisoblanadi. Jamoaviy ong faoliyatning psixologik nazariyasi umumjahon psixologiyasida yaratilgan edi. Shuningdek, u L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, A.R.Luriya, A.V.Zaporojets, P.YA.Galperin va boshqa ko'pchilik psixologlarning asarlarida yoritib berilgan.

Jamoaviy ong – bu subyektning olam bilan o'zaro ta'sirlashuvining rivojlanuvchi tizimi. Bunday o'zaro ta'sir jarayonida psixik obrazning yuzaga kelishi va uning obyektda ifodalanishi, shuningdek, subyektning voqelik bilan o'z munosabatlarini ro'yobga chiqarishi sodir bo'ladi. Faoliyatning istalgan oddiy akti subyekt faolligining ifodalanish shakli bo'lib hisoblanadi, bu esa har bir faoliyatning undovchi sabablarga ega bo'lishi va ma'lum natijalarga erishishga yo'naltirilishini bildiradi. Shunday qilib, faoliyatni insonga xos bo'lgan, ong tomonidan boshqariladigan, ehtiyojlarni qondirishda yuzaga keladigan, tashqi olam va insonni bilish, shuningdek, ularni o'zgartirishga qaratilgan faollik sifatida ta'riflash mumkin. Jamoaviy ong predmetlilik va subyektlilik xususiyatlari ega. Jamoaviy ong predmeti deb u bevosita shug'ullanadigan hodisalarga aytildi. Masalan, bilish faoliyatining predmeti bo'lib, har xil turdag'i axborotlar xizmat qiladi, o'quv faoliyatining predmeti – bilim, malaka va ko'nikmalar, mehnat faoliyatining predmeti – yaratilgan muayyan moddiy mahsulot hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, faoliyat nazariyasining mualliflari lehki faoliyat tushunchasi orqali ong va psixik jarayonlar tahlili muammosi bilan to'qnashdilar. Faoliyat nazariyasi mualliflarining fikriga ko'ra, psixik jarayonlar faoliyat nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin, chunki istalgan psixik jarayon o'z funksiyalari va operatsiyaviy-texnik tuzilishiga ega bo'lib, ma'lum maqsadda amalga oshiriladi. Masalan, ta'mni idrok qilish ta'm sifatlarining o'zaro farqlari va mos kelish darajalarini aniqlash bilan bog'liq perseptiv maqsad va funksiyalariga ega.

Perseptiv funksiyaga yana bir misol sifatida aniqlash jarayonini keltirish mumkin. Bunday funksiyalarni kundalik hayotimizda muntazam holatda ko'z bilan chamlash masalalarini hal etishda, ehehralarni, ovozlarni tanib olishda va h.da bajarishga to'g'ri keladi. Barcha funksiyalarni hal etish uchun har biriga mos ravishda farqlash, aniqlash, o'lhash, tanish va boshqa harakatlar ko'rinishidagi perseptiv harakatlar amalga oshiriladi. Psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira,

tafakkur va b.)ni faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faoliyatning alohida shakli sifatida o'rganib, ma'lum axborotlar – faoliyatning umumiyl tuzilishi, darajalari, kechish shakllari va hokazolarni qo'llash mumkin va zarurdir.

Nazorat savollari

1. Insonda psixik aks ettirish shakllari.
2. Insonda ongning vujudga kelishi.
3. Ongning tarixiy jihatdan rivojlanishi.
4. Individual ong.
5. Jamoaviy ong.

6-bob. PSIXIK JARAYONLARNI SHAKLLANISHIDA TILNING AHAMIYATI

Reja:

- 1. Mehnat faoliyatida tilning shakllanishi va vujudga kelishi.*
- 2. Nutq funksiyasi.*
- 3. Psixik jarayonlarning shakllanishida tilning ahamiyati.*

Mehnat faoliyatida tilning shakllanishi va vujudga kelishi.

Inson mehnat quroollarini ishlatish natijasida faoliyatga munosabating boshqa shakllari vujudga kela boshlaydi. Inson biologik motivlarni boshqarishni o'rganadi, insonning maqsadlari murakkab xarakterga ega bo'la boshlaydi. Ular mehnat quroollarini avval toshlardan ishlatgan bo'lsalar, keyinroq mustaqil ravishda mehnat quroollarini ishlab chiqara boshlaganlar. Ibtidoiy jamoadagi mehnat taqsimoti ham ularni ijtimoiy hayotga qadam qo'yganligidan dalolat beradi.¹ Agar ayol olovni asrash funksiyasini bajarsa, erkaklar ov qilish funksiyasini amalga oshirishgan. Jamoa bo'lib qilishda mehnat taqsimotlari ham shakllangan, agar bir odam bir funksiyani bajarsa, ikkinchisi boshqa funksiyani bajargan. Ibtidoiy jamoa tuzumidagi insonlarning xatti-harakatlari anglanmagan tarzda amalga oshirilgan, bu hayvonlarning xatti-harakatida kuzatilgan holatlar sirasiga kiradi. Shundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, murakkab ongli faoliyat bu ijtimoiy muhit rivojlanishining maxsulidir.²

Inson nutqi hayvonlar nutqidan tubdan farqlanadi. Hayvonlarda ham bir-birlari bilan ma'lumot almashinish mavjud. Bu asosan gala bo'lib yashaydigan hayvonlarning faoliyatida kuzatilishi mumkin. Masalan, turnalar galasida, gala sardori xavfni ko'rsa, turnalarni ogohlantiradi, maymunlarda ham shu holatni kuzatishimiz mumkin. Maymunlarda 30-40 tagacha tovushni ajratish xususiyati mavjud bo'lib ular turli vaziyatlarda turlicha tovush chiqaradilar. Hattoki arilarda ham so'zlashuv uslubi mavjud ekan. Ular asallarni topishda shu signallar tizimidan foydalanishadi. Lekin shuni aytish joizki, hayvonlarning tili insonlarnikidan tubdan farqlanadi. Insonlarning tilida sifat va munosabatlar mavjud. Masalan, «oyna» so'zi otni anglatsa, «sariq» so'zi sifatni anglatadi. Bu funksiya nemislarda predmetlarni aniqlash

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan. 121-124.

² Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan. 145-147

funksiyasi deb nomlanadi, bu holatni hayvonlarda kuzatish mumkin emas.

Inson va hayvon tillari bir-biridan tubdan farqlanadi. Turnalar havf mavjud bo'lgan vaziyatda chiqargan ovozlari buyum yoki narsalarni anglatmaydi, u affektiv holatni anglatishi mumkin. Turnalar havotirlanadilar va shu havotir ularning ovozlarida aks etadi, bu holat esa boshqa turnalarga yuqadi.

Maymunlar ham havotirni his qilishadi va kerakli tovushni chiqara boshlashadi. Maymunlardagi tovushlar turli-tumandir, ular turli holatlarini aks ettirishlari mumkin. Masalan, qoniqish, havotir, ochlik, xotirjamlik. Biroq bu tovushlarning barchasi emotsional holatlarni aks ettiradi. Maymunlarda predmetlarni anglatishga qaratilgan xatti-harakatlar samarasiz yakunlangan. Ularda predmetlarni ko'rsatish holatlari kuzatilmaydi. Hayvonlarning tili sodda tilligicha qolgan, ular faqat holatlarni aks ettirishlari mumkin ekan.

Insонning nutqi bir qator qonuniyatlariga egadir. Agar hayvonlarning nutqi ma'lum bir emotsional holatlarni anglatsa, inson nutqi predmetlarni anglatadi. Nazariy jihatdan nutqning paydo bo'lishi turli xil afsona va nazariyalarni keltirib chiqargan. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra nutq bu maxsus in'om sifatida insonga berilgan eng katta ne'matdir. Boshqa olimlarning fikriga ko'ra esa nutqning paydo bo'lishi, hayvonlarning instinctiga borib taqalar ekan. Bu tovushga taqlid nazariyasi deb nomlangan. Hamma nutq shakkiali taqlid sifatida vujudga kelganmi yoki yo'qmi, degan savollar ham paydo bo'lgan.

Puare tomonidan nutqning paydo bo'lishiga doir nazariya ishlab chiqilgan. Bu quyidagicha ko'rinishga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida bir-biriga bir nima deyishni obyektiv ehtiyoji paydo bo'lgan. Jamoa bo'lib mehnat qilgan paylarda bir nima deyish ehtiyoji eng kerakli ehtiyojlardan biri hisoblanadi. Bu holat boshida xatti-harakatlar va tovushlar bilan aks etgan, so'ngra bular predmet nomlariga aylangan, bu xatti-harakatlar faqat kishilarning mehnat qilish jarayonida ko'ringan, boshqa faoliyatda ko'rinnagan. So'zlar avval mehnat jarayonida paydo bo'lgan, so'ngra ular predmetlar bilan birqalikda qo'llanilgan, bu holatlar mehnat jarayonlaridan keyin ham qo'llana boshlagan. Bu oddiy diffuz nutq deb nomlangan, shu diffuz nutq tilning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Asta-sekinlik bilan mehnat jarayonida vujudga kelgan so'zlar, tovushlar va jestlar, faoliyatdan ajrala boshlagan, mehnat bilan aloqasini asta-sekinlik bilan yo'qota borgan va mustaqillikka erishgan.

Shu tariqa nutqning leksik kodi rivojlangan. Til kodlar tizimi hisoblanadi, ular orqali insonlar bir-birlari bilan muloqot qiladilar. Nutqning asosi so'zlar hisoblanadi. Ular predmetlarni va faoliyatlarini anglatishi mumkin. So'zning psixologik tuzilishi quyidagilardan iborat. Birinchisi: predmet va funksiyalarni o'rnini almashtiradi. Har bir so'z ma'lum bir predmetni anglatadi. Masalan, yosh bolada tajriba o'tkazilgan, bola qo'ng'iroq chalinganda rezinali nonni bosishi talab qilingan. So'ngra shuning rasmi bilan qo'ng'iroqni bosishgan, bolada shartli refleks paydo bo'lgan, shundan so'ng rasm so'zga almashtirilgan, bolada shartli refleks so'zga nisbatan ham paydo bo'lgan. Bu Ivanov-Smolenskiy tajribasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Pavlovning shogirdi professor Dolinin tomonidan tajriba o'tkazilgan. Markosa ham shunga doir bir qator tajribalar o'tkazgan.

Nutqiy faoliyatlar asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatidan ajralgan holda mustaqil bo'la boshlagan.

Sintagma, ibora yoki gaplar nafaqat buyumlarni aks ettiradi, balki tayyor voqealarni ham ko'rsatadi. Sintagma yoki gapning ikki xil ko'rinishi farqlash mumkin. Voqealar kommutatsiyasi va munosabatlar kommutatsiyasi. Voqealar kommutatsiyasi uy yonmoqda, daraxt yiqildi, bola yig'layapti kabi so'zlarda aks etadi. Voqealar kommutatsiyasi bu asosiy va oson iboralar funksiyasidir, munosabatlar kommutatsiyasi esa bu murakkab funksiyalar hisoblanadi.

Munosabatlar kommutatsiyasini rasmlar bilan ifoda qilish qiyin kechadi.

Nutq funksiyasi

Insonning hayvonot olamidan farq qiluvchi, uning fiziologik, psixik va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi asosiy xususiyatlardan biri nutq deb ataluvchi alohida psixik jarayonning mavjudligi hisoblanadi. *Nutq* – bu odamlarning til vositasida muloqot qilishi. Gapira olish va begona tilni tushunish malakasiga ega bo'lish uchun tilni bilish va undan foydalana olish zarur.

Psixologiyada «til» va «nutq» tushunchalari mavjud. *Til* – bu odamlar uchun ma'lum ma'no va ahamiyat kasb etuvchi tovush birkimlarini yetkazuvchi shartli ramzlar tizimi. Til jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, odamlarning ijtimoiy ongida ularning ijtimoiy turmushini aks ettirish shakli, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy¹ rivojlanish mahsuli bo'lib hisoblanadi. Tilning noyob hodisaviyligi shundaki, har

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P. 416.

bir odam atrofdagilar muloqotda bo‘ladigan tarkib topgan tilga ega bo‘ladi va rivojlanish jarayonida uni o‘zlashtirib boradi.

Til – bu murakkab hosila. Istalgan til, avvalo, tilning *leksik tarkibi* deb ataluvchi ma’nodor so‘zlarning ma’lum tizimiga egadir. Bundan tashqari, til so‘z va so‘z birikmalari turli shakllarining ma’lum tizimidan iborat bo‘lgan til grammatikasiga, shuningdek, aniq bir tilga xos bo‘lgan ma’lum tovush yoki fonetik tarkibga egadir.

Til, asosan, har bir so‘z ma’nosini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. So‘zning istalgan ma’nosi umumlashtirishni anglatadi, masalan, «odam», «mashina», «stol» so‘zlarini va boshqalar.

Tildan farqli ravishda nutq deb ma’lumot yetkazish, ko‘rsatma, savol, buyruq berish shaklida amalga oshiriladigan nutqiy muloqot jarayoniga aytildi. Nutq yordamida u yoki axborotni yetkazish uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan mos so‘zlarni tanlash emas, balki ularni aniqlashtirish ham lozim. Nutqdagi har bir so‘z ma’lum ma’nogacha qisqartirilgan bo‘lishi zarur. Bunga so‘zni ma’lum kontekstga kiritish bilan erishiladi. Masalan, «Bu qanday mashina?» degan savol bilan bizni jismning o‘zida qiziqtirayotgan holatni aniqlashtirmoqchi bo‘lganimizda murojaat qilamiz, agarda «Bu kimning mashinasi?», deb savol bersak, bizni jism emas, uning kimga tegishliligi qiziqtirayotgani ma’lum bo‘ladi.

Nutqda so‘z ifodalari bilan yetkaziladigan mazmundan tashqari, bizning so‘zlayotganlarimizga nisbatan munosabatimiz ham ifodalanadi. Bu hodisa nutqning emotsiyonal-ifodali jihatni deb ataladi va iborani talafuz qilishda qo‘llaydigan so‘zlarning jaranglash toni bilan belgilanadi.

Va nihoyat, nutq psixologik jihatdan mohiyatga ega bo‘lgan u yoki bu ibora maqsadini aks ettiruvchi kontekstdan iborat bo‘ladi.

Shunday qilib, nutqiy muloqot – bu murakkab va ko‘p tomonlama jarayon. A.N.Leontevning fikriga ko‘ra, har bir nutq akti «o‘ziga xos nutqning shakli va turi, aniq sharoitlar va muloqot maqsadlariga ko‘ra, turli nutq vositalarini qo‘llashni talab etuvchi psixologik muammoning yechimini topishdan iborat». Xuddi shu holat nutqni tushunishga ham tegishlidir.

Muloqoting universal vositasi sifatidagi hozirgi zamon nutq holatigacha odamning uzoq davom etgan filogenezdagi taraqqiyot jarayoni bo‘lib o‘tgan edi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, nutq – bu insonga xos bo‘lgan faoliyat. Nutq bilan birga til ham, ilk marotaba faqat insoniylik jamiyatida, hamkorlikdagi mehnat jarayonida yuzaga keldi.

Hozirgi zamон fan ma'lumotlariga ko'ra, dastlabki nutq vositasi kompleks kinetik nutq bo'lgan. Nutqning bu shakli ibtidoiy obrazli tafakkur bilan bog'langan bo'lib, taxminan yarim million yil avval mavjud bo'lgan. Kompleks kinetik nutq debtana harakatlari yordamida ma'lumot yetkazishning sodda tizimiga aytildi.

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichida nutq harakatlarining asta-sekin mehnat faoliyatidan ajralib, nutq vositalari sifatida ixtisoslashuvi, ya'ni ularning jestlarga aylanishi bilan bog'liq. Harakatlarning nutqiy va mehnat harakatlariga bo'linishiga odamlar mehnat faoliyatining murakkablashishi sabab bo'ldi. Natijada, maxsus qo'l bola til va qo'l (kinetik) nutqi paydo bo'ldi. Shunday qilib, odam qo'l mehnat va muloqotning asosiy vositasi bo'lib qoldi.

Tovushli nutqqa o'tish, taxminan, 100 ming yillar avval boshlangan bo'lishi mumkin. Bu ishlab chiqarishning rivojlanishi va mehnatning birlamchi bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan. Qo'l nutqi bajara olmaydigan jism va hodisalar alohida tushunchalar tizimida aniqroq belgilanadigan, nutqqa bo'lgan talab paydo bo'ldi.

Muloqot jarayonida qo'l imo-ishoralari ma'lum mujmal tovushli ovoz bilan birga ijro qilingan. Asta-sekin nutq tovushlari rivojlanib, sayqallanib bordi. Vaqt o'tishi bilan ular kinetik nutq bajargan funksiyalarni o'z zimmalariga oldilar, bundan tashqari, odam nutqi taraqqiyotini ta'minlab berdilar. Shunday qilib, nutq va til yangi sifat darajasi – tovushli aniq nutq darajasiga ko'tarildilar.

Dastlab tovushli nutq takomillashmagan edi. So'zlar, birlamchi, qo'l imo-ishoralari kabi juda umumiyligi, noaniq ma'noga ega edi. Bir xil so'z mazmuni turlicha bo'lgan jismlarni belgilashda qo'llanilishi mumkin edi (ibtidoiy polisemantizm). Ilk so'zlar yaxlit iboralar bilan ifodalangan, deb taxmin qilish mumkin. Dastlabki nutq shakllari juda oddiy bo'lgan. Ularda yashirin ma'no, jumlalar bo'lмаган. Nutq aniq maqsadlarda, qandaydir ma'lumotni yetkazishdagina ishlatilgan. So'ngra mehnat ta'sirida so'z ma'nolari rivojlana borgan va bu asta-sekin murakkab morfologiya va sintaksisiga ega bo'lgan tilning shakllanishiga olib keldi.

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichi yozuvning yaratilishidir. Yozuvli nutq og'zaki nutq kabi o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlardan o'tdi. Dastlab yozuv belgilari paydo bo'ldi, keyinroq esa, tovushli nutq paydo bo'lishi bilan yozuv belgilari tovushlar ma'nosini aks ettira boshladi, bu esa harf-fonetik turdag'i zamонавиј yozuvning yuzaga kelishiga olib keldi

Irsiy jihatdan nutq tafakkur bilan birga ijtimoiy-mehnat amaliyotida paydo bo'ldi va u bilan insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlandi. Nutq yaxlitligicha ong tomonidan boshqariladi. Ongning asosiy funksiyasi – turmushni anglash, aks ettirish, til va nutq buni maxsus holatda bajaradilar: ular turmushni muayyan tarzda aks ettiradilar.

Til va nutq o'zaro farqlanadilar. Til – muloqot vositalarining qat'iy me'yoriy tizimi, nutq esa, muloqot jarayonida fikr va hissiyotlarni yetkazish uchun qo'llanma. Til uni qo'llaydigan odamlar uchun bir xildir, nutq individual tarzda o'ziga xos bo'ladi. Nutqda alohida olingan odam yoki odamlar jamoasining psixologiyasi ifodalanadi, til esa o'zida xalq psixologiyasini ifodalarydi.

Shu bilan birga, nutq va tilning o'zaro aloqasi shubhasizdir, chunki ma'lum tilisiz nutq bo'lmagani kabi nutqda qo'llanmaydigan til ham bo'lmaydi.

Demak, nutq – bu verbal kommunikatsiya, ya'ni til vositasidagi muloqot jarayonidir. Inson nutqi xilma-xil shakllarga ega. Lekin nutqning qanday shaklidan foydalanmaylik, u nutqning ikki asosiy: og'zaki yoki yozma turlaridan biriga tegishli bo'ladi.

Bunda ikki tur ma'lum o'xshashlikka ega bo'ladi. Bu o'xshashlik hozirgi zamон tillaridagi yozma nutq, xuddi og'zaki nutq kabi tovushli ekanligidan iborat: yozma nutq belgilari bevosita ma'noni emas, so'zning tovush tarkibini yetkazadi.

Og'zaki nutqning asosiy boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, suhbat shaklida kechadigan nutq hisoblanadi. Bunday nutq suhbat yoki dialog deb ataladi. Uning asosiy xususiyati, suhbatdosh tomonidan faol olib boriladigan nutq hisoblanadi, ya'ni suhbat jarayonida ikki suhbatdosh ishtirok etib, tilning sodda gap va iboralarni qo'llaydilar. Dialog nutqning ochiq holda ifodalanishi talab etmaydi, chunki suhbatdosh suhbat davomida nima haqida so'z yuritilayotganini tushunadi va boshqa suhbatdosh tomonidan bildirilgan iborani fikran yakunlay oladi. Shunga o'xshash vaziyatlarda birgina so'z boshqa suhbatdosh tomonidan aytilgan iborani yakunlab qo'yishi mumkin. Bunda birgina so'z yaxlit iboraning o'rnini bosadi.

Nutqning boshqa shaklini so'zlovchi tomonidan aytilgan nutq tashkil etadi, bunda tinglovchilar uning nutqini idrok qiladilar, lekin unda to'g'ridan-to'g'ri qatnashmaydilar. Bunday nutq monolog deb ataladi. Ma'ruzachining nutqi monologik nutq hisoblanadi. Bu nutq psixologik jihatdan dialogdan murakkabroqdir, chunki u tinglovchidan o'z muloha-

zalarini tushunarli, qat'iy mantiqqa asoslangan holda bayon qilish malakasini talab etadi. Bunda so'zlovchi yetkaziladigan axborotning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilishini baholashi zarur, ya'ni u faqat o'z nutqinigina emas, balki tinglovchilarni ham kuzatishi kerak bo'ladi.

Dialog ham, monolog ham faol va sust bo'lishi mumkin. Nutqning faol shakli – bu so'zlovchining nutqi, tinglovchining nutqi esa sust shaklda namoyon bo'ladi. Gap shundaki, tinglayotganimizda tashqaridan unchalik sezilmasa-da, ichimizda so'zlovchining so'zlarini takrorlaymiz. Odamlar faol va sust nutq shakllarining rivojlanish darajasiga ko'ra ajratiladilar. Ko'pincha odam boshqa odamning nutqini yaxshi tushunadi, lekin o'zining fikrlarini yetkazib berolmaydi. Va, aksincha, odam yetarlicha yaxshi so'zlab berishi mumkin, lekin boshqalarni tinglashni umuman bilmaydi.

Nutqning boshqa turi yozma nutq hisoblanadi. Yozma va og'zaki nutqlar o'rtaida psixologik tafovutlar mavjud. Og'zaki nutqning yozma nutqdan farqlaridan biri og'zaki nutqda so'zlarning qat'iy ravishda ketma-ket kelishi, bir so'z talaffuz etilganida undan oldin kelgan so'z na so'zlovchi va na tinglovchi tomonidan idrok qilinmasligidan iborat. Yozma nutqda boshqacharoq: yozayotgan ham, o'qiyotgan ham o'zlarining idrok maydonlarida bir vaqtning o'zida so'zlar qatoriga ega bo'ladi, ehtiyoj tug'ilgan vaziyatlarda esa bir necha satr yoki sahifa orqaga qaytishlari mumkin. Yozma nutqning og'zaki nutq oldidagi afzalligi shundan iborat. Yozma nutqni ixtiyoriy ravishda tuzish mumkin, chunki yozganlaringiz doimo ko'z oldingizda bo'ladi. Shu bilan birga, yozma nutq murakkab nutq shakli bo'lib hisoblanadi, chunki u avvaldan o'ylab iboralar tuzish, mulohazalarni aniqroq bayon etishni talab etadi, negaki, unga emotsiyonal tus berib, zarur imo-ishoralar bilan amalgalama oshira olmaymiz.

Nutqning yana bir shakli, ya'ni kinestetik shakli mavjud. Nutqning bu turi insonda o'tmish davrlardan buyon saqlanib qolgan. Vaqt o'tishi bilan nutqning ushbu turi o'z funksiyalarini yo'qotgan va hozirda, asosan, nutqning emotsiyonal-ifodali tarkibiy qismlari – imo-ishoralar sifatida qo'llaniladi.

Lekin odamlarning kinestetik nutq avvalgidek nutqning asosiy turi bo'lib sanaladigan katta guruhi mavjud. Bunda kar-soqov bo'lib tug'ilgan yoki baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida so'zlash yoki eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lgan odamlar nazarda tutiladi. Albatta, hozirgi zamon kinestetik nutqi qadimgi kinestetik nutqdan tubdan farq

qiladi. U bir müncha taraqqiy etgan bo'lib, belgili daraklarning yaxlit tizimiga ega.

Nutq turlarining ichki va tashqi nutq turlariga bo'linishining yana bir umumiyoq ko'rinishi mavjud. Tashqi nutq muloqot, axborot almashinuv jarayonlari bilan bog'liq. Ichki nutq, avvalambor, tafakkur jarayonini ta'minlash bilan bog'liq.

Og'zaki, ayniqsa, yozma nutqqa tayyorgarlik ko'rishda so'zlovchining o'z ichida nutqni qaytarib olish davri mavjud. Mana shu ichki nutqdir. Unga parchalarga bo'linganlik xosdir, u vaziyatga bog'liq bo'ladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida shakllanadi.

Tashqi nutqning ichki nutqqa ko'chirilishi (interiorizatsiya) tashqi nutq tuzilishining qisqarishi bilan birgalikda kechadi, ichki nutqning tashqi nutqqa o'tishi (eksteriorizatsiya) esa, aksincha, ichki nutq tuzilishini ochib berishni, uni mantiqiy hamda grammatik qoidalarga muvofiq ravishda tuzishni taqozo etadi.

Psixik jarayonlarning shakllanishida tilning ahamiyati

Inson ongi ijtimoiy chuqur tabiatga ega. U predmetli faoliyat jarayonida, bolaning kattalar bilan muloqotida, kattalarning bir-birlari bilan muloqot jarayonlarida shakllanadi va boshlanishidan ijtimoiy xarakterga ega. Muloqot jarayonida bolaga umuminsoniy tajribalarning asosi beriladi. Shuning uchun individual-psixologik, alohida shaxs psixologiyasi ijtimoiy holat hisoblanadi. Agar umuminsoniy tajribani berish jarayonida so'zlar alohida ahamiyat kasb yetsa, iboralar ham insoniy tajribalarni etkazishida muhim rol o'yaydi.

Ma'lumotlarni gaplar orqali ytkazish ikkiga bo'linishi mumkin. Aniq voqealar haqida xabar etkazish yoki voqealarning kommutatsiyasi va mashhur mantiqiy munosabatlardan orqali yetkazish yoki munosabatlardan kommutatsiyasi mavjuddir.

Munosabatlardan kommutatsiyasi hissiy tajribadan ongning murakkab ratsional shakllariga o'tishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilga ta'sir qilishning uch shakli ham mavjud. Insonning tilida nafaqat so'zlar saqlanadi, unda mantiqiy tizimlar ham mavjud. Bular tashqaridan kelgan ma'lumotlarni nafaqat qabul qilish, balki tahlil qilish qobiliyatiga ega. Demak, til insonda mantiqiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Yosh bola o'zining individual tajribalariga tayanib xulosa chiqarish imkoniyatiga egadir. Olovning tanani kuydirish xususiyatiga ega ekanligini ota-onasidan bilishi yoki o'zining hissiy sezgisi orqali ham

bilishi mumkin.¹ Agar inson faqat o‘z tajribasiga tayanib xulosa chiqarsa, uning individual imkoniyatlari cheklangan bo‘lar edi. Shuning uchun ham til orqali mantiqiy fikrlarni aniqlash mumkin.

O‘z tajribasiga tayanmay, mantiqiy munosabatlar asosida xulosa chiqarish imkoniyati bilishning yangi ratsional va mantiqiy shakllari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hattoki voqealar ishtirokchisi bo‘lмаган taqdirda ham o‘zining bilish va mantiqiy tuzilishiga tayangan holda xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Tilning mantiqiy tizimida insonga tayyor tafakkurning dinamik quroli beriladi, shu tariqa mantiqiy strukturalar o‘zlashtiriladi, insonni bilish imkoniyatlari ortadi. Bu ongning yangi imkoniyatlari, til orqali o‘zlashtiriladi, bu esa ongning rivojlanishiga asosiy omil bo‘lib sizmat qiladi. Tilning muhim funksiyalaridan biri bu, uning asosida sezgi, idrok, diqqat, tafakkur, xotira, xayol, emotsiya, iroda vujudga keladi. Bu qarash L.S.Vigotskiy tomonidan fanga kiritilgan.

Ma’lumki, hayvonlarda sezgi va kompleks idrok mavjud. Hayvonlarda diqqat ham mavjud, u muhim signallarni tanlab oladi va kerak bo‘lмаган harakatlarni to‘xtatadi, hayvonlarda ham xotira mavjud, u xotira orqali oldinga tajribalar asoratini saqlaydi va ma’lum shart-sharoitlarda ularni ishlataadi.

Tabiiyki, bunday funksiyalar insonlarda ham mavjud, lekin ularning hayvonlardan farqi, insonlarda bu jarayonlar nutqqa bog‘langan holda amalga oshiriladi. Bu funksiyalar ongning tarixiy shakllanishi bilan genetik jihatidan bog‘liqidir.² Bularning hammasi inson psixikasining o‘ziga xosligini tashkil qiladi.

Insonning sezgisi va idrokining o‘ziga xosligi – bu har bir sezgi va har bir idrok nafaqat sezuvchi komponent, balki so‘z orqali ifoda qilingan ratsional komponentlar ham mavjud va aynan shu sezgi va idrokni murakkablashadiradi. Masalan, 1,5 *mln* rang turi mavjud. Biroq biz 12-15 yoki 20-30 so‘z orqali ranglarni nomlaymiz ularni biz qizil, suriq, yashil, ko‘k, qora deb ataymiz. Biz ranglarning boshqa so‘zlarini topa olmaymiz, lekin qalbimizda ularni nomlay boshlaymiz. Biz tovushlarni ham xuddi shunday tahlil qilamiz, ularni ma’lum bir sifatlarga ajratamiz. Bu sezgilarning namoyon bo‘lishiga misol bo‘lishi mumkin. Har qanday bilish jarayonlariga nutqning bevosita aloqasi mavjud.

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P.417.

² Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P.418.

Nazorat savollari

1. Mehnat faoliyatida tilning shakllanishi va vujudga kelishi.
2. Nutqning funksiyasi.
3. Muomalaga kirishish shaxsning faolligi sifatida.
4. Nutqli va nutqsiz muomala.
5. Muloqotning tizimi.
6. Ongning aniq psixologik tavsifi.
7. Ongli timsollar tizimi: hissiy maxsulot, ma'nosi va shaxsiy g'oya.
8. Ongli dunyo tasvirida uning roli

6. Nazorat savollari

1. Mehnat faoliyatida tilning shakllanishi va vujudga kelishi.

2. Nutqning funksiyasi.

3. Muomalaga kirishish shaxsning faolligi sifatida.

4. Nutqli va nutqsiz muomala.

5. Muloqotning tizimi.

6. Ongning aniq psixologik tavsifi.

7. Ongli timsollar tizimi: hissiy maxsulot, ma'nosi va shaxsiy g'oya.

8. Ongli dunyo tasvirida uning roli

7-bob. INSON PSIXIKASINING ONTOGENEZDA RIVOJLANISHI

Reja:

- 1. Insonning rivojlanish bosqichlari va yosh davrlari.*
- 2. Ongning rivojlanishi va ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlash-*
tilishi.
- 3. O'zlashtirish jarayonining tavsifi.*
- 4. Oliy psixik funksiyalarining shakllanishi.*

Insonning rivojlanish bosqichlari va yosh davrlari

Inson umrini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr embrionlik davri hisoblansa, ikkinchi davr – tug'ilgandan keyingi hayot. Embrionlik davrida farzand bir hujayralilardan tortib to hozirgi kunga qadar filogenetik taraqqiyot bosqichlarini qaytaradi. Bola tug'ilgandan keyingi davrlar esa quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Chaqaloqlik davri: (tug'ilganidan 1 oylikkacha bo'lgan davr).

Go'daklik davri (1 oydan– 1 yoshgacha).

Ilk bolalik davri (1 yoshdan – 3 yoshgacha).

Maktabgacha yoshdagi davr (3 yoshdan– 7 yoshgacha).

Kichik mакtab yoshi davri (7 yoshdan –10 yoshgacha).

O'smirlik davri (10 yoshdan–15 yoshgacha).

O'spirinlik davri (15 yoshdan–23 yoshgacha).

Yetuklik davri (23 yoshdan–55 (60) yoshgacha).

Keksayish davri (60 yoshdan –74 yoshgacha).

Keksalik davri (75 yoshdan–90 yoshgacha).

Uzoq umr ko'ruchilar (90 yosh va undan yuqori).

Chaqaloqlik davri. Bolaning ona qornidagi o'sish davri onaning organizmiga uzviy bog'liq holda kechadi. Chaqaloqning barcha hayotiy funksiyalari ovqatlanish, nafas olish, nafas chiqarish, havo haroratinining o'zgarishiga va atmosferadagi moddalar almashinuviga moslashish va hokazolar onaning organizmi orqali amalga oshadi.¹ Chaqaloq hayvonlarning bolalariga qaraganda, himoyaga muhtojroq, nochorroq bo'lib tug'iladi. Tug'ilish arafasida unda nasliy yo'l bilan mustahkamlangan ayrim mexanizmlar, shartsiz reflekslar paydo bo'ladiki, bular yangi hayot sharoitiga moslashishni birmuncha yengillashtiradi.² Chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 174.

² Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 175.

reflekslar ta'sirida vujudga keladi. Chaqaloqlik davrida asosan sezish shakllanadi.

Go'daklik davri. Go'dakning hayotiy faoliyati va taqdiri uni qurshagan, parvarishlaydigan katta yoshdagilarga bevosita bog'liq bo'lib, uning barcha ehtiyoj va talablari faqat shular tomonidan qondiriladi. Go'daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyoji tug'iladi va bu aloqa nutq darvrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bir yoshgacha davrda paydo bo'lgan ehtiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha muloqot cheklanganligining nomutanosibligi bir yoshdagagi inqirozni keltirib chiqaradi. Go'dak o'sishining murakkabligi uning xilma-xil faoliyati o'zaro bog'langanidir. Shuning uchun katta yoshdagi odamlar bu davrda go'dakning ehtiyojlarini to'la qondirishga harakat qilishlari kerak. Shundagina ularning bola psixik dunyosiga mutnazam va maqsadga muvofiq ta'sir etishi bola bosh miya katta yarimsharlarining po'stlog'ining faoliyatini takomillashtiradi. Go'daklik davrida idrok, xotira jarayonlari shakllanadi.¹

Ilk bolalik davri. Ilk bolalik davri alohida ahamiyatga ega. Bu davrda bolalarda nutq shakllanadi, yurish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi. Ilk bolalik davri amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo'l operatsiyalari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Bola ijtimoiy qurollardan foydalanish usullarini o'zlashtirishi natijasida unda predmetli harakat ko'nikmasi shakllanadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o'zlashtirishda ulardagি muhim va o'zgarmas alomatlarni ajratish ko'nikmasi hosil bo'ladi, natijada umumlashtirish va umumiyl tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni yuz beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o'sishiga ijobjiy ta'sir qiladi. O'z xatti-harakatini kattalarning harakatlari bilan solishtirish va uning o'xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aqliy o'sishni to'g'ri yo'naltirish uchun bola bilan maxsus reja asosida mashg'ulotlar o'tkazish zarur.²

Maktabgacha yosh davri. Maktabgacha yoshdagи davr o'z ichiga 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. 3 yoshda harakatni muvofiglashtirish jarayonining takomillashuvi bola yugorganida, bir joyda tik turganida muvozanatni saqlash imkonini yaratadi. Buning natijasida bola mustaqil holda turli harakatlarni amalga oshira boshlaydi. Jismoniy jihatdan mustaqillikka erishish bolada erkin, kattalarning

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 175.

² Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 178.

nazoratisiz, o‘z holicha qandaydir ishlarni bajarish, umuman yashash istagini tug‘diradi. Bu davrda egotsentrik nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Rolli o‘yinlar ularning faoliyatlarida yetakchilik qiladi. Rolli o‘yin fuqat alohida olingen jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda ham zarurdir.¹

Kichik maktab yoshi davri. Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlang‘ich sinflarning o‘quvchilari kiradi. Bola maktab ta‘limiga bog‘chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning eng muhim xususiyatlardan biri unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyati bilan muayyan hilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o‘quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ixtiyorsiz diqqat, mexanik xotira yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar “vaqt” tushunchasi bilan duch kelishadi, lekin ular kundalik tajribalari doirasidan chiqishmaydi.²

O‘smirlilik davri. O‘smirlilik insonning balog‘atga etish davri bo‘lib, o‘ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog‘onalaridan keskin farqlanadi. O‘smirda ro‘y beradigan biologik o‘zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog‘at davriga 11-15 yoshgacha bo‘lgan qiz va o‘g‘il bolalar kiradi. Bu davrda jismoniy o‘sish va jinsiy yetilish amalga oshadi. Bu davrda jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O‘smirlarda jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini otanadan, 9 foizini o‘qituvchilardan, 4 foizini maktab vrachi va psixologidan, qolgan foizini o‘rtoqlaridan, tengdoshlaridan ko‘cha ko‘ydan oladilar. O‘smirlardagi fiziologik, psixologik nuqsonlar ularni tarbiyasi qiyin o‘smirlar qatoriga qo‘shilishiga olib keladi.

O‘spirlinlik davri. O‘spirlinlik davri ikkiga bo‘linadi ilk o‘spirlinlik va o‘spirlinlik. Ilk o‘spirlinlik davri 15-18 yoshlarni qamrab oladi. Bu kollej va litsey talabalari hisoblanishadi. O‘spirlinlik davri talabalik davri hisoblanadi 19-23 yoshlarni qamrab oladi. Ilk o‘spirlinlik davri katta hayot ostonasida turgan yoshlar hisoblangani uchun ulardagi eng katta motivlardan biri bu kasb tanlash motivi hisoblanadi. Bu davrda mehnat faoliyati ustunlik qiladi. O‘spirlinlik davriga kelib mustaqil hayotga qadam tashlanadi, buning natijasida har bir yoshda umr yo‘ldoshi

tanlash funksiyasi ustunlik qiladi. Bunda har xil motivlar asosida umr yo'ldoshi tanlanadi.¹

Yetuklik davri. Etuklik davri uch bosqichga bo'linadi: yoshlik, birinchi bosqichi va ikkinchi bosqichi. Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlardan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalgalashirishdan iboratdir. Yetuklik davrining birinchi bosqichiga 28-35 yoshlar kiradi yetuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to'la safarbar qila oladi. Etuklik davrining ikkinchi bosqichi 36-55 (60) yoshlardagi erkak va ayollarni o'z ichiga oladi. Ytuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rinni egallaydi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir. Lekin odamlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'ra bu chegara turilicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin.

Psixogerontologiya keksayish davri. Keksayish davriga 61 (56) -74 yoshli erkak va ayollar kiradi. Bu davrdagi kishilar xilma-xil xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa yosh davrdagilaridan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: a)mutlaqo iste'foga chiqqan, ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar, b)nafaqaxo'r erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Keksayish davrida biologik organlarning zaiflashuvi psixik jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Ruhiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi.²

Keksalik davri. Keksalik 75-90 yoshdagagi erkak va ayollar kiradi va bunday odamlarning boshqa yosh davrlaridagi odamlardan keskin farqlanadigan xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Keksalarni jismoniy va aqliy faollikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko'nikkan qariyalar guruhiga ajratish mumkin.

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 184.

² Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 188.

Ongning rivojlanishi va ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirilishi

Endilikda psixologik va xulq-atvor shakllanishida yangi pog'onaga ko'tarilish uchun organizm ichki tuzilishi va unda kechadigan jarayonlarni, irsiy axborotni o'zgartirish shart emas.

«Oliy psixik funksiyalar» tushunchasi fanga L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, bunday funksiyalar sirasiga L.S.Vigotskiy tushunchali tafakkur, mantiqiy xotira, ixtiyoriy diqqatni kiritgan edi. L.S.Vigotskiy shunday deb yozgan edi: «Oliy psixik funksiyalar» tushunchasi va tadqiqotlarimiz predmeti hodisalarning ikki guruhini o'z ichiga oladi... Bular, birinchidan, madaniy rivojlanish va tafakkurning tashqi vositalari – til, yozuv, hisob, rasm chizishni egallash jarayonlari; ikkinchidan, chegaralanmagan va aniq belgilanmagan va an'anaviy psixologiyada ixtiyoriy diqqat, mantiqiy tafakkur, tushunchalarning hosil bo'lishi deb ataluvchi maxsus oliy psixik funksiyalarning rivojlanish jarayonlari. Ularning ikkalasi ham birgalikda biz shartli ravishda bola xulq-atvori oliy shakllarining rivojlanish jarayoni deb ataydigan jarayonni hosil qiladi».

Mehnat qurollari, belgili tizimlarning kashf etilishi, takomillashitirilishi va keng qo'llanilishi yordamida insoniyat o'z tajribasini turli matnlar, ijodiy mehnat mahsuli ko'rinishida to'plash va saqlab qolish, ta'lim-tarbiya tizimi orqali uni avloddan-avlodga o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Keyingi avlod vakillari avvalgilari tomonidan ishlab chiqilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda o'z taraqqiyotlarini davom ettirdilar.

Shu tarzda, asta-sekin asrdan asrga o'tgan sayin odamlarning ijodiy layoqatlari takomillashib bordi, borliq haqidagi bilimlari kengayib va chiqurlashib, insonni hayvonot dunyosi uzra yuksak pog'onalarga olib chiqdi. Vaqt o'tishi bilan inson tabiatda o'xshashi bo'lmagan ko'plab jismlarni yaratdi va ularni takomillashtirdi. Bu jismlar insonga moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilish bilan birga, inson qobiliyatlarini rivojlantirish uchun manba funksiyasini o'tadilar.

Lekin insoniyat kashf etgan belgili tizimlar odamlar rivojlanishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ularning yuzaga kelishi matematika, muhandislik, fan, san'at, inson faoliyatining boshqa sohalari rivojiga turki bo'ldi. Harfli ramzlarining paydo bo'lishi axborotni yozib olish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatini yaratdi.

Axborotni yozib olish, saqlash va qayta ishlash usullarini takomillashtirishda erishilgan alohida muhim yutuqlar yangi ilmiy-

texnikaviy inqilobga sabab bo'ldi. Bular: axborotni yozib olishning magnitli, lazerli va boshqa shakllari.¹

Belgili tizimlar, ayniqsa, nutq odamlar tomonidan qo'llanilishi bilanoq insonning o'ziga ta'sir ko'rsatishning, o'zini qabul etishi, diqqati, xotirasi, boshqa bilish jarayonlarini boshqarishning samarali vositasi bo'lib qoldi. Insonga tabiat tomonidan ato etilgan sezgi organlaridan iborat birlamchi signalizimi bilan bir qatorda (I.P.Pavlov), so'zlashuv layoqatidan iborat ikkilamchi signal tizimiga ham egadir. Odamlarga tanish bo'lgan ma'noga ega bo'lgan so'zlar insonlar psixologiyasi va xulq-atvoriga ularning o'rmini bosa oladigan jismlar kabi, ba'zida esa tasavvur qilish qiyin bo'lgan hodisa va jismlarni bildirish (abstrakt tushunchalar) orqali ulardan ham kuchliroq ta'sir ko'rsata boshladilar. Ikkilamchi signal tizimi insonning o'zini boshqarishi va muvofiqlashtirishining kuchli vositasi bo'lib qoldi. Idrok jismlilik, o'zgaruvchanlik, anglanganlik; diqqat ixtiyoriy, xotira – mantiqiy; tafakkur – so'zlashuv va mavhumlik sifatlariga ega bo'ldi.

So'z inson xatti-harakatlarining asosiy boshqaruvchisi, axloqiy va madaniy qadriyatlar elchisi, inson tamadduni hamda uning idrokli va axloqiy barkamolligi manbai va vositasi bo'lib qoldi. Uning o'zi ta'lif va tarbiya berishning bosh omili sifatida namoyon bo'ldi. So'z yordamida individ insonga – shaxsga aylandi. Odamlarning shakllanishida nutq muloqot vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Uning rivojlanishi dunyoning turli burchaklarida istiqomat qiluvchi va turli tillarda so'zlashuvchi odamlarning o'zaro aqlan va madaniy boyishiga ko'mak berdi.

Taxminan, XVII asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda ko'pchilik inson va hayvonlar o'rtasida tanasining ichki tuzilishi va xulq-atvorida, shuningdek, kelib chiqishida ham hech qanday umumiylilik bo'lishi mumkin emasligi haqida fikr yuritgan edi. So'ngra tana mexanikasining umumiyligi tan olinib, inson psixikasi va xulq-atvori o'rtasidagi tafovutlar saqlanib qoldi (XVII-XVII asrlar). 1872-yilda Ch.Darvin o'zining «Odam va hayvonlar hissiyotlarining ifodalanishi» kitobini chop ettirdi, bu kitob biologik va psixologik hodisalar o'rtasidagi aloqani tushunib yetishda burilish yasadi. O'zining bu asarida Darwin evolutsiya tamoyilining hayvonlarning faqat biologik rivojlanishiga emas, balki ularning psixologik hamda xulq-atvor rivojlanishiga ham qo'llanilishi mumkinligini isbotladi. Uning fikriga ko'ra, hayvon va odam xulq-atvori o'rtasida umumiylilik ko'pchilikni tashkil etadi.

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 176.

O'zining bunday nuqtai nazarini u hayvonlar va odamlarda turli emotsiyal holatlarning tashqi ifodalaniishi ustida olib borgan kuzatishlaridan kelib chiqqan holda asoslab berdi. Shu davrdan boshlab, inson va hayvonlar psixikasini tadqiq etish ishlari jadallik bilan boshlab yuborildi. Boshlang'ich davrda Darvinnning ta'siri ostida bu ishlar hissiyotlar va tashqi reaksiyalar ustida olib borilgan bo'lsa, keyinchalik amaliy fikrlash sohasiga ham yoyildi. XX asrda hayvonlar o'rtasidagi temperamentning alohida tafovutlari tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otdi (I.P.Pavlov), so'ngra odam va hayvonlar kommunikatsiyasida, xulq-atvorning guruhli shakillarida va bilish mexanizmlaridagi o'xshashliklarni izlash ishlari boshlab yuborildi.

Inson va hayvonlar o'rtasida mavjud bo'lgan tafovutlarni aniqlashdan avval shunga o'xshash tadqiqotlarning natijalarini bilish pedagog uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqidagi savolga javob topish zarur. Hayvon psixologiyasi va xulq-atvoriga tegishli barcha mavjud bo'lganlar egallanishi mumkin bo'lgan ikki usuldan biri orqali: irlisyat tomonidan berilishi yoki tabiiy bilish jarayonida o'zlashtirilishi mumkin. Irlisyat tomonidan o'tkaziladigan belgi va xususiyatlar ta'lim-tarbiyaga bo'yusunmaydi; hayvonda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan xususiyat odamda ham maxsus ta'lim-tarbiya jarayonisiz yuzaga kelishi mumkin. Insonni o'rganishda uni hayvonlar bilan solishtirish orqali bir xilda anatomik va fiziologik kurtaklarning mavjudligida inson o'z psixologiyasi va xulq-atvorida hayvonga nisbatan yuksakroq rivojlanish darajasiga erishgan ekan¹, u holda bu yutuq ta'lim va tarbiya orqali ongli ravishda boshqarish mumkin bo'lgan bilishning natijasidir.

Shunday qilib, inson va hayvonlarni qiyosiy psixologik, xulq-atvor jihatdan tadqiq etish bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni va metodlarini to'g'ri, ilmiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi. Inson kabi hayvonlar ham bilish xususiyatiga ega, ularda olamni oddiy hissiyotlar ko'rinishida idrok qilib, axborotni eslab qolish imkonini yaratuvchi tug'ma boshlang'ich layoqatlar mavjud.

Barcha asosiy bo'lgan his-tuyg'ular, idrok, ko'rish, eshitish, sezish, hid va ta'm bilish, teri sezuvchanligi va boshqalar odam va hayvonlarda dunyoga kelishlari bilan tarkib topgan bo'ladi. Lekin taraqqiy etgan insonning idrok qilishi va xotirasi hayvonlar va chaqaloqlarning shunga o'xshash funksiylaridan farq qiladi. Bu farqlarni bir necha sohalar bo'yicha ko'rsatib o'tish mumkin:

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 191.

1. Odamda hayvonlardan farqli ravishda muvofiqlashgan bilish jarayonlari alohida sifatlarga ega: *idrok qilish* – jismliligi, doimiyligi, anglanganligi; *xotira* – ixtiyoriligi va belgilanganligi (inson tomonidan axborotning eslab qolish, saqlash va ishlatalishning maxsus, madaniy jihatdan ishlab chiqilgan vositalarning qo'llanilishi) bilan ajralib turadi. Aynan shu sifatlar inson tomonidan hayoti davomida egallanib boriladi va keyinchalik ta'lim olish orqali rivojlantiriladi.

2. Hayvonlar *xotirasi* insonlarnikidan farqli ravishda chegaralandgandir. Ular o'z hayoti davomida o'zlarini egallashi mumkin bo'lgan axborotni qo'llay oladilar, xolos. O'zlaridan keyingi avlodga irsiy saqlanib qolishi mumkin bo'lgan va genotipda o'z ifodasini topgan belgi va xossalarni o'tkazadilar. Tajribaning qolgan qismi hayvonning nobud bo'lishi bilan qaytarib bo'lmaydigan darajada kelajak avlod uchun o'z ahamiyatini yo'qtadi. Insonda buning hammasi boshqacha tarzda kechadi. Uning *xotirasi* cheksizdir. Inson benihoya ko'p miqdordagi axborotni, unda bunga zaruriyati bo'lmasa ham, yod olib, xotirada saqlab va nazariyada ifodalay olishi mumkin. Buning uchun odamlar axborotni yozib olishning belgili tizimi va vositalarini kashf etganlar. Ular axborotni yozib olib, uni saqlashdan tashqari, avloddan avlodga moddiy va ma'naviy buyumlar orqali belgili tiziimlar va vositalardan foydalanishni o'rgatishni ham o'tkazishlari mumkin.

3. Shuningdek, inson va hayvonlar tafakkuridagi tafovutlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ikki nomlari tilga olingan tirik mavjudotlar dunyoga kelishlari bilan ko'rgazmali-harakat ko'rinishidagi oddiy amaliy masalalar yechimini topish kabi yashirin, ammo yuzaga chiqishi tayin bo'lgan layoqatga ega bo'ladi. Lekin, idrok taraqqiyotining keyingi ikki – *ko'rgazmali-tasavvur* va *so'zlashuv-mantiqiy* tafakkur bosqichlarida – ular o'rtasida keskin farqlar namoyon bo'ladi. Faqat yuqori tuzilgan hayvonlargina tasavvurlarni qo'llay oladilar, shu bilan birga, bu fikr fanda hanuzgacha bahslarga sabab bo'lmoqda. Odamda ushbu layoqat ikki-uch yoshlarda namoyon bo'ladi. So'zlashuv-mantiqiy tafakkurga keladigan bo'lsak, hayvonlarda idrokning bu turiga tegishli belgilari ko'rinxaydi, chunki ular mantiqni ham, so'zlar ma'nosini ham udda qilolmaydilar.

4. Hayvonlar va odamda hissiyotlar ifodalanishining taqqoslanishi haqidagi masala o'rganilishining murakkabligi bilan ajralib turadi. Uni hal etishdagi qiyinchilik odam va hayvonlarga xos bo'lgan birlamchi hissiyotlar tug'ma xu'susiyatga ega ekanliklarida o'z aksini topgan. Shu

bilan birga, inson hayvonlarda mavjud bo'lmagan yuksak axloqiy histuyg'ularga ega.

5. Olimlar odamlar va hayvonlar xulq-atvori motivatsiyasidagi umumiylik va tafovutlar masalasini hal etishga juda katta kuch va vaqt sarfladilar. Ularning ikkalasida ham ko'p sonli umumiy, organik xususiyatli ehtiyojlar mavjud. Shu bilan birga, shunday ehtiyojlar borki, insonlar va hayvonlar o'rtasidagi farqlar haqidagi masala shu vaqtgacha munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu – *muloqot, altruzizm, ustunlik, tafovuzkorlikka* bo'lgan ehtiyojlar. Ularning boshlang'ich belgilarini hayvonlarda kuzatish mumkin, xuddi shuningdek, hozirgacha ularning insonga irsiyat orqali berilishi yoki ijtimoiylashtirish natijasida egallanishi aniq ma'lum emas. Shuningdek, inson shunga yaqin bo'lgan o'xshashliklar hech bir hayvonda kuzatilmaydigan maxsus ijtimoiy ehtiyojlarga ham ega. Bunda ma'naviy ehtiyojlar, axloqiy qadriyat asosiga ega ehtiyojlar, ijodiyot bilan bog'liq ehtiyojlar, barkamollikka erishishga bo'lgan ehtiyoj, estetik va boshqa qator ehtiyojlar nazarda tutildi.

Shunday qilib, inson o'zining psixologik sifatlari va xulq-atvor shakllari bilan hayvonlarga qisman o'xhash va ulardan qisman farq qiluvchi ijtimoiy-tabiiy mavjudotdir. Uning hayotidagi tabiiy va ijtimoiy asoslar birqalikda mavjud bo'lishi, ba'zida esa bir-biri bilan raqobatlashishi mumkin.

Ong inson tomonidan voqelikni aks ettirishning yuksak darajasi bo'lib hisoblanadi. Inson ongingin birlamchi psixologik xossasi o'zini bilish subyekti sifatida his etish, mavjud va tasavvurdagi voqelikni xayolan tasvirlash layoqati, shaxsiy psixik va xulq-atvor holatlarini nazorat qilish, ularni boshqara olish, atrofdagi reallikni tasavvurlar shaklida ko'rish va idrok qilish layoqati kabilarni o'z ichiga oladi. O'zini bilish subyekti sifatida his etish insonning olamni o'rganish va bilishga, ya'ni olam haqida u yoki bu darajada aniq bilimlarni egallahsha tayyor va layoqatli, bu olamdan bo'lak qilingan mavjudot sifatida anglashini bildiradi.

Ongsizlik (uyqu, gipnoz, kasallik va b.) holatlarida bunday layoqat yo'qoladi. *Xayolan tasavvur qilish* va *voqelikni tasvirlash* – ongingin ikkinchi muhim psixologik xossasi. U ong kabi yaxlitligichairoda bilan uzziy bog'langan. Odatda, tasavvurlarni ongli boshqarish va tasavvur qilish haqida ularning inson iroda kuchi yordamida yuzaga kelgan va o'zgarishlarga uchragan holatlarda so'z yuritiladi. Ushbu holatda inson istiyor, ya'ni ongli ravishda atrofni idrok etishi mumkin.

O'zlashtirish jarayonining tavsifi

Har qanday harakatda motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlarni ajratish mumkin. Ular mos holatda bajarish, nazorat yoki boshqarish funksiyalarini bajaradilar. Faoliyat davomida inson tomonidan qo'llaniladigan harakatni bajarish, nazorat va *boshqarish uslublari* ushbu faoliyatning *usullari* deb ataladi.

Sanab o'tilgan har bir funksiya insonda ongli, shu bilan birga, ongsiz ravishda ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, inson tomonidan so'zlarni talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan qizilo'ngach harakatlari tizimi inson tomonidan umuman anglanmaydi, lekin inson aytmoqchi bo'lgan jumlalar ma'nosi va grammatik shakllar ong darajasida doimo oldindan bilinadi. Ba'zi bir harakatlar ongli va ongsiz boshqarish darajalarida bajarilishi mumkin.

Masalan, yurish – harakatlarning ko'p qismi ongsiz ravishda bajariladigan faoliyatga misol bo'la oladi. Lekin dor ustida yurishda xuddi shu harakatlarni bajarish, ularning sensor nazorati va markaziy boshqarilishi o'ta zo'riqsan holatdagi anglash obyektiga aylanadi. Teskari hodisa ro'y berishi ham mumkin, bunda harakatning ma'lum tomonlari avval izchil tarzda ongli boshqarilishni talab etadi, so'ngra esa borgan sayin ong ishtirokisiz amalga oshirila boshlaydi, bunday holat avtomatlashtirish deb nomlanadi. Odamda maqsadga muvofiq harakatlarning aynan shunday xususiy avtomatlashtirilgan holatda bajarish va boshqarish *ko'nikma* deb ataladi. Psixologiyada *ko'nikma* ongli harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi sifatida ta'riflanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday holatda aynan harakatlarning ongsiz boshqarilishi haqida so'z yuritiladi, chunki faoliyatlar boshqariluvi va harakatlar boshqariluvi – bu boshqa-boshqa tushunchalar hisoblanadi.

Harakatlarning oshib borayotgan avtomatlashuvi bir vaqtning o'zida bunday harakatlarga tegishli bo'lgan harakatlarni ongli boshqarishning kengayishi ham kuzatiladi. Harakatning u yoki bu tarkibiy qismlarini avtomatlashtirish faqatgina ongli boshqaruv obyektining joyini o'zgartirib, harakatning umumiyligi maqsadlarini, bajarish sharoitlarini, natijalar nazorati va baholanishini ong doirasiga olib chiqadi. Bunday xususiy avtomatlashtirish tufayli amalga oshish imkoniyatiga ega bo'lgan harakat tuzilishining o'zgarishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Harakatlarni bajarish usullari o'zgaradi. Bungacha ajratilgan holatda bajarilib kelinayotgan bir qator xususiy harakatlar o'zining tarkibidagi alohida oddiy harakatlar o'rtasida uzilishlar bo'lmagan yagona aktga, bitta murakkab harakatga qo'shiladi. Xuddi shunday,

o'quvchi husnixat yozishni boshlaganida ko'plab ortiqcha harakatlarni bajaradi: tilini chiqaradi, tanasini qimirlatadi, boshini egadi va h. Faoliyatni o'zlashtirib olish bilan barcha zarur bo'lmasagan harakatlar yo'qoladi. *O'rindoshlik*, ya'ni harakatlarni bir vaqtning o'zida ikki qo'l bilan bajarish usuli paydo bo'ladi.

2. Harakat ustidan sensornazorati usullari o'zgaradi. Harakatni bajarish ustidan *ko'rav nazorati* mushak nazorati (kinestetik) bilan almashinadi. Misol tariqasida klaviaturada qaramasdan harflarni terish, malakali chilangarning ko'rav nazoratisiz bolg'a urishi va boshqalarni keltirish mumkin. Harakat natijalarining nazorati uchun muhim bo'lgan aniqlovchilarni tezda belgilash va ajratish layoqati rivojlanadi.

3. Harakatning markazdan boshqarilish usullari o'zgaradi. Diqqat faoliyat usullarini idrok qilishdan ozod bo'lib, asosan, sharoitga va faoliyatlar natijalariga qaratiladi. Ayrim hisoblashlar, masalalar yechimlari va boshqa aqliy operatsiyalar tezlik bilan va qo'shilgan holatda (ihki sezgi) amalga oshishni boshlaydi. Xuddi shunday, masalan, dvigatelning zo'riqqan ovozini eshitgan haydovchi o'ylab o'tirmay, quysi o'tkazgichni yoqish kerakligini darrov tushunib oladi. Faoliyat usullarida bu o'zgarishlar qanday paydo bo'ladi, ularning psixologik mexanizmi qanday? O'z asosida bu mexanizm *tadqiqot urinishlari* va *tunlashdan* iborat. Odam ma'lum faoliyatni bajarishga urinib ko'radi, uning natijasini nazorat qiladi. Samarali harakatlar, o'zini oqlagan boshqarish aniqlovchilari va usullari asta-sekin tanlab olinadi va mustahkamlanadi, samarasiz va o'zini oqlamaganlari kuchsizlantiriladi va tanlanadi. Egallanish maqsadida, tushunib olishga tayangan va ongli nazorat, hamda tuzatishlar kiritish bilan birga ma'lum harakatlar yoki faoliyat turlarini qayta-qayta bajarish *mashq qilish* (o'rganish) deb ataladi.

Inson faoliyati xususiyatining o'rganilishi va o'zgartirilishi bu harakatlarni bajarishda uning psixik faoliyati tuzilishidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ongli nazorat va tuzatishlar bilan hamohang bo'lgan har bir yungi urinish masala amallarini va usullarinigina eslab qolishda aks etmaydi. U, odatda, masalani ko'rib chiqish vositalari, uni yechish usullari, faoliyatni boshqarish vositalarining o'zgarishiga olib keladi. Ko'nikmaning shakllanishida yetakchi vosita bo'lib, nutq faoliyati – kuzatiladigan va bajariladigan faoliyatlarning inson tomonidan so'z bilan ifodalanishi, shuningdek, har tomonlama *mukammal faoliyat* – amalga oshirilishi zarur bo'lgan faoliyat obrazini tasavvurda hosil qilish hisoblanadi. Odamda ko'nikmalar shakllanish mexanizmlarining alohida

xususiyatlari ularning shakllanish jarayoni qonuniyatlarini belgilab beradi. Ko'nikma odamda *ongli* avtomatlashtirilgan faoliyat sifatida paydo bo'ladi. U faoliyatning avtomatlashtirilgan usuli sifatida o'z funksiyasini bajaradi. Uning funksiyasi ongni faoliyat usullarini bajarish ustidan nazoratdan xalos etish va uni faoliyat maqsadi, shuningdek, sharoitlariga qaratishdan iborat. Bu jarayonning asosiy bosqichlarini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

2 -jadval

Ko'nikma rivojlanishi bosqichlari	Ko'nikmaning xususiyati	Ko'nikma maqsadi	Harakatni bajarishning o'ziga xos xususiyatlari
1. Tanish-tiruvechi	Harakatlarni anglash va ularni taqdim etish.	Harakatni bajarish usullari bilan tanishish.	Maqsadni aniq, lekin unga erishish usullarini g'ira-shira tushunish; harakatda juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yish.
2. Tayyor-lov (tahliliy)	Ongli, lekin uquvsiz bajarish.	Harakatning alohida elementlarini o'rganish	Harakat bajarish usullarini aniq tushunish, lekin ularni noaniq va tayinsiz bajarish; ortiqcha harakatlar egallash; ularni bajarish usullarining tahlili. ko'p, diqqat o'ta zo'riqqa holatda; harakatlarda diqqatning jamlanganligi; salbiy nazorat.
3. Barqa-rorlashtiruvchi (sun'iy)	Harakat elementlarini avtomatlashtirish.	Sodda harakatlarning gallanishi va yagona harakatga birlashuvi.	Harakatlar sifatining oshishi, ularning qo'shilib, ortiqchasingin bartaraf etilishi, diqqatning natijaga o'tkazilishi; nazoratning yaxshilanishi, mushaklar nazoratiga o'tish.
4. O'zgaruvchi (vaziyatli)	Vaziyatga egiluvchan moslashuvchanlik.	Faoliyat xususiyatini ixtiyoriy boshqarishni egallash.	Harakatlarni maqsadga muvofiq holda epchillik bilan bajarish; maxsus sensorli bog'lovchilar asosida nazorat qilish; aqliy bog'lovchilar (ichki sezgi).

Ko'nikmalar bilan birga malakalar hamfaoliyatning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi va uning tuzilishida o'z o'rniga ega. «Malakalar» atamasi subyektda mavjud bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar bilan fuoliyatni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish uchun zarur bo'lgan psixik va amaliy harakatlarning murakkab tizimini egallashni bildiradi. Malakalarni shakilantirish bilimlarda mujassamlangan axborotni, shuningdek, jismdan olinadigan axborotni, bu axborotni aniqlashga doir amallarni, ularni tuzish va faoliyat bilan solishtirishni qayta ishlash bo'yicha amallar tizimini egallashdan iborat. Malakalarni shakllantirish, ularni egallash jarayoni turli yo'llar bilan amalgalashish mumkin. Asosan, ikki yo'lni ajratib ko'rsatadilar. Ularning birinchisida ta'lim oluvchi zarur bilimlarga ega bo'ladi, ularni qo'llashga doir funksiyalar qo'yiladi va o'quvchining o'zi axborotni qayta ishlash va faoliyat usullarini aniqlagan holda masalaning yechimini izlashga harakat qiladi. Bu yo'l samaradorligi kamroq bo'lsa-da, ta'limda keng qo'llaniladi. Ikkinci yo'l bilimlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan o'quvchi ruhiy faoliyatining o'qituvchi tomonidan boshqarilishidan iborat. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchini belgi va amallar bo'yicha tanlash bilan tunishtiradi, qo'yilgan masalalarni echish uchun olingen axborotni qayta ishlash va qo'llashga doir o'quvchining faoliyatini tashkillashtiradi. Hozirda bu usul pedagogik psixologiyada jadallik bilan qo'llanilib kelinyapti. Inson faoliyati ongli faollik sifatida ongning shakllanishi va taraqqiy etishi bilan bog'liq ravishda shakllanadi va rivojlanadi. U har doim insonning atrofdagilar bilan munosabatlarning muayyan tizimida amalgalashiradi. Faoliyat hamkorlikdagi faoliyat xususiyatiga ega bo'ladi. Uning natijalari atrof-olamga, odamlar hayoti va ularning taqdiriga o'z ta'sirini o'tkazadi. Inson tomonidan yaratilgan faoliyat mahsulotlari uning vafotidan keyingi hayotini davom ettiradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, faoliyatda inson *shaxsi* namoyon bo'ladi va bir vaqtning o'zida faoliyat uning *shaxsini* shakllantiradi. Faoliyat atrof-olamni, shuningdek, insonning o'zini bilishga va o'zgartirishga qaratilgan ongli faollikkadir. Lekin bu faollik ta'lim va tarbiya ta'siri ostida rivojlanish davomida asta-sekin maqsadga yo'naltirilgan ongli fuoliyat shakllariga ega bo'ladi. Yosh bolaning bunday faolligi avval *impulsiv xulq-atvor* xususiyatiga ega bo'ladi. Hayotining dastlabki kunlarida bolaning xulq-atvori sodda tug'ma – himoyaviy, ozuqaviy, labirintli (tebratganda tinchlanish) va keyinchalik esa – yo'nalishli tadqiqiy reaksiyalar bilan cheklanadi. Ularning asosida bir yil davomida *tadqiqiy xulq-atvor* rivojlanadi. Bir yoshda o'qitish va taqlid qilish

ta'sirida *amaliy xulq-atvor* shakllana boshlaydi. Uning yordamida bola narsalardan foydalanishning insoniy usullarini va ularning ijtimoiy amaliyatdagi ahamiyatini o'zlashtiradi (krovatiga uqlash uchun yotish, ovqatni qoshiq bilan yeyish, koptok bilan o'ynash, qalam bilan rasm chizish). Faollikning ushbu shakllari bilan birlikda bolaning o'z ehtiyojlari va istaklarini qondirish imkoniyatlari ortadi.

Faoliyatning asosiy turlari erishishda, ijtimoiy talablar va ma'lumotlarni o'zlashtirishda ko'mak beruvchi – *kommunikativ xulq-atvor* rivojlanadi. Avval bu xulq-atvor nutqqacha bo'lgan shakllarda namoyon bo'ladi (qichqiriq, mimika, imo-ishora). So'ngra bola faollik bilan insoniy muloqot, o'zaro ta'sir va axborot almashinuvining bosh vositasi – *nutqiy xulq-atvorni* o'zlashtira boshlaydi. Nutqni egallash tasvirlarni buyum va harakatlardan ajratish, ahamiyatli holatlarni bo'rttirib ko'rsatish, ularni qayd etish va xulq-atvorni boshqarishda ular bilan amallarni bajarish uchun hal qiluvchi dastlabki shart-sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, faoliyat – bu inson bilan atrofidagi olam o'rtasidagi real aloqa o'rnatiladigan voqelikka bo'lgan faol munosabat shakli. Inson faoliyatda o'zining ichki xossalarni ochib borib va tadbiq etib, buyumlarga nisbatan *subyekt*, odamlarga nisbatan esa *shaxs* sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon kishisi faoliyatning har xil turlari bilan shug'ullanadi. Faoliyat turlari shunchalik ko'PKI, ularning hammasini tasavvur qilib ham, ta'riflab ham bo'lmaydi, chunki barcha faoliyat turlari inson ehtiyojlari bilan bog'liqidir, ehtiyojlarning ko'p qismi esa odamlarning individual xususiyatlari tomonidan belgilanadi. Shunday bo'lsa-da, barcha insonlarga xos bo'lgan faoliyatning asosiy turlarini ajratish va umumlashtirish mumkin. Ular hamma odamlarga xos bo'lgan umumiyligi ehtiyojlarga mos keladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ularga har bir odam rivojlanish jarayonida muqarrar ravishda boshidan o'tkazadigan ijtimoiy faollik turlarini kiritishimiz mumkin. Bunday faoliyat turlari bo'lib muloqot, o'yin, o'quv va mehnat hisoblanadi. *Muloqot* o'zaro munosabatda bo'lgan odamlar o'rtasida axborot almashinuvga, aloqalar, ular orasida bir-birini tushunish va ochiq munosabatlarni o'rnatishga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida o'rganiladi.

Oliy psixik funksiyalarining shakllanishi

Inson ongi chuqr ijtimoiy tabiatga ega. U predmetli faoliyat jarayonida, bolaning kattalar bilan muloqotida, kattalarning bir-birlari bilan muloqot jarayonlarida shakllanadi va boshlanishidan ijtimoiy

xarakterga ega. Muloqot jarayonida bolaga umuminsoniy tajribalarning asosi beriladi. Shuning uchun individual-psixologik, alohida shaxs psixologiyasi ijtimoiy holat hisoblanadi. Agar umuminsoniy tajribani berish jarayonida so'zlar alohida ahamiyat kasb etsa, iboralar ham insoniy tajribalarni etkazishida muhim rol o'yndi.

Ma'lumotlarni gaplar orqali yetkazish ikkiga bo'linishi mumkin. Aniq voqealar haqida xabar yetkazish yoki voqealarning kommutatsiyasi va mashhur mantiqiy munosabatlar orqali etkazish yoki munosabatlar kommutatsiyasi mavjuddir.

Munosabatlar kommutatsiyasi hissiy tajribadan ongning murakkab ratsional shakllariga o'tishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilga ta'sir qilishning uch xil shakli mavjud. Insonning tilida nafaqat so'zlar saqlanadi, unda mantiqiy tizimlar ham mavjud. Bular tashqaridan kelgan ma'lumotlarni nafaqat qabul qilish, balki tahsil qilish qobiliyatiga ega. Demak, til insonda mantiqiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Yosh bola o'zining individual tajribalariga tayanib xulosa chiqarish imkoniyatiga egadir. Bola olovning tanani kuydirish xususiyatiga ega ekanligini ota-onasidan bilishi yoki o'zining hissiy sezgisi orqali ham biliishi mumkin. Agar inson faqat o'z tajribasiga tayanib xulosa chiqarsa, uning individual imkoniyatlari cheklangan bo'lar edi. Shuning uchun ham til orqali mantiqiy fikrlarni aniqlash mumkin.¹

O'z tajribasiga tayanmay, mantiqiy munosabatlar asosida xulosa chiqarish imkoniyati bilishning yangi ratsional va mantiqiy shakllari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hattoki voqealar ishtirokchisi bo'lmagan taqdirda ham o'zining bilish va mantiqiy tuzilishiga tayangan holda xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Tilning mantiqiy tizimida insonga tayyor tafakkurning dinamik quroli beriladi, shu tariqa mantiqiy strukturalar o'zlashtiriladi, insonning bilish imkoniyatlari ortadi.

Ongning yangi imkoniyatlari til orqali o'zlashtiriladi, bu esa ongning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tilning muhim funksiyalaridan biri shundaki, uning asosida sezgi, idrok, diqqat, tafakkur, xotira, xayol, emotsiya, iroda vujudga keladi. Bu qarash L.S. Vigotskiy tomonidan fanga kiritilgan.

Ma'lumki, hayvonlarda sezgi va kompleks idrok mavjud. Hayvonlarda diqqat ham mavjud, u muhim signallarni tanlab oladi va kerak

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 194.

bo‘Imagan harakatlarni to‘xtatadi, hayvonlarda ham xotira mavjud, u xotira orqali oldinga tajribalar asoratini saqlaydi va ma’lum shart-sharoitlarda ularni ishlatadi.

Tabiiyki, bunday funksiyalar insonlarda ham mavjud, lekin ularning hayvonlardan farqi, insonlarda bu jarayonlar nutqqa bog‘langan holda amalga oshiriladi. Bu funksiyalar ongning tarixiy shakllanishi bilan genetik jihatidan bog‘liqdir. Bularning hammasi inson psixikasining o‘ziga xosligini tashkil qiladi.

Insonning sezgisi va idrokining o‘ziga xosligi shundaki, har bir sezgi va har bir idrok nafaqat sezuvchi komponent, balki, so‘z orqali ifoda qilingan ratsional komponentlar ham mavjud va aynan shu sezgi va idrokni murakkablashtiradi. Masalan, 1,5 mln rang turi mavjud. Biroq biz 12-15 yoki 20-30 so‘z orqali ranglarni nomlaymiz ularni biz qizil, sariq, yashil, ko‘k, qora kabi nomlar bilan ataymiz. Biz ranglarni ifodalash uchun bundan ortiq so‘zni topa olmaymiz, lekin qalbimizda ularni nomlay boshlaymiz. Tovushlarni ham xuddi shunday tahlil qilamiz, ya’ni ularni ma’lum sifatlariga ko‘ra toifalarga ajratamiz. Bu sezgilarning namoyon bo‘lishiga misol bo‘lishi mumkin. Har bir bilish jarayonlariga nutqning bevosita aloqasi mavjud.

Nazorat savollari

1. Ongning rivojlanishi va unga ijtimoiy tarixiy tajribalarni o‘zlashtirilishi.
2. O‘zlashtirish jarayonining tavsifi.
3. Intereorezatsiya tushunchasi bolaning birqalikdag‘i faoliyatdan alohida faoliyatga ztish holati.
4. Eksteriorizatsiya tushunchasi ijodiy faoliyatni shakllanishidagi o‘rni.
5. Yuqori psixik funksiyalarni shakllanishi.
6. Yuqori psixik funksiyalarni ixtiyoriy xarakteri ijtimoiy va bilvosita.
7. Ongning shakllanishi va inson shaxsi.

8-bob. MIYA VA PSIXIKA

Reja:

1. *Insonda miya va psixik jarayonlarning shakllanishi.*
2. *Psixik jarayonlar va miya faolligi orasidagi o'zaro munosabatlari.*
3. *Inson individualligining shakllanish qonuniyatlari.*
4. *Harakat inson faoliyatining o'ziga xosligi sifatida.*
5. *Xatti-harakatning tarkibiy tuzilishi va darajalari.*
6. *Maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar.*

Insonda miya va psixik jarayonlarning shakllanishi

Asab tizimi markaziy, periferik va vegetativ bo'limlardan iborat. Markaziy asab tizimi (MAT) bosh va orqa miyani o'z ichiga oladi. Miya organizmda boshqaruvchi funksiyasini o'taydi va psixomotor faoliyatni ta'minlab beradi. Bundan tashqari, miya psixik jarayonlarni boshqarib, organizmning beshta asosiy sezgilarini, ya'ni ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish va sezishni nazorat qiladi.

Periferik asab tizimi – nervlar va nerv tugunlaridan iborat. Periferik nervlar majmuasi yurak, o'pka, ovqat hazm qilish tizimi va boshqa ichki organlar, tomirlar va to'qimalarni ta'minlaydi, bularning barchasi vegetativ asab tizimini tashkil etadi. Uning faoliyati insonning irodasiga bog'liq bo'lmaydi.

Asab tizimi organizmning ixtiyoriy va ixtiyorsiz bajariladigan funksiyalarini bajaradi. Ixtiyorsiz bajariladigan funksiyalarga misol qilib ovqat hazm qilish funksiyasini keltirishimiz mumkin. Asab tizimini tashkil etuvchi milliardlab asab hujayralari organizmning o'zidan, shuningdek, tashqi muhitdan axborot qabul qiladilar.

Bosh va orqa miya – ikki hayotiy muhim organlar – miya qutisi va umurtqa pog'onasi suyaklari bilan o'ralgan va himoya qilinadi. Miyaning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib bosh miya katta yarimsharlarlari, miyacha, miya stvoli va orqa miya hisoblanadi. Miya yarimsharlar – bu organlardan axborotni qabul qilib, tananing boshqa qismlariga o'tkazuvchi asosiy qismidir. Yarimsharlar nutq, tafakkur va xotiraga mas'uldirlar. Miyacha asosan tana harakatlarini muvofiq-lashtirishga yordam beradi. Orqa miya yurak faoliyati, nafas olish va qon bosimi kabi funksiyalarni boshqaradi.

Asab tizimi endokrin tizim bilan uzviy hamkorlikda inson barcha organlarining faoliyatini boshqaradi. Inson fikrlari, xotiralari, hissiyorltlari yoki sezgilarini, shuningdek, uning har bir anglangan harakati

amalga oshirgan faoliyatining aksi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, asab tizimi, ichki, vegetativ, anglamaydigan funksiyalar: tana harorati, yurak urishi va boshqa gomeostaz (muvozanat, doimiylik)ni tashkil etuvchilarni boshqaradi.

Asab tizimi somatik va vegetativ bo'limlarga ajratiladi. Birinchisi, skelet mushaklari qisqarishi yordamida sezuvchanlik va harakat bilan ta'minlagan holda organizm bilan tashqi muhit o'ttasidagi aloqani amalga oshiradi. Ikkinchisi, moddalar almashinuvi, nafas olish, ajratishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Miya oq va kulrang moddadan iborat. Kul rang modda asab hujayralarining to'plamlaridan hosil bo'ladi, oq moddani esa asab tolalari tashkil etadi. Yaqin vaqtgacha kulrang modda asosan yurish va yugurishga bo'lgan ko'nikma hosil qilish bilan bog'lanar edi. Hozirgi kunlarda olimlar yana bir qonuniyatni aniqladilar – yangi raqs harakatlarini o'r ganib, ijro etishga layoqatli insonlarning miyasi faolroq bo'lar ekan.

Amerikalik olimlar (R.Xaer va boshqalar) erkaklar va ayoliar turlicha fikr yuritishlarini aniqladilar. Miya anatomiyasini tadqiq etish orqali erkaklar ko'proq kulrang moddani, ayollar esa oq moddani faollash-tirishlari ma'lum bo'ldi. Boshqacha aytganda, tafakkur jarayonida kuchli jins ayollarga nisbatan kulrang moddadan 6,5 marta ko'proq, go'zal jins vakillari esa oq moddadan 10 marta ko'proq foydalanan ekan.

Asab tizimining strukturaviy birligi neyrondir. Asab tizimi neyronlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro bir-birilari bilan maxsus tuzilmalar – *sinapslar*¹ orqali aloqada bo'ladilar. Har bir neyronda muntazam ravishda almashinuv jarayonlari ro'y berib, oqsillar sintezlanadi, asab impulsleri to'plangan holda o'tkazilib turiladi.

Neyron – o'ziga xos hujayra bo'lib, o'simtalari bo'ladi: uzun o'simtalari *aksonlar*², kalta sertarmoq o'simtalar – *dendritlar*³ deb ataladi. Neyron tanasining o'ttacha diametri 0,01 mm ni, bosh miyadagi neyronlarning umumiy soni esa 100 mlrd ni tashkil etadi

Rivojlanib kelayotgan miyaga tabiat yuqori darajadagi mustahkamlik zaxirasini joylaydiva natijada, ko'p miqdorda ortiqcha neyronlar⁴ hosil bo'ladi. Ularning taxminan 70 foizi bolaning tug'ilish davrigacha nobud bo'ladi va bu jarayon tug'ilgandan so'ng hamumrining oxirigacha davom etadi. Hujayralarning bunday nobud bo'lishi irliyat tomonidan

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 4.

² Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 3.

³ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 3.

⁴ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – p. 3.

oldindan belgilab berilgan bo'ladi. Neyronlar o'ta egiluvchandir. Egiluvchanlikning ma'nosи shundan iboratki, nobud bo'lган asab hujayralarining funksiyalari ularning o'z yashovchanligini saqlab qolgan «hamkasblari» zimmasiga yuklanadi, ularning o'lchamlari kattalashgani hisobiga yo'qotilgan funksiyalarning o'rni to'ldiriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bosh miyadagi neyronlarning 90 foizga yaqini nobud bo'lmasunicha, kasallik belgilari namoyon bo'lmay, inson sog'lom ko'rinishini saqlab qolar ekan. Ya'ni, bitta tirik asab hujayrasi to'qqizta nobud bo'lган hujayralarning o'rnini bosishi mumkin ekan.

Lekin asab tizimining egiluvchanligi keksalik davrigacha zehnni tiniq holatda saqlab qolishning yagona mexanizmi emas. Tabiatning zaxiradagi yana bir yo'li – voyaga etgan sut emizuvchilarning bosh miyasida yangi asab hujayralarining hosil bo'lishi yoki neyrogenez hodisasi ham mavjud. Agar asab hujayralari bo'linmaydigan bo'lsa, yangi neyronlar qaerdan paydo bo'ladi? Ular voyaga etgan organizmning o'zak hujayralardan hosil bo'ladi.

Nerv faoliyatining asosiy mexanizmi bo'lib refleks hisoblanadi. Refleks – organizmning markaziy asab tizimidan beriladigan va u orqali nazorat qilinadigan ta'sirga javob reaksiysi. «Refleks» atamasi ilk bora 17-asrda fiziologiyaga fransiyalik olim Rene Dekart tomonidan kiritilgan. Ammo bu atama psixik faoliyatni tushuntirib berish uchun 1863-yildagina I.M.Sechenov tomonidan qo'llanilgan edi. I.M.Sechenov ta'limotini rivojlantirgan holda, I.P.Pavlov tajribada refleksning o'z funksiyalarini bajarish xususiyatlarini tadqiq etdi.

Barcha reflekslar ikki guruhg'a ajratiladi: shartli va shartsiz. Shartsiz reflekslar – organizmning muhim hayotiy ta'sirlovchi omillar (ozuqa, xavf va shunga o'xshashlar)ga nisbatan tug'ma reaksiysi. Ularning paydo bo'lishi u yoki bu sharoitlarni talab etmaydi, masalan, ko'zni pirpiratish, ozuqani ko'rganda so'lak ajratish reflekslari va boshqalar. Shartsiz reflekslar organizmning tayyor tabiiy zaxiradagi javob reaksiyalaridir. Ular ma'lum hayvon turining evolutsiya davomida rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Shartsiz reflekslar bir turga mansub bo'lган organizmlarda bir xilda bo'ladi – bu tabiiy tuyg'ularning fiziologik mexanizmi. Ammo yuqori tuzilgan hayvonlar va insonlarda tug'ma reaksiyalardan tashqari, ushbu organizm shaxsiy hayotiy faoliyatida orttirgan reaksiyalar, ya'ni shartli reflekslar ham o'rin tutadi.

Shartli reflekslar – bu organizmning shunday reksiylaridirki, ular tug'ma bo'lmadan, hayotiy sharoitlarda orttiriladi. Ular ko'p marotaba

takrorlanishlar yoki qat'iy odatlarning shakllanishi sababidan paydo bo'ladi.

Psixik jarayonlar va miya faolligi orasidagi o'zaro munosabatlar

Bosh miya haritasini tuzib, nerv funksiyalarini aniqlashga ilk marotaba Tomas Uillis (1621-1675) qo'l urgan. Nemis vrachi Frans Gall (1758-1828) miyaning frenologik haritasini yaratib, unda «ruh layoqtalari» deb nomlanuvchi psixikaning xossalari joylashtirgan.

Barcha sezgi organlari katta yarimsharlar po'stlog'ida o'zlarining ta'sir doiralariga egadirlar. Masalan, inson miyasining ensa bo'limida ko'rish doirasi, chakka bo'limida – eshitish, hid bilish doirasi esa miyaning bir necha bo'limlari bo'ylab tarqalgan. Miya po'stlog'ida, shuningdek, assotsiatsiya bilan bog'liq maydonlar ham mavjud, ularda his-tuyg'u organlarining birlamchi maydonlaridan keluvchi axborot tahlili va sintezi amalga oshiriladi. Oddiy harakat reaksiyalari orqa miya tomonidan boshqariladi, murakkabroq harakatlar (yurish, yugurish) esa miya va miyacha tomonidan muvofiqlashtiriladi.¹

XIX asrning o'talaridayoq fransiyalik olim Pol Broka va nemis psixiatri Karl Vernike inson miyasining chap yarimsharida nutqqa tegishli bo'lgan ikki sohani aniqladilar. Broka sohasining zararlanishida (pastki peshona burmasi orqa tomonining uchdan bir qismida) bemorning nutqi izdan chiqadi (talaffuzi), Vernike sohasi zararlanganida esa (tepa chakka burmasi orqa tomonining uchdan bir qismida), bemor gapira oladi, lekin nutqi mazmunsiz, ma'nosiz bo'lib qoladi.

Neyropsixologiyaning hozirgi zamon qarashlari (A.R.Luriya)ga binoan inson miyasining tuzilishi uchta asosiy bo'limdan iborat: 1) bosh miya po'stlog'i yuqori qavatlarining faoliyatini saqlab turuvchi quvvat bo'limi (miya stvolining yuqori bo'limlarida joylashgan); 2) axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bo'limi (ikkala yarimsharlarning tepa, ensa va chakka bo'linlarini o'z ichiga oladi); 3) faoliyatni oldindan belgilash, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlovchi bo'lim (po'stloqning peshona bo'limlari).

Birinchi bo'lim funksiyalarining zararlanishida diqqat barqarorligi yo'qolib, loqaydlik, uyquchilik paydo bo'ladi. Ikkinci bo'lim faoliyatining buzilishi (teri va propriotseptiv) sezgirlikning yo'qolishiga sabab bo'ladi, harakatlarning aniqligi buziladi va h. Uchinchi bo'limning

¹ Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – p. 3.

zararlanishi xulq-atvor nuqsonlariga, harakatlar sohasidagi o'zgarishlarga olib keladi.

Bosh miyasining tuzilishiga tegishli ko'plab farazlar, konsepsiylar va tajriba ma'lumotlari mavjud. Akademik P.K.Anoxinning taxminlariga ko'ra, peshona po'stlog'ining faoliyati miyaning alohida funksiyalar - xotira, idrok, motivatsiyalar, hissiyotlar bilan bog'liq bo'limasdan, ularning birlashishini, hamkorligini amalgalashadi, xolos.

Amerikalik neyropsixolog K.Pribram fikricha, peshona po'stlog'i motivatsiyalar (ochlik, tashnalik, jinsiy ehtiyoj)ni tashqi ta'sirotlar bilan taqqoslaydiva bu taqqoslash asosida niyatlar yoki istalgan oqibatlarni hisobga olgan holda harakatlar dasturini tuzib chiqadi.

Polshalik tadqiqotchi Y.Konorskiy frontal bo'limdagi po'stloqning turli sohalari turlicha funksiyalarni, jumladan, fazoviy yoki qisqa muddatli xotira, tirik mavjudot yoki jonsiz jismning izidan borish kabi funksiyalarni bajarishiga amin bo'lgan edi. Hozirda miya termografiyasini bo'yicha o'tkazilgan oxirgi tadqiqotlarga asoslangan holda ishonch bilan peshona po'stlog'ida inson tashqi muhitning taxminiy obrazni bilan real vaziyatni taqqoslash sodir bo'ladi deb e'tirof etish mumkin. Agar miyaning bu bo'limi zarar ko'rigan (o'sma, jarohat, yallig'lanish) bo'lsa, tashqi muhitni real holda idrok etish va o'zini baholash izdan chiqadi.

Ma'lumki, chap yarimshar funksiyasini verbal-belgili axborot bilan ishlash; o'qish, hisoblash tashkil etadi. O'ng yarimshar funksiyasi esa - obrazlar bilan ish ko'rish, fazoda harakatni aniqlash va shu kabilar hisoblanadi. Chap yarimshari «mantiq»ni, o'ngi - «ijodiy jarayon»ni nazorat qiladi; chap yarimshari tananining o'ng tomonini, o'ngi - chap tomonini boshqaradi. Miya yarimsharlarining funksiyalarini ko'rgazmali tarza quyidagicha tasvirlash mumkin

Shu bilan birga, inson miyasida emotsiyal markazlar ham aniqlangan. Miyaning ayrim nuqtalari qo'zg'atilganda sinaluvchilarda juda yoqimli hislar, boshqalari qo'zg'atilganda esa cho'chish, xavotir yahattodahshat hislari yuzaga kelgan. Garchi sinaluvchilar bu hissiyotlar tadqiqotchi tomonidan sun'iy ravishda chaqirilganini tushunib turgan bo'lsalar ham, ularga bu hissiyotlar real voqelik bo'lib tuyuladi.

Miya inson organizmidagi barcha hujayralarining to'rtadan uch qismini tashkil etadi. U organlarga etkaziluvchi axborotlar o'tadigan nevronlarning to'plamlaridan iborat.

Voyaga etgan odam bosh miyasining miya og'irligi 1100 dan 2000 grammgacha bo'ladi. 20 yoshdan boshlab 60 yoshgacha bo'lgan vaqt orlig'ida har bir individ uchun bosh miyaning og'irligi va hajmi o'z

doimiyligini yo'qotmaydi. Ammo aqliy qobliyat bosh miyaning kattaligi bilan aniqlanmaydi. Miya o'lchamlari va tananing umumiy og'irligi o'rtasidagi nisbat muhim ahamiyatga egadir: kashalotning bosh miyasi 9 kg og'irlikka ega, lekin bu tana og'irligining atigi 0,02 foizini tashkil etadi; fil miyasi 5 kg og'irlikka ega, lekin bu og'irlilik umumiy massasining 0,1 foizini tashkil etadi, shuning uchun filda misli ko'rilmagan qobiliyatlar ko'zga tashlanmaydi; inson miyasining og'irligi tana umumiy massasining 2 foizini tashkil etadi.

Miya 15 yoshgacha o'sadi va 15 yoshdan 25 yoshgacha esa jadal faoliyat yuritadi. 45 yoshdan keyin uning ish qobiliyati neyronlarning nobud bo'lishi hisobiga pasayadi. Agar 20 yoshda neyronlarning nobud bo'lish tezligi sutkasiga 10000 hujayrani tashkil etsa, 40 yoshda – bu ko'rsatkich 50000 hujayraga, 90 yoshda esa – 100 ming hujayraga etadi. Shunga ko'ra, qarilik davrida bosh miya og'irligi kamayadi (90 yoshlarda 1,1 kilogramgacha).

Bosh miya po'stlog'i hududining yirik bo'linmalari – qadimgi (paleokorteks), eski (arkikorteks), yangi (neokorteks) va oraliq po'stloqdan iborat. Inson miyasidagi yangi po'stloqning yuzasi 95,6 foizni, eski – 2,2 foizni, qadimgi – 0,6 foizni va oraliq – 1,6 foizni tashkil etadi. Miya po'stlog'i – uzoq davom etgan evolutsion rivojlanishning mahsulidir. Bu jarayonda baliqlar hid bilish analizatorining rivojlanishi munosabati bilan birlamchi qadimgi po'stloq yuzaga keladi. Hayvonlarning quruqlikka chiqishi bilan eski va yangi po'stloq qismlari jadal rivojvana boshlaydi. Evolutsiya jarayonida yangi po'stloqning assotsiativ doiralari boshqalarga nisbatan ko'proq o'zgarishlarga uchrab, kattalashadi, birlamchi, sensor maydonlar esa nisbiy kattaligi jihatdan kichrayadi.

Berklidagi Kaliforniya universiteti gistoligi Merian Daymondning tadqiqotlariga ko'ra, mashhur fizik olim Albert Eynshteynning miyasi asab hujayralarining soni va o'lchamlari bo'yicha oddiy odamning miyasidan farq qilmaydi. Lekin ong faoliyatining yuqori shakllarini boshqaruvchi po'stloqning assotsiativ sohasida nerv to'qimasining yordamchi elementlari –neyrogliya hujayralarining juda ko'p miqdori aniqlandi.

Yangi po'stloqning o'sishi eski va qadimgi qismlarimiyining pastki va o'rta yuzalariga surilib borishiga sabab bo'ladi. Odam bosh miyasi yarimsharlarining po'stlog'i doiralarga bo'linadi. Hissiy va karakatlantiruvchi doiralar mayjud. Hissiy doira ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish, shuningdek, teri-mushak doiralariga bo'linadi. His-tuyg'u

organlari, teri, ichki organlardan chiqqan impulslar hissiy doiralarga o'tkaziladi. Hissiy doiralar neyronlarining ta'sirlanishidan sezgilar paydo bo'ladi.

Rochester Universiteti tibbiy mактабининг vrachlari bosh miyaning hazil-mutoyiba hissiyotini, bundan tashqari, ijtimoiy va hissiy baholash, rejalashtirish funksiyasini boshqaruvchi qismini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. U peshona qismining pastki bo'limlarida joylashgan.

Yaqinda amerikalik tadqiqotchilar miyada kechadigan jarayonlarning inson idroki darajasiga ta'sirini ochib berishga erishdilar. Olimlarda oddiy bolalar va IQ o'arajasi o'rtachadan yuqori bo'lgan bolalarning miya tuzilishidagi tafovut qiziqish uyg'otdi. Miya salomatligi Milliy instituti (Merilend) ilmiy xodimi Philipp Shau va hamkasblari 307 ta bolaning miya rivojlanishini kuzatdilar. Maxsus testlar yordamida ularning intellekt koefitsientini aniqladilar va natijalar bo'yicha uch guruhga ajratdilar. Bir necha yillar mobaynida, 6 yoshdan 19 yoshgacha muntazam ravishda bosh miyaning yadroviy-magnit-rezonans tomografiyasini o'tkazib bordilar. YAMR-tomografiysi – bu ichki organlarni tekshirishning maxsus metodi bo'lib, har xil turdag'i hujayra va to'qimalardagi molekulalar magnit xossalari tafovutlarining kompyuter tahtiliga asoslangan, buning uchun hujayra va to'qimalar kuchli magnit maydoniga joylashtiriladi.

Natijalarni ishlab chiqib, tadqiqotchilar, turli guruhlardagi bolalar miyalaring xususiyatlari bir-biridan farq qilishini aniqladilar. Xotira kabi yuqori darajadagi funksiyalarni nazorat qiluvchi miya ustki qavatining qalinligi «aqlli» bolalarda qolganlariga qaraganda ancha kechroq kamaya boshlar ekan. Miya po'stlog'i o'rtacha 9 yoshdan boshlab, intellekt darjasini yuqori bo'lgan bolalarda esa 11 yoshda «sayozlasha» boshlaydi. Eng katta tafovut miya po'stlog'ining rejalar tuzish va mulohaza yuritishga mas'ul peshona oldi qismlarida kuzatiladi. Lekin vaqt o'tishi bilan bu tafovut yo'qolib, 19 yoshlarga etganda bareha odamlarning miya po'stlog'i bir xil qalinlikda bo'ladi.

Miya faoliyatini tushunib yetishning mohiyati neyronlar o'rtasidagi ko'p sonli aloqaning mavjudligidir. Miya, yangi sifat – odam psixikasining paydo bo'lishiga xizmat qiluvchi neyronlar o'rtasidagi juda ko'p miqdordagi bir soniyali o'zarot ta'sirlar mavjud bo'lgan tizimdir.

Miyaga qon juda ko'p miqdorda etkazib beriladi. Miyadagi qon aylanishining buzilishi natijasida keksa odamlarda aqliy zaiflik rivojlanib, asab tizimining faoliyati sustlashadi.

Inson individualligining shakllanish qonuniyatları

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik – bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig‘indisiki, unda inson o‘z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko‘rish, ba’zi patologik hodisalar, alahlash, gallyusinatsiya kabilar kiradi.

Onglilikdan farqli o‘laroq, ongsizlikda amalga oshirilayotgan harakatlarni maqsadli nazorat qilish, shuningdek, natijalarini baholash imkoniyati mavjud emas.

Ongsizlik tushunchasi psixologik va falsafiy fikrlarning turli yo‘nalish vakillari tomonidan quyidagi ko‘rinishlarda ta’riflanadi:

- axborotni qayta ishlashni bu jarayonni subyekt kechinmalari darajasida aks ettirmagan holda amalga oshiruvchi miya faoliyati sifatida;

- subyekt tomonidan anglanmagan kechinmalar sifatida.

Ongsizlikda subyekt voqelikning o‘zini boshqa odamlar va hodisalar bilan tenglashtirgan holda, obyektlar o‘rtasidagi mantiqiy qaramaqarshiliklar va farqlarni u yoki bu muayyan belgilarni bo‘yicha aniqlash orqali emas, balki, bevosita emotsiyal his etish, identifikatsiya, emotsiyal ta’sirlanish, turli hodisalarning aloqadorligi orqali bir qatorga birlashishi kabi o‘xhatish shakkiali orqali boshidan kechiradi. Ongsizlikda ko‘pincha o‘tmish, hozirgi va kelajak zamon u yoki bu psixik aktga, masalan, tushda qo‘shilgan holda birgalikda mavjud bo‘ladi.

Ongsizlik sohasiga: biologik ehtiyojlar (jinsiy mayllar, tabiiy ehtiyojlar, ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj va boshqalar); anglanmagan mayllarni siqib chiqarish (kimningdir muhabbatini qozonishga behuda urinish, amalga oshmagan orzular, yashirin xafagarchilik); tushda sodir bo‘ladigan psixik hodisalar (tush ko‘rish); sezilmaydigan, lekin real ta’sir ko‘rsatadigan ta’sirotlarga nisbatan javob reaksiyalari («sub-sensor» ta’sirlanishlar); avval anglangan, lekin takrorlanishlar tufayli avtomatlashgan va shuning uchun anglanmaydigan bo‘lib qolgan harakatlar; maqsadi anglanmagan faoliyatga oid ayrim mayllar va boshqalar kiradi. Anglanmagan hodisalarga bemor odam psixikasida yuzaga keladigan alahsirash, gallyusinatsiyalar kabi ayrim patologik hodisalar ham kiradi.

Ongsizlik ko‘rinishlari to‘rt sinfga ajratiladi:

- ong ubti hodisalari;
- shaxsning kelajakka yo‘naltirilgan mayllari ko‘rinishiga ega bo‘lgan faoliyatning anglanmagan qo‘zg‘atuvchilar (anglanmaydigan

motivlar va ma'noli mayllar). Bu sinf hodisalarini subyektning gipnotik holatdan chiqqandan so'ng xulq-atvorini tadqiq qilish natijasida aniqlangan;

- faoliyatning yo'nalishli va barqaror bo'lishini ta'minlaydigan, uning bajarilish usullarining anglanmaydigan boshqaruvchilar (operatsional mayllar va avtomatlashgan xulq-atvor stereotiplari). Ular avtomatlashirilgan va ixtiyorsiz harakatlarning boshqarilishi, masalan, masalalar yechish jarayoni asosida yotadi va anlanmagan tarzda oldindan seziladigan hodisalar va bo'lib o'tgan o'xshash vaziyatlardagi xulq-atvorning o'tmish tajribasiga tayanadigan harakat usullari obrazlariga bog'liq bo'ladi;
- subsensor idroknning ifodalanganishi.

Valsafinda birinchi bo'lib ongsizlik haqidagi tasavvurlar subyekt ongida mavjud bo'lmagan psixik jarayonlar, usullar va holatlar yig'indisi sifatida 18asrda G.V.Leybnits tomonidan ifodalangan edi. 19-asrda ongsizlik psixologik tadqiqotlarning predmetiga aylandi (J.F.Gerbert, G.T.Fexner, V.Vundt). Uni o'rganishga XIX asr oxirida psixopatalogiya sohasida bajarilgan Z.Freyd ishlari turtki berdi. Uning fikriga ko'ra, ongda mavjud bo'lmagan ongsizlik psixik mazmun sifatida unga katta ta'sir ko'rsatadi.

Z.Freyd nazariyasiga binoan inson psixikasida uch soha: ong, ongosti va ongsizlik mavjud. Ong darajasiga u inson tomonidan anglanadigan va nazorat qilinadiganlarning barchasini kiritgan. Ong osti sohasiga Freyd yashirin yoki latent bilimlarni kiritgan edi. Bu insonga tegishli bo'lgan, lekin ayni vaqtida ongda mavjud bo'lmagan bilimlardir. Bilimlar muayyan qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida aktuallashadi, masalan, Yer-sayyora. Shunday qilib, ong – bu muztog'ning ko'zga ko'rinyotgan qismi, uning katta qismi esa inson tomonidan anglangan nazoratdan yashirilgan.

Ongsizlik sohasi, Freyd bo'yicha, umuman boshqa xossalarga ega. Ulardan biri bu sohaning mazmuni anglanmasligidan, lekin xulq-atvorigizga katta ta'sir ko'rsatishidan iborat. Ongsizlik sohasi harakatchandir. Boshqa xossasi ongsizlik sohasida joylashgan aborotning ongga qiyinchilik bilan o'tishidan iborat. Bu ikki mexanizm: siqib chiqarish va qarshilik ko'rsatishlarning faoliyati bilan tushuntiriladi.

Ongsizlik sohasini Z.Freyd, ong bilan kelishmaydigan motivatsion energiya manbai deb hisoblagan edi. Ijtimoiy sohadagi taqiqilar, Freydga ko'ra, ong «nazorat»ini hosil qiladi, nevrotik asabiyashishlarda

namoyon bo'ladigan ong osti mayllar energiyasini susaytiradi. Individ nizoli vaziyatlardan xalos bo'lishga intilib, himoya mexanizmlari – siqib chiqarish, sublimatsiya (o'rin olish), omilkorlik va regressiyaga murojaat qiladi.

Shunday qilib, insonning psixik faoliyati, uning psixikasi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lган uch daraja: ongsizlik, ong osti va onglikda faoliyat ko'rsatadi. Psixik faoliyatning ongsizlik darajasi tug'ma instinktiv-refleksga asoslangan faoliyat hisoblanadi; ong osti darajasi – ma'lum individ tajribasidagi xulq-atvorining umumlashtirilgan, avtomatlashtirilgan bir qolipdagi nusxalari – malakalari, ko'nikmalar, odatlari, ichki tuyg'ulari.

Tush ko'rish, affekt, vahima, gipnoz, ishonch, umid, sevgi, turli ko'rinishdagi parapsixik hodisalar (bashorat qilish, telepatiya, ekstrasensor hodisalar), fobiylar, qo'rquvlar, asabiy xayollar, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan xavotirlanish va oldindan quvonchni sezish – sanab o'tilgan bu hodisalar anglanmaydigan va ong osti hodisalari hisoblanadi.

Harakat inson faoliyatining o'ziga xosligi sifatida

Faoliyat – bu subyektdagi olam bilan o'zaro ta'sirlashuvning rivojlanuvchi tizimi. Bunday o'zaro ta'sir jarayonida psixik obrazning yuzaga kelishi va uning obyektda ifodalanishi, shuningdek, subyektning voqelik bilan o'z munosabatlarini ro'yobga chiqarishi sodir bo'laadi. Faoliyatning istalgan oddiy akti subyekt faolligining ifodalanish shakli bo'lib hisoblanadi, bu esa, har bir faoliyatning undovchi sabablarga ega bo'lishi va ma'lum natijalarga erishishga yo'naltirilishini bildiradi.

Shunday qilib, faoliyatni odamga xos bo'lган, ong tomonidan boshqariladigan, ehtiyojlarni qondirishda yuzaga keladigan, tashqi olam va insonni bilish, shuningdek, ularni o'zgartirishga qaratilgan faollik sifatida ta'riflash mumkin.

• Faoliyat predmetlilik va subyektlilik xususiyatlariga ega. Faoliyat predmeti deb, u bevosita shug'ullanadigan hodisalarga aytildi. Masalan, bilish faoliyatining predmeti bo'lib, har xil turdag'i axborotlar xizmat qiladi, o'quv faoliyatining predmeti – bilim, malaka va ko'nikmalar, mehnat faoliyatining predmeti – yaratilgan muayyan moddiy mahsulot hisoblanadi. Faoliyat subyekti bo'lib odam, individ hisoblanadi.

Faoliyatning predmeti va subyektdan tashqari, ushbu tushuncha bilan faoliyat vositalari va natijalari ham bog'liq. Faoliyatni amalga oshirishda odam uchun mehnat vositalari sifatida u yoki bu harakat va

operatsiyalarni bajarishda foydalanadigan asboblar tushuniladi. Faoliyat natijalari bo'lib, moddiy yoki ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan yaratilgan mahsulotlar hisoblanadi.

Shunday qilib, faoliyat quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

- faoliyning ichki motivga ega bo'lgan shaklidir;
- inson faoliyatining mahsuldarligi. Moddiy yoki har tomonlama takomillashtirilgan mahsulotning yaratilishi;
- insonning xususiy, oliy, ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi;
- insonning faoliyati o'zi ishlab chiqargan mahsulotda namoyon bo'ladi. Faoliyatning bunday ifodalanishi yoki aks etishi o'zida insoniy bilimlar va malakalarni mujassamlashtiradi.

Faoliyat nazariyasi to'laligicha A.N.Leontevning ilmiy ishlarida, xususan, «Faoliyat. Ong. Shaxs» asarida (M., 1982) bayon etilgan.

Faoliyatning tuzilishi haqidagi tasavvurlar faoliyat nazariyasini to'liq tushuntirib bermasada, uning asosini tashkil etadi.

Inson faoliyati murakkab tartibli zinapoyali ketma-ketlik tuzilishiga ega. U bir necha qatlam yoki darajalardan iborat. Yuqorida quyi darajalar yo'nalishida ularni nomlab chiqamiz: alohida faoliyatlar darajasi (yoki faoliyatning alohida turlari); harakatlar darajasi; operatsiyalar darajasi; psixofiziologik funksiyalar darajasi. Shunday qilib, faoliyat tuzilishining tarkibiy qismlariga motiv, maqsad, harakat (tashqi, predmetli va ichki, aqliy; interiorizatsiya va eksteriorizatsiya jarayonlari), operatsiyalar, psixofiziologik funksiyalar kiradi. Motiv – bu faoliyatga undovchi sabab. Maqsad – bu istalgan, ya'ni faoliyatni bajarish bilan erishiladigan natijaning obrazi.

Harakat – bu faoliyat tahlilining asosiy birligi. Ta'rifga ko'ra harakat – bu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayon. «Harakat» tushunchasiga oid quyidagi xususiyatlarni keltirish mumkin.

Birinchi xususiyat: harakat zarur tarkibiy qism sifatida maqsad qo'yish va uni ushlab qolish ko'rinishidagi ong aktini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi xususiyat: harakat – bu bir vaqtning o'zida xulq-atvor akti jam bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, faoliyat nazariyasi avvalgi konsepsiyalardan (bixevisorizm) tafovutlari ko'rsatilgan birlamchi ikki xususiyatlarining ong va xulq-atvorning uzlucksiz birligini tan olishidan iborat.

Uchinchchi, juda muhim xususiyat: faoliyat nazariyasi faollik tamoyilini «harakat» tushunchasi orqali ta'sirchanlik tamoyiliga qaramaganishi qo'ygan holda tasdiqlaydi. Faollik va ta'sirchanlik tamoyillarining alohida har biridan kelib chiqqan holda faoliyat

tahlilining boshlang'ich nuqtasi tashqi muhitga yoki subyekt organizmiga joylashtirilishi lozim.

To'rtinchi xususiyat: harakat tushunchasi odam faoliyatini ijtimoiy va jismli dunyoga «olib chiqadi».

Harakat doimo maqsad bilan bog'liq bo'ladi. Maqsad harakatni belgilaydi, harakat esa maqsadning amalga oshishini ta'minlaydi. Maqsadning xususiyati orqali harakat xususiyatini aniqlash mumkin. Inson maqsadlarini tahlil qilib, nimalarni aytish mumkin? Avvalambor, ularning juda xilma-xilligini, muhim esa keng hajmlilagini keltirish mumkin.

Yirik maqsadlar maydaroq, xususiy maqsadlarga bo'linadi, ular ham o'z o'rnila bulardan ham xususiyroq maqsadlarga bo'linishi mumkin va h. Shunga mos ravishda har bir etarli darajadagi yirik harakat quyi tartibli ketma-ketlikning harakatlar tizimida turli darajalarga o'tib turishidan iborat. Masalan, boshqa shahar bilan telefon orqali bog'lanmoqchisiz. Bu harakatni amalga oshirish uchun (I tartib) siz bir qator xususiy harakatlarni bajarishingiz kerak (II tartib): shaharlararo so'zlashuv telefon tarmog'iga borib, zarur avtomatni topib, navbatga turishingiz lozim va h. Kabinaga kirgandan so'ng, abonent bilan bog'lanishingiz kerak. Lekin buning uchun qator mayda ishlarni bajarishingizga to'g'ri keladi (III tartib): tanga tashlab, tugmachani bosib turib, ma'lum sonlarni terish kerak bo'ladi va h.

Operatsiya – bu faoliyat bajarilishining navbatdagi quyiroq darajasi. Operatsiya deb, harakat bajarilishining usuliga aytildi. Masalan, ikkita ikki xonali sonlarni ko'paytirish amalini xotirada va misolni ustuncha shaklida yozgan holda yechish mumkin. Bu bir xildagi matematik misolning ikki turlicha usuli yoki ikki xil amal bo'ladi.

Qo'llaniladigan operatsiyalarning xususiyati nimaga bog'liq bo'ladi? Avvalambor, ular harakat amalga oshiriladigan sharoitlarga bog'liq. Agar harakat maqsadning o'ziga javob bersa, operatsiya maqsad qo'yilgan sharoitlarga javob beradi. Bunday sharoitlarga tashqi vaziyatlardan tashqari, shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan subyektning imkoniyatlari yoki ichki vositalari ham kiradi.

Faoliyat nazariyasida ma'lum sharoitlardan ko'zlangan maqsad masala deb ataladi. Masala yechish jarayonini tasvirlashda ularni amalga oshiruvchi harakatlarni ham, operatsiyalarni ham ko'rsatish lozim.

Operatsiyalarning asosiy xossasi ularning kamroq anganganligi yoki umuman anglanmag'anligidan iborat. Bu xossalari bilan operatsiyalar

ongli maqsadni ham, harakatning bajarilishini nazorat qilishni ham belgilab beradigan harakatlardan tamomila farq qiladi.

Operatsiyalar ikki turga bo'linadi: ba'zilari adaptatsiya, moslashish, bevosita taqlid qilish yordamida yuzaga keladi; boshqalari harakatlarni avtomatlashtirish vositasida paydo bo'ladi. Birinchi turdag'i operatsiyalar anglanmaydi, ularni ongimizda, hatto, maxsus vositalar yordamida ham hosil qilish mumkin emas. Ikkinci tur operatsiyalar ong chegarasida joylashadi. Ular osongina dolzarb anglanuvchilarga aylanishi mumkin.

Har bir murakkab harakat harakatlar ketma-ketligi va «to'shaluvchi» operatsiyalar qatlidan iborat. Har bir murakkab harakatda dolzarb bo'lgan ongli va anglanmagan faoliyatlar o'rtasidagi chegaranining belgilanmaganligi harakatlar ketma-ketligini operatsiyalar ketma-ketligidan ajratib turuvchi chegaranining harakatchanligini bildiradi. Bu chegaranining yuqoriga yo'nalgan harakati operatsiyadagi ba'zi harakatlarning (asosan, eng soddalarining) o'zgarishini anglatadi. Chegaralarning pastga harakatlanishi esa, aksincha, operatsiyalarning harakatga aylanishini, ya'ni faoliyatning maydaroq birlklarga bo'linishini bildiradi. Quyida shunga mos misol keltiramiz. Munozara vaqtida sizda yangi g'oya tug'ildi va siz ifodalanish usulini hisobga olmagan holda, asosan, mazmunidan kelib chiqib, uni bayon qildingiz, deb tasavvur qilamiz. Siz ko'plab, ya'ni aqliy, nutqli va h.operatsiyalar bilan ta'minlangan harakatni amalga oshirgan bo'lasiz. Ularning barchasi birgalikda g'oyani bayon qilish faoliyatini amalga oshirgan bo'ladilar.

Faoliyat tuzilishidagi eng quyi daraja – psixofiziologik funksiyalarni ko'rib chiqamiz. Faoliyat nazariyasida bu funksiyalarga psixik jarayonlarning fiziologik ta'minoti kiradi. Ularga odam organizmiga xos bo'lgan his etish, o'tmish taassurotlarining qoldiqlarini hosil qilish va qayd etish layoqtari, motor layoqati va boshqalar kiradi. Mos ravishda sensor, mnemik, motor funksiyalar haqida so'z yuritish mumkin. Bu darajaga shuningdek, asab tizimi morfologiyasida mustahkam o'rincutgan tug'ma va hayotning birinchi oyalarida yuzaga keladigan mexanizmlar kiradi. Barcha layoqat va mexanizmlar insonga tug'ilishi bilanoq beriladi, ya'ni ular irlisat tomonidan belgilangan bo'ladi.

Psixofiziologik funksiyalar psixik funksiyalarni amalga oshirish uchun faoliyat vositalarini zarur dastlabki shart-sharoitlar bilan ta'minlaydi. Masalan, biror ma'lumotni xotiramizda saqlab qolish uchun tez va sifatli yodda saqlab qolishning maxsus usullaridan foydalanamiz. Lekin agarda biz yodda saqlab qolish layoqatidan iborat mnemik

funksiyalarga ega bo'lmaganimizda, bu faoliyatni amalga oshira olmagan bo'lardik. Mnemik funksiyalar tug'ma bo'ladi. Bola tug'ilishi bilanq katta miqdordagi ma'lumotni yodida saqlay boshlaydi. Dastlab, bu oddiy axborot bo'lib, keyinchalik rivojlanish jarayonida xotirada saqlanishi zarur bo'lgan axborot hajmidan tashqari, yodda saqlashning sifat ko'sratkichlari ham o'zgaradi.

«Korsakov sindromi» deb ataladigan (uni ilk marotaba o'rgangan mashhur rossiyalik psixiatr S.S.Korsakov nomi bilan) xotira kasalligi mavjud. Bunda aynan mnemik funksiya oqsaydi. Bu kasallikda voqealar, hatto, bir necha daqiqa avval sodir bo'lganlari ham umuman yodda saqlanib qolmaydi. Bunday bemorlar, masalan, shifokor bilan kuniga bir necha marta salomlashib, bugun ovqatlanganmi yoki yo'qmi, eslamasligi ham mumkin. Bir bemor onasiga kitobiy asarning o'ziga yoqib qolgan parchasini hozirgina o'qib bergenini yodidan chiqarib yuborib, beto'xtov o'qib berardi va shu asnoda, bir necha o'n martalab takrorlardi. Agar bunday bemor biror matnni yod olishga urinib ko'rsa, u shu zahotiyoy matn bilan birga yod olishningo'zini ham yodidan chiqarib yuborishi mumkin.

Shunday qilib, psixofiziologik funksiyalar faoliyat jarayonlarining organik ustqurmasini tashkil etadi, deb xulosa yasash mumkin. Ularga tayanmay turib, harakatlar va operatsiyalarining bajarilishidan tashqari funksiyalar belgilanishining ham imkoniyati mavjud emas.

Istalgan faoliyat tuzilishida ichki va tashqi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin. Ichki tarkibiy qismlarga markaziy asab tizimi tomonidan boshqariladigan faoliyatlarda ishtirok etadigan anatomik va fiziologik tuzilmalar hamda jarayonlar, shuningdek, faoliyatni boshqarishga taalluqli psixologik jarayonlar va holatlar kiradi. Tashqi tarkibiy qismlarga esa faoliyatni amaliyotda bajarish bilan bog'liq turli harakatlarni kiritish mumkin (N.A.Bernshteyn).

Faoliyatning taraqqiy etib va o'zgarib borishi bilan tashqi tarkibiy qismlarning ichkilariga tizimli o'tishi amalga oshiriladi. Bunda interiorizatsiya, avtomatizatsiya va eksteriorizatsiya ham kuzatiladi.

Shunday qilib, tashqi faoliyatdan tashqari ichki, aqliy faoliyatni ham ajratish mumkin. Bunday faoliyatning funksiyalari nimalardan iborat? Avvalambor, bu funksiyalar ichki harakatlarning tashqi harakatlarni tayyorlashidan iborat. Ular zarur harakatni tezda tanlab olishga imkon yaratib, inson kuchini tejashga, shuningdek, qo'pol xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradilar. Masalan, odam kitob javonlarini devorga qoqib qo'yish uchun joyni mo'ljallaydi. Bir yo'lni tanlab olib,

baholaydi, so'ngra undan voz kechib, ikkinchisiga, uchinchisiga o'tadi, nihoyat, o'ziga mos va qulay holatda to'xtaladi. Garchi bu vaqt ichida bir marta ham «barmog'ini qimirlatib» qo'ymaydi, ya'ni biror bir amaliy harakatni amalga oshirmaydi.

Harakatlarni miyada «aylantirib chiqish» ularni oldindan o'ylab olishga kiradi. Qanday harakat qilishhaqida o'ylayotgan inson qanday yo'l tutadi? Biror bir harakatning amalga oshirilganini tasavvur qilib, uning oqibatlarini ko'rib chiqadi. Ularga qarab, o'zining holatiga mos keladigan harakatni tanlaydi. Yoki boshqa misol, ko'p hollarda inson qandaydir quvonchli hodisani kutganida, vaqtadan o'zib, o'sha hodisani bo'lib o'tganday tasavvur qiladi. Natijada o'zini yuzida baxtli tabassum bilan o'tirganini ko'radi. Bu misollar insonning ichki faoliyatiga misol bo'la oladi. U o'zining ikki asosiy xususiyati bilan farqlanadi. Birinchidan, ichki faoliyat tashqi faoliyat kabi tuzilishga ega, ular bir-biridan faqat codir bo'lish shakli bilan tafovutlanadi. Bu ikki faoliyat motivlar yordamida uyg'otilishini, hissiy kechinmalar bilan birga kuzatilishini, o'zining operatsiyaviy texnik tarkibi mavjudligini bildiradi. Ichki faoliyatning tashqi faoliyatdan farqi harakatlar real jismilar bilan emas, ularning xayoliy tasviri bilan amalga oshirilishidan, real mahsulot o'rniga g'oyaviy natija hosil bo'lishidan iborat. Ikkinchidan, ichki faoliyat tashqi faoliyatdan mos harakatlarning ichki holatga o'tkazilish yo'li bilan paydo bo'lган. Biror-bir harakatni samarali ravishda fikran amalga oshirish uchun uni, avvalo, amaliyotda o'zlashtirib olib, real natija olish lozim. Masalan, shaxmat o'yinida donalarning yurishi o'zlashtirilib, ularning oqibatlari idrok etilgandan keyingina shaxmat yurishini o'ylab olish imkoniyati tug'iladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, faoliyat nazariyasining mualliflari ichki faoliyat tushunchasi orqali ong va psixik jarayonlar tahlili muammosi bilan to'qnashdilar. Faoliyat nazariyasi mualliflarining fikriga ko'ra, psixik jarayonlar faoliyat nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin, chunki istalgan psixik jarayon o'z funksiyalari va operatsiyaviy-texnik tuzilishiga ega bo'lib, ma'lum maqsadda amalga oshiriladi. Masalan, ta'mni idrok qilish ta'm sifatlarining o'zaro farqlari va mos kelish darajalarini aniqlash bilan bog'liq perseptiv maqsad va funksiyalariga ega. Perseptiv funksiyaga yana bir misol sifatida aniqlash jarayonini keltirish mumkin. Bunday funksiyalarni kundalik hayotimizda muntazam holatda ko'z bilan chamlash masalalarini hal etishda, chehralarni, ovozlarni tanib olishda va h.da bajarishga to'g'ri keladi. Barcha funksiyalarni hal etish uchun har biriga mos ravishda farqlash,

aniqlash, o'chash, tanish va boshqa harakatlar ko'rinishidagi perseptiv harakatlar amalga oshiriladi.

Psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira, tafakkur va h.)ni faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faoliyatning alohida shakli sifatida o'rganib, ma'lum axborotlar – faoliyatning umumiyl tuzilishi, darajalari, kechish shakllari va hokazolarni qo'llash mumkin va zarurdir.

Faoliyatning operatsiyaviy-texnik jihatlarini ko'rib chiqish jarayonida, u yoki bu harakat nima uchun bajariladi, maqsadning o'zi qanday paydo bo'ladi kabi savollar paydo bo'lishi mumkin. Bunday savollarga javob topish uchun ehtiyojlar va motivlar kabi tushunchalarga murojaat qilishimiz zarur.

Xatti-harakatning tarkibiy tuzilishi va darajalari

Ehtiyoj – bu tirik organizmlar faolligining boshlang'ich shakli. Tirik organizmda davriy ravishda zo'riqishning ma'lum holatlari yuzaga keladi; ular organizmning ma'lum hayotiy faoliyatini davom ettirishi uchun zarur bo'lgan moddalarning obyektiv yetishmovchiligi bilan bog'liq. Organizmda normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlarni tashkil etuvchi biror narsaning obyektiv etishmovchiligi holatlari ehtiyojlar deb ataladi. Bunday ehtiyojlar sirasiga ozuqaga, suvga, kislородга bo'lgan ehtiyojlar va boshqalar kiradi.

Insondag'i, shuningdek, yuqori tuzilgan hayvonlarda tug'ma bo'lgan ehtiyojlar haqida so'z yuritilganida, sodda biologik ehtiyojlarga yana ikkitasini qo'shib qo'yish lozim. Bu, birinchidan, o'zi kabilar bilan, va birinchi navbatda, yoshi katta individlar bilan aloqaga bo'lgan ehtiyojdir. Bolalarda bu juda erta namoyon bo'ladi. Onaning tovushi, yuzi, qo'l harakatlari – bolada paydo bo'ladigan ijobiy reaksiyani keltirib chiqaruvchi birlamchi ta'sirotlar. Bu 1,5-2 oylik bolada kuzatiladigan «jonlantirish majmuasi»dir.

Insondag'i ijtimoiy aloqalar yoki muloqotga bo'lgan ehtiyoj yetakchi ehtiyojlardan biri hisoblanadi. Faqat inson hayoti davomida u o'zining shakllarini o'zgartiradi.

Bola hayotining dastlabki oylari va yillarida unga mehribonlik qiluvchi onaga va yaqinlarga bo'lgan ehtiyoj. Vaqt o'tishi bilan bu manzara o'zgara boshlaydi, chunki avvalgi ehtiyoj tengdoshlar jamoasida hurmatga sazovor bo'lishga intilish bilan almashinadi. Do'stga, maslakdosh insonga, rahlantiruvchi ustozga ehtiyoj ortadi. Keyinchalik esa hayotda o'z o'rnnini topish, ta'lim olish, jamiyat e'tirofini qozonishga va boshqalarga intilish paydo bo'ladi.

Insonda tug'ma xususiyatga ega bo'lib, organik ehtiyojlarga taalluqli bo'Imagan ikkinchi ehtiyoj – bu tashqi taassurotlarga ehtiyoj, yoki keng ma'noda bilishga ehtiyoj hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlar hayotining birinchi soatlaridan boshlab ko'rish, eshitish, tovush ta'sirotlariga javoban ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, ularni o'rganadilar ham. Xususan, yangi ta'sirotlarga nisbatan ularda jonliroq javob reaksiyalari paydo bo'ladi.

Ikki-uch oylik chaqaloqlarda bilishga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlovchi tajribalar o'tkazildi. Bolaga so'rg'ich berib, uni rezinali nay orgali televizorga ulab qo'ydilar. Bunda so'rg'ich pnevmatik o'tkazgich funksiyasini bajaradi. Qurilmaning ishlash mexanizmi quyidagicha edi: agar bola so'rg'ichni so'rsa, televizor ekrani yorishib, tasvir yoki harakatsiz rasm, yoki so'zlayotgan ayol paydo bo'ladi. Agar bola so'rishdan to'xtagudek bo'lsa, ekran asta-sekin o'chib qolardi. Bolaning qoni to'q bo'lishi kerak (bu tajribaning zarur sharti), lekin bunday holatda bola so'rg'ichni istar-istamas so'radi. Shunday qilib, tajriba davomida bir muncha vaqt o'tib, bola so'rish harakatlarining ekrandagi tasvir bilan aloqasini payqab qolardi, shunda quyidagi voqeа sodir bo'lardi: u jadallik bilan, harakatlarini bir soniyaga ham to'xtatmay, so'rg'ichni so'ra boshlardi. Bu natija ishonarli tarzda ikki oylik bolaning faoliy bilan tashqi olamdan axborot o'zlashtirishga qodirligidan dalolat beradi. Bunday faoliy bilish ehtiyoji ifodasining o'zidir.

Ko'rib chiqilgan bu ikki ehtiyojga nisbatan ikki muhim holatni qayd etib o'tish mumkin. Birinchidan, munosabatlarga va bilishga bo'lgan ehtiyoj dastlabki vaqtarda bir-biri bilan uzviy tutashib ketgan bo'ladi. Bolaga yaqin bo'lgan inson uning faqat munosabatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirmasdan, bolada hosil bo'ladigan turli taassurotlarning eng birinchi va asosiy manbaidir. Ota-onaning faol harakatlari, gap-so'zleri, bolani boshqarishi, o'yinlar uning bilish ehtiyojini o'sqlantiruvchi taassurotlarning bosh manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ehtiyojlar haqidagi umumiy qarashlar: ta'riflari, organik ehtiyojlar bilan birgalikda inson uchun juda muhim bo'lgan ikki ijtimoiy va bilish ehtiyojlarining mavjudligi ko'rib chiqildi.

Undi ehtiyojlarning faoliyat bilan bo'ladigan aloqalariga murojaat qilamiz. Bunda har bir ehtiyoj hayotidagi ikki bosqichni ajratish lozim. Birinchi bosqich – ehtiyojni qondiruvchi jismni uchratishgacha bo'lgan davr; ikkinchi bosqich – bu uchrashuvdan keyingi davr.

Birinchi bosqichda ehtiyoj subyektga taqqid etilmagan bo‘ladi. U qandaydir zo‘riqish, qoniqmaslik holatini boshidan kechirishi, lekin bu holatning asl sababini bilmasligi mumkin. Xulq-atvor tomonidan esa bunday holat notinchlikda, turli jismlarni izlash, tanlashda ifodalanadi. Masalan, mashhur bolalar shifokori B.Spok farzandlari ortiqcha vazndan aziyat chekayotgan ota-onalarni ortiqcha ishtahalarining asl sababi haqida chuqur fikr yuritishga chaqiradi. Uning fikricha, ota-onalarning e’tibori va mehribonligi yetishmaganida bolalar o’zlarini shunday tutadilar. Bunday bolalar qoniqmaslik holatini boshidan kechirib, uni aniqlashtira olmaydilar va ovqatga ruju qo‘yadilar.

Izlash faoliyati davomida, odatda, ehtiyojning jism bilan uchrashuvi sodir bo‘ladi va shu bilan ehtiyoj «hayotidagi» birinchi bosqich o‘z nihoyasiga etadi.

Ehtiyoj tomonidan o‘z jismini «bilib olish» jarayoni ehtiyojning jismga ega bo‘lishi nomini olgan. O‘zining sodda shakllarida u «imprinting mexanizmi», ya’ni yodda qolish sifatida ma’lum. Imprintingga misol, yangi tuxumdan chiqqan g‘ozda yonidan o‘tib ketayotgan jismning iziga tushish reaksiyasining uyg‘onishi: u har bir harakatlanayotgan jismning, u jonsiz bo‘lsa ham, ortidan keta boshlaydi. Xuddi onasi ortidan yurgandy (K.Lorens tajribalari).

Jismga ega bo‘lishi jarayonida ehtiyojning ikki asosiy xususiyati namoyon bo‘ladi. Birinchisi, ushbu ehtiyojni qondira olish xususiyatiga ega bo‘lgan jismlarning dastlabki juda keng tarkibiy qismidan, ikkinchisi – ehtiyojni birinchi bo‘lib qondirgan jismda tezda qayd etishdan iborat. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, ehtiyojlarni qayd etish fakti bolalarni tarbiyalash amaliyotida yaxshi tanish.

Masalan, bola hayoti birinchi yilining oxirida ozuqasiga turli qo‘shimchalar kiritish tavsiya etiladi. Aks holda bola bo‘tqa va sutga o‘rganib qolib, keyinchalik go‘sht, tuxum va shunga o‘xhash mahsulotlarni og‘ziga olishdan bosh tortishi mumkin.

Ko‘pincha o‘g‘il bolaning ota-onasi haqli ravishda uning yonidagi o‘rtoqlaridan, qiz bolaning ota-onasi esa uning didiga mos keladigan yigitdan xavotir oladilar. Ular ichki tuyg‘ulari orqali o‘z farzandlarining tanlovida keyinchalik ta’sir ko‘rsata olmasliklarini anglaydilar, bu aynan ehtiyojlarning tezda qayd etilishi sababli sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, ehtiyojning jism bilan uchrashuvi vaqtida uning jismga ega bo‘lishi sodir bo‘ladi. Bunday holat bu aktida ehtiyoj jismi sifatida ta’riflanuvchii motiv paydo bo‘lganligi uchun juda muhim bo‘lib hisoblanadi.

Ehtiyojning jismga ega bo'lishidan va motivning yuzaga kelishidan so'ng xulq-atvor turi keskin o'zgaradi. Agar shu vaqtgacha xulq-atvor yo'nalirilmagan, izlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, endi u «vektor» yoki yo'nalish oladi. U jism tomon yo'nalgan bo'ladi, agar motiv salbiy valentlikka ega bo'lsa, jismdan tashqariga yo'naladi. Bir yosh belaning keskin yo'nalgan xulq-atvorini misol qilib keltirish mumkin. Bir yoshli bolada tuzga berilish aniqlandi. «Tuz» uning birinchi bo'lib tushungan va talaffuz qiliishi o'rgangan so'zi bo'ldi. Bola uuda tuvning saqlanish joyini bilar, doimiy ravishda uni so'rabi, qo'llari bilan unga intilib, agar bermasalar, yig'lardi. Nihoyat, unga erishgandan so'ng qoshiqlab iste'mol qilardi. Bola bir yarim yoshga etganida uni kasalxonaga tekshiruvga yotqizdilar. U yerda normal oziganish tartibi belgilandi, ya'ni bola talab etayotgan tuzni bermay qo'yidilar va u tez orada nobud bo'ldi. Tanasining ichki tekshiruvidan uning buyrak ustisi po'stlog'ida o'sma borligi, natijada organizmdan tuz yuvilib chiqib ketishi ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, o'tkir organik ehtiyoj o'zining jismi – tuzni topgan. Tuzga intilish bolani turli harakatlarga undardi: u tuzni o'zi olishga intilar, uni so'rabi yig'lar, uni katta miqdorda iste'mol qilardi va h. yuqorida keltirilgan ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, tuz bola holliyatida motiv, shu bilan birga yetakchi motiv bo'lganini aytish mumkin.

Yana bir ta'rifga asosan motiv – bu harakatning nima sababdan amalga oshirilishi. «Biror bir sababdan» odam ko'plab turli harakatlarni amalga oshiradi. Mana shu bir motiv tomonidan chaqiriladigan harakatlar yig'indisi faoliyat, aniqroq avtiladigan bo'lsa, alohida faoliyat yoki faoliyatning alohida turi deb atala'di. Bunday faoliyat turlari sifatida o'yin, o'quv, mehnat faoliyatlarini keltirish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bir motivning o'zi turli harakatlar to'plami bilan qondirilishi mumkin, va aksincha, bir harakatning o'zi turli motivlar tomonidan uyg'otilishi mumkin.

Agar bir odam misolic'a ko'rib chiqadigan bo'lsak, odatda, uning amalga oshiradigan harakatlari bordaniga bir necha motiv sabab bo'ladi. Inson harakatlarining ko'pchilik motivlar tomonidan uyg'otilishi – odatiy hodisa. Masalan, odam natijaning yuqori sifati uchun mehnat qilish bilan birga, yo'l-yo'lakay o'zining bosqiga motivlari – jamiyat e'tirofi, moddiy rag'bat kabilarni ham qondirishi mumkin.

Tutgan o'rnini yoki bajaradigan funksiyasiga ko'ra barcha motivlar ham bir day ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Ulardan biri asosiy,

qolganlari ikkinchi darajali bo‘lishi mumkin. Bosh motiv yetakchi motiv, ikkinchi darajalilari – rag‘batlantiruvchilar deb ataladi.

Endi motivlar nisbati va ong muammosini ko‘rib chiqamiz. Yuqorida bildirilgan fikrlarga ko‘ra, motivlar harakatlarni yuzaga keltiradi, ya’ni maqsadlarning hosil bo‘lishiga olib keladi, maqsadlar esa doim anglangan holatda bo‘ladi. Motivlarning o‘zi esa anglanadigan va anglanmaydigan turlarga bo‘linadi. Maqsad motivi birinchi turdagi motivlarga misol bo‘la oladi.

Agar motivlar anglanmaydigan bo‘lsa, ularni ongda umuman ifodalanmaydi, deb hisoblash mumkinmi? Yo‘q, bunday emas, albatta. Ular ongda alohida ikki shakl: hissiyotlar va shaxsiy mohiyatlarda ifodalanadi.

Hissiyotlar motivlar bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar yoki harakatlar natijalari bahonasida paydo bo‘ladi. Agar odam biror narsadan xavotirlanayotgan bo‘lsa, demak, «o’sha narsa» uning motivlariga dahldordir. Faoliyat nazariyasida hissiyotlar faoliyat natijasining uning motiviga nisbatan munosabatining aks ta’siri sifatida ta’riflanadi. Agar motiv nuqtai nazaridan faoliyat samarali amalga oshirilsa, ijobji hissiyotlar, agar samara bermasa, salbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Masalan, qaysi holatlarda odamda g‘azab hissi paydo bo‘ladi: qachonki, maqsadga erishishimiz yo‘lida to‘sinqinliklarga duch kelsak. Qo‘rquv hissi-chi? O‘zini muhofazalash motivi tahdid ostida qolgan holatda. Shodlik-chi? Aksincha, motiv o‘zidan qoniqish hissiga ega bo‘lgan holatda.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: hissiyotlar juda muhim ko‘rsatkich bo‘lib, ularning yordamida inson motivlarini aniqlash mumkin.

Endi shaxsiy mohiyat haqida so‘z yuritamiz. Yetakchi motiv faoliyat maydoniga tushib qolgan yuqori subyektiv ahamiyatga ega bo‘lgan jism, harakat yoki hodisa kechinmasidir. Shuni ta’kidlash muhimki, bunda faqat yetakchi motiv mohiyat hosil qiluvchi funksiyasini bajaradi.

Shaxsiy mohiyat bilan bog‘liq noyob hodisani bungacha betaraf bo‘lgan obyekt kutilmaganda subyektiv muhim bo‘lgan kechinma sifatida ko‘riladigan «o‘tish jarayonlarida» oson aniqlash mumkin. Masalan, agar o‘zingiz sayohat rejalashtirib, uning yo‘nalishini tanlaydigan bo‘lsangiz, zerikarli geografik ma’lumotlar ham muhim va ahamiyatli bo‘lib qoladi.

Qisqacha, motivlar va shaxs aloqasi muammosida to‘xtalamiz. Inson motivlari sohasi tomonidan shaxs ko‘lami va uning fe'l-atvori aniqlanadi.

Odatda, motivlarning zinapoyali munosabatlari to‘laqonli anglanmaydi. Ular motivlar kelishmovchiligi yuzaga keladigan vaziyatlarda oydinlashadi. Juda ko‘p holatlarda hayot turli motivlarni to‘qnashtirib, insondan ularning birini: moddiy manfaatdorlik yoki ishga bo‘lgan qiziqish, shaxsiy muhofaza yoki g‘urur va hokazolarni tanlashga majbur qiladi.

Endi motivlar rivoji kabi muhim masalani ko‘rib chiqamiz. Bu masala, avvalo, shaxs tarbiyasi va o‘zini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Faoliyat tahlilida harakatning tabiiy yo‘nalishi quyidagicha bo‘ladi: ehtiyojdan motivga, so‘ngra maqsad va harakat tomon ($E \rightarrow M \rightarrow M \rightarrow H$). Voqeiy faoliyatda esa muntazam ravishda teskari jarayon ro‘y beradi: faoliyat davomida yangi motivlar va ehtiyojlar shakllanib boradi ($F \rightarrow M \rightarrow E$).

Faoliyat nazariyasida motivning maqsad tomon harakat mexanizmi yoki maqsadning motivga aylanish mexanizmi mavjud. Ushbu mexanizmning mohiyati shundan iboratki, qandaydir motiv tomonidan erishishga harakat qilinadigan maqsad vaqt o‘tishi bilan o‘zi mustaqil holatda undovchi kuchga ega bo‘ladi, ya’ni maqsadning o‘zi motivga aylanadi. Maktab hayotidan bir misol keltiramiz. O‘quvchi ma’lum fan bilan unga o‘zining sevimli ustozи bilan muloqotda bo‘lish zavqli bo‘lgani uchun shug‘ullanadi. Lekin asta-sekin ushbu fanga qiziqish chuqurlashib boradi, va o‘quvchi uni bo‘lajak mutaxassislik sifatida ham tanlashi mumkin. Shunday qilib, motiv maqsadga aylandi. Shuni ta‘kidlash lozimki, maqsadning motivga aylanishi ijobiy hissiyotlar to‘planganidagina yuz berishi mumkin, masalan, hammaga ma’lumki, faqat jazo berish va majburiy ravishda ishga nisbatan qiziqish yoki muhabbat uyg‘otish mumkin emas.

Maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar

Inson xulq-atvorida funksional jihatdan bog‘liq bo‘lgan qo‘zg‘atuvchi va boshqaruvchi tomonlar mavjud. Psixologiyada inson xulq-atvorida qo‘zg‘atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo‘llaniladigan tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiyyatli va asosiy bo‘lib hisoblanadi.

«Motivatsiya» atamasi «motiv» atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. «Motivatsiya» so‘zi hozirgi zamon psixologiyasida xulq-atvorni determinatsiyalovchi omillardir. Bunga, xususan, ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqa ko‘pchilik) tizimini belgilovchi va xulq-atvor faolligini ma’lum darajada tutib turuvchi, rag‘batlantiruvchi jarayon xususiyati sifatida ikki xil ma’noda qo‘llaniladi. Biz motivatsiya tushunchasini birinchi ma’noda qo‘llaymiz. Shunday qilib, motivatsiyani inson xulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo‘lgan sabablar yig‘indisi sifatida belgilash mumkin.

Xulq-atvorning paydo bo‘lishi, davomiyligi va barqarorligi, yo‘nalganlik va ko‘zlangan maqsadga erishilgandan so‘ng yakunlanishi, kelajakdagi voqealarga moyillik, alohida olingan xulq-atvor aktining mutanosibligi va mazmun jihatidan yaxlitligi, samaradorligini oshirish kabi tomonlari motivatsion jihatdan tushuntirishni talab etadi.

«Nimaga?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «nima evaziga?», «qanday mohiyatga ega?» va boshqa shu turdagи savollarga javob izlash motivatsiyaga muvofiq amalga oshiriladi.

Xulq-atvornining istalgan shakli ichki va tashqi sabablar bilan tushuntirilishi mumkin. Birinchi vaziyatda tushuntirishning boshlang‘ich va yakuniy holatlari sifatida subyekt xulq-atvoringin psixologik xossalari, ikkinchisida – tashqi va faoliyat sharoitlari namoyon bo‘ladi. Birinchi vaziyatda motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, tilaklar, qiziqishlar va hokazolar, ikkinchisida esa yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan rag‘batlar haqida so‘z yuritiladi. Ba’zan inson xulq-atvorni ichdan belgilab beradigan barcha omillar shaxs dispozitsiyalari deb ataladi. U holda muvofiq ravishda dispozitsion va vaziyatli motivatsiyalar haqida xulq-atvorni determinatsiyalashning ichki va tashqi analoglari sifatida so‘z yuritiladi. Shuning uchun insonning istalgan harakati ikki tomonlama: dispozitsion va vaziyatli determinatsiya sifatida ko‘rib o‘tiladi.

Dispozitsiyalar o‘z mohiyatiga ko‘ra motivlardir. Motiv motivatsiyadan farqli o‘laroq – bu xulq-atvor subyektining o‘ziga tegishli bo‘lgan, uning ma’lum harakatlari amalga oshirishga ichkaridan undovchi barqaror shaxsiy xossasi. Motivni, shuningdek, umumlashtirilgan ko‘rinishda ko‘pchilik dispozitsiyalarni ifodalaydigan tushuncha sifatida belgilash mumkin.

Mayjud bo‘lgan dispozitsiyalardan eng muhim ehtiyojlar tushunchasi hisoblanadi. Ehtiyoj deb, inson yoki hayvonning ma’lum

sharoitlarda ularga normal yashash va rivojlanishi uchun yetishmovchilik holatiga aytildi. Ehtiyoj shaxsholati sifatida muntazam ravishda insondagi organizm (shaxs) uchun etishmovchilik bilan bog'liq bo'lgan qoniqmaslik hissi bilan bog'liq.

Inson ehtiyojlarining asosiy xususiyatlariga qondirish kuchi, paydo bo'lishining davriyiligi va usuli kiradi. Shaxsning ahamiyatli ehtiyoji, uning jinsga bog'liq mazmuni, ya'ni ushbu ehtiyojni qondira oladigan moddiy va ma'naviy madaniyat obyektlarining yig'indisidir.

Ehtiyojdan keyingi motivatsion ahamiyatga ega bo'lgan tushuncha – bu maqsad. Maqsad deb, faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, dolzarb ehtiyojni qondiruvchi bevosita anglanuvchi natijaga aytildi. Psixologik jihatdan maqsad ongning motivatsiyali qo'zg'atuvchi mazmuni, u inson tomonidan faoliyatining bevosita va yaqin kutilayotgan natijasi sifatida idrok qilinadi.

Ko'rib chiqilgan motivatsiyali hosilalardan dispozitsiyalar (motivlar), ehtiyojlar va maqsadlar inson motivatsion sohasining asosiy tashkil etuvchilari bo'lib hisoblanadi.

Shaxsning motivatsion sohasini rivojlanganlik nuqtai nazaridan kenglik, egiluvchanlik va ierarxiyalashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha baholash mumkin. Motivatsion sohaning kengligi deyilganda, darajalarning har birida keltirilgan dispozitsiyalar, ehtiyoj va maqsadlar habi motivatsion omillarning sifat jihatidan turli-tumanligi tushuniladi. Odamda turli xil motivlar, ehtiyoj va maqsadlar qanchalik ko'p bo'lsa, uning motivatsion sohasi ham shunchalik rivojlangan hisoblanadi.

Motivatsion sohaning egiluvchanligi motivatsiya jarayonini quyidagicha xarakterlaydi: yuqori darajadagi motivatsion maylning qondirilishi uchun quyi darajadagi turli xil motivatsion mayllar qanehalik ko'proq qo'llanilgan holatda motivatsion soha ham shunchalik darajada egiluvchan bo'ladi. Masalan, bir individ uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyoj faqat televideniya, radio va kino hisobiga qondirlisa, boshqasi uchun xuddi shunday ehtiyojni qondirish vositasi turli kitoblar, davriy matbuot, odamlar bilan muloqot hisoblanadi. Keyingi holatda motivatsion soha egiluvchanroq bo'lib sanaladi.

Ierarxiyalashtirilganlik – bu alohida olingen motivatsion sohasidagi har bir tuzilish darajasining xususiyati. Bir xil dispozitsiyalar (motivlar, maqsadlar) boshqalaridan kuchliroq bo'lib tez-tez hosil bo'lib turadi; boshqalari kuchsizroq bo'ladi va kamroq dolzarb lashtiriladi. Ma'lum darajadagi motivatsion hosilalarning aktuallashuvish kuchi va

chastotasi dagi farqlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, motivatsion sohaning ierarxiyalanganligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Motivlar, ehtiyojlar va maqsadlardan tashqari, inson xulq-atvori qo‘zg‘atuvchilari sifatida, shuningdek, qiziqishlar, muammolar, tilak va maqsadlar ham ko‘rib chiqiladi. Qiziqish deb, bilish xususiyatiga ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir xil, ayni damda dolzarb bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘lanmagan, alohida motivatsion holatga aytildi. Muammo ma’lum maqsadga erishishga yo‘naltirilgan harakatni bajarishda organizm yengib o‘tishi zarur bo‘lgan to‘siqlarga duch kelganida paydo bo‘ladi. Tilaklar va maqsadlar – bu darhol yuz beradigan va ko‘pincha bir-birini almashtirib turadigan, harakat bajarish sharoitlarining o‘zgarishlariga javob beradigan motivatsion subyektiv holat.

Inson xulq-atvori motivatsiyasi ongli va ongsiz bo‘lishi mumkin. Bu inson xulq-atvorini boshqaruvchi ba‘zi ehtiyoj va maqsadlar inson tomonidan anglanishini, boshqalarining esa anglanmasligini bildiradi.

Shunday qilib, motivlar anglangan yoki anglanmagan bo‘lishi mumkin. Shaxs yo‘nalganligi shakllanishidagi asosiy o‘rinni anglangan motivlar egallaydi.

Harakatda motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlarni ajratish mumkin. Ular mos holatda bajarish, nazorat yoki boshqarish funksiyalarini bajaradilar. Faoliyat davomida inson tomonidan qo‘llaniladigan harakatni bajarish, nazorat va boshqarish uslublari ushbu faoliyatning usullari deb ataladi.

Nazorat savollari

1. Insonning psixik jarayonlari va miya.
2. MNS tuzilishi. Bosh miya, orqa miya, periferik va vegetativ nerv sistemasi.
3. Aqliy va ichki harakatlar.
4. Bir harakatdan ikkinchi harakatga, aqliy operatsiyalarga o‘tish. Xatti-harakat tushunchasi (P.K.Anoxin).
5. Koordinatsion harakat tushunchasi (N.A.Bernshteyn). Harakatlarning rivojlanishi.
6. Psixomotorika tushunchasi. Harakatning maqsad sari intilish xususiyati.
7. Harakat regulyasiyasi. Harakat asosini orientirlash tushunchasi.
8. Harakatning umumiylaf faoliyat jarayonlari xususiyatiga bog‘liqligi.

9-bob. ZOOPSIXOLOGIYA VA QIYOSIY PSIXOLOGIYAGA KIRISH

HAYVONLAR PSIXIK FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Reja:

1. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaning predmeti va vazifalari.
2. Hayvonlar xulq-atvorining psixologik bilimlar tizimidagi o'rni.
3. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiya usullari.
4. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaning rivojlanish tarixi.
5. Zoopsixologiyani tadqiq qilishning besh usuli.
6. Asab tizimigacha bo'lgan davr va asab tizimining paydo bo'lishi.

Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaning predmeti va vazifalari

Qiyosiy psixologiya yuqori darajada rivojlangan umurtqalilarni atropogenetik holatlarini o'rganuvchi sohalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy holati hayvonlarning intellektini o'rganishdan iboratdir. Ba'zi holatlarda qiyosiy psixologiya fan sifatida emas, balki usul sifatida talqin etilishi mumkin. Ba'zi bir olimlar esa aksincha tasavvur qildilar, Masalan, Vladimir Aleksrovich Wagner zoopsixologiyani qiyosiy psixologiyaning bir qismi sifatida e'tirof etgan.

Qiyosiy psixologiya hozirgi kunda hayvonlar va insonlarning kelib chiqish qonuniyati va ularning rivojlanish holatlarini o'rganadigan fanlar qatoriga kiritiladi.

Qiyosiy psixologiyani predmeti sifatida inson va hayvonlarning holatlarini solishtirishdan iboratdir. Shuning uchun ham qiyosiy psixologiya zoopsixologik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi, inson va hayvonlarning ontogenez va filogenezidagi o'zgarishlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'лади.

Qiyosiy psixologiya va zoopsixologiyaning funksiyasi sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin. Zoopsixologiya fanga nisbatan an'anaviy ishonchsizlik holatlarining mavjudligi. Hayvonlarning psixikasini o'rganish mumkin emas degan g'oyalarning mavjudligi. Ilmiy zoopsixologiya hayvonlarning hissiyotlarini o'rganishdan iborat emas, balki uning vujudga kelishi va evolutsiya natijasida o'zgarishini o'rganadi.

Amaliy funksiyalari sifatida hayvonlar psixikasi haqidagi bilimlarni kerakli bo'lgan sohalarda ishlatishdan iborat, bunda uchta sohani keltirib o'tishimiz mumkin:

Inson faoliyatining hayotiy va xo‘jalik sohasida;
Inson tomonidan tabiatni himoya qilish sohasida;
Rivojlantiruvchi psixoterapeutik maqsadlarda.

Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyani muammolari:

- psixik aks ettirishni vujudga kelishi va uning rivojlanishi;
- hayvonlarda tug‘ma va orttirilgan xatti-harakatlar tavsifi;
- ontogenezdagi xatti-harakatlar qonuniyati, turli xil guruhdagi hayvonlarning psixikasi;
- hayvonlar intellektining o‘ziga xosligi;
- hayvonlarning psixikasi va xatti-harakatlarini antropogenetik ahamiyatlari.

Hayvonlar xulq-atvorining psixologik bilimlar tizimidagi o‘rni

Hayvonlarni psixologik jihatdan o‘rganish bilan birga, hozirgi kunda hayvonlarni biologik tarzda o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu etologiya sohasining tarkibiga kirib ular shu soha bilan shug‘ullanishadi. Etologlar birinchi navbatda, hayvonlarning xatti-harakatini ekologik omil asosida o‘rganishadi, bunda hayvonlarni ma’lum bir sharoitlariga moslashish holatlari o‘rganiladi. Bir vaqtning o‘zida etologiya filogenezdagi hayvonlarning xatti-harakatini o‘zgarish holatlarini ham tadqiq etadi. Etologik o‘ziga xoslik asosida, albatta, hayvonlarning instinkтив xulq-atvorlari yotadi. Dala sharoitida kuza-tishlar natijasida etologlar xatti-harakat biologiyasi nazariyasini yaratdilar. Bunda asosiy o‘rinda instinkтив xulq-atvor birlamchi o‘ringa chiqadi. Ular evolutsion bilimlarga, funksional morfologiyaga, ommaviy ekologiyaga, hayvonlar tizimiga, zoogeografiyaga va boshqa sohalarga katta foyda keltirdilar.

Zoopsisxologiya o‘zining sa’y-harakatlarini hayvonlar xulq-atvorini o‘rganishga qaratadi, etologlar esa biologik jihatlarga. Biroq psixik omillarsiz hayvonlarning biologik jihatlarini o‘rganish mumkin emas, va aksincha.¹

Zoopsisxologianing fiziologiya bilan aloqasida ham uziyilik mavjud. Ayniqsa, neyrofiziologiya, oliv nerv fiziologiyasi bilan. Zoopsisxologdan farqli ravishda fiziolog psixik aks ettirish jarayonlarini o‘rganadi. Fiziologik tadqiqotlar xuddi zoopsisxologiya kabi o‘tkaziladi, unda xatti-harakatlar tahlil qilinadi va albatta, fiziolog oliv nerv faoliyatiga o‘z e’tiborini qaratadi. Uning birlamchi funksiyasi faoliyat tizimlari va a’zolarini o‘rganishdan iborat. Sodir bo‘layotgan holatlarni

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 428.

o'rganayotgan vaqtida, albatta, psixik aks ettirishlarni ham kuzatish mumkin, biz organizmni yaxlitligicha idrok qilishimiz zarur bo'ladi. Biroq fiziologik jarayonlar xatti-harakat shakli, fiziologik mexanizmlarni anglashga yordam beradi, Demak, fiziologik mexanizmlar va alohida jarayonlar orasidagi chegaralarni yo'qotadi. Shuning uchun ham fiziologiyani o'rganayotgan vaqtida etologik yoki zoopsixologik nuqtai nazarlar bilan yondashish mumkin emas. Fizioglarni funksiyasi zoopsixolog va etologlarnikidan farqlidir. Yuqoridagi hech bir fan boshqasining o'rnnini bosa olmaydi, ular faqatgina hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishlari mumkin. Bu yo'nalishlar orqali hayvonlarni to'liq tahlil qilish imkoniyatini yaratishimiz mumkin. Hayvonlarni tadqiq qilish asosan laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi. Zoopsixologiya fanida hayvonlarning trof-muhit bilan o'zaro munosabatlari ham o'rganiladi. Hayvonlarni o'rganishda to'plangan tajribalari asoslangan holda yangi tajriba usullarini ishlab chiqish mumkin.

Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiya metodlari

Zoopsixologiyani o'rganish metodlari ikki asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) empirik ma'lumotlar va faktlar asosida olingan metodlar;
- 2) empirik ma'lumotlar va faktlarni tahlil qilish asosidagi metodlar.

Empirik ma'lumotlar va faktlar asosida olingan metodlar bu faktik materiallarni tadqiqot predmeti va vazifalari orqali olingan hisoblanadi. Shuning uchun ham bu metodlar fanning ma'lum bir sohasiga va tadqiqotni ma'lum bir tadqiqiga aloqador hisoblanadi. Zoopsixologiyada bu hayvonlarning xatti-harakatlari o'rganilsa, qiyosiy psixologiyada inson va hayvonlarning xatti-harakatlari solishtiriladi. Bir-biriga uyqash bo'lgan fanlar bir-biriga o'xhash ba'zi bir holatlarda bir xil usullardan foydalanishlari mumkin.¹ Bu zoopsixologiyaga bilan bog'liq bo'lgan boshqa fanlarga, ya'ni fiziologiya, etologiyaga ham tegishlidir. Empirik ma'lumotlar va faktlarni tahlil qilish asosidagi metodlar bu fanlar metodologiyasi hisoblanadi. Bunda fanlarning nazariy holatlari, kelib chiqish vaqlari nazariy va amaliy ahamiyatlarini o'rganish mumkin. Tadqiqotning predmeti haqidagi ma'lumotlar, albatta, nazariy asoslar orqali tahlil qilinadi. Shunday qilib, hayvonlarning xulq-atvorini o'rganuvchi zoopsixologiya, etologiya va fiziologiya fanlarining obyekti bir xil, biroq ularning o'ziga xos predmetlaribo'lgani sababli turlicha talqin etilishi kerak bo'ladi. Psixologiya subyekt psixikasining ichki holati bo'lib, psixik jarayonlarning tuzilishi, funksiyasini; etologiya

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 429.

hayvonlarning turlarini vujudga kelishi va moslashish ahamiyatini, fiziologiya insonlar va hayvonlarning psixikasining ichki mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Ilmiy tahlil nazariyalari metodlari o'rganiladi, ular tafakkurning mexanizmlari asosida shakllanadi. Buning uchun, albatta, fanning metodologiyasi bo'lishi shart. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiya psixologik yondashuvlardan foylanadi, bunda psixikani evolutsion jahbada tahlil qilish mumkin. Evolutsion yondashuvda: evolutsion tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, madaniy tarixiy, qiyosiy psixologik. Bularning nazariy tahlili keyingi bo'limlarda ko'riladi.

Empirik ma'lumotlar va faktlar asosida olingen metodlar zoopsixologiya va qiyosiy psixologiya fanida ikki asosiy guruhga bo'linadi. Kuzatish usuli eksperiment metodi. Har bir usulning qo'llanish holatlari ma'lumotlarni tahlil qilishga doir holatlar bilan belgilanadi.

Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaning rivojlanish tarixi

Zoopsixologiya fani yosh fanlar qatoriga kiradi. Fanning paydo bo'lishi 200 yil atrofida deb taxmin qilinadi. Biroq uning asosi qadimdan o'rganilgan. Birinchi navbatda, etologiya sohasining rivojlanishi bilan bog'liq, ya'ni yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish asosida zoopsixologiya rivojlana boshlagan. Hayvonlarning xattiharakatlarni empirik jihatdan o'rganish turli xildagi hayvonlarni xonakilashtirish, qo'lga o'rgatish imkoniyatini yaratdi. Biroq qadimiy o'rgatish usullari bizgacha etib kelmagan bo'lsa-da, hayvonlarni qo'lga o'rgatishning asosiy tamoyillari va mexanizmlarini tahlil qilish imkoniyatiga egamiz. Zoopsixologiya fani mustaqil fan sifatida emas, balki dunyoqarashning bir turi sifatida shakllangan. Hayvonlarning xulqatvori faylusuflar tomonidan ko'proq o'rganilgan. Bu esa teologik nazariyani keltirib chiqardi. Hech bir olim hayvonlarning xattiharakatlarini tahlil qilish muammosini chetlab o'tmagan. Ko'pgina shaxs nazariyalarida ham, albatta, hayvonlar xulq-atvoriga murojaat qilinadi.

Zoopsixologiyada nazariyalar klassifikatsiyasi. Umuman olganda, zoopsixologiya haqidagi nazariyalarni ikkita katta guruhga ajratishimiz mumkin: kreatsion (teologik) va ratsional (tabiiy ilmiy).¹

Kreatsion harakat nazariyasida yuksak darajada tuzilgan ongning mavjudligi qaror qabul qilish imkoniyatini vujudga keltirishi mumkinligi haqidagi faraz ilgari suriladi. Ular ikki guruhga bo'linadi: kartezianlik va xulq-atvorning metafizik nazariyasi.

¹ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 391.

Ratsional nazariya hayvonlarning xatti-harakati ong orqali boshqarilishi haqidagi taxminni ilgari suradi. Bu jarayon instinktlar deb e'tirof qilinadi. Instinktlar esa shaxsiy tajribalar bilan umumlashtiriladi, bunda, albatta, shaxsiy tajribaning o'rni katta deb hisoblanadi. Mazkur xususiyatlar insonda improvizatsiya deb ataladi. Bu farazlar materialistik xarakterga egadir. Qat'iy ratsional xulq-atvorshaklining o'rniga hayvonlarda instinktiv xatti-harakatlar va individual xulq-atvor tushunchalaridan foydalanish tavsiya qilinadi, biroq evolutsion rivojlanish u'larda cheklangan.¹

Ratsional nazariyalarni bir necha guruhga ajratishimiz mumkin:

- 1) antropomorfoz yo'nalishi nazariyalari;
- 2) atomistik nazariyalar (tropizmlar nazariyasi, reflekslar nazariyasi);
- 3) determinat nazariyalar(bixeviorizm, geshtalpsixologiya)
- 4) tana tuzilishlari nazariyasi (Vagnerning metodologik nazariyasi, Lorenzning obyektiv harakat nazariyasi).²

Zoopsixologiyada kreatsion nazariya. Kreatsionizm (lotin tilidan olingan: *creator* – yaratuvchi) – bu yo'nalish tabiiy fanlarda nomaterial dunyoviy ongni shakkantirish imkonini beradi. Dunyoni yaratilishi xudo tomonidan amalga oshirilgan deb e'tirof etiladi. Ushbu nuqtayi nazarda hamma narsa xudoning irodasiga bog'liq deb e'tirof etiladi. Hozirgi zamон олимлари, ya'ni mazkun nuqtai nazar tarafdorlari kitoblardagi isbotdan tashqari faktlarni izlashadi. Etologiyada esa bu kam tadqiq qilingan. Biroq har doim ham bu shunday bo'Imagan. Teologik nazariyaning ilmiy asoslarini XVII asrda yashab o'tgan olim R.Dekart (René Descartes 1596-1650) tahlil qilgan. Bu nazariyaning asosida kristianlik dinidagi ruhning abadiyligi haqidagi g'oya yotadi. Bu g'oya Yevropaning ko'p qismida ustunlik qilgan. R.Dekart tanani ruhdan ayri rivojlanishi qabul qilgan, tafakkurni esa ruhning xususiyatlariiga kiritgan. Ruh uchun aqliy jarayonlar kerak deb e'tirof etgan. Ruhning rivojlanishi faqat insonga xos deb ta'kidlagan. Hayvonlarni, uning fikricha, hissiyotsiz kimyoiy mashina sifatida talqin qilish mumkin.³

Zoopsixologiyada metafizik qarashlar. Metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning rivojlangan shakli bo'lib hisoblanadi. Yangi tarixda teologik nazariyalarni ilmiy jihatdan asoslash majburiyati tug'ildi. Metafizikada hayvonlar kreatsion xulq-atvor tashuvchilarini bo'lgan mustaqil mavjudotlar sifatida tahlil qilinadi. Metafizik

¹ psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 392.

² psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan, 393.

³ psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan.

psixologiyaning asosan oliy ongning mavjudligi haqidagi g'oyaga tayanadi. Metafizika xulq-atvorni tahilili qilish bilan shug'ullangan. XIX asrda yashab o'tgan Ernest Gekkelning asarlarida zoopsixologiya va metafizika tahlil qilingan.

Zoopsixologiyada ratsional farazlarning rivojlanish tarixi. Zoopsixologiyada hayvonlar psixologiyasining ratsional nazariyalari metafizikva teologik nazariyalardan avvalroq paydo bo'lgan. Bizning qadimgi ajdodlarimiz avval hayvonlarni qo'lga o'rgatib, so'ngra ijodiy g'oyalarni talqin qilganlar. Zoopsixologiyada ratsionalizmilmiy va tabiiy-ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Ratsionalizm nazariyasining asosi birlamchi hayvonlarning xulq-atvorida ko'rsatilgan. Dastlabki ratsionalistik yo'nalishning vakili Arastu bo'lgan. U turli xil hayvonlarni solishtirib, o'zining fikrlarini Iskandar Zulqarnaynga jo'natgan. U hayvonlarning xulq-atvorini inson xulq-atvori bilan solishtirib, hayvonlarda ham psixik jarayonlar mavjudligini ko'rsatib o'tgan. Uning fikriga ko'ra har bir hayvon o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Arastuning fikricha, eng aqlii hayvonlar bu fillardir. Arastuning ratsional qarashlari zoopsixologiyaning asosini tashkil etadi. XVIII asrda hayvonlar o'rtasida turli tajribalarni o'tkazish imkoniyati ochildi. Byuffon, Reomyur, Galler, Reymarus, Kondilyak, Lerua va Lamarkning tadqiqotlari sababli turli xil hayvonlarda instinct va evolutsion rivojlanish tushunchalari o'rganilgan.¹

XVIII asrda zoopsixologiyadagi psixologik nazariyalar. Zoopsixologiyaning asoschisi sifatida Jorj Byuffon (1707-1788) e'tirof etiladi. U havonlar xulq-atvori bo'yicha 44 jiddlik ilmiy ishlar to'plamini yaratdi. Mazkur nashr etologiyaning tizimli ravishda shakllanishiga turki bo'lgan deyish mumkin.²

J.B.Lamarkning zoopsixologik nazariyaları. XIX asrning boshlarida tabiiy fanlar falsafadan ajralib chiqdi. Bu holat esa, zoopsixologiya fanining paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi. Biroq zoopsixologiyaning markaziy konsepsiysi hali ham mayjud emas edi. XIX asrqa qadar hayvonlarning xatti-harakatlarini va darajalarini hech kim tizimlashtirgan emas edi. Bu vazifani Jan Batist Lamark amalga oshirdi.³ 1809 yilda u o'zining mashhur asari Zoologiya falsafasi kitobini chop ettirdi. Kitobda zoopsixologiya alohida fan sifatida tahlil qilingan bo'lib, J.B.Lamark evolutsiyaning yakunlangan nazariyasini

¹ Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P.28.

² Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P.28.

³ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P.11.

yaratdi va bu nazariyada tirik organizmlar xulq-atvorining asosida tashqi muhitning ta'siri yotadi, deb talqin qilingan. Lamarkning fikriga ko'ra organizmlardagi o'zgaruvchanlik tashqi muhitning ta'sir ostida sodir bo'indi deb ta'kidlangan. Tirik jonzotlar reaksiyasining asosiy omili sifatida tashqi muhit ta'sirini o'rganadi. Organizmlarning xulq-atvori tug'ma va ottirilgan bo'lishi mumkinligini e'tirof etgan. Lamarkning talqinicha «Organizmlar tashqi muhit ta'sir ko'rsatishi tufayli o'zgaradi, muhit hayvonlar psixikasini o'zgartiradi...» Lamark zoopsixologiya faniga qimmatli kashfiyotni taqdim etdi. U psixikaning asab tizimiga bog'liqligini aniqlab, psixik aktlar tasnifini tuzdi. Eng sodda xatti-harakat sifatida qo'zg'atuvchining organizmga ko'rsatgan ta'sirini, murakkab omil sifatida sezuvchanlikning mohiyatiini tushuntirib berdi. Shu bilan birga hayvonot olamining tuzilishiga ko'ra uchguruhga ajratdi.

Zoopsixologiyada ratsional nazariyalar

Antropomorfoz nazariya asoschilari inson psixikasi va hayvon psixikasining yagona ekanligini e'tirof etadilar. Bu yo'nalish tarafdarlari insonning tafakkuri va ong hech qanday o'zgarishlarsiz hayvonot olamiga ko'chirilishi mumkin. Inson psixikasiga aloqador bo'lgan holatlар, hayvonot olamida ham topilishi mumkin. Bu yo'nalish C.H.Darvin tomonidan tavsiya qilingan. Vundtning nazariyalari ham shunga tayanadi.¹

Zoopsixologiyada atomistik nazariya. Atomistik nazariyalar guruhiga inson va hayvonlarning bir xilligini ta'kidlovchi nazariyalarni kiritishimiz mumkin. Inson psixikasi hayvonlarning psixikasidan bir muncha murakkab ekanligi ta'kidlanadi. Inson o'z rivojlanishi jarayonida hayvonlarga xos bo'lgan xatti-harakat va xulq-atvor tarzini takrorlaydi degan umumbiologik qonuniyatning paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Bu xulq-atvorga evolutsion yondashuvning asosini tashkil etadi. Mazkur g'oyaning tarafdarlari sodda hayvonlarning xulq-atvor xususiyatlari va insonning faoliyatini bir-biriga solishtirish orqali tahlil qilganlar. Atomistik nazariya tarafdarlari laboratoriya sharoitida eksperimentlar o'tkazishni ma'qul ko'radilar. Ularning asosiy kamchiligi shundan iboratki, tadqiqot natijalari ustida chuqur mulohaza yuritmasdan, eksperimentlar asosida to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarishni afzal bilihgan. Biroq atomistlar hayvonlardagi psixik xususiyatlarning o'ziga xos jihatlarini aniqlay olganlar. Morfologlар, gistologlар, fiziologlar va ximiklarning bu davrdagi tadqiqotlarga

beqiyos katta hissa qo'shganlar. Shunday qilib, ular eksperimental zoopsixologiya va asab tizimi fiziologiyasi yo'nalishining paydo bo'lishiga asos solganlar.

Tropizmlar nazariyasi asoschisi amerikalik biolog J.Leb (1859-1924) bo'lib bu yo'nalishning tarafdarlari fiziologik jarayonlarning tashqi holatlari kimyoviy reaksiyalardan iborat deb hisoblaganlar. Ushbu nazariya ham zoopsixologiyaning shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Biroq bu yo'nalish tarafdarlarining fikriga ko'ra ular kimyoviy reaksiyalarni o'rganish asosida psixik jarayonlarni ham o'rganish mumkin deb hisoblaganlar. Tropizmlar o'simlik va hayvonot olamining yorug'likka, mexanik ta'sirlarga, kimyoviy ta'sirlarga, haroratga nisbatan javob berish qobiliyati sifatida talqin etilgan. Masalan, o'simliklarning yorug'likka intilish qibiliyati, Lebning fikriga ko'ra, ijobiy fototropizm deb ataladi. Yorug'likdan qochish xususiyati esa salbiy fototropizm sifatida talqin qilgan. Tropizm nazariyasi tarafdarlari o'simlik dunyosi bilan chegaralanib qolmasdan, balki hayvonot olamiga ham shu xususiyatlarni qo'llashgan.¹

I.P.Pavlovning reflekslar nazariyasi. Faol xatti-harakatlarni o'rganish bo'yicha ko'pgina olimlar mehnat qilgan. Birinchi bo'lib fiziologik mexanizmlarni o'rgangan olim I.M.Schenov hisoblanadi. Uning ishlari asosida Rossiya fiziologiya fani rivojlandi. XIX asrning oxiriga kelib I.P.Pavlov hazm qilish fiziologiyasi bilan shug'ullandi va bu jarayon asab tizimining faoliyatiga bog'liq ekanligini isbotladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlari uchun I.P.Pavlov Nobel mukofotiga tavsiya qilingan. Eksperimental fiziologiya holatiga tayangan holda I.P.Pavlov shartli va shartsiz reflekslar to'g'risidagi nazariyasini.

Zoopsixologiyani tadqiqqilishning besh usuli

Labirint usuli. Bu usulni amerikalik sotsiolog, sotsial darvinizmning namoyandasini Smoll Albion Vudberi taklif etgan. Vudberi 1892-yilda Chikago universiteti sotsiologiya fakultetiga, keyinchalik 1895-yilda "Amerika sotsiologiya jurnal"¹ga asos solgan. Tajriba hayvonchasi oldiga turli xildagi muammo qo'yiladi va ularning yechimini topgan taqdirda mukofot tariqasida ovqat beriladi. Hayvonchalar muammoni hal etishda omadsizlikka uchragan taqdirda esa jazo beriladi. Masalan, eng sodda labirint sifatida *T* shakldagi koridor yoki trubka olinadi. Bu holatda hayvon chiqish yo'lini to'g'ri yo'lni tanlasa, mukofot oladi, agar noto'g'ri yo'lni tanlasa, mukofotsiz qoladi, hattoki jazo olishi ham

¹Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. P.15.

mumkin. Murakkab labirintlar sifatida *T* shaklining murakkabroq urlaridan foydalanish mumkin. Natijalar hayvonlarning xatolari va reaksiya tezligi bo'yicha tahlil etiladi. Labirint usuli hayvonlarning ko'nikma va malakalarini o'rganish juda foydalidir. Bu usul orqali hayvonlarda turli ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Ko'nikmalardan tashqari, hayvonlarda sezuvchanlik xususiyatini oshirish imkoniyati mavjud. Labirint usuli hayvonlarda xotira, diqqat, idrokni shakllantirishning asosiy usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin.

To'siqqlarni aylanib o'tish metodi. Hayvonlar muammoning yechimini aylanib o'tish orqali topishlari ham mumkin. Bunda muammoning yechimiga kelishda bir qator to'siqqlar qo'yiladi. Labirint usulidan farqli ravishdahayvonlar bu holatda ozuqani bevosita idrok etadilar va unga erishishga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Tezlik inobatga olinadi va baholanadi. Bu metod orqali yuqorida sanab o'tilgan muammolarning barchasi o'rganiladi.

Insaytmetodi. Obyektlarni tanlash signallar, tasvirlar va ularni bir-biridan holatlarini ajratish usuli orqali tahlil qilinishi mumkin. Bu metod tajribadagi hayvonchalarining intellektual qobiliyatlarini aniqlashga mo'ljallangan. Bunday tajribalarda ikkita bir xil turdag'i hayvon ham ishtiroy etishi mumkin. Bu usul orqali hayvonlarda rangni, shaklni, fazoni idrok qilishni aniqlash mumkin. Bu metod orqali hayvonlarda turli ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Hayvonlarning xotiralarini shu yo'l orqali shakllantirish imkoniyati mavjuddir. Bundan tashqari, hayvonlarda noverbal muloqotga kirishish imkoniyati ham paydo bo'lar ekan.

Namunani tanlash usuli. (obyektlarning orasidan aynan kerakli bo'lgan namunani tanlash). Dressirovka usulining birturi hisoblanadi, buni faqat yuqori darajada rivojlangan hayvonlarni tadqiq etishda qo'llash mumkin. Hayvonga obyektlarning orasidan tanlash holati beriladi. Bunda tadqiqotchi tomonidan maxsus apparatda ko'rsatishi mumkin. To'g'ri tanlov amalga oshirilgan taqdirda hayvon mukofotlanadi.

Ochiq maydon metodi. Bunda hayvonga erkin tanlash imkoniyati va erkin joy tanlovi imkoniyati beriladi.

Zoopsixologiya metodlarining ayrim o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaliviy psixologiya metodlari muayyan bir muammolarning sehimini topishga qaratilgan bo'lib, zoopsixologiyaning ma'lum bir qismi himoya qiluvchi metodlar qatoriga kiritilishi mumkin. Hayvonlarni asosan kuzatish bilan bog'liq bo'lgan metodlar qo'llanilishi

mumkin. Shuning uchun ham zoopsixologik tadqiqotlarda foto va video syomkalar keng qo'llanilishi mumkin, boshqa texnik vositalardan ham samarali foydalanishimiz mumkin. Albatta, texnik vositalar tadqiqot-chining o'tkir nigohi o'mini bosa olmasligi mumkin. Biroq natijalarni tahlil qilish imkoniyatini tabiiy sharoitda kuzatish natijalarini berishi mumkin. Umuman olganda, zoopsixologiya usullari birlamchi natijalarni tahlil qilishda keng qo'llanilishi mumkin.

Asab tizimigacha bo'lgan davr va asab tizimining paydo bo'lishi

Amerikalik tadqiqotchi Jennigs eng sodda jonzotlarda tadqiqot ishlarini olib borgan. Ma'lumki, amyobaning tanasiga tegilsa, uning holati o'zgaradi. Tegilgan joyda yolg'on oyoqlar paydo bo'ladi. Bular psevdopodiyalar deb ataladi, amyoba shu oyoqlari bilan obyektni ushlab oladi, agar bu obyekt ozuqa bo'lsa amyoba uni o'zlashtiradi, agar ozuqadan boshqa narsa bo'lsa amyoba uni tashlab yuboradi. Bunga yaqin javobni distant qo'zg'atuvchilar orqali ta'sir qilinganda kuzatishimiz mumkin. Ba'zi bir holatda amyoba ma'lum bir masofada turgan obyekta yaqinlasha boshlaydi va uni ushlab oladi, boshqa vaziyatlarda esa ular teskari xatti-harakatlarni amalga oshira boshlaydilar. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra buni quyidagicha izohlash mumkin, zaif qo'zg'atuvchilar amyobalarda faol reaksiyani vujudga keltiradi va aksinchakuchli qo'zg'atuvchilar teskari effektni vujudga keltiradi, bu esa amyobani qo'zg'atuvchidan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. Amyobaning tanasi bir xil bo'limgan qavatlar protoplazmasidan iborat. Tashqi protoplazma gel holatida bo'ladi, ichki protoplazma zol (suyuqlik) holatida bo'ladi. Protoplazmaning tashqi qavati tashqi ta'sirga qo'zg'aluvchan bo'ladi, shundan so'ng u zol holatiga o'tadi. Bu yolg'onoyoqlarning shakllanishiga sabab bo'ladi, shundan so'ng amyoba harakatlanadi.

Foterning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, amyobaga 20 marta zaif mexanik ta'sirdan 2 tasiga javob qaytaradi, zaif yorug'likka esa umuman javob bermagan, biroq kuchli yorug'lik va mexanik stimullarning 20 tasidan, 16 tasiga javob qaytargan.

Mayer va Shreyr taxminlariga ko'ra zaif qo'zg'atuvchilarga nisbatan ijobjiy, kuchli qo'zg'ovchilarga nisbatan salbiy ta'sirotlar vujudga keladi.

Bless va Leontevlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dafniya yorug'likka nisbatan to'g'ri harakatlanmasdan, balki yoysimon harakatlanar ekan.

Polyak olimi Dembrovskiyning tadqiqotlarida ham sodda hayvonlarga kerakli harakatlarni amalga oshirishni o'rgatish mumkinligi ko'ringan. U bir hujayrali hayvonlarni dumaloq idishga solib qo'yib, ularni qanday harakatlanishini kuzatgan, ularning harakatlari boshida saotik xarakterga ega bo'lgan, ma'lum muddat o'tgandan so'ng esa, bu iartiblangan harakatga aylangan. Tadqiqotchilar juda qiziq ma'lumotlarni qo'lga kiritishgan. Bir hujayrali hayvonlarda qo'zg'alishning tarqalishi sekundiga 1-2 mikrondan oshmasa, eng sodda asab tizimiga ega bo'lgan hayvonlarda tezlikni tarqalishi ancha yuqori, u sekundiga 50 smni tashkil qiladi, qurbaqaning asab tizimida nerv impulsining tarqalish tezligi 25 metrga, insonniki esa sekundiga 125 metrni tashkil qilar ekan. Bu holatlар shuni ko'rsatadiki, yuqori tuzilishli asab tizimiga ega bo'lgan hayvonlarda asab tizimining tezligi oshar ekan. Bularning hammasi evolutsiya jarayonida asab tizimining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Eng birinchi asab tizimi to'rsimon asab tizimi hisoblanadi. Bu asab tizimining tolalari to'rga o'xshash bo'lganligi sababli u to'rsimon asab tizimi deb yuritilan. Nerv tolalari juda kuchli sezuvchanlikka ega bo'ladi. To'rsimon asab tizimi yuqori umurtqalilarda «retikulyar shakitsiya» deb nomlangan to'rsimon tuzilmani eslatadi. Biroq retikulyar shakitsiya yuqori darajada rivojlangan hayvonlarda asab tizimining past bosqichi hisoblansa, ko'p hujayrali past darajadagi hayvonlarda asab tizimining yagona shakli sifatida talqin etiladi. Bunday asab tizimi ko'pgina afzalliklarga ega, lekin u harakatni boshqara olmaydi.

To'rsimon asab tizimi nafaqat kontakt qo'zg'atuvchilar, balki distant qo'zg'atuvchilarga nisbatan ham sezuvchanlikning ortishiga asos bo'ladi. To'rsimon asab tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Banday asab tizimida asosiy boshqaruv funksiyalari mavjud emas. Nemis olimi Bets dengiz yulduzları o'rtasida tadqiqot o'tkazgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dengiz yulduzchalarining bittasi yetakchiga aylanadi, unga ta'sir qilinganda shu tola orqali hamma a'zolar javob bera boshlaydi. Biroq shu yetakchi nur olib tashlansa, boshqa nur uning funksiyasini bo'yniga olishi mumkindir. Bu esa dengiz yulduzining nera apparati o'sha tamoyilda qolganligini ko'rsatadi. Yangi asab tizimining paydo bo'lishiga sabab bo'lib, ular xatti-harakatini boshqara oladilar. Shu sharoitlar markaziy asab tizimini yanada shakllanishini ta'minlaydi.

Bunday asab tizimini chuvalchanglarda ham kuzatish mumkin. Ularda ko'plab nerv tugunlari mavjud bo'lib, ganglionar asab tizimi deb

yuritiladi. Bu asab tizimida oldingi gangliyaning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u asab tizimining boshqaruv apparatini tashkil etadi. Chuvalchanglarning asab tizimini filogenezning nisbatan yakunlangan taraqqiyot bosqichiga kiritish mumkin.

Nazorat savollari

1. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyani predmet va funksiyalari.
2. Hayvonlar xatti-harakatining psixologik bilimlar tizimidagi o'rni.
3. Zopsixologiya va qiyosiy psixologiya usullari.
4. Zopsixologiya va qiyosiy psixologiyaning rivojlanish tarixi.
5. Zoopsixologiyani tadqiqi qilishning besh usuli.
6. Psixikaning vujudga kelishi.
7. Asab tizimigacha bo'lgan davr va asab tizimini paydo bo'lishi.
8. Instinkt va malakalarni o'rganishninh zamonaviy holatlari.

10-bob. HAYVONLAR PSIXIK FAOLIYATINING ONTOGENEZDA RIVOJLANISHI

Reja:

1. Psixik faoliyatning prenatal davrda rivojlanishi.
2. Erta postnatal davrda psixik faoliyatning rivojlanishi.
3. Psixik faoliyatning yuvenal (o'ynili) davrda rivojlanishi.
4. Sodda sensor psixika.
5. Psixika evolutsiyasi va antropogenez.
6. Hayvonlar va insonlar psixikasining o'xshashligi va farqlari.

Psixik faoliyatning prenatal davrda rivojlanishi

Embrionning rivojlanishi ko'pgina holatlarda ontogenez rivojlanishining asosiy bosqichlari sifatida e'tirof qilinadi. Umurtqasizlarda ham umurtqalilarda ham prenatal (tug'ruqdan oldingi) davr mayjud. Bu davrda harakatning shakllanishi kuzatiladi. Ushbu funksiya, asosan, postnatal davrda shakllanadi, ammo bola tug'ilmasidan oldin embrionlik davrida tashqi dunyoga shart-sharoitlariga imkon qadar ko'proq moslashishga intilishi haqida so'z yuritish mumkin.

A.D.Slonimaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, homila ichidagi faoliyat ularning fiziologik jarayonlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa yangi tug'ilgan hayvonlarning xatti-harakatlarini amalga oshirishga sizmat qilishi mumkin. Slonimaning tadqiqotlarining ko'rsatishicha, yangi tug'ilgan qo'zichoqlar va uloqchalar charchamasdan ikki soat davomida yugurishlari mumkin ekan. Ravshanki, bunday imkoniyat ularda embrional taraqqiyot shakllangan bo'ladi. Postnatal rivojlanishning har tomonlama muvaffaqiyatli kechishida, albatta, prenatal davrning o'rni kattadir. Hayvon bolalari tug'ilganida barcha fiziologik mexanizmlar ishlay boshlaydi.

Embrional preadaptatsiyani fatal aniqlik sifatida talqin qilish shart emas. Katta hayvonning yashash sharoiti va atrof-muhittdagi holati tug'iladigan yangi hayvonchani taqdirini belgilashi mumkin. Umumiyligida qonunlyatlar determinizm tamoyillariga bog'liqdir.

XVII asrda V.Harvey «barcha tiriklik tuxumdan boshlanadi» degan iborani ishlatisib, barcha organizmlar rivojlanishidagi umumiylilikni qayd qilgan edi. Hayvonlarning individual (shaxsiy) rivojlanishini o'rganishni Volf va ayniqsa Ber boshlab berdi.¹ Ber qiyosiy metoddan foydalanib, bir tipning har xil sinflariga kiruvchi hayvonlarning embrional

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition, The University of Texas at Austin, 2008. - p. 4.

rivojlanishidan avval umumiyligi, so'ngra xususiy va nihoyat maxsusus organ, belgilar rivojlanishini, ya'ni embrion divergensiyasi ro'y berishini asoslab berdi.

Evolutsion ta'lilot asoschisi bo'lgan Darwin embrion rivojlanishidagi o'xshashlik hamda embrion divergensiyasi hayvonlarning o'zaro yaqinligi va muhit sharoitining ta'siri bilan ularda filogenetik divergensiya ro'y berganligini ta'kidladi. Darwin «Turlarning kelib chiqishi» va boshqa asarlarida ontogenetik filogenezi o'rtasida uzzviy bog'liqlik borligini e'tirof etdi. Uning mulohazasiga ko'ra, ontogenetik turli tuzilish va xossalarning shakllanishiga olib keladigan murakkab va qarama-qarshi jarayondir.¹ Ontogenetika qadimgi ajdodlar rivojlanish bosqichlarining takrorlanishi tufayli har xil organizmlarning embrion rivojlanishi umumiyligka ega bo'ladi.

Embrion o'z rivojlanishining turli bosqichlarida tabiiy tanlanish ta'siriga beriladi. Natijada muayyan bosqichlarda yangi moslashish xossalari vujudga kelib, ular organizmning rivojlanishi tarixiy rivojlanish doirasidan chetga chiqishiga sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, ontogenetik individual rivojlanish, filogenezi esa ajdodlar rivojlanishining oddiy takrorlanishi emas. Ontogenetidagi o'zgarishlar ayrim organlar, belgilarning rivojlanishini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, rivojlanish bosqichlaridan ba'zilarining tushib qolishiga, murtak va lichinkada moslashish ahamiyatiga ega bo'lgan yangi xossalalar vujudga kelishiga, organizmning tuzilishi uning ajdodlarinikiga nisbatan murakkabla-shuviga yoki soddalashuviga olib keladi.

Evolutsion embriologiyaning asoschilari bo'lgan Kovalevskiy, Mechnikovlar lansetnik, assidiya, ninatanlilar va boshqa umurtqasiz hamda xordali hayvonlarning individual rivojlanishini atroficha o'rganib, ularning filogenetik bog'lanishini aniqladilar. ular hayvonot olamining har xil guruhrigaga mansub vakillarning yagona kelib chiqishga ega ekanligini isbotlash bilan bir qatorda, ular ontogenetining o'ziga xos tomonlarini hamoydinlashtirib berdilar.

Gekkel Darwin mulohazalariga, Kovalevskiy, Mechnikovlarning umurtqasiz va xordali hayvonlarning turli vakillari ustida, shuningdek, Myullerning qisqichbaqasimonlar ustida o'tkazgan tadqiqotlariga asoslanib, 1866 yili *biogenetik qonunni* kashf etdi. Bu qonunga ko'ra, ontogenetik filogenezin qisqa va tez takrorlanishi (rekapitulatsiyasi)dan iborat. Odatda, jinsiy yo'l bilan ko'payadigan barcha ko'p hujayrali

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. - p. 5

organizmlarning rivojlanishi urug'langan yagona tuxum hujayradan boshlanadi. Shu dalilga asoslanib, Gekkel barcha yuksak organizmlar ketib chiqishi bilan bir hujayralilarga bog'liq, degan edi. Urug'langan tuxum hujayraning keyingi rivojlanishida uchraydigan morula, blastula va gastrula bossichlarini Gekkel bir hujayrali koloniyalı organizmlarning rekapitulyasiyasidan iborat, deb ta'kidlagan. Shunga asoslanib, u ibtidoiy ko'p hujayrali organizmlarning paydo bo'lishi haqida *gastreya* gipotezasini yaratdi.

Gekkel har qanday organizmning embrional rivojlanishida avlod-ajdodi belgi-xossalarining takrorlanishini *rekapitulyasiya* deb, ajdod belgilarining o'zini esa *palingenezlar* – palingenetik belgilar deb atadi. Quruqda yashovchi umurtqalilarning embrional rivojlanishida uchraydigan jabra yoyslarini, ikki kamerali yurakni palingenezlarga misol qilib keltirish mumkin.¹

Qadimgi belgilardan tashqari organizmning embrional va lichinkalik davrida muhitga moslashtiruvchi belgilari borligini ko'rsatib, Gekkel ularni *senogenetik belgilar*, ya'ni *senogenezlar* deb atadi. Amniotlarning murtak pardasi (amnion, allantois, xorion), sut emizuvchilarning yo'ldoshi, qushlar tuxumining sariqligi senogenezlarga misoldir. Gekkel senogenezlarga organlarning rivojlanish muddati va o'rning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni ham kiritdi. Odatda, ma'lum bir guruh hayvonlarda uchragan progressiv organlar rivoji doim oldin boshlanib, boshqa organlarga nisbatan uzoq muddat davom etadi. Masalan, umurtqalilarning yuksak vakillari (qushlar va sut emizuvchilar)da bosh miya va sezgi organlari tuban vakillari (amfibiya va boshqalar)dagiga nisbatan oldin rivojlanadi va uzoq muddat davom etadi. Aksincha, ontogenezda regressga uchragan organlarning individual rivojlanishi sekinlik bilan boradi. Umurtqalilarning yuksak vakillarida jinsiy bezlar tuban vakillariga nisbatan keyinroq rivojlanishi yuqorida qonun bilan izohlanadi.

Embrional rivojlanishda organlarga asos solinish vaqtining bunday o'zgarishi *geterokroniya* deyiladi. Ontogenezda organlarning tanada joylashishi ham o'zgaradi. Masalan, yuksak umurtqali hayvonlarda dastlab bo'yin vujudga kelishi hisobiga yurakning o'rni baliqlarnikiga nisbatan ko'krak qafasining ichkarisiga ancha surilgan. Bunday o'zgarish *geterotopiya* deb ataladi. Gekkel va Myuller tomonidan ilgari surilgan biogenetik qonun keyinchalik turli hayvon guruqlarining

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition, The University of Texas at Austin, 2008. – p. 7.

filogenetik tarixini tiklashga oid tadqiqotlar avj olishiga sabab bo'ldi. Bu paleontologiyaga ham tatbiq qilindi. Oqibatda L. Vertenberger qirilib ketgan boshoyoqli mollyuskalar – ammonitlarda, Gayett qazilma mollyuskalarda, Ryutimeyer qazilma holdagi otlarda rekapitulyasiya hodisasini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar.¹

Rekapitulyasiya botanika sohasida ham o'z ifodasini topdi. Natijada yuksak o'simliklarda tuban shakllarga xos shoxlanish tipi, paporotniklar birinchi barglarining dixotomik tuzilishi kabilar kashf qilindi.

Xullas, Darwin, keyinchalik Myuller, Gekkel tomonidan bayon etilgan biogenetik qonunga ko'ra ontogenez bilan filogenez o'rta sidagi munosabatlari to'g'ri ifodalab berildi.

Biogenetik qonun xilma-xil organizm guruhlari o'z ontogenetik rivojlanishi bilan ozmi-ko'pmi o'xshash ekanligini ko'rsatdi. Bu bilan organik olamning monofiletik kelib chiqishi haqidagi g'oya yana bir martatasdiqlandi. Lekin Gekkel biogenetik qonunga uncha to'liq ta'rif bermadi. Chunki u ontogenez bilan filogenez muammosini bir tomonlama yoritgan edi. Ubiogenetik qonunga ta'rif berishda «ontogenez filogeneznинг qisqa va tez takrorlanishidan iborat» degan iborani ishlatib, filogenez uchun asosan palingenetik belgi-xossalari ahamiyatlidir, degan. Gekkel evolutsiya jarayonida filogenezga katta o'rinn berib, unda ontogenezning rolini to'liq ko'rsatmadni. Uning mulohazasiga ko'ra, ontogenezda paydo bo'lgan har qanday yangilik filogenezni xiralashtirar ekan (masalan, geterotopiya va geteroxroniya).

Darvin evolutsiya jarayoni individual rivojlanishning hamma bosqichlarini qamrab oladi, ontogenez ham evolutsiyani o'z boshidan kechiradi va uning yangilanishi filogenetik tarixga kiradi, deb e'tirof qildi. U filogenezga nisbatan ontogenez har xil usullar bilan o'zgaradi va ular evolutsion rivojlanishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, deb ko'rsatdi. Darvining bu sohadagi mulohazalari Myuller tomonidan aniqlashtirilgan bo'lsa-da, u Gekkel uchun tushunarsiz bo'lib qoldi. Shunga ko'ra, qayd qilingan Darwin – Myuller fikrlari Gekkelning biogenetik qonunida o'z ifodasini topmadni. Gekkelning biogenetik qonuni qabul qilingan taqdirda evolutsiya jarayonning progressiv xarakteri, ya'ni ilgarigiga nisbatan murakkab tuzilishga ega va takomillashgan organizm turlari qanday yo'l bilan paydo bo'lishini

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. - p. 8.

tushuntirish qiyin bo'lar edi. Bu holat Gekkel o'z ta'lomitida rekapitulyasiya hodisasiga ortiqcha baho bergenligi oqibatidir.¹

Ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan kuzatishlar hamda ontogenezda rivojlangan ajdod belgilarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, embrionda qadimgi ajdodlar voyaga yetgan shakllarining emas, balki ular embrionining belgilari takrorlanar ekan. E.Menert umurtqali hayvonlarda ajdod belgilarining rekapitulyasiyasidagi o'zgarishlarni o'rganib, hech vaqt ontogenezda filogenez aniq va to'liq takrorlanmasligini, chunki takrorlanish organizmlarga emas, balki ayrim organlarga xosligini ta'kidladi. Chunonchi, sut emizuvchilar embrionining ma'lum rivojlanish bosqichida jabra yoyslari va arteriyalar rivojlanadi. Lekin bu vaqtida ular baliq tuzilishini to'liq takrorlamaydi, chunki boshqa organlar o'z rivojida baliqlarnikiga nisbatan ancha ilgarilab ketgan bo'ladi.

Gekkel filogenezning o'zgarishi faqat ontogenezning oxirgi davridagi o'zgarishlaridan iboratdir, deb ta'kidlaydi. Ko'pgina tadqiqotlar Gekkelning bu fikri unchalik to'g'ri emasligini ko'rsatdi. Bu sohada akademik A.H.Seversovning *filembriogenez* nazariyasi diqqatga sazovordir.

A.H.Seversovning filembriogenez nazariyasi


A.H.Seversov ontogenez bilan filogenez orasidagi munosabatlarni boyatda murakkab ekanligini ta'kidladi. U Gekkel tomonidan ilgari surilgan palingenez va senogenezlarni farq qilish juda qiyin ekanligini, chunki filogenezda ontogenezning chetga chiqish hollari, embriologik moslashish hamma vaqt senogenez bo'lavermasligini, ontogenezda ro'y beradigan ko'pgina o'zgarishlar filogenetik ahamiyatga ega ekanligini eslatib, ularni filembriogenez deb nomladi.

Filembriogenez nazariyasini A.H.Seversov birinchi marta 1910-yili moslab berdi. Keyinchalik esa uni yanada rivojlantirdi. Bu nazariya organlarning filogenetik yangilanishiga olib keladigan o'zgarishlar qanday yo'llar bilan va qaysi bosqichda amalga oshishini ko'rsatadi. Mazkur masalani hal etish uchun Seversov evolutsion paleontologiya, embriologiya va qiyosiy anatomiya fanlarida to'plangan ma'lumotlarga murojaat etdi. Uning ta'kidlashicha, ontogenez (embriogenez)da filogenetik ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar uch usulda amalga oshadi. Ular anaboliya, deviatsiya, arxallaksis usullaridir.

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition, The University of Texas at Austin, 2008. – p. 9.

Anaboliya yunoncha *anabole* – qo'shimcha demakdir. Anaboliyada muayyan organning individual rivojlanishi xuddi ajdodlariniga o'xhash amalgal oshadi, lekin rivojlanishning oxirgi bosqichida o'zgarish, ya'ni ajdodida bo'lman yangi xususiyat paydo bo'ladi, bu o'zgarish ajdodning rivojlanishiga nisbatan qo'shimcha ravishda vujudga keladi va organning rivojlanish muddati cho'ziladi. Seversov umurtqali hayvonlarning embrional rivojlanishini o'rganib, filembriogenezning anaboliya usuliga ko'plab misollar keltirdi. Masalan, ot ajdodlarida barmoqlarning o'zgarishini hozirgi zamondagi otlarning embrional rivojlanishi bilan taqqoslab, olti haftalik ot embrionining oyoqlarida uchtadan barmoq rivojlanishini, uchinchisi barmoq bir oz katta, yon barmoqlar esa kichik, ularning har biri uchtadan falangga ega ekanligini, so'ngra suyaklari qo'shilib, grifil suyaklarga aylanishini qayd qildi. To'qimalar gistogenezida, chunonchi, epiteliy to'qimada ham shunga o'xhash qonuniyat namoyon bo'ladi. Odam embriogenezining ma'lum bir bosqichida epiteliy bir qavat, keyinchalik ikki qavat va nihoyat, uch qavat silindrishimon hujayralardan tashkil topadi. Uning ustki qavat hujayralarining yadrosi yo'qolib, shoxsimon modda singadi. Voyaga etgan lansetnik va suyakli baliqlarda esa bir qavatlari epiteliyiga aylansa-da, ularga shoxsimon modda singmaydi.

Anaboliyaga dengiz cho'rtanbalig'i – sargan (*Belone acus*)ning individual rivojlanishi yaqqol misol bo'ladi. Bu baliq jag'inining tuzilishi bilan o'ziga yaqin bo'lgan boshqa baliqlardan farq qiladi. Odatda, uning yuqorigi va pastki jag'lari uzunasiga cho'zilgan bo'lib, uzun tumshuq hosil qiladi. Bu baliqning uzunligi 10 mm keladigan embrionida ikkala jag' uzunlashmagan, faqat pastki jag' bir oz oldinga bo'rtib chiqqan bo'ladi. Sarganga qon-qarindosh baliqlarning ko'pchiligidagi, chunonchi, aterinkada bunday holat voyaga etgan baliqlarda saqlanadi. Sarganda esa avval pastki jag' uzunlashib, 20 mm ga etadigan chavag'ida u yuqorigi jag'dan bir necha marta uzun bo'ladi. Sargan chavag'inining uzunligi 9 smga yetgandan so'ng, yuqorigi jag' ham uzaya boshlaydi. Bu holat *Hemiramphus* avlodiga mansub baliqlarning voyaga etgan shakllarida bir umr saqlanib qolgan. Sargan balig'ida esa, yuqorigi jag'ning uzayishi keyinchalik ham davom etadi. Binobarin, aterinka balig'iga nisbatan sargan balig'inining individual rivojlanishida ikkita qo'shimcha faza – gemiramfus va aterinka fazasi bo'ladi (50-rasm).



50-rasm. Sargan chavaqlarining rivojlanishidagi izchillik:

I. Uzunligi 10 mm li chavag'i; II. Uzunligi 21 mm li chavag'i; III. Uzunligi 91 mm li chavag'i; IV. Voyaga etgan sargan: 1. Yuqorigi jag'; 2. Pastki jag'.

Xuddi shunga o'xshash, dengiz shaytoni deb ataluvchi baliqlarda ham ko'krak suzgich qanotlari individual rivojlanishda ikki marta o'z holatini o'zgartiradi. Rivojlanishning birinchi bosqichida ular ko'krak suzgich qanotining akulasimon baliqlarnikiga o'xshash gorizontol holati, keyin esa ko'pchilik suyakli baliqlarga xos bo'lgan vertikal holati namoyon bo'ladi. Keyingi rivojlanishda ko'krak suzgich qanoti yana gorizontol holatga o'tadi, lekin uning uchi orqaga qayrilgan bo'ladi.

Anaboliya usuli ontogenezda organlarning hosil bo'lish davri ajdod organlarnikiga nisbatan uzayishiga olib keladi. Filembriogenezning anaboliya usuli o'simliklar olamida ham keng tarqagan. O'simliklardagi anaboliyaga palmalar bargining rivojlanishini misol qilib ko'rsatish mumkin. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, palma barglari kurtak holida yaxlit plastinkadan iborat bo'ladi. Ontogenetik rivojlanishning keyingi davrida barglar bo'laklarga bo'linib, patsimon yoki yelpig'ichsimon shaklga kiradi.

Deviatsiya. Ontogenezda organlar rivojlanishining o'rta bosqichlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar *deviatsiya* deb ataladi (lotinchcha *deviatio* – o'rtachadan og'ish demakdir). Deviatsiya natijasida ontogenezning o'rta davridan boshlab organlarning embrional rivojlanishi oldingi ajdodlarning mazkur organlari rivojlanishiga nisbatan birmuncha boshqacha yo'nalishda boradi. Akula va reptiliyalarda tangachalarning rivojlanishi deviatsiyaga misoldir. Har ikkala guruhga mansub hayvonlarning embrional rivojlanishida

tangachalar ostki epidermisning qalinalashishi va uning ostida biriktiruvchi to'qima to'planishi hisobiga ro'y beradi. Akulasimon baliqlarda epidermis hujayralari va uning ichida to'plangan biriktiruvchi to'qima hujayralari tashqariga teshib chiqib, qirrali yoki uchi o'tkir «bo'rtma»lar – tangachalar hosil qiladi. Keyinchalik bo'rtmalarning ustki qavati suyak (emal) moddasi bilan qoplanadi. Reptiliyalarda esa tangachalarning dastlabki rivojlanishi baliqlarning plakoid tangachalari rivojlanishiga o'xshab ketadi, ya'ni epidermis qavatining zichlashuvi va uning ostida biriktiruvchi to'qima to'planishi kuzatiladi. Biroq reptiliyalarda tangachalarning rivojlanishi keyinchalik baliqlar plakoid tangachalarining rivojlanishidan farq qila boshlaydi. Bu farq epidermis qism asta-sekin shox moddasini singdirib tangachaga aylanishidan iborat. Reptiliyalarning ba'zi turlarida shox moddadan iborat tangachalar ostida suyak pilakchalar joylashadi. Ular teri suyaklari tariqasida hosil bo'ladi.

Shunday qilib, deviatsiya usulida ontogenezda filogenez faqat dastlabki bosqichlarda takrorlanadi. Filembriogenezning deviatsiya usuli o'simliklarda ko'p uchraydi. Olimlardan A.L.Taxtadjan ma'lumotlariga ko'ra, o'simliklardagi tugunak va piyozhalar yetuk novdadan hosil bo'lmay, balki shu novdaning embrional davri yoki kurtakdan hosil bo'ladi. Agar kurtakning o'q qismi o'ta rivojlanib ketsa, barglar yozilmasa tugunak, aksincha, kurtak, barglar rivojlanib himoya po'stiga aylansa va kurtaknin go'q qismi rivojlanmasa, piyozcha hosil bo'ladi. Ontogenezda filogenezning qaytarilishi g'o'za o'simligida ham yorqin namoyon bo'ladi. Evolutsiya jarayonida yopiq urug'li o'simliklarning barg plastinkasi dastlab butun bo'lgan. Keyinchalik ularning ayrimlarida 3, 5, 7 bo'lakli barg plastinkali o'simlik shakllari rivojlangan. Shu sababli g'o'za o'simligining asosiy poyasining pastki bo'g'imlarida hosil bo'lgan barg plastinkalari butun bo'lib, yuqori bo'g'imlarida 2, 3, 4, 5, ba'zan 7 bo'lakli bo'ladi. Bu dalillarga asoslanib, olimlar *Gossypium* avlodining nam joylarda tarqalgan daraxtsimon ajtod turlarida barg plastinkasi butun bo'lgan. Keyinchalik g'o'za nam kamroq joylarga tarqalishi tufaylidaraxt yoki buta holidagi shakllarda evolutsiya jarayoni barg plastinkasi bo'lakli bo'lgan xillarini keltirib chiqargan, deydilar. G'o'zaning keyingi evolutsiya jarayoni ikki yo'nalishda borgan. Afrika va Osiyoda tarqalgan g'o'zalarning barg plastinkasi kichraygan, lekin uning bo'laklarga bo'linishi saqlangan yoki kuchaygan. Cho'l zonalarda esa evolutsiya jarayoni unchalik katta bo'Imagan tik yoki yotib o'suvchi poyali g'o'zalarda barg plastinkasi

kiehrayishiga sabab bo'lgan, lekin yaxlit (butun) bo'lgan. G'o'zaning ajdod shakllarida barg plastinkasi butun bo'lganligi Abzalov M.F., Fatsullaeva G.N. tomonidan olib borilgan genetik tadqiqotlarda ham tandiqlandi. Barg plastinkasining butunligi Jn^1 Jn^1 , o, o, genlariga, bo'laklarga kuchli bo'linganligi in^1 in^1 O_eO_e, unchalik kuchli bo'lmagan bo'laklarga bo'linganligi in^1 in^1 o genlarga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Arxallaksis yunoncha *arche* – boshlang'ich, *allaxis* – almashinish degan ma'noni bildiradi. Morfogenezning dastlabki bosqichida ro'y beradigan o'zgarish – arxallaksisda organ tamomila o'zgarib yangilanadi hamda uning rivojlanishi ajdodlarinikiga nisbatan tamomila boshqacha yo'nalishda boradi. Shunga ko'ra, arxallaksisda faqat organning asosi vujudga kelgandagina rekapitulatsiya amalga oshadi. Uning keyingi rivojlanishi esa o'zgacha yo'nalishda bo'ladi. Ilonlardagi umurtqalar, ko'p baliqlarning suzgich pardalaridagi shu'lalar, tishli kitlardagi tishlar sonining miqdor jihatdan ortishi arxallaksisga misoldir.

Sut emizuvchilar junining rivojlanishini ham arxallaksisga misol qilib ko'rsatish mumkin. Jun rivojlanishining eng ilk davri tangacha rivojlanishining dastlabki davrlariga o'xshaydi. Bu epidermis hujayralarining to'plana borishi bilan ifodalanadi. Lekin keyinchalik bu to'plangan epidermis hujayralari rivojlanayotgan biriktiruvchi to'qima so'rg'ichlari tazyiqi ostida oldinga bo'rtib chiqish o'rni, chin teriga hotib, ichkari kiradi. Binobarin, junning keyingi rivojlanishi o'ziga xos usulda boradi. Demak, sut emizuvchilar junining ontogenetida plakoid tangacha tuzilishining filogenezi batamom takrorlanmaydi.

Arxallaksis hayvonlarga nisbatan o'simliklar olamida keng tarqalgan. Arxallaksis yo'li bilan ikki pallali murtakdan bir pallali murtak rivojlangan, murakkab bargdagi barglar soni yoki androtseydag'i changchilar soni ortgan.

Organlarning rivojlanish yo'nalishini o'zgartira oladigan filembriogenoz bilan bir qatorda, organizm rivojlanishidagi belgi va organlarning tamoman yo'qolish hollari ham uchraydi. Seversov bularni salbiy anaboliyalar, arxallaksislar va deviatsiyalar deb atagan. U salbiy filembriogenezning ikkixilini farq qilgan. Salbiy filembriogenezning birinchi xilida organ embrionining dastlabki bosqichi qisqaradi, natijada uning tuzilishi soddalashib, voyaga etgan hayvonlarda o'z funksiyasini yo'qotadi va rudiment holda saqlanib qoladi. Ikkinci xilida embrionning asosi normal vujudga keladi, biroq rivojlanishning keyingi bosqichlarida kichrayib, reduksiyaga uchraydi va voyaga etgan organizmlarda butunlay yo'qolib ketadi.

Organlarning reduksiyalanish jarayoni filogenezdagi ixtisoslashgan evolutsion rivojlanishdir. Uning yo'nalishini tabiiy tanlanish jarayoni belgiladi. Tabiiy tanlanish yo'nalishining o'zgarishi oddiy va murakkab tuzilishdagi organlar keskin o'zgarishiga sabab bo'lgan mutatsiyalar to'planishiga sabab bo'ladi. Organlar tuzilishining reduksiyalanish yo'nalishi bilan bog'liq makroevolutsiya jarayoni mikroevolutsiya jarayonlari orqali amalga oshadi.

Seversovning filembriogenetikasi nazariysi ontogenez bilan filogenez o'rta sidagi o'zaro qarama-qarshilik va bog'liqlikni qo'rsatib, uning dialektikasini namoyish etadi. Seversov ta'limoti Shmalgauzen, Matveyev va boshqalar tomonidan rivojlanitirildi. Ular ontogenez yangilanishnnnng yoki o'zgarishining asosiy yo'nalishlari, ularning ekologik-fiziologik asoslari, bu jarayonda funksiyaning roli, tur ichidagi o'zgarishlar hamda divergensiya sabablarini aniqlashga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Chunonchi, Shmalgauzen shakl hosil qilish jarayonida korrelyasiya va koordinatsiyaning ahamiyatini ko'rsatdi. A.A. Parmonov evolutsion rivojlanish uchun boshlang'ich material hisoblangan mutatsion va kombinatsion o'zgarishlar ontogenezning turli bosqichlarida ro'y berishini, lekin ulardan faqat tanlanish nazoratida bo'lib, shaklhosil qilish jarayonida qatnashgan o'zgarishlar filembriogenetik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi.

Neoteniya. Evolutsiya jarayonida faqat organlarning emas, balki bir butun organizmning embrional rivojlanishida ham ajodolar rivojlanishidan farq qiladigan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ko'p hollarda rivojlanishning boshlang'ich yoki o'rtalbosqichlari keyingi bosqichlarini siqib chiqaradi. Natijada bunday o'zgarishlar ontogenezning ilgariroq tugallanishiga sabab bo'ladi. Ontogenetik rivojlanishda qisqaradigan yoki tushib qoladigan bosqichlar funksiyalarini undan oldingi bosqichlar bajaradi. «Uzilib qoladigan» mana shunday ontogenez *neoteniya* nomi bilan yuritiladi.

Neoteniya ko'pincha organizmlarning lichinka holda rivojlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, yassi chuvalchanglar, qisqichbaqasimonlar, hasharoqlar, amfibiyalardan – tritonlar, salamandralarda jinsiy voyaga yetish lichinka bosqichida, ya'ni metamorfozgacha amalga oshadi. Bunday o'zgarishlar uzoq davom etgan tarixiy rivojlanishda muhitning o'zgarishi va yuqorida hayvonlar raqib shakllarining paydo bo'lishi tufayli yuz bergen.

Neoteniya o'simliklarda ham uchraydi. Masalan, uni lemnalar oilasiga mansub o'simliklarda yaqqol ko'rish mumkin. Taxtajyan qayd

qilishicha, lemnalar – *Lemnaceae* voyaga etgan shakllardan emas, balki uning murtagidan kelib chiqqan, ya’ni evolutsiyasi neoteniya yo‘li bilan borgan. Suvda o’suvchi bu o’simlikning tuzilishi shu qadar soddalashib ketganki, oqibatda ular gulli o’simliklarga nisbatan ko‘proq suvo‘tlarga o‘xhash bo‘lib qolgan.

Pistia suvda suzib yurib hayot kechiradigan mayda o’simlik bo‘lib, tropiklarda keng tarqalgan. Yetilganda u lemnaga mutlaqo o‘xshamaydi. Chunki unda kichik poya, barg, ildiz kabi vegetativ organlar bo‘ladi, solos, Urug‘ining tuzilishi, unishida, murtaklik holatida, lemnalar bilan *Pistia* o‘rtasida ko‘p o‘xhashlik namoyon bo‘ladi. Qiyoziy morfologiya indiqotlari lemma vegetativ tanasining cho‘ntakchalar deb ataluvchi qismidan yuqorida joylashgan distel qismida, aslida, barg ekanligini, cho‘ntakchalarda rivojlanadigan kurtaklar *Pistiumning* yosh novdalariga mos keiishini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga ular orasida farq ham bor. Agar *Pistianing* poyasi bir qancha novdalar va ko‘pgina to‘pbarg chiqarsa, lemnaning vegetativ tanasi ikkita yon kurtak va reduksiyalashgan bitta barg chiqaradi. Shu singari dalillar lemnalar *Pistioideaelarga* o‘xhash tipik vegetativ organlar bor o’simliklardan kelib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu ma’lumotlar yana lemnalar voyaga etgan *Pistia* shakllardan emas, balki ularning murtagidan paydo bo‘lganligini, ya’ni ularda neoteniya yo‘li bilan evolutsiya jarayoni ro‘y bergenligini ko‘rsatadi.

Ontogenet embrionizatsiyasi deyilganda, evolutsiya jarayonida rivojlanish bosqichlari bir qismining ona organizmi yoki maxsus tuxum yoki urug‘ qobig‘i himoyasida o‘tishga layoqatlanishi tushuniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, embrion rivojlanish tiriklikning boshlang‘ich xossasi bo‘lmay, aksincha, evolutsiya natijasi hisoblanadi. Ontogenet embrionizatsiyasi tobora murakkablashayotgan murtakning himoyalanishi va muhim ichki muhitda rivojlanishiga qaratilgan. Embriozatsiyaning himoyalanish ahamiyatini hayvonlardagi embrion rivojlanishining har xil tiplari evolutsiyasi misolida ko‘rish mumkin. Chunonchi, mayda va oziq zapasi kam bo‘lgan tuxum qo‘yuvchi kovakichlilar, bulutlar, polixetalar, qisqichbaqasimonlar, chuchuk suvda yashovchi suyakli baliqlar, amfibiyalarda tuxumdan rivojlangan lichinka harakatlanib mustaqil hayot kechiradi. Aksincha, oziqqa boy yirik tuxum qo‘yuvchi organizmlar – boshoyoqli molyuskalar, akulalar, ba‘zi bir suvda va quruqda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va tuxum bilan ko‘payuvchi sut emizuvchilarda tuxumdan lichinka emas, rivojlangan embrion hosil bo‘ladi. Mazkur organizmlarda murtak uzoq

vaqt tuxum ichida rivojlangan, uning ozig'i hisobiga yashagan va qobig'i bilan himoyalangan bo'ladi.

Sudralib yuruvchilarda va qushlarda amfibiyalarga nisbatan ontogenez embrionizatsiyasi kuchaygan bo'lib, u rivojlanishning dastlabki bosqichlarining suv muhitisiz taraqqiy etishiga va tuxumda murtakning to'liq rivojlanishiga qaratilgan.

Ontogenez embrionizatsiyasining eng muhim natijalaridan biri murakkab holda bo'lgan murtakning tez va isrofarchiliktsiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Murtak morfogenetik korrelyatsiyalarining tizimliligi, murakkabligi tufayli embrion rivojlanishi postembrion rivojlanishga nisbatan turg'un va qadimiyyidir. Embrion rivojlanishining turg'unligi rivojlanish darajasidan o'zgarishiga sabab bo'ladigan har qanday kichik mutatsiyalar paydo bo'lganda, bunday mutatsiyalarga ega shakllarning nobud bo'lishi hisobiga ontogenez embrionizatsiyasini zararsizlantirishga qaratilgan bo'ladi. Demak, embrionizatsiya evolutsiyada ontogeneznинг bir butunligini kuchaytirishga safarbar etilgan. Embrionning rivojlanishidagi ba'zi bir xossalarning ontogeneznинг postembrion davrida saqlanishi *fatalizatsiya* deb ataladi. Chunonchi, suvda ham quruqda yashovchilar, tog'ayli baliqlar, to'garak og'izlilar skeletida tog'ay to'qimasining saqlanishi, odam miya qutisi suyaklarining jag' suyaklariga nisbatan katta bo'lishi fatalizatsiyaga misoldir.¹

Erta postnatal davrda psixik faoliyatning rivojlanishi

Organik olamning tarixiy rivojlanishi bilan tanishilsa, organizmlar oddiydan murakkabga, takomillashmagan shakllardan takomillashgan shakllarga tomon rivojlanganligi namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa, paleontologiya dalillarini tahlil qilganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Arxey erasida hayotning hech qanday izlari uchramasa, proterozoy erasiga kelib, umurtqasiz hayvonlar va suvo'tlarning turli darajada rivojlangan shakllari uchraydi. Paleozoy erasida umurtqalilar rivojlanib, o'simliklar va hayvonlar takomillashib, quruqda yashashga o'tganligi ma'lum bo'ldi. Keyingi eralarda organizmlarning takomillashishi yanada davom etdi.

Odatda, organizmlarning oddiydan murakkabga tomon rivojlanishi *progress* termini bilan ifodalanadi. Biroq progress tushunchasi uning tub mohiyatini ochib bermaydi. Umuman, organizmlarning tuzilish

¹ Evolutionary Psychology David M. Buss, third edition , The University of Texas at Austin, 2008. - p.10.

darajasini ifodalovchi mezonlar hali yaxshi ishlab chiqilmagan. Masalan, to'rt oyoqli sudralib yuruvchilardan ilonlarning kelib chiqishini progress yoki regress deb hisoblash mumkinmi? Shunga ko'ra, «progress» muammosi Darvin uchun juda murakkab, organizmlarning tuzilish darajasi haqidagi mulohazalar esa nisbatan, shalkash bo'lib tuyulgan. Shuning uchun u o'z asarlarida juda stakomillashgan mavjudotlar» iborasini ishlatmaslikka harakat qilgan. Chunki ko'p hollarda organizmlar biror qismining progressiv o'zgarishi boshqa qismining regressiv o'zgarishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu esa progress mezonlari haqidagi masalaning murakkabligiga sabab bo'ladi. Progress haqidagi tushunchaga dastlab Darvin ilmiy tomonidan yondashgan olimdir. U progressiv rivojlanishning asosiy omillaridan biri tabiiy tanlanish bo'lib, u ma'lum muhit sharoitida organizmlarning takomillashuviga sabab bo'ladi, deydi. Darvin fikricha, organizmlarning raqobat qiliishi qobiliyati turli organlarining differensiyalanish va istisnoslashish darajasi progress mezonlaridan biri hisoblanadi. Lekin bu mezonlar progress tushunchasi uchun yetarli emas. Chunki ular progressiv evolutsiyadagi qarama-qarshiliklarni ifodalay olmaydi.

Biror organ tuzilishining murakkablashuvi darajasi evolutsion progressni aniqlash uchun ishonchsiz mezon hisoblanadi. Chunonchi, ba'zi bir boshoyoqli molyuskalar ko'zining tuzilishi sut emizuvchilar ko'zining tuzilishiga nisbatan anchagina murakkab. Shunga ko'ra, boshoyoqli mollyuskalar sut emizuvchilarga qaraganda takomillashgan deb aytib bo'lmaydi. Bu esa organizm guruhlarining tuzilishi «yuqori» durajada ekanligini aniqlash uchun, uning to'plagan axborot zapas hajmi, ontogenezning avtonomizatsiyasi, individularining yashab qolishi, umumiyligi aktivligining ortishi diqqat markazida turmog'i kerakligidan dalolat beradi.

Organik olamda progressiv rivojlanishning har xil shakllari mavjud. Ularga cheklanmagan, biologik, morfologik-fiziologik progresslar kiradi. Prokariotlardan tortib bir qancha evolutsion jarayonlar tufayli sut emizuvchilar va nihoyat, odamzotning kelib chiqqanligi cheklanmagan progressga misol bo'ladi. Albatta, bu tarixiy rivojlanish bir qancha organik shakllarning paydo bo'lishi, almashinuvi orqali amalga oshgan. Materiya harakat shaklsining bunday yuqori bosqichga o'tishi tirik tabiat rivojlanishining birgina shoxobchasida amalga oshgan. Organik olam tarixiy rivojlanishining boshqa shoxobchalari esa rivojlanishning u yoki bu darajasida to'xtab qolgan.

Ma'lumki, eralardan eralarga, davrlardan davrlarga o'tgan sari organik olamning xilma-xilligi orta borgan. Bu esa organizm guruhlari yashayotgan biotik muhitning murakkablashuviga sabab bo'lgan. Bunday o'zgargan sharoitda yashashga moslashgan organizmlar paydo bo'lar ekan, ular avvalo, kam sonda, ko'zga tashlanmaydigan holatda bo'lib, keyinchalik son jihatdan ko'payib, hukmron holatga o'tgan. Xuddi shunday holatni silur davrida jag'sizlar, devonda baliqlar, karbonda suvda va quruqda yashovchilar, permda sudralib yutuvchilar, mezozoy va kaynozoyda sut emizuvchilar sinfiga mansub bo'lgan hayvonlarda ko'rish mumkin. Yangi paydo bo'lgan organizm guruhlari biosferada hukmron holatni egallashi uchun ular shu yerdagi mavjud turlar bilan raqobatda bo'lishi va ularga nisbatan bir qancha afzallikkarga ega bo'lishi kerak edi. U yoki bu hayvon, o'simlik guruhlari cheklanmagan progress asosida rivojlanishi uchun asosiy to'siq tor doiradagi ixtisoslashishdir. Tarixiy rivojlanishda organizmlarda tor doiradagi ixtisoslashishning tarkib topmasligi uchun yashash muhitni teztez o'zgarib turishi kerak edi. Bunday sharoitda yashagan organizmlarda tor doirada ixtisoslashish amalga oshmagan va ular har gal o'zgargan yashash sharoitiga tuzilishining murakkablashuvi bilan javob qaytargan, oqibatda ular evolutsiyasida cheklanmagan progress muntazam ravishda amalga osha borgan. Cheklanmagan progress organizmlar tuzilishining takomillashuvi bilan bir qatorda populyasiya tarkibining o'zgarishiga ham sabab bo'lgan. Chunonchi, birhujayraliorganizmlar populyasiyasida individlar orasidagi munosabat juda sust, har bir organizm mustaqil ravishda muhitning o'zgarishiga javob beradi. Poda yoki gala bo'lib yashovchi, tuzilishi murakkab bo'lgan hayvonlar populyasiyasida esa har bir individning muhit o'zgarishiga javob reaksiyasi har xildir. Ularning ba'zilari muhitga bevosita emas, balki bilvosita bog'liq bo'ladi. CHunonchi, yosh organizmlar oziq topishda, dushmanidan himoya-lanishda bevosita ishtirok etmasligi shular jumlasidandir. Populyatsiyada ro'y bergen bunday o'zgarish individni muhitning tobelligidan, tasodifiy noqlay sharoitdan himoya qilishga qaratilgan.

F.Engels «Tabiat dialektikasi» degan asarida har qanday moslashish bir vaqtning o'zida ham progress, ham regress bo'lishi mumkin, deb qayd qilgan. Bu bilan progress va regress doim o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu bilan bir vaqtida Engels progress tushunchasi moslashish tushunchasi bilan uzvii bog'liqligini ham ko'rsatib o'tgan.

Organik olamdagi progress muammosi birinchi marta Seversov tomonidan mukammal o'rganilgan. U evolutsion nazariya uchun eng

qlyin bo'lgan: «Nima uchun hozirgi vaqtida tuzilishi juda murakkab bo'lgan hayvonlar va o'simliklar (sut emizuvchilar, qushlar, gulli o'simliklar) bilan bir qatorda, juda qadim zamonda paydo bo'lgan tuzilishi oddiy organizmlar (bakteriyalar, sodda organizmlar) mavjud? Nima sababdan ayrim organizmlar tarixiy rivojlanishda takomillashib ketgan-u, boshqalari esa sodda tuzilishini saqlab qolgan?» degan muammolarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Yuqoridagi masalalarni hal qilishda, avvalo, evolutsiya jarayonida ro'y beradigan biologik progress va morfologik-fiziologik progress tushunchalari farqlanishi zarurligini ta'kidladi. Biologik progress deganda, Seversov turning avj olib rivojlanishini, keng tarqalishini, ravnaq topishini tushungan, ya'ni: 1) turga mansub individlar soni ortadi; 2) natijada tur keng tarqalib, yangi areallarni ishg'ol qiladi, uning areali kengayadi; 3) yangi sistematik guruhlar paydo bo'ladi va intensiv divergensiya ro'y beradi. Hozirgi vaqtidagi gulli o'simliklar, suyakli baliqlar, qushlar va sut emizuvchilar biologik progressga misol bo'ladi.

Cheklanmagan progressda organik olam guruhlarida individlar miqdori hamma vaqt orta bermaydi. Qo'p hollarda «tuban» organizmlar miqdor jihatdan yuqori tuzilishga ega organizmlarga nisbatan ko'p sonda bo'ladi. Yuqori tuzilishga ega organizmlar takomillashgani uchun miqdor jihatdan ko'p bo'lish hisobiga emas, balki individlari yashovchanligining ortishi hisobiga gullab-yashnagan. Biroq bunday yo'l katta guruhlar taqqoslanganda ko'zga tashlanadi. Ayrim turlarning yashash uchun kurashdagi muvaffaqiyati ko'p hollarda populyatsiyada individlar, tur doirasida populyatsiyalar miqdorining ortishi, arealining kengayishi bilan bog'liq.

Gruppali (cheklangan) progress. Har qanday hayvon, o'simlik guruhi tuzilish plani bo'yicha boshqa guruhlardan farq qiladi. Evolutsiya jarayonida mazkur guruhda tuzilishning takomillashuvi gruppali (cheklangan) progress mazmunini tashkil etadi. Masalan, arxegoniylar o'simliklarda gruppali progress ontogenezda gametofitdan sporofitga o'tishga, o'tkazuvchi naylarning rivojlanishiga, epidermis «og'izchalar»ning rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Evolutsion progressning yuqorida qayd etilgan shakllari alohidalo'hida sof holda emas, birgalikda bir-biriga murakkab ta'sir qilgan holda namoyon bo'lgan.

Evolutsiya jarayonining cheklanmagan shakli bir tekis bo'lmay, balki ko'p hollarda o'zgarish bilan davom etgan. Uning ijobjiy davom etishi, bir tomonidan, organizmlardagi har xil organlar sistemasining o'zgarishi,

ikkinchi tomonidan, doimiy murakkablashayotgan va xilma-xil muhitda gruppalarning yashab qolishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa o'z navbatida gruppalar hayot tarzining chuqur o'zgarishiga, evolutsiya imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo'lgan. Biologik regressda tarixiy rivojlanish natijasida u yoki bu sistematik guruhga mansub organizmlar soni kamayadi, areali torayadi va ular sekin-asta qirila boshlaydi. Paporotniklarning ayrim guruhlarini, hayvonlardan bir qancha suvda va quruqlikda yashovchilarini, sudralib yuruvchilarini biologik regress holatida bo'lganlarga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Morfologik-fiziologik progress bnologik progressdan shu bilan farq qiladiki, bunda organizmlarning tuzilishi va funksiyasi progressiv o'zgara boradi. Natijada tuzilishi tuban shakllardan tuzilishi murakkab shakllar paydo bo'ladi. Seversov fikricha, albatta, morfologik-fiziologik progress biologik progressga olib keladi. Biologik progress to'rtta:

1) aromorfozlar, ya'ni morfologik-fiziologik progress; 2) idioadaptatsiya; 3) senogenez; 4) umumi degeneratsiya yo'nalishida amalga oshadi.

Psixik faoliyatning yuvenal (o'yinli) davrda rivojlanishi

Yuvenal davr haqida faqat yuqori darajada rivojlangan hayvonlarning bolalari haqida so'z yuritiladi. Bu hayvonlarning jinsiy yetilish holati o'yinli faol davriga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham bu erda faqat yuqori darajada rivojlangan hayvonlarga mos keladi. Boshqa hayvonlarda individual rivojlanish elementar psixika shakli sifatida talqin qilinadi.

Hayvonlarda o'yin faoliyatlar ko'pgina tadqiqotchilarni e'tiborini tortadi, shu bilan birga bu kam o'rganilgan sohalardan biridir. Bu yo'nalish bo'yicha turlicha konsepsiyalarni kuzatishimiz mumkin. Bunda asosan ikki yo'nalish talqin qilinadi: birinchisi G.Spenser tomonidan taklif qilingan bo'lsa, ikkinchisi K.Gross tomonidan ko'rsatilgan.

Birinchi vaziyatda o'yindagi faollik energiyaning mavjudligi deb ayтиб о'тилади ва бунда emotsiyonal holatlarga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi.

Ikkinchi holatda faqat funksional tahlil qilinadi. Grossning fikricha o'yin faoliyati bu kattaroq xulq-atvorning amaliyoti sifatida talqin qilingan.

Hayvonlarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Hayvonlarning o'yin faoliyatlarini masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalg qilib kelmoqda.

Hayvonlar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Hayvonlar atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishiga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, hayvon bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zinинг haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmayligan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan, bola avtomashinani, tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuyevchi bo'lib samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgsi keladi. Biroq, tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qiliлади? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni shu bilan izohlab berish mumkinki, birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuni bilan bog'liqidir. Ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagini mansub bo'lgan narsalarga aylantirib xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladi. Bolalarning o'yin faoliyatlarini ularning jismo-ni va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlantirish uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xomxayol, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujjasamlangandir, ya'ni mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida aniqbo'ladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki o'yinfaqattashqi muhitdagi narsa va hodisalarini bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hislatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p

jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila borishga bog'liqdir.

Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolinining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib rivojlanadigan narsadir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilanayotgan, hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rindi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni analogik tarzda) har xil xayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar(uchar ot, mashina-odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida har xil xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol xamda ijodiy yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylilik xarakteriga ega bo'ladi. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqato'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir haydovchining, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki, umuman, haydovchilarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatları doirasi juda cheklangan kichik yoshdagı bolalar (ba'zan kichik grupper bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, oyisini, adasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O'rta, katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obraziar umumiylilik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga yuksak ijtimoiy shamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashkari, agarda biz bolalarning

o'yini faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy hislatlari(kimning nimaga ko'proqqiziqishi, qobiliyati, irodasi temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatları ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagagi bolalar odatda o'zlarini yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tassavur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlarini har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan kollektiv xarakterini ola boshlaydi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning kollektiv o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning fuqat predmetlarga munosabatini emas, baiki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, kollektiv o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poyezd» o'yini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi.

Bolalarning mana shu kabi kollektiv o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'shaydi. Chunki kollektiv o'yindagi har bir bola o'z rollini yaxshi ado etishga intilish bilan birga o'yining umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan kollektiv o'yin bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishi va ayrim funksiyalarni o'xshatib bajarishni talab etadi. Shuning uchun bolalarning bunday kollektiv o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, muammolilik o'yin qoidalariiga, tartib-intizomga bo'ysunish va shu kabi ijobiylis hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida sujetlli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin endi bu o'yinlar o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda liderlik yuzaga kela boshlaydi, shuningdek, tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojliga boshlaydi.

Bu maktabgacha yoshdagagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda katta. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra uning atrof, hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha

yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizishga ham nihoyatda qiziqadilar Rasm chizish bolalar uchun o‘yin faoliyatining o‘ziga xos bir shakli hisoblanadi. Bola, avvalo, ko‘rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o‘zi biladigan, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli vaqt yutish va muvaffaqiyat bo‘lgan musobaqa o‘yinlarning ham ahamiyati juda katta.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli vaqt yutish va muvaffaqiyat bo‘lgan musobaqa o‘yinlarning ham ahamiyati juda katta.

Katta bog‘cha yoshida konstrukturlik o‘yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O‘yinda bola elementar mehnat ko‘nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarni anglay boshlaydi, amaliy tafakkur rivojlana boradi.

Sodda sensor psixika

Sobiq sovet psixologlarining ishida psixologiya ichki dunyo haqidagi fan sifatida emas, balki, tashqi ko‘rinishlar haqidagi fan deb hisoblangan. Psixologiyani ruhiy hayotning o‘ziga xosligi haqida emas, balki hayot faoliyatining uzoq muddat rivojlanishi natijasi sifatida, unda organizmning atrof-muhit bilan faol o‘zaro aloqaga kirishadi, unda u o‘z o‘rnini topishga intiladi. Bunday aks ettirish jarayonida, atrof-muhitning ta’siri ostida miyada psixik jarayonlar vujudga keladi. Bu holat esa, psixikaning ichki dunyo haqidagi fan tushunchasini yo‘qotgan va buning natijasida evolutsion rivojlanish vujudga keladi. Psixik jarayonlar shu tariqa o‘rganish obyekti bo‘lib qolgan.

Sobiq sovet psixologlarining fikriga ko‘ra psixika hayot faoliyatida vujudga kelmay, balki organizmning hayot faoliyatini ma’lum shart-sharoitlarda vujudga keltiradi. Masalan, notirik tabiatda alohida buyum-larning o‘zaro aloqasi mavjud. Biroq bunday aloqalar ularning yashashi uchun sharoit hisoblanmaydi qoya suvdan mustaqil ravishda bo‘lishi mumkin, suv qirg‘oqdan mustaqil ravishda mayjud bo‘lishi mumkin.

Masalan Yerning rivojlanishi jarayonida juda murakkab qo'shilishlar vujudga kelgan. Bu katta molekulalar *koatservatlar* deb atalgan. Ularning asosiy xususiyatlari ularning qismlarga tez ajrala oladilar, chunki modda almashinuvi ko'proq bo'lar ekan. Bu molekulalar yangi moddalarni qabul qilib, o'zlashtirishi tashqi olam mahsulotlarini sochishi kerak. Shu tariqa o'sha katta molekulalar atrof-muhitda moddalar almashinuvi uchun kerak. Moddalar almashi-nuvi passiv jarayon hisoblanmaydi. U oqsil molekulalarning hayotiy faoliyat jarayonini amalga oshiradi.

Shu tariqa tirik hayot vujudga keladi. Bu hayotda mayda organizmlar vujudga keladi. Bu to'qimalarning mavjudligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular moddalarga qo'zg'ovchilarni har doim topa oladilar. Shu darajada ham tirik moddalarda ehtiyojlar paydo bo'la boshlagan. Hamma tashqi olam ko'rinishidan hayotni qo'llash uchun biotik ta'sir va mavjud bo'limgan abiotik ta'sir mavjud edi. Agar biz hayot evolutsiyasini diqqat bilan kuzatsak, ularni ma'lum bir bosqichlarga ajratishimiz mumkin. Birinchi bosqich – bu o'simliklar olami. Bu shakl evolutsiyaning hamma bosqichlarida uchraydi. Sodda bir to'qimali suv o'tlaridan tortib, to zamonaviy o'simliklarga qadar.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra o'simliklar olamining o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ma'lum bir joyga bog'langanlar, harakat qilmaydilar. O'simliklar olami ma'lum bir moddalar almashinuvida to'xtaydi. O'simliklarning hayot faoliyati biotik omillarga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'simliklar ma'lum bir sharoitlarga nisbatan sezuvchan bo'lib qoladilar. Demak, o'simliklar ham o'z ehtiyojlariga egadirlar. O'simliklar ularga ta'sir qilagan omillarga nisbatan ta'sirlarga javob berish xususiyatlariga egadirlar. O'simliklar ma'lum bir hududga bog'langandirlar, undan ortiqcha harakat qilmaydilar. O'simliklar yorug'likka, haroratga, kimyoviy ta'sirlarga nisbatan javob berish xususiyatlariga egadirlar. Bunday harakatlar tropizmlar deb ataladi.

Tropizmlar fototropizm (yorug'likka javob), termotropizm (haroratga), geotropizm (yer markaziga intilishi), xemotropizm (kimyoviy ta'sirlar)ga bo'linadilar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, tropizmlar ijobjiy (ta'sirot kelgan yo'naliishga qarab intilish) yoki salbiy (zararli taassurotlarga intilish) xarakterga ega bo'lishi mumkin.

O'simliklar dunyosidan farq qiluvchi bosqich bu hayvonot olami hisoblanadi. Hayvonot olamining o'simliklar dunyosidan farqlanuvchi xususiyatlari bu hayvonlarda harakatning mavjudligidir. Bu ba'zida

yeterli hisoblanmaydi, chunki ba'zi bir o'simliklar harakatlanish xususiyatlari egadirlar. Masalan, kungaboqar yoki pashsha yutuvchi o'simlik. Kungaboqar quyoshga qarab harakatlansa, pashsha yutuvchi pashshalarga qarab harakatlanadi. Lekin bunday harakatlar hayvonlarning xatti-harakatlardan farqlanadi. Hayvonlarning harakati faol xarakterga ega. O'simliklar dunyosidan hayvonot dunyosiga o'tishdagi yangilik bu hayvonlarda yangi qo'zg'atuvchining ko'rinishi vujudga kelishidir. Hattoki eng sodda tuzilgan hayvonlar ham biotik qo'zg'atuvchilarni paydo bo'lishini namoyon qilishlari mumkin. Bu A.N.Leontev talqiniga ko'ra sezuvchanlik deb nomlangan. Hayvonlarda sezuvchanlikning paydo bo'lishi yangi xususiyatlardan biri hisoblanadi va bu esa yangi organizmlarni vujudga keltiradi, bu holat esa psixikaning vujudga kelishining asosiy omili hisoblanadi.

Psixika evolutsiyasi va antropogenez

Jamoa bo'lib yashash, jinsiy etilishgacha bo'lgan rivojlanish muddatining uzayishi, bosh miyaning faoliyati, nutq, qurollar yasash qobiliyati, tananing tuzilishi va funksiyalari majmuasi odamni tavsiflovchi xossalarni hisoblanadi. Bularning vujudga kelishi va shakllanishida organik olamning tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan evolutsiya omillari – mutatsiya jarayoni, alohidalanish, hayot to'lqinlari, tabiiy tanlanish katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Mutatsiya jarayoni va genlar kombinatsiyasi odamda xilma-xil anatomik-morfologik, fiziologik-bioximiya, genetik o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Sotsial muhit esa har bir individning o'ziga xos genotipi saqlanishiga ko'maklashgan. Har xil irqlar, etnik guruhlar paydo bo'lishida alohidalanish muhim rol o'ynagan.

Odam evolutsiyasida hayot to'lqinlarining ham ahamiyati katta bo'lgan. U yoki bu regiondagi odamlar ajoddlari orasida vaqt-vaqt bilan bo'lgan ocharchilik, yuqumli kasalliklar tarqalishi, chunonchi, vabo, o'lat, sil paydo bo'lishi va tarqalishi zaif organizmlarning ko'plab qirilishiga va shu yo'l bilan tirik qolgan odamlar genofondining tasodifiy, yo'nalihsiz o'zgarishiga sabab bo'lgan. Primatlar, shu jumladan, qadimgi odam to'dalari oziqlanish maydonini egallash, yovvoyi hayvonlarni ovlash, o'simliklarning yeyiladigan qismlarini topish, yig'ish, saqlash bo'yicha o'zaro raqobatda bo'lganlar. To'dalar orasidagi bunday raqobatlarda g'olib kelish ko'p jihatdan to'da a'zolari yoki boshliqning qobiliyatiga, uddaburonligiga, ov qilish, yovvoyi o'simliklarning yeyiladigan qismlarini topish, g'amlash, xavf-xatarning

oldini olish singari ko'nikmalarga, to'da a'zolarining soniga bog'liq bo'lgan. Agar to'da a'zolarining har xil joyda tarqalganligi, alohidashganligini e'tiborga olsak, u holda ular genetik jihatdan farq qilishiga e'tiroz qolmaydi. To'dalar orasidagi hayot-mamot raqobatida yuqori qobiliyatga ega, uddaburon, qurollar yasash va oziq topish, uni saqlashga mohir to'da a'zolarining g'olib kelishi tabiiy bir hol edi. Uzoq ming yillar davom etgan bunday gruppali tanlanish primatlarning barcha turlarida ro'y bergen bo'lsa-da, lekin ikki oyoqlab yurishga, qo'lni ishlatishga layoqatli gominidlarda to'rt oyoqlab yuruvchi, daraxtlarda hayot kechiruvchi vakillarga qaraganda ko'proq ijobjiy natijalar bergen.

Gominidlarning tarixiy rivojlanishida yana turlararo tanlanish ham amalga oshtagan. Chunonchi, avstralopiteklar bilan qadimgi odamlar — eruktsular bir vaqtida yashagan va bunda turlararo tanlanish avstralopiteklarga qaraganda qobiliyat va aqliy jihatdan anchagini rivoj topgan eruktus odamlarning g'olib chiqishiga sabab bo'lgan. Gominidlardagi turlararo tanlanish, hayvonlardagi turlararo tanlanishdan farq qilib, gruppali tanlanish bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Chunki raqobat bir tomondan eruktus, ikkinchi tomondan avstralopitek guruhlari orasida yuz bergen. Tanlanish bir turning ikkinchi tur ustidan g'olib kelganligiga sababchi ekanligini e'tiborga olib, gruppali tanlanish turlararo tanlanish qiyo fasiga kirgan, deb aytish mumkin.

Shunday qilib, to'dalar orasida polimorfizm vujudga kelishida mutatsiya jarayoni, alohidalanish, hayot to'lqinlari, tabiiy tanlanish, shuningdek, qadimgi odamlarning o'zaro uchrashuvidagi stress holat alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, stress holati tufayli odam organizmidagi neyroendokrin boshqarilish o'zgargan.

Homo sapiens turi maydonga kelishi bilan biologik omillarning, xususan, alohidalanish, hayot to'lqinlari, tabiiy tanlanishning ahamiyati tobora susaygan.

Odamlar tobora takomillashgan ish qurollari ishlab chiqishi oziq tayyorlash, uy-joy qurish, atrof-muhitni xavf-xatardan saqlashga imkon berdi. Oqibatda inson evolutsiyasida tabiiy tanlanishning ahamiyati ham keskin kamayib, sotsial omillarning roli ortgan. Lekin odamning tarixiy rivojlanishida biologik va sotsial omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatgan. Har bir odamlar to'dasi qurol yasash, yovvoyi hayvonlarni oylash, o'simliklarni yig'ish, hayvon va o'simliklarni parvarish qilish va shu singari bilimlar, ko'nikma-malakalarni yosh avlodga o'rgata borgan. Yosh avlod ularni o'zlashtirish bilan bir qatorda o'sha bilimlar, ko'nikma-malakalarni o'zi ixtiro qilgan yangiliklar bilan boyita borgan.

Birgalikda hayot kechirish, olovdan foydalanish, go'shtli ovqat iste'mol qilish tafakkur, nutqning rivojlanishga, bosh miya hajmining ortishiga sabab bo'ladi. Biroq odam bosh miyasining yanada kattalashishiga ayollarda jinsiy organidagi tuxum yo'lining ensiz bo'lishi to'sqinlik qilgan. Bu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun tanlanish ayollarda chanoq suyagi hajmining kengayishiga, aksincha, miya rivojlanishining sekinlashishiga olib kelgan. Odatta, yangi tug'ilgan chaqaqoqning miyasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, uning rivojlanishi asosan go'daklik va bolalik davrida tugallanadi. Sut emizuvchi hayvonlarda (tuxum qo'yib ko'payuvchilardan tashqari) yangi tug'ilgan organizm mustaqil hayot kechirishga tayyor bo'lgani holda, yangi tug'ilgan odam bolasi mustaqil hayot kechira olmaydi. Shu sababli ayollar bolalarini uzoq muddat parvarish qilishga va oqibatda erkakka birmuncha qaram bo'lishga majbur. Shunga ko'ra jamoa ayollarga va ularning bolalariga g'amxo'rlik qila boshlagan. Bu esa o'z navbatida jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatni – hamkorlikni kuchaytirgan.

Hozirgi vaqtida tur sifatida *Homo sapiens*ning evolutsiyasi tugallangan, deb aytish mumkin. Shunga ko'ra, uning kelgusi evolutsiyasidan katta o'zgarishlar kutib bo'lmaydi. Lekin evolutsiya shakllangan tur doirasida davom etadi. Chunonchi, keyingi vaqtida har xil etnik guruqlar, irqlar orasida kuzatilayotgan nikohlar odamzod genofondini boyitib bormoqda. Shu bilan birga atrof-muhitning ifloslanishi, qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar, turli pestitsidlar, gerbitsidlar, defoliantlarni ko'plab qo'llash tufayli kishilarda polimorfizm, irlsyi kasalliklar ko'payib bormoqda. Binobarin, odam evolutsiyasida alohidalanish, hayot to'lqinlari, tabiiy tanlanishning ahamiyati kamayganiga qaramay, mutatsion va kombinatsion o'zgaruvchanlik o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Odamning bundan keyingi evolutsiyasi kollektiv aql-idrokining rivojlanishi (axborotni to'plash, saqlash, uzatish)ga, atrof-muhitdan yanada samaraliroq foydalanishga yo'nalgan.

Xulosa qilib aytganda, *Homo sapiens* rivojlanishida bir qancha bosqichlarni o'tgan. Ulardan birinchisi o'zini-o'zi anglash, ya'ni ongning rivojlanishidir. Bu hodisa taxminan 40-50 ming yil oldin ro'y bergen o'zini o'zi anglash tufayli ajodolarimiz odamlar bilan hayvonlar orasidagi farqqa borganlar va inson tabiat kuchlarini jilovlashi mumkinligiga ishona boshlaganlar.

Aqli odamlar tarixiy rivojlanishidagi ikkinchi bosqich yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish – xonakilashtirish, yovvoyi o'simliklarni ekib madaniylashtirish bilan bog'liq. Bu hodisa taxminan 15-10 ming yil

oldin boshlangan. Natijada odamshu paytgacha tashqi muhit bilan bog'liq bo'lsa, endilikda u hayot sharoitining ba'zi tomonlarini nazorat qilish imkoniga ega bo'ldi.

Inson tarixiy rivojlanishining *uchinchis bosqichi* ilmiy-texnika inqilobi bilan bog'liq bo'lib, u bundan 1 ming yil oldin boshlangan va keyingi 3-4 yuz yil mobaynida avj olgan.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli insonning tabiat ustidan hukmronligi ortili. U sayyoramizning yirik territoriyalarini o'z xohishiga ko'ra o'zgartira olish imkoniga ega bo'ldi va niroyat, hayot uchun noqlay bo'lgan Arktika, Antraktidani ham o'zlashtirishga, koinotning quyi qismini zabit etishga erishdi.

Darslikning XI bobida evolutsiyaning boshlang'ich materiali, birligi, hodisasi, omillari bilan tanishildi. Inson o'zini o'zi anglab, biologik mavjudotdan ijtimoiy mavjudotga aylangandan so'ng, biologik omillarning inson taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri asta-sekin kamayib, ijtimoiy omillarning ahamiyati orta borgan. Lekin shunga qaramay, insonda boshqa tirik mavjudotlar singari oziqlanish, nafas olish, urchish, nasal qoldirish, o'sish, rivojlanish davom etar ekan, u biologik qonunlarga bo'yysuna beradi. Lekin ular inson taraqqiyotida asosiy omil rolini bajarmasa ham tabiiy tanlanish kishilar hayotida hech qanday ahamiyatga ega emas, degan xulosaga kelish yaramaydi.

Tabiiy tanlanishning stabillashtiruvchi shaklsi odamning hozirgi tozilishi, qiyofasini saqlab qolishga qaratilgan. Keskin mutatsiyaga uehragan zigotalarning homilaligida nobud bo'lisi, tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha vaznlilari yashovchan ekanligi bunga yorqin misoldir. Keyingi vaqtda atrof-muhitning ifloslanishi tufayli spontan mutatsiyalar hosil bo'lisi birmuncha ko'paydi. U yoki bu irlar kasalliklar bilan tug'ilgan bolalar kishilik jamiyatni uchun niroyatda xavfli ekanligini qayd etish zarur.

Yangidan hosil bo'lgan mutatsiyalar u yoki bu regionda yashayotgan odamlar genofondining o'zgarishiga, uning yangi belgilari bilan boyishiga sabab bo'ladi. Mutatsiya bosimi yo'nalihsiz ekanligini, shunga qaramay bu hodisa har bir shaxsning o'ziga xos genotipini saqlashga imkon yaratishini aytilib o'tish kerak. Bunday hodisalar mutatsiya jarayonining insonlar genofondiga ta'siri o'z qimmatini yo'qotmagانligidan dalolat beradi.

Alohidalanish yaqin vaqtgacha insonlar tarixiy rivojlanishida ma'lum rol o'ynagan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda xalqlar, mamlakatlardagi aloqa vositalarining rivoj topishi tufayli o'z ahamiyatini tobora

kamaytirib bormoqda. Alohidalanish to'siqlarining bartaraf etilishi tufayli inson genofondi tobora boyib bormoqda. Yaqin vaqtgacha yuqumli kasalliklar bo'lgan vabo, sil, moxov va boshqalardan odamlar ko'plab qirilgan bo'lsa, endilikda ularga qarshi davo choralar ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq qilinganligi tufayli ulardan o'lish juda kamayib ketdi. Bu hodisa hayot to'lqinlari ham evolutsiya omilli sifatida insonning tarixiy rivojlanishida kam ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Bayon etilganlardan ma'lum bo'ladiki, evolutsianing boshlang'ich omillaridan faqat mutatsiya jarayonining odam genofondiga ko'rsatgan ta'siri o'zgarmagan, xolos. Shuni nazarda tutgan holda odam tanasining tuzilishida, tashqi qiyofasida kefgusida biror-bir keskin o'zgarish kutilmaydi. Odamda ro'y beradigan o'zgarishlar jamoa ravishda axborot toplash, uni saqlash, kelgusi naslga berish, tabiatni yanada ko'proq egallashga qaratilgan bo'ladi.

Insonning kelajagi ayrim shaxslarning aql-idroki bilan emas, balki jamiyatning aql-idroki bilan belgilanadi.

Dastlabki aqli odamlar turi toza suv, sof havoli muhitda tarkib topgan. Keyingi yillarda zaharli ximikatlardan, mineral o'g'itlardan keng foydalanish, yangi sanoat markazlari, shaharlar, transport vositalari ko'payishi tufayli atrof-muhitning ifloslanishi tobora ortib, zararli mutatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Keyingi vaqtida allergiya kasalligining xilma-xil shakllari ko'payib ketganligi bunga yaqqol misoldir.

Har bir odam ko'chib yuruvchi biotsenozdirdir. Uzoq davom etgan evolutsiya natijasida odam tanasida ko'pgina mikroorganizmlar birgalikda yashaydi. Ichaklarda yashaydigan achituvchi bakteriyalar, zamburug'lar, terida uchraydigan ko'pgina mikroorganizmlar shular jumlasidandir. Hayot tarzining o'zgarishi ana shu mikroorganizmlar hayotiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Odam tanasidagi biotsenozning o'zgarishi, albatta, unga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hayvonlar va insonlarpsixikasining o'xshashligi va farqlari

Yuqori darajada rivojlangan hayvonlarda bosh miya po'stloqlari rivojlanadi, ular turli xil retseptorlardan kelayotgan signallarga javob berish xususiyatlariga egadirlar, yuqori darajada rivojlangan sut emizuvchilar xatti-harakatning murakkab shakllarini bajara oladilar. Bu insonlar va hayvonlar o'rtasidagi farqlar yo'qoladi degan holatlarni berishi mumkin, hayvonlardagi intellektual xatti-harakatlar ularda aql bor, degan taxminlarga olib kelishi mumkin. Bu tushunchalar xato hisoblanib, inson va hayvonlar o'rtasida bir qator tafovutlar mavjud.

1. Hayvonlarning xatti-harakatlarda instinktiv biologik xulq-atvor yetakchilik qiladi, ularda biologik motivlar mavjud. Ular biologik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan xatti-harakat hisoblanadi. Hayvonlar biologik ehtiyojlardan tashqariga chiqsa olmaydilar. Ulardagi har qanday faoliyat albatta instinktlar asosida amalga oshiriladi. Insonlar xatti-harakatlarning 10 tadan 9 tasi maqsadga qaratilmagan faoliyatga yo'naltiriladi. Demak, birinchi farq – hayvonlarning xatti-harakatlari instinktiv xatti-harakatlardan chegarasidan chiqmaydi.

2. Insonlar ham, hayvonlar ham mehnat qiladilar. Biroq hayvonlar foydalangan mehnat qurollarini saqlab qo'ymaydilar. Insonlar esa mehnat qurollarini saqlab qo'yib, ularni takomillashtiradilar. Hayvonlarda abstrakt ko'rgazmali vaziyatlar mavjud emas, tashqi vaziyatlardan kelib chiqqan holda mehnat qurollaridan foydalanishlari mumkin, biroq mehnat qurollarini tashlab ketaveradilar. Hayvonlar bir mehnat quroldan ikkinchisini yasay olmaydilar. Uch yoshli bolaga boshqa mehnat qurollaridan qanday foydalanishi ko'rsatsalar, bola darhol bu harakatni qaytarishi mumkin, hayvonlarda esa bu holat kuzatilmaydi. Hayvonlar uchun buyumlar ma'lum bir vaziyatlardagina ahamiyat kasb etishi mumkin.

3. Hayvonlarning xatti-harakatlari aniq vaziyatlarga asoslangan bo'ladi, ular insonlarga o'xshab vaziyatlarni mavhumlashtirmaydilar. Bunga quyidagi misolni keltirish mumkin. Gollandiyalik psixolog Boytendayk tomonidan quyidagi qonuniyat o'rganilgan. Hayvonlarning oldiga bankalar qatori qo'yilgan bo'lib, ulardan bittasida ozuqa bo'lgan. Hayvon ozuqani qaysi bankaga qo'yilganini ko'rgan. U ozuqani olib iste'mol qilgan. Ikkinci tajribada ozuqa ikkinchi bankaga qo'yilgan. Hayvonlar oldin birinchi bankani, so'ngra ikkinchisini ochib ko'rishgan, ular butun tajriba davomida oldin birinchi bankani so'ngra keyingi bankani ochib ozuqani ola boshlagan. Insonda esa keyingi bankaga qaratilgan faoliyat mavjud bo'lgan. Ikki yarim yashar inson bolasi ham shu tajribani aniq bajara olgan. Demak, hayvonlarning xatti-harakatlari faqat idrok etilgan holatlarga yo'naltirilgan bo'lar ekan.

4. Agar hayvonlarning xatti-harakatlarda faqat ikkita omil mavjud bo'lsa, insonlar xatti-harakatlari yana bir holat qo'shiladi, bu hayvonlarda mavjud emas, hayvonlar nasliy xatti-harakat va shaxsiy tajribalariga suyansalar, insonlarda yana boshqa omillar ham mavjud. Insonlar jamoaviy tajribalarga ham suyanishlari mumkin, ular boshqa insonning tajribalariga ham tayanadilar. Bu ijtimoiy tajriba hayvonlarda kuzatilmaydi.

5. Hayvonlar tashqi shart-sharoitlarga moslashadilar, insonlar esa tashqi sharoitlarni o'zlariga moslashtiradilar.

6. Hayvonlarda faqat ma'lum bir shart-sharoitlardagina hamkorlik-dagi faoliyat amalga oshiriladi, insonlardagi faoliyatlarning hammasi hamkorlikdagi faoliyat bilan bog'langan.

Insonning psixik faoliyati hayvonlarning psixik faoliyatidan, tubdan farq qiladi. Insonning xatti-harakati faqatgina biologik motiv va biologik ehtiyojlar asosida kechmaydi. Ularda ma'naviy ehtiyojlar ham mavjud. Hayvonlardan farqli ravishda inson o'z oldiga maqsad qo'yha oladi. Inson qanchalik och bo'lmasin, xom mahsulotlarni iste'mol qilmaydi.

O'qish, mehnat faoliyatini inson ongli ravishda amalga oshiradi. Demak, inson bir faoliyatni bajarishdan oldin o'ziga maqsad qo'yadi va shu maqsad sari intiladi. Demak, **birinchi psixik farqlardan** biri inson o'z ehtiyojlaridan tashqari oldiga maqsad qo'yha oladi. **Ikkinci psixik farq** inson va hayvonlarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlardir. Masalan, sayrga chiqqan vaqtida inson o'z faoliyatini boshqaradi va shunga qarab harakat qiladi. Inson hatto qattiq chanqagan vaqtida ham ariqdag'i iflos suvni iste'mol qilmaydi. Inson qonuniyatlarni tahsil qiladi. **Uchinchi psixik farq** u boshqa insonlar tajribasiga tayanishi mumkin. Inson o'z faoliyatini rejalahtirish xususiyatiga egadir. Insonning xatti-harakatlari quyidagi nazariyalarga tayangan holda kechadi.

Birinchi nazariya. Ong insonning ichki xususiyatlarini oolib berishga qaratilgan jarayondir. Shu bilan u hayvonlardan farqlanadi. Dekartning fikriga ko'ra hayvonlar mexanizmga o'xshaydilar, ular tabiat qonunlariga tayangan holda yashaydilar, inson esa ma'naviy mavjudot, u aql qonunlari asosida yashaydi.

Ikkinci nazariya. Ongning vujudga kelishi bu dialogik nazariya hisoblanadi. Bu nazariyada ongni hayvonlarning evolutsiyasidan chiqarishga qaratilgan faoliyat sifatida ko'rsatish yaqqol aks etgan. Inson hayvonlardan ijtimoiy jamoada yashayotganligi bilan farqlanadi. Insonning faoliyatida mehnatdan va mehnat qurollaridan foydalanish vujudga kelishi bilan inson faoliyatida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan. Oldin mehnat qurollari oddiy tosh, cho'p hisoblangan bo'lsa, ma'lum vaqt o'tib, ular takomillashtirilgan va rivojlantirilgan. Insonning mehnati hech qachon yakka holda amalga oshmag'an, ular jamiyatda birqalikda faoliyat qilishlari bilan hayvonlarning xatti-harakatlaridan farqlanadilar.

Nazorat savollari

1. Psixik faoliyatning prenatal davrda rivojlanishi.
2. Erta postnatal davrda psixik faoliyatning rivojlanishi.
3. Psixik faoliyatning yuvenal (o'yinli) davrda rivojlanishi
4. Sodda sensor psixika.
5. Perseptiv psixika.
6. Psixika evolutsiyasi va antropogenez.
7. Qiyosiy psixologiya, maqsadi, vazfalari va predmeti.
8. Odamsimon maymunlarning bolasini qobiliyatini tadqiq qilish.
9. Hayvonlar va insonlarning psixikasini o'xshashligi va farqlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
2. Schiffman H.R. Sensation and Perception: An Integrated Approach. 5th Edition. – John Wiley & Sons, 2001. – 608 p.
3. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. Т.:Ўқитувчи, 2010.
4. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологи: учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений. – 5-е изд., стер. – М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2010. – 511 с.
5. Лuria A.R. Лекции по общей психологии. –СПб.: Питер, 2006. – 320 с.

Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017- yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalk so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №1.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent, O'zbekiston, 2015.
8. Годфруа Ж. Что такое психология? М. 1999 г. 2-том.
9. Ананьев Б. Г. О проблемах современного человекознания М., 1977

10. Бодров В.А. Психология профессиональной деятельности. Теоретические и прикладные проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2006.

11. Фонарев А. Р. Психология становления личности профессионала: Учебное пособие. М.: Изд-во Московского психолого-социального института, 2005.

Internet resurslari

12. <http://textshare.tsx.org>
13. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>
14. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
15. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm
16. <http://www.voppsy.ru>
17. <http://flogiston.ru/arch>
18. <http://psychol.ras.ru>
19. <http://psyberia.ru>

Ikkinci bo'lim. SHAXS PSIXOLOGIYASI

1-bob. ShAXS PSIXOLOGIYASINING METODOLOGIK PRINSIPLARI

Reja:

1. Shaxs psixologiyasining predmeti.
2. Shaxsni izohlashdagi o'ziga xosliklar.
3. Shaxs metodologiyasining nazariy yondashuvlari va uni o'r ganish metodlari.

Shaxs psixologiyasining predmeti

Shaxs psixologiyasining predmetini tahlil qilishda qator masalalarni hal qilish zarur. Zamonaviy psixologiyada shaxsni o'r ganishning eng muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatilgan:

- shaxs fenomenologiyasining boyligi inson individual xususiyatlarining xilma-xilligining ifodalanishi (ustanovka qirralari, ehtiyojlar, emotsiyalar, qadriyatlar va boshq.) va bilish sohasini o'r ganish bilan bog'liq;
- shaxs fanlararo o'r ganiladigan muammo bo'lib, ushbu tushunchani keng bilimlar sohasi tavsiflaydi. Uning alohida xususiyatlarini faqat psixologiya emas, balki falsafa, tarix, sotsiologiya va boshqa fanlar o'r ganadi;
- tadqiqot yo'nalishida shaxs bir xil nizomga ega emas, u ham tadqiqot obyekti, ham tadqiqot subyekti bo'lishi mumkin.
- shaxs psixologiyasi predmeti ijtimoiy aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'lishi va shakllanishini shartlovchi, xatti-harakat va harakatlarini belgilab beruvchi, ichki holatlari va psixik jarayonlarini tartibga soluvechi va shartlovchisidir.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisininga shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ

muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'g'risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlari mutlaqo bog'liq bo'limgan har xil xususiyatlari munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron bir tanbeh berishning o'zi kimgadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatlari jihatlaridan biri – bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatları va shu kabilalar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xhash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga hayotda tiklab bo'lmaydigan va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlarni murakkab voqeqlikning mangulikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmati va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliv zotdir.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyoning namoyandalari bo'l mish hozirgi zamон uzoq chet el (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeqliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar.

Har bir shaxsning hayotda erishgan yutuqlari, baxtini xarakterlovchi ma'lum mezonlar borki, uni o'rganishda alohida fan yo'nalishiga zarurat

tug'iladi. Bu esa insonning ijtimeiy faolligini ta'minlovchi shaxs tushunchasi bilan xarakterlanadi. Shaxs faol faoliyat subyekti bo'lib, u hayotining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojianib boradi.

Shaxsning qanday tarkib topishi uning yaxshi oila a'zosi yoki otaona bo'lishi, uning salomatligi ham hayotda egallaydigan karerasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxs hayotda o'zining imkoniyati va tanlovlarni cheklashi yoki kengaytirishi mumkin. U shaxsning boshqa insonlar bilan ma'lum tajribalar almashuviga xalaqit berishi yoki boshqalar uchun ko'proq nizmat qilishiga olib keladi.

Hayotda shunday toifa insonlar uchraydiki, ular boshqalarni o'ziga jalb eta oladigan yoqimli va xushmuomala bo'ladilar. Bunday insonlar bilan do'stlashishi, ular bilan do'st, qo'shni yoki hamkasb bo'lish xohishi paydo bo'ladi.

Agar siz boshqaruvchi bo'lsangiz, u holda uni xodim sifatida tanlagan bo'lardingiz. Agar siz biror bir hayotiy qarorni qabul qilishga harakat qilsangiz, munosabat o'rnatayotgan kishingizni idrok etishingizga ko'ra muomala o'rnatasisiz. Siz biladigan shunday mashhur insonlar borki, ular bilan munosabat o'rnatish ba'zan og'ir kechadi. Bunday qiyofali insonlar dushmonona, tajovvuzkor, nodo'stona, yoqimsiz yoki qiyin munosabat o'rnatuvchilardir. Siz ular bilan muomala qilishda, xodim sifatida tanlashda o'zingizni chetga olasiz.

Bunday sharoitda siz shaxs haqida qanday xulosaga kelganingiz singari boshqalar ham sizga xuddi shunday xulosalarga kelishlari shubhasiz. Bunday o'zaro o'rinalmashuvchi mulohazalarga doimiy ravishda yangi insonlar bilan tanishish zarurat tug'ilgan sotsial vaziyatlarda duch kelinadi. Bu esa shaxsning o'ziga bo'lgan xos hislatlarini aniqlashga olib keladi, masalan, tanishingiz kirishimli yoki tortinchoq. Bu faktorlarni tahlil eta olish shaxs haqidagi umumiy tasavvurlarga ega bo'lishga yetarlicha imkon beradi.

Shaxsni izohlash

Shaxs psixologiyasining predmeti uni izohlashga nisbatan anchagina murakkab xarakterga ega, chunki insonlar xilma-xil bo'lganligi bois har sil vaziyatlarga qarab, o'zgarib turadilar. Shu sababli shaxsni tushunarli tilda izohlash uchun mos aniqlik va izohga ega bo'lish lozim. O'z navbatida shaxsni mos tarzda izohlashga mos keladigan tilga ham ega bo'lish kerak. Oqibatda shaxsni o'rganishning o'ziga xos prinsiplari va baholash vositalari-testlarni shakllantirishga olib keldi.

Psixologiyada shaxsni tushunishda uning xarakterlovchi bir qator tushunchalarni qo'llashga olib keldi:

<i>Nº</i>	<i>Sifatlar</i>
1.	Yoqimli-jizzaki
2.	Tirishqoq-maqtanchoq
3.	Quvnoq-surbet
4.	Talabchan-hukmron
5.	Xavotirlanuvchan-irodali
6.	Qo'zg'aluvchan-betoqat
7.	Ziyrak-beozor
8.	Injiq-nekbin
9.	O'ziga ishongan-bardoshli
10.	Jiddiy-bo'shang
11.	Zaharxanda-sezgir
12.	Muloqotmand-xoksor
13.	Sabr-bardoshli-ishonuvchan
14.	Erkin-qasoskor

1-jadval. Shaxsni baholash sifatlarining namunasi

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarning mavjudlik holati va sizga yoqimliligi, siz erishishingiz zarur bo'lganlarini ro'yxatini tuzish talab etiladi. Ushbu sifatlarni o'qituvchi yoki ota-onan misolida va real baholashingiz mumkin bo'ladi. Ushbu toifa sifatlarning kengaytirilgan varianti 300 ta sifatdan iborat (Gough & Heilbrun, 1983). Bu esa shaxsni yanada kengroq baholash imkonini beradi.

Shaxs psixologiyasida o'rganiladigan asosiy muammolardan biri shaxs rivojlanishini tahlilidir. Shaxs psixologiyada tahlil qilishda uning hayotining barcha bosqichlari, ongsizlik ta'sir ko'rsatadimi yoki bolalikdan keyingi davrlarda shaxs sifatida o'zgarish yuz beradimi? Ushbu tarzdagi savollarga javob izlash zarur bo'ladi.

Mazkur masalalarni shaxs psixologiyasining metodologik masalalariidan biri sifatida hal etish uchun qator shaxs nazariyalarni ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarning har bir muammoning o'ziga xos boshqotirma sifatida uning hal etishga e'tibor qaratganliklarining guvohi bo'lamiz.

Hattoki, ayrim yondashuvlarni o'rganish esa o'nlab yillarni taqozo etadi. Shaxs psixologiyasi esa mazkur masalalarga javob topishga intiladi.

Ongni o'rganish. Shaxs muammosini o'rganishga yondashuvning bir jihatni uning *ongini o'rganishga* yo'nalganligidir. Psixologiya shaxsnинг ushbu jihatini o'rganishda tabiiy fanlarning metodlarini modifikatsiya qilish asosida erishdi. *V.Vund* va boshqa psixologlar inson tabiatini o'rganishda tabiiy-ilmiy fanlar ta'sirida uni insonning aqlini o'rganishda foydalandilar. Ushbu tadqiqotlarda psixik jarayonlar eksperimental o'rganilgan bo'lsa-da, ammoy ularda cheklanishlar bor edi.

Xulq-atvorni o'rganish. 20-asrning dastlabki o'n yilligida amerikalik olim Jon B.Uotson biologik masalalarni o'rganishga e'tibor qaratdi va bu esa shaxs xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Vilgelm Vundtning qarashlariga zid edi. Uotsonning bu harakatlari bixevoirizm deb nomlandi. U psixologiya inson tabiatining moddiy jahhalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari ordi. Uning g'oyasicha, tashqi xulq-atvor psixologiyaning o'rganish asosi bo'la oladi. Bu esa xulq-atvorni o'rganishga ehtiyoj tug'diradi. Bixevoirizm esa inson tabiatini mexanik tasvirini o'zida ifoda etdi. Keyinchalik bu g'oyani Skinner boyitdi.

Shaxs psixologiyasining metodologik masalalarini boshlang'ich bo'g'inidan biri sifatida Freyd faoliyatini qayd etish mumkin. Venalik vrach Freyd psixoanalizga asos soldi. Bu esa uning vrachlik faoliyatida emotsional buzilishlardan aziyat chekkan insonlarni o'rganish orqali o'zining ilmiy yondashuviga asos soldi. U o'zining uzoq vaqtli seanslari asosida uning hayotiy to'g'risidagi ijodiy talqinlari taqdim etdi. Uning yondashuvi eksperimental o'rganishdan keskin tafovut qildi. Freydning psichoanalitik yondashuvi inson tabiatini haqidagi noyob qarashlarni ishlab chiqishga sabab bo'ldi.

G.Olportning xizmatlari hisobida o'tgan asrning 30-yillariga qadar Garvard universitetida shaxs psixologiyasi amerika psixologiyasida bir tizimga keltirishga erishildi. Buning uchun tadqiqot ishlari, o'quv kurslari va ilmiy jurnallar nashr etishga erishildi.

Shaxs psixologiyasining prinsiplari

Shaxs psixologiyasining metodologik prinsiplar shaxs nazariyalarning tuzilishi chegaralari va qoidalari, nazariy va eksperimental fanzlarning shakllanishiga chetdan ta'sir ko'rsatuvchi qator ilmiy muammolarni belgilab beradi.

Sistemalilik prinsipi. Sistemalilik prinsipi quyidagi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilaydi:

1. Shaxs murakkab o‘rganish tizimiga egaki, uni tashkil etuvchilarning murakkab xususiyatlarini darajasiga ko‘ra birlashtirish va tashkillashtirish orqali o‘rganilayotgan sistemaning darajasini va uning alohida jihatlarini ajratishga imkon beradi (masalan, rus * olimi K.K.Platonov individuallikni to‘rt darajaga ajratib ko‘rsatdi: shaxsning yo‘nalganligi va axloqiy sifatlarni mujassamlashtirganlik darajasi; bilim, ko‘nikma va malakalarni mujassamlashtirganlik darajasi; alohida psixik jarayonlarning kechishini ifodalovchi individual xususiyatlarni mujassamlashtirilganlik darajasi va jinsiy hamda yosh xususiyatlari, temperamentni mujassamlashtirilganlikgi darajasi).

2. Prinsip va tizimni tashkil qiluvchi mexanizmlarni bir butunlikda yoritish (masalan, motivning maqsadga aylanishi mexanizmi, ko‘pgina xilma-xil aloqalarni ta’minalash mexanizmi, siqib chiqarish va qarshilik ko‘rsatish mexanizmlari hamda boshqo).

Subordinatsiya yoki ierarxiyalashganlik prinsipi. Ikkinchi masala, shaxs strukturasining uyushganligi, ya’ni tizimdagi komponentlarning uyushganligini alohida prinsip va mexanizmlarini ajratib ko‘rsatish yordamida hal qilinadi. Bunday mexanizmlar sifatida anchagina murakkab yoki anchagina umumiy shaxslilik xususiyatlari o‘zida yo xususiy sotsial, yo psixofiziologik (ekstraversiyaning umumiy faktoriga kiruvchi muloqotmandlik) xarakterdagi nisbatan oddiy xususiyatlarni bo‘ysundiradigan subordinatsion yoki ierarxiyalashganlik prinsiplar nomlanadi.

Faollik prinsipi. Shaxs faollik prinsipga ko‘ra, tashabbuskorlik, erkin tanlash va xulq-atvorning tanlovchanligini o‘zlashtirishga erishadi. Ushbu ko‘rsatma determinizm prinsipi orqali o‘ziga xos o‘zlashtirishini S.L.Rubinshteyn “zohiriylilikni botiniylik orqali o‘zlashtirish” tarzida talqin qilgan edi.

Faollik prinsipi inson genetik dasturlashning kengaytirilishi natijasi deb baholovchi biogenetik hamda sotsial ta’sirlash va munosabatlar mahsuli degan g‘oyani ilgari suruvchi sotsiogenetik konsepsiyalarni inkor qiladi.

Taraqqiyot prinsipi. Taraqqiyot prinsipi mohiyatini yoritishda quyidagi vazifalarni bajarilishi orqali tushunish mumkin:

- Taraqqiyot determinantlari (asoslar) muammosi (muhit ta’siri, sotsium yoki tabiat, shaxsdagi irsiyat). Shaxs determinatsiyasida genetik faktorlar muhim o‘rin tutadi. Ularning asosiy ta’siri intellekt va

temperamentda kuzatiladi. Qadriyatlar, ideallar va e'tiqodda irlaryning ta'siri amaliy jihatdan o'z tasdig'ini topmagan. Genetik determinantlarning o'rni evolutsion meroslar, stereotiplar, xulq-atvor patternlari, uning moslashuvini ta'minlovchi filogenetik taraqqiyot muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd qilingan.

- Madaniyat, sotsial sinf, oila, tengdoshlar singari faktorlar ta'siri muhitli determinantlarga aloqadordir.

- Genotip va muhitning avtonom ta'sirlardan tashqari ayrim holatlarda har ikkala determinantlarning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi holatlarning ham inobatga olishga to'g'ri keladi. Masalan, qobiliyatlarni kuzatishda genotip va muhitning ta'sir masalari o'zaro aloqadorlikda o'rGANISHNI taqozo etadi.

- Taraqqiyot bosqichlari va mezonlarining bir bosqichdan boshqasiga o'tish muammosi. Shaxs nazariyalarida taraqqiyot bosqichlari va ularning tafsilotida tafovutlar kuzatiladi. Masalan, Z.Freyd shaxs taraqqiyoti bolaning psixoseksual taraqqiyoti bilan bog'lab talqin qilgan. E.Erikson ta'limotida esa voyaga yetishning sotsial talablar bilan bog'liqlikdagi o'zgarishlar bo'yicha talqin qiladi.

- Shaxs taraqqiyoti darajalari muammosi. Ushbu masala psixoanalitiklarning asarlarida bataysil yoritilgan. N.Mak Vilyamsning "Psixoanalitik diagnostika" asarida shaxsning nevrotik, cheklanganlik va psixotik darajalari ajratib ko'rsatilgan. E.Erikson bo'yicha nevrotiklar deganda voqelikni biladigan, etarlicha himoyalanishga, Ego bilan tashabbus yoki aybdorlik muammosining integrallashuvi sifatida bayon qilindi. E.Erikson bo'yicha psixotik esa voqelikni yaxshi baholamaydigan, integratsiyalashmagan va deorganizatsiyalashgan, sodda psixologik himoyalanishdan foydalanadigan taraqqiyotning ilk bosqichi sifatida talqin qilingan. Cheklangan shaxs psixotikka nisbatan anchagina integrallashgan, sodda himoyalanish mexanizmiga ega, olamni tushunishini namoyish qiladi, ayrilish muammosini boshdan kechirishga moyil.

Subyekt prinsipi. Ushbu prinsip insonning avtonom, tashabbuskor shaxs, o'zini va atrof olamni ma'lum chegarada o'zgartirishga moyil tarzda qaraydi. Zamонавиъ тадқиқотлар S.L.Rubinshteyn томонидан ишлаб чиқилган тушунча, я'ни субъект категориясини шахс психологияси соҳасида кучайтиришга оlib келиди. Субъект – ҳар бир кишида индивидуал бо'лган, о'та фоол, яхшил ва автономликка ега инсон. Субъект учун атроф олам фақатгина та'sir ко'rsatuvchilar tizimi emas, balki harakatlanish ва билиш обьекти hamdir. Субъект табиий, сotsial, ijtimoiy,

individual sifatlar birligidan iborat bo'lib, inson tushunchasiga nisbatan ancha keng tushuncha.

Shaxs-nisbatan torroq tushuncha bo'lib, sotsial ahamiyatga ega bo'lgan sifatlar majmuyiga ega bo'lgan inson individini ifedalaydi. Inson o'zini atrof olamdan ajrata oladigan va o'zini bilish va mulohazalash obyekti sifatida qarama-qarshi qo'yadigan tabiiy va sotsiallikning birligi sifatida tarkib topadi. Inson subyekt sifatida muammolarni yechishga ijodiy yondashadigan, tashabbuskor, erkinlikka ega, shaxsiy maqsadlarni amalga oshiruvchi faolligi bilan ajralib turadi.

Determinizm prinsipi har qanday psixik jarayonlarning sabablarini shartlovchi g'oyalarga asoslanadi. U tashqi ta'sirlar tufayli chaqiriladigan obyektiv kuzatiladigan hodisalarни ichki sabablarni determinantlashtiruvchi antitezis sifatida shakllanadi.

Metodologiya, nazariya va eksperiment birligi prinsipi. Ushbu prinsip nazariy farazlarni kauzal (sababiy) yoki korrelatsion bog'liqligi, nazariy konstruktlar va ularning oqibatlari-operatsional o'lchovlar ishonchli tekshiruvini amalgalash oshirildi.

Ilmiy nazariyani yaratish zarurati olimlarni axborotlarni tizimli qabul qilish, bir vaqtning o'zida ilgari surilayotgan psixologik qonuniyatlar asosida inson xulq-atvorini bashorat qilishga undaydi.

Shaxs psixologiyasining asosiy muammolari

Shaxs strukturasi muammosi, xulq-atvor motivatsiyasi, shaxs taraqqiyoti muammosi, psixik salomatlik va psixopatologiya muammolari shaxs psixologiyasining tayanch muammolari sanaladi.

Shaxs strukturasi muammosi. Shaxs strukturasi muammosi obyektning ierarxik tuzilishi va alohida darajalar o'rtasidagi tiplarning aloqalarini nuqtai-nazaridan o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi tizimlilik prinsipi bilan chambarchas bog'liq.

Shaxs xulq-atvor motivatsiya muammosi. Shaxs xulq-atvor motivatsiyasi muammosi faollik prinsipiiga asoslangan bo'lib, quyidagi qator masalalarni hal qilish bilan bog'liq:

- 1) motivlar klassifikatsiyasi;
- 2) motivlar tizimining o'zgarishi;
- 3) motivlar o'zgarishi;
- 4) motivlarni faollashtirish;
- 5) motivatsiya jarayonining dinamikasi;
- 6) motiv va maqsadlar o'zaro munosabati;
- 7) xulq-atvor motivatsiyalariga ta'sirining xilma-xilligi.

Motivlarni klassifikatsiyalash mezonlarini aniqlash, biogenetik va sotsiogenetik ehtiyojlarni ajratish, har xil darajali motivlarning aloqadorlik prinsiplarini o'rganish singari (masalan, G.Olport va boshqalar bo'yicha motivlarning funksional avtonomiya prinsipi) singari muammo doirasidagi xususiy masalalar shakllanadi.

Motivlar o'zgarishi muammosi o'zida bilvosita motivatsiyalash yo'li bilan yangi ehtiyojlarni (V.Vilyunas), motivning maqsadga o'zgarish mexanizmi yordamida (A.N.Leontev), identifikasiya va rollarni qabul qilishni hosil qiladi.

Motivlarni, ko'pincha, anglamaslik oqibatida ularni o'lhash va o'lhash vositasi sifatida an'anaviy so'rovnomalari hamda testlarni qo'llash imkonsizligi bilan bog'liq muammo vujudga keladi. Aynan shu sababli proyektiv testlardan foydalanish va ularning psixometrik xarakteristikasi haqidagi masalasini muhokama qilishga to'g'ri keladi.

Vaziyat omilining inson xulq-atvoriga ta'siri, ma'lum motivlarni faollashtirish muammosi ma'lum shart-sharoitlar ichki zo'riqishni hosil qiladi (stimullarning jadal ta'siri, yangiligi, murakkablik) va individning bir xil ko'rinishdagi harakatlarni sodir qilishga (masalan, reaktiv agressiv harakatlarni, xulq-atvor vasiyligi, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka mo'ljal olish) olib keladi.

Motivatsiya jarayonlarning o'rganish dinamikasi faoliyatni tarqab ketishi yoki uning yangilanishi, ularning shartlovchi, izchilligi va bosqichlar ketma-ketligi sababini yoritishdan iborat bo'ladi.

Motiv va maqsad munosabatlari haqidagi masala faoliyat mazmun hosi qilishi, individning harakat qilishga undashi va yo'naltirishi o'rtasidagi munosabatlar xarakteri bilan bog'liq.

3. Shaxs taraqqiyoti muammosi, birinchi navbatda, determinizm va taraqqiyot prinsiplarisingari qator metodologik prinsiplar bilan bog'liq. Shaxs taraqqiyotining manbai uning turmush tarzi, sotsial-tarixiy shakllanish sharoitlaridan iborat. Odam ijtimoiy mayjudod sifatida sotsiallashuvning alohida bosqichlari yoki o'zida mujassamlashtirgan va ma'lum sotsial rollar, ijtimoiy me'yor va standartlarni qabul qilishga munosabatidan o'tganligi. Hayot yo'li – xususiy tarixining subyekti sifatida hayotiy jarayonlarni tartibga solish, barqaror va bir vaqtning o'zida egiluvchan shaxs strukturasini shakllantirish yo'lidagi inson taraqqiyoti.

Inson subyekt sifatida taraqqiyotning uch darajasidan o'tadi:

– Birinchi darajasi "subyekt o'zini haqiqiy o'zgarishlarini mos tarzda anglamaydi, u o'zining vaziyatga ta'sirini inobatga olmaydi. Bu darajada

subyekt sifatida maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi maqsad qo‘yish va harakat aktlari orqali namoyon bo‘ladi”.

– Ikkinchisi daraja shaxs “xulq-atvori maqsad va motivlarini ongli nisbatini topuvchi, harakatlari natijalarini bilvosita va bevosita ko‘rib chiqishga intiluvchi subyekt” sifatida o‘zining maqsad va xulq-atvorini tartibga solishga, motivlarini anglashga qobiliyatlidir.

– Taraqqiyotning uchinchisi darajasida shaxs “o‘zining hayot yo‘li subyektiiga aylanadi, o‘z davrining tarixiy vaqtini ongli o‘lchaydi”. Bu yerda birinich navbatda individuallik sifatida, ya’ni insonning faqatgina noyobligini emas, balki subyektning ijtimoiy-tarixiy jihatdan takrorlanmaslik ahamiyatini ifodalaydi. Bu darajada shaxs eng ko‘p erkinlikka ega bo‘ladi.

Keyingi muammo psixik salomatlik va psixopatologiya, ya’ni sog‘lom shaxsning ifodalovchi mezonlar muammosi. Z.Freyd bo‘yicha bu toifa mezonlarga me’yordagi shaxslararo munosabatni qo‘llab-quvvatlash o‘quvi, A.Maslou bo‘yicha esa sodda ehtiyojlardan anchagina mukammal, masalan, o‘zini o‘zi kamol toptirish ehtiyojlariga o‘tishdan, E.Erikson bo‘yicha esa shaxs taraqqiyoti bosqichiga ko‘ra asosiy muammolarni ijobiy hal qilish o‘quidan iborat¹.

Tadqiqot metodlari

Psixologik metodlarni bo‘lish uchun eng umumiy asos ular shaxsning noyob, individual xususiyatlarini baholashga sezgirligi bilan xarakterlanadi.

1. Metodologiya darajasida ilmiy bilishning nomotetik va ideografik metodlariga ajratildi. Ulardan birinchisi, tadqiqot obyekti haqidagi umumiyligi, universal, qonunni tahlil qilish bilimi olishga imkon bersa, ikkinchisi, yagona, noyob, xususiy ma’lumotlar olishga xizmat qiladi. Ilk bor ushbu atama 1894-yilda Vilgelm Vindelbandning “Tarix va tabiatshunoslik” mavzusidagi nutqida qo‘llanilgan bo‘lib, u fanlarni predmetiga ko‘ra emas, balki tadqiqot metodiga ko‘ra bo‘lish taklifini berdi. XX asrga kelib, ushbu muammoga psixologiya ham duch keldi. G.Olport ishlarida psixologiyada nomotetik va ideografik yondashuvlarni qo‘llash hamda ularning muvofiqlik masalalari muhokama qilindi. Umumqabul qilingan fikrlarga muvofiq nomotetik metodlar inson tadqiqot obyekti sifatida qaraladigan tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi tadqiqotlarda qo‘llanilib, umumiy qonunlarni izlashga yo‘naltirilgan.

¹ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554, 565.

Ideografik metodlar inson, xulq-avtori bir muncha darajada bashorat qilib bo'lmas darajadagi faol rivojlanuvchi va o'zgaruvchi subyekt deb o'rjanadigan gumanitar yo'nalishdagi tadqiqotlarda foydalaniladi.

2. Nazariy metodlar g'oyalar, tasavvurlar, timsollar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Nazariy metodlarni foydalanishda voqelik bilan emas, balki fikriy vakolatli ishga ega bo'ladi. Nazariy metodning xilma xilligini fikriy eksperiment va xususiy modellashtirish bilan bir xil bo'ladi.

Empirik metodlar – kuzatish, o'lchash va eksperiment ma'lumotlar to'plashning umumilmiy vositasi bo'lib, shaxsni psixologik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish uchun foydalaniladi.

Kuzatish xulq-atvor obyektingining maqsadli idrok qilish va qayd qilish. Kuzatish metodi xususiyatlardan kuzatishning jadalligi va faol emasligidan, bilvosita kuzatishdan, kuzatishning takrorlash imkonining yo'qligi, uning davomiyligidan iborat. Kuzatish natijalari validligini oshirish uchun ekspert baholash, audio va videoyozuvlar, kuzatishning standartlashtirish, faol kuzatuvchini nazorat qilishlardan foydalaniladi.

O'lchash – boshqa obyekt yordamida obyektning holatini qayd etish yoki ma'lum qiymatlar va uning qoidalari uchun o'rnatilgan mos psixologik shkalalardagi o'rniga olib kirish orqali obyektni ifodalash vositasidir. Nometrik (nominativ shkala va tartiblash shkalasi) va metrik (intervallar va teng munosabatlar shkalalari) shkalalar bo'ladi. Psixologiyada, ko'pincha, nometrik shkalalardan foydalaniladi.

Eksperiment – ilmiy farazlarni tekshirish metodi bo'lib, uning borishida eksperimentator sinaluvchining asosiy shartlarni qo'yadi va chet ta'sirlarni nazoratini amalga oshiradi. Eksperiment natijalari haqqoniy va ishonchli bo'lishi lozim.

4. Shaxsni o'rganish va diagnostikasi uchun yaqqol texnik va uslubiy darajada testlardan foydalaniladi. Testlar o'rganilayotgan hedisa haqida miqdor va sifat tafsilot olishda qo'llaniladigan psixodiagnostik tadqiqotning maxsus metodidir.

Har xil turdag'i testlar mavjud:

1) standartlashganlik mezoniga ko'ra, standartlashgan va standartlashmagan testlar;

2) testning tayinlanganlik mezoniga ko'ra, umumdiagnostik, kasbga yaroqlilikni aniqlash testlari, maxsus qobiliyat testlari, erganlik testlari;

3) materiallardan foydalanish mezoniga ko'ra, blankli, predmetli va apparatli testlar;

4) aqliy harakatlarning xarakteri mezoniga ko'ra, verbal va noverbal testlar;

5) javoblari xarakteriga ko'ra, ochiq va yopiq javobli testlar.

6) proyektiv testlar.

Ochiq javobli testlar toifasiga proekтив testlarni kiritish mumkin. Ular maxsus ishlab chiqilgan, ammo chala standarlashtirilgan xarakterga ega.

Shaxsni o'rganish yoki qiyoslash:

– Shaxsning tipi va qirrasi bir insonning boshqasidan farq qilish imkoniyatini beradi.

– *Nomotetik yondashuv* – guruhdagi insonlarning bir-birini biror bir xususiyati yoki shaxslilik qirrasiga ko'ra qiyosiy o'rganish.

– *Ideografik yondashuv* – bir insonni boshqa kishilar bilan qiyoslamasdan o'rganish.

Shaxs nazariyalarini ijobiy baholash mezonlari:

– verifikatsiya nazariyaning empirik jihatdan tekshirilganligi va uning tasdiqlanganligi;

– kengqamrovli ekanligi – yaxshi nazariya boshqalari bilan bir xil sharoitda xulq-atvor fenomenlarini keng spektrda tushuntirishi;

– tatbiqi qimmatga egalik – nazariya, inson hayotiy imkoniyatlarini oshirish uchun amaliy istiqbollarni tavsiya etish;

– nazariya bilan tadqiqot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

Shaxsning uzoq hayot yo'lida turli xil toifa insonlar hayot yo'lini tanlashda bir biridan farq qiluvchi faoliyat yo'nalishiga ega bo'ladi. Bu esa insonning o'ziga bo'lgan ishonchi, doimiy ravishda quvnoq bo'lishi boshlagan ishining qanday tarzda yakunlashiga sabab bo'ladi. Shaxsning maqsadiga erishishida uning optimistligi, emotSIONAL barqarorligi uning ishonch va e'tiqodidan og'ishidan saqlaydi. Yana murakkab yo'lga duch kelganda unda Tolkina Sem Gemji o'zining tafovutli va ishonchli xulq-atvor modelini namoyish etadi. Bu shaxs modeli shaxsning tafakkur, tuyg'ulari va harakatlar modelini tavsiflovchi hisoblanadi (buni Den Mak Adams va Djennifer Pals (2006) taqdim etgan), unda sotsial vaziyatlar va o'zining qirralarida ifoda etuvchi shaxs tabiatining noyob ko'rinishi sanaladi.

Shu bois navbatdagi masalalar insoniyat tarixining madaniy merosi sifatida xizmat qiladigan shaxs nazariyalariga qaratiladi. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan istiqbollar shaxs psixologiyasining muammolari yo'nalishini aniqlashga yordam beradi va bugungi kun tadqiqotlarda hal etilishi kerak bo'lgan masalalarning yechimini topishga xizmat qiladi.

Xorijiy psixologiyadagi shaxs muammosiga doir ilmiy manbalarni tahliliy jihatlarida quyidagi ilmiy g'oyalar mazmuniga e'tibor qaratiladi:

* Z. Freydning psixoanalitik nazariyasi bo'lib, uning metodologik asosida bolalik va ongsiz shahvoniylik motivlari shaxsga ta'sir ko'rsatishi tahlili taqdim etilgan.

* Gumanistik psixologiya yondashuvida esa, shaxsning o'sishi va o'zining menini shakllantirishida ichki imkoniyatlarning o'rni yuqori ohanligi ilgari suriladi.

Bunday klassik yondashuvlar inson tabiatini yoritishning keng istiqbolini taqdim etadiki, ular yaqqol shaxslilik aspektdan ilmiy izlanishlar olib borishga xizmat qilmoqda. Shaxs muammosini o'rganishga doir zamонавија тадқиқотлар muammoni shaxslilik, biologik jihatdan o'rganayapdilar. Ularning asosiy mezonlari inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuviga ham tayanadi. Shuningdek, ular qadr-qimmat, og'ishlar, madaniy muhit ta'siri va boshqa jihatlar, xususan, ongsizlikni ham o'rganmoqdalar¹.

Nazorat savollari

1. Shaxs muammosining metodologik asoslari.
2. Shaxs nazariyalarini reprezentativlik mezonlari.
3. Shaxsni tadqiq etish metodlari.
4. Shaxsni o'rganish yoki qiyoslash.
5. Nomotetik yondashuv.
6. Ideografik yondashuv.
7. Shaxs nazariyalarini ijobiy baholash mezonlari.

Adabiyotlar:

1. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright, 2005. – 550p.
2. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
3. Клонингер С. Теория личности: познание человека. – СПб.: Питер, 2003. – 720 с.
4. Гозис Э.Ф. Умумий психология. Т.: Ўқитувчи, 2010.

Интернет сайtlари

5. <http://textshare.tsx.org>
6. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>
7. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm

¹ Myers D.O. Psychology. HopeCollege. Holland, Michigan, 2010. – p. 553.

2-bob. KLASSIK PSIXOANALIZ VA UNING MODIFIKATSIYALARI

Reja :

1. Z.Freydning klassik psixoanalizi.
2. Z.Freydning izdoshlari – K.Yung va A.Adler.

Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi.

Z.Freyd g'arb madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi¹. Agar ko'chadagi 100 nafar insondan so'rasangiz, taniqli psixologning nomini bilishlari haqidagi mulohazani Kit Stanovich (1996) ilgari suradi. Freydning klinik psixiologi va psixiatriyadagi ilmiy qarashlarini alohida o'rninga ega. Z.Freyd nimani o'rgandi? U she'riyat, pyesa va falsafaga juda qiziqishi bo'lganligi sababli, o'z taddiqotlari uchun vaqtini bekorga sarflamadi. U tibbiyot yo'nali shida tahsil olgandan so'ngra xususiy amaliyot bilan shug'ullandi. U amaliyotda nevrologik sababga ega bo'lмаган ruhiy o'zgarishga ega bo'lgan mijozlarga duch kealdi. Masalan, baqquvvat bo'lsa-da, mijoz qo'lidagi sezgilarni yo'qolishining sababini Z.Freyd insonning aqliga bog'liqligini aniqladi. Bunday holatda mijozni davolash yo'li uning o'ziga munosabatini o'zgartirishda degan xulosaga keldi.

Freydning kuzatishlari qator nevrologik buzilishiarning psixologik sabablari mavjudligi to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Bu orqali Freyd ongsizlikni kashf qildi. Uning fikricha, ko'zi ejizlik yoki karlik, beixtiyor ko'rmaslik va eshitmaslik xohishi insonda keskin xavotirni uyg'otar ekan. Freyd gipnoz – ongsizlikka yo'l, deydi va mijozlarni davolashda undan foydalandi. Gipnoz tufayli mijozlar o'zlarining anglab bo'lmas qobiliyatlarini ochdilar. Shu asosida u mijozlarning o'zlarini ruhiy yengillashishlariga imkon beruvchi erkin assotsiatsiya usulini olib kirdi. Ushbu usulga ko'ra, mijoz o'zining dardlarini bayon etadi. Bu esa mijozlarga ruhiy yengillik olib keldi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi bezovtalanihlarning sababi mijoz-larning o'tmishi bilan bog'liq, bolalikdagi tuyg'ulariga borib bog'la-nishini ta'kidladi. Kasalliklarning ongsizlik sabablariga tayangan shaxs nazariyasini psixoanaliz davolash metodi bilan bog'ladi. Freyd topografik modeldan foydalanib, psixik hayotni uch darajasini ajratdi:

– ong;

¹ Myers D. G. Psychology. HopeCollege. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

- ongoldi;
- ongsizlik;

Ong darajasi. Ong darajasi insonning ma'lumotlarini aniq damdag'i sezgi va kechinmalaridan namoyon bo'ladi. Ong miyada saqlanuvchi ma'lumotlarning kam qismini qamrab oladi. So'ngra ma'lumotlar ongoldi yoki ongsizlik sohasiga yuklanadi.

Ongsizlik sohasi. Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami ongsizlikdir. Bu ongga bosim o'tkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qo'zg'alishlarini saqlovchisi. Ushbu anglashilmagan materiallar, ko'pincha, insonning kundalik faoliyatini belgilaydi.

Ongoldi sohasi. Ong sohasi xotiraga kirish mumkin bo'lgan, o'zida barcha tajribani mujassamlashtiradi. U ayni damda anglanilmagan, ammo tasodifiy yoki minimal kuch sarflash natijasida onga tez qaytishi mumkinligini ifodalaydi.

Shuningdek, Freyd ta'limotiga ko'ra, shaxs psixikasi darajalarini ifodalovchi uchta tushuncha mavjud:

U (Ono) – psixikaning ongsizlik qismi bo'lib, biologik instiktni xarakterlovchi agressiya va shahvoniy mayllardan iborat. U – shahvoniy mayl – libido bilan to'yingan. Insonda yashirin energetik tizim bo'lib, bu quvvat har bir kishida miqdori – doimiy o'lchamga ega. Ongsiz va irrasional bo'ladi. U qoniqish, ya'ni so'ngida baxt, eng asosiyi inson hayotidagi asosiy maqsad tamoyiliga bo'ysunadi.

"Men (Ego)" ikkinchi tamoyil-gomeostaz bo'lib, ichki muvozanati saqlovchi tendensiya sanaladi. "**Men (Ego)**" - ong doimiy ravishda "U" bilan nizoda va shahvoniy mayllar ta'sirida bo'ladi. U jamiyat ta'siri ostida shakllanadi. Menga U, Kayvoni Men va insonga o'z telabalarini qo'yuvchi jamiyat iborat uchta kuch ta'sir ko'rsatadi. Men ular o'rtaсидаги уyg'unlikni ta'minlashga harakat qiladi, qoniqish emas, balki reallik tamoyiliga bo'ysunadi.

"Kayvoni Men" axloqiy standartlarni tashuvchi, shaxsning bu qismi tanqid, senzura, vijdon rolini bajaradi. Agar Men U ga mos harakatni amalga oshirsa yoki unga mos qaror qabul qilsa, Kayvoni Men unga qarshi chiqadi. Natijada, aybdorlik, uyat, vijdon ta'nalari ko'rinishidagi jazoni boshdan kechiradi.

Shaxs strukturasi¹

Psiyologiyada shaxsning himoya mexanizmlari to'g'risidagi qarash-larning tub ildizi Z.Freydning shaxs nazariyasi borasidagi izlanishlariga borib taqaladi. Freydning psixodinamik konsepsiyasiga ko'ra, shaxs tuzilmasi va himoya mexanizmlari ma'lum tizimlashtirilgan. Z.Freyd bo'yicha shaxs tuzilmasi uchta tarkibiy komponentlardan iborat:

"Id" sohasi – bu shaxsning instinktli jihatni bo'lib, unda shaxsning eng kuchli instinktlari o'rinni olgan. Ular shaxs xulq-atvorini to'g'ri va chet yo'llar bilan aniqlash hamda namoyon bo'lishini ifodalaydi. "Id" sohasi vazifalarini qoniqish tamoyiliga asosan bajaradi.

Z.Freyd psixoanalitik nazariyasiда qayd etishicha, psixik jarayonlar qoniqish tamoyiliga ko'ra avtomatik tarzda boshqarilar ekan. Hech qondirilmaganlik ichki ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradi. O'z navbatida, u psixik faollikni vujudga kelishiga olib keladi. Bu faollik zo'riqishni va qoniqmaganlikni susayishiga yoki qoniqishga olib keladi.

*Hayot va o'lim instinktlari*². Freydning psixodinamik nazariyasiida ikkita asosiy instinktlarga ajratiladi: hayot instinkti (libido, eros) sifatida seksual instinkt; vayrongarchilik, buzg'unchilik sifatida e'tirof etiluvchi o'lim instinktlari (mortido, tanatos). Inson xulq-atvorining bu shakli shaxsning destruktiv instinkti sifatida namoyon bo'lib, agressiyani ham instinkt natijasi deb baholaydi. Ularning hayotiy zarurat sifatida namoyon bo'lishini to'sib qo'yish shaxsda jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatiladi. Bu esa nevrozning asosi hisoblanadi. Asarlarining birida Freyd motido instinkti haqida to'xtalgan bo'lib, unda shaxs o'zini o'zi saqlash uchun (yo'q qilmaslik) o'zga kishini yoki o'zgelarni yo'qotishga intiladi. Freyd uchun eng hal etuvchi jihat, bu inson xulq – atvorida jamiyat rivojlanishidagi qonunlarini emas, irratsional psixik kuchlarning namoyon bo'lishini hisobga olgan, unda intellekt voqeqliki faol aks ettiruvchchi vosita emas, balkli bu kuchlarni maskirovka qiluvchisi hisoblanadi. Individ bilan ijtimoiy muhit abadiy va yashirin kurashda bo'ladi. Uning psixoanalitik qarashlarida kuchaytiruvchi holatda instiktdan intellektning kuchlirog'i.

"Ego" sohasi – bu shaxsning ongli tomonini ifodalovchi ratsional qismidir. "Ego" doimiy ravishda "Id" sohasi bilan o'zaro ta'sirlashuvda bo'ladi, ikki asosiy instinktlar Men tomonidan tanlanadigan mexanizm

¹ George Boeree C.: Personality Theories. Original E-Text
Site:<http://www.ship.edu/%7Ecgbboeree/perscontents.html>. – P. 5.
² George Boeree C.: Personality Théories. Original E-Text
Site:<http://www.ship.edu/%7Ecgbboeree/perscontents.html>. – P. 6.

hali aniq ta'biri mavjud emas. Siqib chiqarish jinsiy xohishlar bilan kurashishda foydaianiladi. "Men" va "U"ning tahlil qilishi va "Kayvoni Men"ning shakllanishiga qadar bir necha himoya mexanizmidan foydalilanildi. Barcha himoya mexanizmlarining maqsadi "Men"ga yordam berishdan iborat. Shu sababli ham u nevrotik, axloqiy va real iborat Menni zararlashi mumkin bo'lganuchta asosiy bezovtalanishga yo'naltirilgan. Biroq "Men" ichdan chiqadigan norozilikdan himoya-lanib qolmasdan, ilk davrlarda xavfli instinctli stimullar bilan tanishadi va norozilikni kechiradi.

Agar tashqi qoniqish yoki manfaatning asosiy manbai tashqi obyekt bo'lgan holda unda shunchalik yuqori norzilikni kechirishga sabab bo'lib qoladi.

Yosh bolaning Meni ko'proq qoniqish prinqipi bilan yashaydi. U tashqaridan bo'ladijan norozilikni hali ko'p kechirmaydi.

Shaxsning rivojlanishi¹

Z.Freyd mijozlarining hayotini kuzatish asosida shaxs shakllanishini dastlab besh yilda amalga oshishini xulosaladi. Bolalar shaxs sifatida shakllanishida qator psixoseksual davrlarni boshdan kechirishini va bu bosqichlar alohida quvvat manbai erogen zonalarning o'rniga bog'liq deb ko'rsatdi. Freyd ishonch bilan o'g'il bolalarning fallik bosqichdag'i genetil ta'sir tufayli onasiga nisbatan otasini rashq qilishini qayd etdi. Huning sababini yunon afsonasi "Shoh Edip" afsonasiga tayanib, "Edip kompleksi" orqali tushuntirdi. Edip o'zi bilmagan holda otasini o'ldirib, onasiga uyylanadi.

Freyd psixoseksual rivojlanish bosqichlarini 5 davrini keltirib o'tadi. U quyidagi 1-jadvalda o'z aksini topgan:

1-jadval

Psixoseksual bosqichlar

Nº	Bosqichlar	Yosh davrlari	Libido yo'naltiriladigan zona
1	Oral	0-1,5	Og'iz
2	Anal	1,5-3	Anus
3	Fallik	3-6	Jinsiy a'zolar
4	Latent	6-12	Mavjud emas
5	Genital	12-18	Jinsiy a'zolar

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 556.

Himoya mexanizmlari¹. Z.Freyd o‘z nazariyasida shaxsning himoya mexanizmlarini ajratishga ham erishdi. Ko‘pincha, nizoli zonalar psixika strukturasini U, salbiy emotsiya va kechinmalarda kuzatiluvchi (ta’sirlanish, bezovtalanish va umidsizlik) frustratsiyagaolib keldi. Frustratsiya MENni har xil “chiqarish klapan”lari yordamida zo‘riqishlarni olib tashlashga undaydi. Bular psixologik himoya mexanizmlari deyiladi.

- repressiya: tashvish sabab narsa mavjudligiga behush inkor o‘z ichiga oladi;
 - rad etish, ya’ni noma’qul ma’lumotni ochiq rad etish, qo’shilmaslik;
 - reaksiya: biri qarama-qarshi bo‘lgan id tutki ifoda o‘z ichiga oladialbatta odamni haydash;
 - proeksiya – o‘zidagi hissiyat va kechinmalarni tashqi obyektlarga ko‘chirish orqali paydo bo‘lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;
 - identifikatsiya – o‘zini axborot egasiga o‘xshatish, uning o‘rniga o‘zini qo‘yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o‘zlashtirish;
 - regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo‘lib o‘tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma’qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o‘zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;
 - yolg‘izlanish-jamiyatdan o‘zini olib qochish, o‘zidagi o‘zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, bunda shaxsning faoliyati passiv tus oladi;
 - ratsionallashadirish – mulohaza va fikr yuritish orqali o‘zida himoya instinktlarini paydo etish;
 - sublimatsiya – o‘zgartirish yoki tabiiy quvvatdanId impulslarini o‘z ichiga oladi va uni ijtimoiy maqbul xulqda ifodalashga yo‘naltiradi.
- Z.Freydning izlanishlari undan keyinchalik bir qator yangi yo‘nalishlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

¹ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-P59..

K.Yung va uning analitik psixologiyasi

Freydning izdoshlari sifatida faoliyat olib borgan olimlardan biri K.Yung bo'lib, uning shaxs muammosiga doir yondashuvni analitik psixologiya deb nomlanib, u o'ziga xos yondashuvni ifoda etadi.

K.yung ilmiy g'oyasining muhim jihatni shaxs tipologiyasiga doir yondashuvdan iborat. U shaxsni ikki tipga ajratdi: ekstraversiya va introversiya.

Ekstraversiya – «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'llishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlari doirasi keng. Ba'zi hollarda jiddiylik etishmaydi. Odamlarni tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

Introversiya – «tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalari qat'iy amal qiladigan. Muloqot doiralar cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan.

O'z navbatida, shaxs tiplarini psixikaning funksiyalari bilan uyg'unlashadi. K.yung to'rta asosiy psixik funksiyaga e'tibor qaratdi:

- fikrlovchi-ratsional;
- hissiyot-ratsional;
- sezgi-irratsional;
- intuitsiya-irratsional.

- Fikrlovchi tip-biror narsaning qadr-qimmatini aniq faktlar va mantiqiy mulohazaga tayanib baholaydi.

- Hissiyotli tip yaxshi-yomon, go'zal-xunuk tamoyiliga asoslanib emotsiyalini baholaydi.

- Sezgiga asoslanuvchi tip sezgi a'zolariga tushuvchi, tashqi olam haqidagi axborotlarga tayanadi.

- Intuitiv tip hayotiy voqealarning mazmunini ongsizlikda, tuyg'usi va taxminlariga ko'ra baholaydi.

K.Yung ham Freyd singari psixikaning tuzilishi masalasiga e'tibor qaratdi. Uning talqinicha, psixikaning tuzilishi quyidagilardan iborat:

- * Ong.

• Shaxsiy ongsizlik – o‘zida qachonlardir anglangan, hozir siqib chiqarilgan va unutilgan nizo va taassurotlar, etarlicha ifodalananmagan hissiy taassurotlarni qamrab oladi. Sho – o‘zida emotsiyalarning zaryadlangan, bir fikr, tuyg‘u va taassurotlarning ustuvor bo‘lib qolishidan iborat komplekslarni tashkil etadi.

• Kollektiv ongsizlik-insoniyat va avlodlarning xotira izlarining yashirin saqlanishi . Unda bizning o‘tmish emotsiyalarimiz va insoniyatga xos fikrlar va tuyg‘ular aks etgan.

Arxetiplar. Arxetiplar – birlamchi model yoki kollektiv ongsizlikning tarkibiy elementi hisoblanadi. Ular o‘zida insonlar idrok etganlarini, kechinmalari va voqealar ta’siriga javob berishini ma’lum obrazlarda ilgari surishlari tug‘malik shaklini namoyon etadi.

Eng asosiy arxiteplar Men arxetipi, ota, ona, Xudo, donishmand va boshqa arxetiplaridir. Arxetiplar o‘zida simvollar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, Mariya, Mona Liza va boshqalar. Hoch, oltitomonli yulduz, budda g‘ildiragi.

Shaxs strukturasi. Shaxs strukturasi quyidagi tuzilmalardan iborat: ego, person, anima (animus), soya va o‘zlik. Ularning mazmuniy ifodalanishi quyidagicha:

Ego – ongning markazi bo‘lib, o‘z-o‘zining anglashning asosi hisoblanadi.

Person – bu jamoa kishisi bo‘lib, inson o‘zini boshqalar bilan o‘zaro munosabatda namoyon qildi.

Salbiy va ijobjiy personlar mavjud. Birinchi navbatda u individuallikni ifodalab, kommunikatsiyaga muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan, person individuallikni bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin. Shu bois person – ongning yuqori qatlami, ego ancha chuqurlashuv, botiq qismi.

Soya o‘zida shaxsnинг siqib chiqarilgan tomonini ifoda etadi. Soya egoning aks ettirilishida mavjud. Soya shaxsnинг sotsial standartlar mavjudligi bilan murosaga qila olmasligini ifodalovchi xohishlarini qamrab olgan. Soya-hayot quvvat, ijod manbayini saqlovchi sanaladi. Shu sababli, ego soya quvvatini zarur oqimga yo‘naltiradi.

Anima va animus. K.Yung erkak va ayol psixikasining o‘ziga xos tabiatini anima va animus tushunchalari bilan izohladi.

- Anima – erkakdagi ayolning ichki timsoli, ya’ni ongsiz namoyon bo‘luchchi ayollilik tomoni;

- Animus – ayollardagi erkakning ichki timsoli, uning ongsiz namoyon bo‘luchchi ayollilik timsoli. Yung anima va animus inson xulq-

atvorida uyg'unlashagan tarzda namoyon bo'lishi kerak, oqibatda uning har tomonlama muvofiqlashuvini ta'minlaydi.

O'zlik. O'zlik – shaxsning yaxlitlik arxetipi hisoblanadi. O'zlik onglilik va ongsizlikni birlashtirib, boshqa barcha elementlar uyushuvini tashkil etuvchi aylana markazi hisoblanadi. Ruhning barcha jabhalarini integratsiyasiga erishganda, inson uyg'unlikni sezadi. Shu sababli, o'zlikni rivojlanishi inson hayotining bosh maqsadidir.

A.Adlerning Individual psixologiyasi

Alfred Adler (1870-1937) individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi. Uning asosiy asarlari: «Nerv xarakteri haqida» (1912), «Individual psixologiyaning nazariyasi va amaliyoti» (1920), «Insonshunoslik» (1927), «Hayotning mazmuni» (1933).

Inson tabiat.

Inson – yagona va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi organizm; individuum (lat.) – bo'linmas. Inson hayotiy faolligining hech bir namoyon bo'lishini izolyasiyada ko'rib bo'lmaydi, lekin faqat shaxsga munosabatda to'liq ko'rib chiqish mumkin.

Inson hayoti – shaxs uchun ahamiyatlari maqsadlar yo'nalishidagi o'sish va rivojlanishga uzlucksiz harakat hayot maqsadlari insonning taqdirini belgilaydi.

Inson xulq-atvori – irsiyat va muhit ta'siri natijasigina emas, balki insonning o'z hayotining arxitektori sanalgan ijod kuchidan ham iborat.

Individ jamiyatdan tashqari ko'rib bo'lmaydi, uning xulq-atvori esa sotsial kontekstdan tashqarida. Har bir insonda umumiylilik va sotsial qiziqishning tabiiy tuyg'usi mavjud, ya'ni hamkorlikning sotsial munosabatlariga tug'ma ravishda intilish mavjud.

Inson xulq-avtori o'zi va atrof olam haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi «appersepsiya sxemasi».

Erishilmagan maqsad yoki vazifalar inson xulq-atvorini yo'naltirib, harakatlantirib turadi. Insonga yagona, yaxlit, unsurlari bir-biri bilan o'zaro muvofiq keluvchi mavjudod sifatida qaraydi.

Individuum miya va tana, onglilik bilan ongsizlik, tafakkur, tuyg'u, harakat, shaxsda namoyon bo'lувчилар yagonadir. Shaxsning strukturasini hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlarga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Shaxsnинг strukturasini hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsija etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlarga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Individuum jamiyatdan, boshqa insonlardan xoli holda bo'lmaydi, insonning xulq-atvori sotsial determinantlar bilan aniqlangan sotsial mazmunda sodir bo'ladi, oqibatda insonda boshqa insonlar bilan hamkorlikda sotsial o'zaro munosabatlarda ishtirok etishga intilishni ifodalovchi sotsial qiziqishlar shakllanadi.

Nomukammallik kopleksi atamasini A.Adler fanga olib kirib, ushbu tuyg'uni barcha bolalar jismoniy o'lchamlari, kam kuchligi va imkoniyatlarining pastligi oqibatida boshdan kechiradilar.

Kelajakda juda kuchli, kompleksga aylantirish, ijobjiy o'sish va rivojlanishni qiyinlashtirishi mumkin. Biroq o'rtacha darajali nomukammallik bolada "kuchli bo'lish yoki boshqalardan kuchli bo'lish"ga, kamolotga, ustunlikka, o'zining qobiliyatlarigi rivojlantirishga undash mumkin.

Kamolotga intilish tug'ma bo'lib, bu hayotning bir bo'lagi, hayotga intilishning bo'imasligi ma'nosiz, deydi A.Adler.

Mukammalik masqadi ijobjiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Agar u ijtimoiy manfaatga va boshqalarning foydasiga yo'naltirilgan bo'lsa, rivojlanish konstruktiv va sog'lom yo'nalishga ega bo'ladi. Bu rivojlanish, ko'nikma va malakalarning kamol toptirish, mukammal hayot uslubiga ega bo'lish uchun ishlashga intilish. Biroq ayrimlar mukammallikka boshqlar ustidan humkronlik qilish orqali erishishga urinadi. Bu hokimiyat va agressiyada namoyon bo'ladi.

Har bir inson intilish va erishishiga mujassamlashuvchi o'zining hayot uslubini ishlab chiqadi. Ularning shakllanishi bolalikdan boshlanib, nomukammallik, ishonchszizlik, kattalar olamida bo'lishga ojizlik kompleksi sifatida shakllanib boshlaydi. Hayot maqsadi bundan himoyalanish, qondirilmagan bugungi hayot bilan yorqin, mukammal kelajak o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajaradi.

Hayot uslubi va shaxs tiplari.

Boshqaruvchi tip. Bu tip insonlar o'ziga ishongan va g'ayratli, ahamiyasiz sotsial manfaatlarga, agar bular mayjud bo'Imasa. Ular faol, ammo sotsial rejada emas, ularga boshqalarning baxt-saodati ahamiyasiz, ular tashqi olam ustidan hukmonlik qilish xos. Asosiy

hayotiy muammolarini ular dushmanlik, antisotsial hal etadilar (jinojatchilar, narkomanlar, qonunbuzarlar).

Oluvchi tip. Tashqi olamga tekinxo'rlik va o'zining ehtiyojlarining ko'p qismini boshqalar hisobiga qondirishga intiluvchi odamlar. Ularda sotsial manfaatlar yo'q, ular boshqalardan ko'proq narsa olishga intiladilar. Ularning faolligi yuqori emas, ularning boshqalarga azob-uqubat keltirish ehtimoli kamroq.

Qochuvchi tip. Bu insonlarning sotsial qiziqishlari „shaxsiy muammolarni hal etishdagi majburiy faolligi past, ular muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadilar va hayotiy muammolarini echishdan qochadilar. Ular qiyinchilik yoki omadsizlik tug'diradigan barchasidan qochadilar.

Sotsial tip. Bu etuk talabga javob beradigan, sotsial manfaatlar bog'lab turadi va yuqori faollikka ega. Bu inson boshqa insonlarga g'anxo'rlik ko'rsatuvchi, ular bilan munosabatga qiziquvchi, insonlarning asosiy hayotiy muammolarini hal etuvchi muammolarni sh, sevgi, do'stlik-hamkorlikni, shaxsiy mardlikni, mas'uliyatni talab etishini biladi va boshqa insonlarning rohat-farog'atida o'zining hissasi qo'shishga tayyor.

Nazorat savollari:

1. Klassik psixonalizning mohiyati.
2. Psixonaliz bo'yicha shaxs strukturasi.
3. Psixonalizning tadqiqot metodlari.
4. Shaxsning himoya mexanizmlari.
5. Shaxs taraqqiyotining psixoseksual bosqichlari.
6. Psixonalizning modifikatsiyalari.
7. Analitik psixologiyada shaxs tuzilmasi.
8. Shaxs tiplari.
9. Arxetiplar nima?

Adabiyotlar:

1. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 553-593.
2. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550p.
3. Гозиев Э.Г. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
4. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
5. Хъелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

3-bob. PSIXOLOGIYADA ShAXSNI O'RGANISHLAR NAZARIYASI

Reja :

1. *Shaxs psixologiyada o'rganishlar nazariyasining o'rni.*
2. *Shaxs muammosini o'rganishda o'rganishlar nazariyasi vakillarining yondashuvlari.*

Psixologiya tahirida vujudga kelgan bixevoirizm maktabi shaxsni o'rganishda ham o'ziga o'ringa ega¹. Ushbu maktab vakillarinig g'oyasi xulq-atvorni o'rganish asosiy masala sifatida o'rinni olgan bo'lsa-da, uning ayrim vakillari muammoni tahlil etishda o'zlarining pozitsiyalariga egadirlar.

Bixevoirizmning asosiy g'oyasi

XX asrda amerikalik psixologiya maktabining haqiqiy qiyofasi sifatida maydonga chiqdi. Uning asoschisi Jon Uotson (1878-1958) bu yo'nalishning haqiqiy yo'lboschchisi sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bixevio tushunchasi (behavior) inglizchadan tarjima qilganda xulq-atvor degan ma'noni anglatadi. Bixevoirizm tushunchasi tarjima qilganda – xulq-atvor psixologiyasi ma'nosini anglatadi.

Xulq-atvorni tahlil qilish to'liq obyektiv xarakterga ega bo'lib, tashqi kuzatiladigan reaksiyalar bilan cheklanadi. Insonning fikri, ongini ko'rib bo'lmaydi, ularni o'lchash mumkin emas, bundan ko'rinadiki barchasini obyektiv qayd etish imkoniyatini bo'lmaydi. Insonning ichki olamida kechayotganlarni o'rganish mikoni yo'q. Demak, shaxs "qora quti" sifatida ishtirkok etadi. Inson harakatining tashqi ifodalananishining obyektivligini stimullar va vaziyatlar shartlaydi. Shunday ekan psixologiyaning vazifasi stimullar bo'yicha namoyon bo'ladigan ma'lum reaksiyalar belgilaydi.

Bixevoiristlar nuqtai nazaricha shaxs mazkur insonga xos xulqiy reaksiyalarining majmuyidan iborat. Stimul-reaksiya (S-R) formulasi bixevoirizmda yetakchi hisoblanadi. *Torndayk effekti* qonuni S va R o'rtaсидаги aloqalarni aniqlashtiradi, agar mustahkamlanish bo'lganda. U ijobjiy bo'ladi, qachonki rag'batlantirish, kutilgan natija olinganda, moddiy rag'batlantirish yoki salbiy bo'ladi, qachonki, og'riq, jazolash, omadsizlik, tanqidiy ogohlantirish yuz berganda. Insonning xulq-atvori ko'pincha ijobjiy qo'lliab-quvvatlashni kutgandan, ba'zan salbiy kuchlardan qochishga sabab bo'ladi.

¹ Myers, D. G. Psychology. HopeCollege. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

Shunday qilib, bixevoirizm yo‘nalishiga ko‘ra shaxs individga nisbatan ongli tartibga solingan instiktlar, sotsiallashgan emotsiyalar, yangi ko‘nikmalarni shakllanishiga ko‘maklashuvchi plastiklik, muhitga molashuviga ko‘maklashuvchi va ularning saqlashga xizma qiluvchi qobiliyatlarni o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Bu shaxsnинг uyushgan va nisbatan barqaror ko‘nikmalar tizimidan ihorat ekanligini anglatadi. Oxirgi barqaror xulq-atvor asosini ularning yangi hayotiy vaziyatlarga moslashuvi, o‘zgarishi yangi ko‘nikmalarni shakllanishiga olib keluvchilar tashkil etadi.

Bixevoiristlar odamni u yoki bu harakatlar, reaksiyalar, xulq-atvorni programmalashgan, aniqlovchi, o‘rganuvchi mavjudoddir. O‘zgarishlar va mustahkamlash o‘zgarganda uni talab etiladigan xulq-atvorga programmalash mumkin.

Bixevoirizm mazmuniga psixolog Tolmen S-R reaksiyaga shubha bilan qarash orqali unga o‘zgarish kiritishga erishdi. U ushbu sxemaga o‘zgarish kiritdi va uni S-I-R tarzda ifodalashga olib keldi. Bu yerda I-individning irsiyatiga, fiziologik holatlari, oldingi tajribasiga bog‘liq bo‘lgan psixik jarayonlar.

B.Skinnerning operant bixevoirizmi

Berris Frederik Skinner 1904-yili Pensilvaniya shtatidagi, Sasquexanneda tug‘ilgan. Uning oilaviy muhiti samimiyl va erkin, intizom qattiq bo‘lgan hamda munosib xizmat ko‘rsatganda rag‘batlantirilgan. Skinner butun yoshligi davrida roliklik samakatlarni, korusellarni, aravalarni konstruksiya qilish bilanko‘p shug‘llangan. Bu yoshlikdagi ixtiolar kelajakda uni harakatlarini kuzatish modifikatsiya-siga qiziqishidan darak berardi. Uni shuningdek, maktabda o‘qishga qiziqishi katta bo‘lgan, hamda unga bilim bergen o‘qtuvchilarini iliqlik bilan xotiralaydi.

Skinner 1926-yilda Gamilton kolledjida o‘qib, gumanitar fanlar, ya‘ni inglez adabiyoti bo‘yicha bakalavr darajasini olgan. Skinner o‘z xotiralarida talabalik hayotiga haqiqiy moslasha olmaganligini aytadi. Kollejni bitirgach u ota-onasining uyiga qaytib kelgan va yozuvchilik bilanyozuvchilik bilan shug‘ullanishga harakat qilgan, lekin bu orzusi ro‘yobga chiqmagan. Skinner xotirasida maqsadsiz o‘qiganligini, kemalar modelini yasaganligini, rayalda rayal chalganligini, o‘zi ixtiro qilgan radiosini eshitganligini, mahalliy gazetalarda yumar maqolalar chop etganligini, ammo boshqa hech narsa yozmaganligini va psixiatrga ko‘rinishni o‘ylab ko‘rganligini aytgan.

Skinner yozuvchi bo'lishdan voz kechib Garvord Universitetiga psixologiyani o'rganish uchun o'qishga kiradi. U bu sohada hammadan orqada ekanligini tushunib, o'ziga qattiy o'quv jadvali o'rnatadi va bunga ikki yil davomida qat'iy amal qilib keladi.

1931-yilda doktor darajasiga loyiq topiladi. 1931-1936-yillarda Skinner Garvardda ilmiy ish bilan shug'ullanadi, u o'zini ilmiy qarashlarini hayvonlarning asab tizimini o'rganishga qaratgan. 1936-45 yillarda u Minisot universiteti o'qtuvchisi bo'lib ishladi. Bu davrda Skinner juda ko'p ijodiy ishlar bilan shug'ullanigan va AQShda yetakchi bixevoirist sifatida tanilgan. 1945-47-yillarda u Indiana shtati universiteti psixologiya kafedrasи mudiri lavozimida ishlagan, 1947-74-yilga qadar Garvardda notiq bo'lib ishlagan va nafaqaga chiqqan. Skinnerning ilmiy faoliyati juda ko'p taqdirlangan. Jumladan, ilmiy faoliyatlarini uchun Prezident medalini olgan. 1971-yilda Amerika psixologlari assotsatsiyasining quyidagi yozuvlari bitilgan "Xulq-atvorni o'rganish revolutsiyasini amalga oshirishda psixologik tekshiruvchilar pioneri, nazariya lideri, texnalogiya ustasi" oltin medaliga sazovor bo'lgan. Skinnerga 1990-yilda Amerika psixologlari assotsatsiyasi Prezidenti Sinnerga tashakkur bildirgan. Skinner ko'pgina kitoblar muallifi bo'lgan. U "Organizmning harakati" (1938-yil), "Uoldin-2" (1948-yil), "Insonning xulq-atvori va fan" (1953-yil), "Verbal xulq-atvor" (1957-yil) va boshqa bir qator asarlarini yozgan. Uning yozgan asarlaridan "Uoldin-2" Romano kolleji talabalari orasida keng tarqalgan.

Skinnerning nazariyasiga yondashuvlari: bixevoirizm uchun "xulq" asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi cheklab o'tilgan. Ko'pgina personolog nazariyotchilar ikki xil yo'nalishda ishlaydilar: 1) insonlarning barqaror bir-birlaridan farqini o'rganish; 2) shaxslar xulq-atvorni turli va murakkabligini faraziy tushuntirish. Bu yo'nalishlar ko'pgina konsepsiyalarning asosini tashkil qilgan. Skinner fikricha, mavhum (abstrakt) nazariya majburiy emas. Individni xulq-atvorni unga tashqi muhitni ta'sirini o'rgatish yo'li bilan aniqlash mumkin. Skinnerning ta'kidlashicha, psixologiya, ayniqsa, o'qitish yetarli darajada rivojlanmagan shu sababli ulkan mashshtabli nazariya mavjud bo'lмаган. Shuningdek, u nazariy yo'nalishda tekshiruvlar o'tkazish lozim emasligini, chunki ular kuzatuv faktorlariga tushuncha berib, hodisalarni turli terminlar va o'lchamlarda ta'kidlab, ularni turli me'yordorda o'lchab bo'lmaydi. Skinner insonning xulq-atvor nazariyasini yaratib, -psixologlarga soxta ishonch paydo qilib, amalda xulq-atvor va atrof-muhit bog'liqligini ko'rsata olmagan. Skinner o'zini

nazariyotchi deb hisoblagan va shaxsni o'rganish nazariyasini yaratib bergen. Skinner o'z intervusida: "Men o'zga dunyo, aql va asab sistemasini nazariyasini yaratib, xulq-atvorni tushuntirishga harakat qilaman. Bunday nazariyani muhim va foydali deb hisoblayman. Hunday tashqari ular xavfli hamdir, chunki bezovtalanishga asos bo'ladi. Men shaxs xulq-atvorining umumiy nazariyasini xush ko'raman, chunki ko'p faktorlarni birlashtirib umumiy tushuncha beradi".

Tashabbuskor shaxs doira tashqarisida bo'lib, Skinner radikal bixevierist sifatida insonlar tashabbuskorligini va xulq-atvorini ichki faktorlar bilan bog'liq ekanligini inkor etadi (masalan, ongsiz impulslar). Bu konsepsiyanor tor fikrlar bo'lib, hozirda ham mavjud bo'lib kelmoqda, chunki xulq-atvorni boshqarayotgan atrof-muhit sharoiti inkor etilmoqda.

Tashabbuskor inson, biz boshqacha izohlay olmaganligimiz sababli mavjud va xizmat qiladi. Uning mavjudligi bizning nodonligimizga bog'liq, biz xulq-atvor haqida ko'proq bilganimiz sari, tabiiyki u o'z tashabbuskorligini yo'qotib boradi. Shaxsni bilish uchun tashabbuskor shaxsni aqli, sezgi, xarakteri, reja, maqsadi va boshqalarn bilish, xulq-atvorni ilmiy tahlil qilishga yordam beradi. Skinnerning interopsixik sabablari qarshiligini o'rganish uchun nomaqbul fenomenlari bog'liq emas, balki turli terminlar bilan atalib, aniqlik kiritish mumkin emasligida, fan tarihida ta'kidlanishicha aqliy xulosalar konsersiyasidan ehekinish lizim, ko'rinishini o'zgartirmay, empirik o'rganish uchun, masalan iqtidorli talabalarni kolledjdan o'qishdan chetlatish sababini o'rganib, biz tushuncha berishimiz mumkin, chunki u omadsizlikdan juda qo'rjadi, chunki uning motivi bo'lмагanligi sababli yoxud u omadsizlikdan ongsiz qo'rqib, o'z ustida kam ishlaganligidir. Bunday talabani o'qishdan chetlatish gipotezalari, tushuntirish bo'lib, Skinner fikricha, bular hech narsani oydinlashtirmaydi, agar barcha motivlari hamda uni o'qishdan chetlatish sabablari aniqlanmasa, avvalo, bu holatni kuzatib, so'ng qo'shimcha tushunchalar berib aniqlik kiritish mumkin. Agar iqtidorli talaba o'qishdan chetlatilsa, buni sababini tekshirish uchun ushbu holatga qonuniy sharoitlar sabab bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Masalan, talabani uxlashiga yotoqxonadagi shovqin xalaqit berganligi sababli, yaxshi uxmlay olmay, charchab yaxshi o'zlashtira olmaganligi iqtisodiy qiyinchilik sababli haftasiga 40 soatdan ishlashga majbur bo'lib, shug'ullanish uchun vaqt etmasligi yoxud u talabalar basketbol jamoasida o'ynaganligi sababli, ko'p darslarga qatnasha olmaganligi sababli o'zlashtirishi pasayganligi va hokazo.

Skinnerning bu tushunchalari, holatga javobgarlikni tashabbuskor shaxsga emas, balki uni tevarak-atrofdagi sharoitga bog'liqligini ko'rsatadi. Skinner tushunchasi bo'yicha tevarak-atrof, sharoiti barcha holatlarni aniqlaydi.

Skinner boshqa nazariyalar bilan solishtirganda oson ziddiyatlashgan xarakterdagи nazariyani taklif etmadi. U o'zining nazariyasida tadqiqotchilik yo'nalishida shaxsni yaqqol tarzda ifodalovchi holatni taqdim etmadi.

Uning nazariyasi faqatgina shaxsni emas, balki butun xulq-atvorni tushuntirishga qaratilgan edi. Skinner psixologiya aniq dalillar asosida va tadqiqotlar laboratoriya sharoitida amalga oshirilishi kerakligini ta'kidladi. Skinner psixologiya xulq haqidagi, organizm nima qilishi haqidagi fan ekanligi ta'kidladi. Uning xulq-atvorni o'rganishi psichoanalitikka, qirralar, ekzistensial, kognitiv va gumanistik yondashuvlarga antipoddir. Uning yondashuvi nafaqat predmet, metodologiya va maqsadi bilan tafovutlanadi.

Shaxsni tushuntirishda kalit sifatida ko'pgina boshqa nazariyalar insoning ichki olamiga nazar soladi. Sabablar, motivlar insonning kamoloti va xulq-atvorini yo'naltiradi hamda har bir insonning ichida kechadi.

Bunga teskari Skinner xulq-atvorni tushuntirishda ichki tomon bilan bog'liq biror bir xulosaga kelmadi. Ongsiz ta'sirlar, himoya mexanizmlar, qirralar va boshqa harakatga keltiruvchi kuchlar ilmiy psixologiyada o'rin olmaydigan jihatlar ham mavjud.

Skinner ham o'z navbatida fan uchun foydaligidan ichki kuchlar mavjud bo'lishini inkor etmadi. Skinner aniq kuzatib bo'lmaydigan va fanga aloqador bo'limgan fiziologik jarayonlarga analogik mulohazalarni qo'lladi.

Inson bilan bog'liq bahsli vaziyatlarda Skinner atrof-olam yoki vaziyatlarni e'tiborga oldi. Eksperimental o'rganish predmeti jihatidan Skinnerning yondashuvi boshqa nazariyachilardan keskin farq qildi. Bir qator tadqiqotchilar emotsiyal beqaror, boshqalar esa me'yordagi yoki o'rtacha barqarorlikdagi shaxslarga e'tibor qaratadilar.

Skinnerning xulq-atvor haqidagi insonlarga qo'llagan g'oyalari kalamush va kabutarlarni xulqini o'rganish uchun qo'llanilgan. Inson shaxsini haqida xulosalash uchun kabutarni o'rganish kerakmi? Skinnerning qiziqishlari bolalar kechinmasi yoki katta yoshdagilarning tuyg'ularini emas, qo'zg'atuvchilarga nisbatan xulqiy reaksiyalarni aniqlashga qaratilganligini unutmaslik lozim. Stimullarga nisbatan

ba'zan javoblar odamlar, ba'zan hayvonlar yaxshi javob berishlari mumkin. Skinner inson xulq-atvori boshqa jonzotlar bilan solishtirganda murakkab ekanligini e'tirof etdi. Tafovutlar esa darajali, tabiiy shaklda emas. Fundamental jarayonlarda o'xshashdir deb xulosaladi. Shu bois fan oddiydan murakkabga qarab o'rganib, dastlab oddiy jarayonlarni o'rganishi kerak. Shunday qilib, u jonvorlarning xulq-atvorini o'rganishga jazm qildi. Bu esa inson xulq-atvoriga qaraganda soddaroqdir deb o'rganishga kirishgan.

Skinnerning ishi amaliy jihatdan yo'lga qo'yilgan. Uning tundqiqotlaridan olingen terapeutik metodlar har xil kasalliklar, xususan, psixoz, aqliy taraqqiyotdan ortda qolish va autizmni davolashda foydalanildi. Uning xulq-atvorga bag'ishlangan g'oyalari bo'yicha modifikatsiya qilgan metodlari maktab, tashkilot, tuzatish muassasalarini va kasalxonalarda tatbiq etildi.

Asosiy xulq-atvor. Skinner ikki xil xulq-atvorni o'rganishga e'tibor qaratdi: sharstsiz reflektor – shartli reflektor va operant xulq-atvor. Aynan reflektor xarakterdagi xulq-atvor sifatida tizza refleksini misol sifatida keltirish mumkin. Impulsislari tatbiq etiladi va javob yuzaga keladi. Bu avtomatik tarzda yuz beradi.

Operant xulq-atvor organizm atrofdagi faol ta'sir ko'satadi va bu faol harakat ta'sirida ular mustahkamlanishi yoki inkor etilishi mumkinligini ifodalaydi. Skinner bo'yicha aynan mavjudodlarni moslashuvida egallanuvchi ushbu reaksiyalar ixtiyoriy xulq-atvor shakli hisobalanaji. Konkida uchish, fortepianoda kuy chalish, xat yozishni o'rganishning barchasi insonning operant harakatlariiga misoldir. Organizm uchun ularning oxiri yoqimli bo'lishi, operant reaksiyalarni takrorlash ehtimoli ortadi.

Bixevierizmning zamонавиyy ко'ринишлардан бирі сotsial o'rganishlar nazariyasidir.

Sotsial o'rganishlar nazariyası

Keyingi davrda klassik bixevierizm rivojlanib, yangi sotsial-kognitiv yo'nalish shakllandi. Uning vakillari Albert Bandura va Julian Rotterdir. Ularning yondashuviga ko'ra insonning xulq-avtoriga atrof muhmt ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida inson ham sotsial atrof muhitni shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. O'rganishlarning yuz berishi faqat to'g'ridan to'g'ri va tashqi qo'llab-quvvatlashda emas, xulq-atvor kuzatishlar va namunalar asosida shakllanadi. Garchi sotsial kognitiv

nazariya ahamiyatiga ko'ra, Skinnerning klassik bixevoirizmdan farq qildi. Ular keskin ilmiy va eksperimental metodologiyaga tayandi.

J.Rotter sotsial xulq-atvorni quyidagi tushunchalar orqali ifodaladi:

1. Xulq-atvor potensiali: har bir inson butun hayoti davomida shakllanadigan ma'lum harakat, xulq-atvor to'plamini egallaydi.

2. Insonning xulq-atvoriga uning kutilmasi, subyektiv ehtimollari, ya'ni insonning fikricha ma'lum vaziyatlarda u yoki bu xulq-atvorni yuz bergandan keyin ma'lum mustahkamlash bo'ladi degan fikriga ko'ra ta'sir ko'rsatadi.

3. Insonning xulq-atvoriga inson uchun ahamiyatli bo'lgan mustahkamlash (chet ta'sirlar), qadriyatlar ta'sir ko'rsatadi.

4. Insonning xulq-atvoriga uning shaxs tipi, uning lokus nazorati ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, J.Rotterning ta'kidlashicha, xulqiy potensial "texnik mavjud" bo'lgan beshta asosiy reaksiyalar blokini o'ziga qamrab oladi:

1. Muvaffaqiyatga erishganlikka yo'naltirilgan, natijada sotsial e'tirof etishni asoslashga xizmat qiladigan xulqiy reaksiyalar.

2. Ijtimoiy me'yorlar, boshqa insonlarning talablarisha moslashish bilan bog'liq adaptatsiyani ta'minlovchi xulqiy reaksiyalar.

3. Ayni damdag'i vaziyatning ta'sirida foydalaniladigan himoya-lovchi xulq-atvor reaksiyalar.

4. "Zo'riqish maydonidan chiqish", qochish, dam olishga yo'nalgan qochish texnikasini ifodalovchi xulq-atvor reaksiyalar.

5. Agressiv xulq-atvor reaksiyaları – boshqalarning tanqidi, kinoyasi, pichingi, qiziqish va manfataraliga zid harakatiga nisbatan jismoniy agressiyaning namoyon bo'lishi.

J.Rotter singari A.Bandura ham shaxs muammosiga o'ziga xos yondashuvularini taqdim eta oldi. A.Bandura bixevoirizmning S-R sxemasiga o'zining to'rta oraliq reaksiyasini kiritdi:

1. Taqlid uchun harakat namunasiga bolaning e'tibori. Aniqlik, farqlanuvchanlik, emotsiyal jozibadorlik, funksional ahamiyatga egalik namunaga qo'ladigan talablardir.

2. Namuna, xulq-atvor modeli ta'siri haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi xotira.

3. Bolaning taqlid namunasini idrok qilishi uchun sensor imkoniyatlar va harakat ko'nikmalariga ega bo'lishi.

4. Bolaning taqlid modelini bajarishi uchun xohish-istikclarini belgilovchi motivatsiya.

Bola ilk davrlaridagi uning shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi.

Bandura taqdim etgan sotsial kognitiv nazariyaga ko'ra tashqi va sotsial muhit insonning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, u inson faoliyatining mahsuli sanaladi. Demak, inson o'zining xulq-atvori tufayli atrof olmani o'zgartiradi, o'zining muhitiga va shaxsiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining xulq-atvor oqibatlarini ko'ra oladi, oldindan kutilish mumkin bo'lgan xavf-xatarning odini olishga harakat qiladi va bo'lg'usi natijalarni timsolini hosil qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rindiki, klassik bixevoirizm, ularning zamonaviy izdoshlari – sotsial kognitiv nazariya vakillari shaxs muammosiga nisbatan yondashulari bilan boshqa shaxs nazariyalaridan o'zlarining g'oyalaridagi metodologik masalalar va tadqiqot metodlari bilan farq qiladilar.

Nazorat savollari

1. Shaxsni o'rganishlar nazariyasini.
2. Shaxs o'rganishlar nazariyasining boshqa nazariyalardan farqi.
3. Bixevoirizmning asosiy g'oyasi.
4. Skinnerning shaxsga nisbatan yondashuvlarining o'ziga xosligi.
5. Sotsial o'rganishlar nazariyasini.

Adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 563-572.
2. Boeree C.G. Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University, 1997. – P.3
3. Аверин В.А. Психология личности: Учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2003. – 352с.
5. Нельсон-Джоунс Р. Теория и практика консультирования. – СПб.: Питер, 2000. – 464 с.
6. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998.- 796 с.
7. Хьюлл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

4-bob. GUMANISTIK PSIXOLOGIYADA SHAXS

Reja:

1. *Gumanistik psixologiyaning asosiy tamoyillari.*
2. *G. Olportning shaxs nazariyasi.*
3. *A. Maslouning shaxs nazariyasi.*
4. *K. Rodjers shaxs nazariyasi.*

Gumanistik psixologiyaning asosiy prinsiplari

Gumanistik psixologiya inson tabiatini tushuntirishda o‘zining yondashuvi bilan boshqa psixologiya fanidagi yo‘nalishlardan farq qiladi. Bu borada mazkur yo‘nalishning vakillari sifatida G.Olportning shaxs qirralari, A.Maslouning shaxsnining o‘zini o‘zi kamol toptirish, K.Rodjersning inderiktiv psixoterapiyasi, R.Meyning shaxsnинг hayot yo‘li haqidagi g‘oyalarini e’tirof etish mumkin.

Mazkur yo‘nalishning har bir nazariyasi o‘zining ilmiy tushunchasi, insonning ichki olamini tushunishga yo‘naltirilgan tadqiqot usullari va psixoterapevtik yondashuvlari mavjud.

Shunga ko‘ra gumanistik psixologiyaning umumiy prinsiplari mavjud:

- Inson doimo yangi maqsadga intiluvchi, o‘zini o‘zi kamol toptirish va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ifodalovchi taraqqiyot prinsipi.
- Inson o‘z tabiatiga ko‘ra, erkin va mehribonlikni ifodalovchi insonparpavarlik prinitpsi.
- Maqsadli determinizm prinsipi. Shaxsning intilishlari kelajakka yo‘naltirilganligi bilan uning maqsad, qadriyatları va kutilmalarini ifodalovchi sababiy determinizmni tasdiqlashi.
- Inson mustaqil fikrllovchi va harakat qiluvchi mavjudod sifatida o‘zining subyekt sifatida namoyon qilishini ifodalovchi faoliik prinsipi.
- Shaxsni alohida fragmentlar bo‘yicha o‘rganib bo‘lmasligi, balki uni yaxlit o‘rganishga undovchi shaxsni noeksperimental tadqiq etish prinsipi.
- Gumanistik psixologiyada tadqiqot maqsadi va obyekting mosligi insonni sog‘lom, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarib borishini ta‘minlovchi me’yorda va to‘laqonli faoliyat olib boruvchi shaxsni o‘rganish vazifasini ifodalovchi reprezentativlik prinsipi.

G.Olportning shaxs nazariyasi

Taniqli AQSH psixologgi G.Olportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan, shaxsnинг sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi, chamamda.

Shaxsnинг uni muhim xususiyatli jihatlaridan biri bu uning individualligidir, ya'ni yakka hokimligidir.

Uning ko'rsatilishicha, nuqtayi nazardan dispazitsional yaqinlashish bu ikkita bir xil inson bo'linmaydi deyiladi. Har bir inson o'zini har xil holatlari bilan o'zgachadir. Bunga Olport o'zining nazariyasini "xarakter"ni yani "umumiylizini" ko'rsatadi. Har bir shaxsni bir-biridan farqlaydigan xarakteri mavjud. Shaxsnинг xarakteri nima? Olport haraktierning nitropsixik jarayonini belgilaydi, uning hajmi ekspressiv xulq-atvordir.

Masalan, agarda insonlar ishlarni xotirjam qilsalar, har xil vaziyatlarda o'zlarini erkin tutadilar. Olportning takidlashicha, inson xulq-atvori uning o'zini qilayotgan ishida o'zini boshqara olishidir.

Ishtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har bir shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakteri bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xususiyatlarida o'z ifodasini topadi. *Xarakter* tushunchasi yunoncha so'z bo'lib, "bosilgan tamg'a" degan ma'noni anglatsa-da, lekin u psixologiyada torroq mazmunda qo'llaniladi. Xuddi shu boisdan, insonning barcha individual xususiyatlari xarakter hislati tarkibiga bo'linadi. Chunonchi, aqlning tirkagligi, topqirligi xotiraning barqarorligi ko'rishning o'tkirligi, idrokning tanlovchanligi singari individual psixologik xususiyatlar bunga yorqin misoldir.

Shaxs xarakter xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat sharoit, holat, muhit hissiy kechinmalarining individual o'ziga xos munosabatlariiga bog'liq.

Shaxs motivatsiyasi

Olportning fikricha, uning motivlari aftanomligi darajasiga va uning biologik ehtiyojilaridan xalos bo'lishga bog'liq. Shaxslar ishning mexanizmi sifatida Olport xatti-harakatlarini [trates] ko'rsatdi .

Harakat shunchasi xarakter harakati emas, balki “harakat motiv”, “harakat qiziqish”dir.

Olport belgilagan harakat motiv hisoblanadi. U kattalarning motivlari kichkina bolalarnikidan keskin farq qilishini e'tirof etish bilan birga, ularning biologik holat emasligi, shuningdek, ular ruhiy ma'naviy holat ham emasligini ta'kidlagan. G.Olport inson harakat motivini bir tomonidan biologik faktor emas desa, ikkinchi tomonidan har bir inson ma'lum harakatlar to'plami bilan dunyoga keladi deydi.

1937-yili G.Olport sotsial intellekt odamlarni to'g'ri baholay bilish, ularning xulqini to'g'ri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan holda ujar bilan munosabatga kirishish qobiliyati deb tavsiflaydi. U boshqa odamlarning yaxshi tushunishini ta'minlovchi bir qator sifatlarni ajratib ko'rsatgan: bu sifatlar tarkibiga sotsial intellekt alohida qobiliyat sifatida kiritilgan.

Shaxs tiplari:

- nazariyotchi;
- iqtisodchi;
- estetik;
- sotsial;
- siyosatchi.

A.Maslou shaxs nazariyasi

Maslou Abraxam Harold (1908-1970) gumanistik psixologiya asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik psixolog bo'lib, u psixologiyaga motivatsiyalarning ierarxik modelining muallifi sifatida kirib kelgan. Bu ierarxiya asosida uning tug'ma va universalligi haqidagi postulat yotadi. U inson motivatsiyasini quyidagi ketma-ketlikda tartiblab chiqqan:

Maslou ierarxiyasini asosiy mazmuniga ko'ra, ehtiyojlarni hech qachon “hamma narsa yoki hech narsa” prinsipi asosida qondirib bo'lmaydi. Ehtiyojlar bir-biriga qisman mos keladi va insonda bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq pog'onadagi ehtiyojlarga motivatsiya uyg'onishi mumkin. Maslouning ehtiyojlarining ierarxik modeli doirasida o'rtacha insonning qondirishi kerak bo'lgan 5 ta ehtiyojlarini ko'rsatib o'tgan. Maslou ierarxiyasini asosiy mazmuniga ko'ra, Ehtiyojlar bir-biriga qisman mos keladi va insonda bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq pog'onadagi ehtiyojlarga motivatsiya uyg'onishi mumkin:

Fiziologik – 85%

Xavfsizlik va himoya – 70%

Muhabbatga va aniq sotsial guruhga bog'liqlik – 50%

Hurmat va e'tibor – 40%

O'zida ehtiyojlar erarxiyasining yuqori pog'onasini namoyon qiluvchi o'zini o'zi aktuallashtirish pog'onasi – 10 %

Maslouning fikricha, inson pastroq pog'onadagi ehtiyojlarini qondirmaguncha, yuqori pog'onadagi ehtiyojlarga erisha olmaydi. Uchun yuqori pog'onadagilar ehtiyojlarga juda ozchilik, ya'ni sholining 1 % igma erishadi. Maslou yana shuni ta'kidlab o'tadiki, o'z o'zini aktuallashtiruvchi insonlar uchun mustaqillik, kreativlik, mahsulдорлик, dunyoni falsafiy anglash va erkin muloqandmandlik xos. 1960-yillarda boshlarida Maslou qo'l ostida bir qancha gumanistik yondashuv vakillari birlashib, psixologiyadagi ikki muhim intellektual oqim bo'lgan psixoanaliz va bixevoirizmga qarshi gumanistik psixologiyani yaratdilar. Gumanistik psixologiya kuchli tashkil qilingan nazariy tizim bo'lmashdan, uni shaxsga va klinik psixologiyaga nazariy munosabat bildiruvchi o'ziga xos guruh desa ham bo'ladi. Maslou o'z yo'nalishini psixologiyadagi *uchinchchi kuch* deb nomlagan. Bu yondashuv vakillari inson tabiatining aniq kelib chiqish konsepsiyanini ajratib o'rganishgan. Amaliy jihatdan esa, bu yondashuvlar g'arb falsafiy tafakkuri tarihida o'zining chuqur ildiziga ega. Gumanistik psixologiyaning ildizi ekzistensial falsafa ildizlariga borib taqaladi. Uning vakillari Seren Kerkegor (1813-1855), Karl Yaspers (1883-1969), Martin Haydegger (1889-1976) va Jan-Pol Sartr (1905-1980) kabi bir qator yevropalik faylasuf yozuvchilar hisoblanadi.

Gumanistik psixologiyaning namoyondalari Erik From, Gordon Olport, Karl Rojers, Viktor Frankl va Rollo Mey kabi mashhur psixologlar hisoblanadi. Gumanistik psixologiya namoyondalarining fikricha, inson hech qachon bir joyda qotib qolmaydi, u har doim rivojlanishga imkon topadi. Kollejning yuqori kurs studenti o'zining to'rt yil avvalgi o'spirinlik davriga qaraganda hozir boshqacha bo'lib, uning fikrashi, dunyoqarashi o'zgargan. Uni yana to'rt yildan so'ng uchratsangiz u o'z hayotining yangi yo'llarini egallagan, masalan, o'zining kasbiy karerasiga ega bo'lgan yoki oilali, farzandli bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu yo'sinda erkin mayjudot bo'lmish inson bu hayotda yashashi uchun o'zining ko'pgina imkoniyatilarini ochishi zarur.

O‘z o‘rniga ega bo‘lish oson emas. Insonlar o‘z taqdirlarini tanlashi va unga o‘zlarini yo‘naltirishga o‘zlar mas’uldirlar. Bu dunyoga kelgan ekanlar ular faqat birgina insonning ya’ni o‘zlarining hayotlariga mas’uldirlar. Mas’ullik va erkinlikdan qochish bu o‘zini soxta tutish bo‘lib, oxiri umidsizlik va tashvishli hayotga olib keladi. Maslou shaxsnинг gumanistik nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, bu 50 yil davomida o‘z kuchini yo‘qotmagan. Maslouning fikricha, individ bu bir butunlikdir. Har bir insonni unikal, tashkillashgan, bir butunlikda o‘rganish kerak. U psixologiyada shuncha yildan beri insonning alohida hodisalarini tahlil qilishganini ta’kidlaydi.

Maslou uchun shaxsnинг markaziy xususiyati bu uning umumiyligi va bir butunligidadir. Uning fikricha individiumda ehtiyoj mavjud. Agar bir kishi och deylik. Uning o‘zi nimanidir yegisi keladi, oshqozoni emas, agar u kishi biror narsa tanovul qilsa, o‘zi yegan bo‘ladi, uning oshqozoni emas. Demak, u kishining o‘zi butunlikda ehtiyojini qoniqtirgan bo‘ladi, faqatgina oshqozonining ehtiyojini emas.

Maslouning fikriga ko‘ra, motivatsiya butun insonga ta’sir qiladi, uning alohida organizmiga emas.

K. Rojersning shaxs nazariyasi

K. Rojersning shaxs nazariyasi boshqa psixologlardan keskin farq qiladi. Rojers shaxs nazariyasini uchta prinsip bo‘yicha yoritdi:

1) inson xulq-atvorini obyektiv kuzatishlar orqali tushunish mumkin, shaxs esa subyektiv idroki va voqelikni bilishi orqali baholaydi;

2) inson o‘z taqdirini o‘zi belgilaydi, tanlov va qaror qabul qilishi mumkin;

3) inson o‘z tabiatiga ko‘ra, mehribon va o‘zini kamol toptirishga intiluvchan;

Men tuzilmasida har xil qadriyatlar kiradi: 1) bilvosita organizmda kechadi (“Men o‘z ota-onamni inson sifatida idrok etaman”) va 2) boshqalarda introetsiyalovchilar xususiy, bilvosita idrok etishga sabab bo‘ladi (“Men o‘z xulq-atvorimni undan qoniqmagan holda idrok etaman”).

Men konsepsiysi xarakterlovchi jihatlar:

1) barcha shaxs xususiyatlari Men konsepsiyada o‘z aksini topadi (jismoniy, sotsial, seksual, tuyg‘u va emotsiya, ta’b va psixologik qirralar va boshqalar);

- 2) Men konsepsiyaning qismlari o'rtasida tuzilmaviy va tiplar bo'yicha bog'lanish mavjud;
- 3) kongruentlik – nokongruentlik, ya'ni Men konsepsiysi insonning real kechinmalarining muvofiq va nomuvofiqligidir.
- 4) himoya yoki kuch Men konsepsiyasining mos emasligini ifodalaydi;
- 5) zo'riqshlar, ya'ni himoya pozitsiyasida qayd etish oqibatidagi holat;
- 6) o'zini o'zi hurmatlash darajasi yoki barcha xususiyatlari bo'yicha o'zini qabul qilish;
- 7) faol tushuvchi axborotlardan kelib chiqib o'zini baholash qobiliyati.

Shaxs markazlashgan psixoterapiyaning asosiy prinsipi:

- 1) mijoz haqidagi faqat faol axborotlar foydalaniladi;
- 2) psikoanalizning zarur atributlari inkor etiladi, ular empatiyani yaqinlashuvni va o'rnatilishiga xalaqit beradi. O'zaro ta'sirlashuv "yuzma yuz" amalga oshiriladi;
- 3) talqin, baholash va maslahatlar mavjud emas;
- 4) mijozga shartsiz ijobiy munosabatdan tashqari, salbiy emotsiyaga yo'l qo'yiladi;
- 5) mijoz terapevt dan mustaqil, avtonom;
- 6) natijalar ongni kengaytirishga xizmat qiladi.
- 7) psixoterapiyada qadriyat va ideallarning muhimligi qayd etiladi.

R.Meyining shaxs hislatlari nazariyasi

R.Meyining shaxs nazariyasining o'ziga xos jihatlari u tomonidan taqdim qilingan shaxs hislatlariga bog'liqdir. Shaxs hislatlari o'zida quyidagilardan iborat:

1. O'ziga ishonish – ishonchsizlik.
2. Aql-zakovat bilan mulohazalash – tor fikrlovchi.
3. Ongli dunyoqarash – keljakni o'ylamaslik.
4. Mulohaza qilish, o'zini tuta bilish, barqarorlik – soxtalik, tez beriluvchanlik.
5. Xotirjamlik – tajanglik.
6. Ko'ngilchanlik – ayyorlik, surbetlik.
7. Yaxshilik, sabr-toqatlilik – xudbin, o'zboshimchalik.
8. Do'stona, gapga kiradigan, epchil – bir narsaga qattiq yopishib oladigan, zolim, maydagap.
9. Samimiylilik, ko'ngilchanlik – yovuzlik surbetlik.

- Haqiqatparvarlik – haybarakachilik.
 - Irodalilik – irodasizlik.
 - Sof vijdonlilik, tartiblilik – vijdonsizlik, betartiblik.
 - Izchillik, mantiqiylik, intizomlilik – oqibatni o'ylamaslik, tarqoqlik.
 - Ishonchlilik – ishonchsizlik.
 - Ulg'ayish – organizmning etilmay qolishi.
 - Odoblilik – odobsizlik.
 - Kirishimlilik – odamovi.
 - Quvnoqlig – g'amginlik.
 - Maftunkorlik – ixlosi qaytganlilik.
 - Dilkashlik – pismiq.
 - Faollik – sustkashlik.
 - Mustaqillik – konformllilik.
 - Ekspressivlik – vazminlik
 - Xilma-xil qiziqishlar – tor qiziqish.
 - Ta'sirchanlik – sovuqqonlik.
 - Jiddiylik – betayinlik.
 - Halollik – aldamchilik.
 - Tajovvuzkorlik – oq ko'ngillilik.
 - Tetiklik – quvnoqlig.
 - Optimizm – umidsizlik (pessimizm).
 - Botirlik – qo'rroqqlik.
 - Oliy himmatlilik – ziqnalik;
 - Erkinlik – tobelik.
- Ushbu shaxs hislatlari uni to'laqonli tushunishlari uchun xizmat qiladi.

Nazorat savollari

- Gumanistik psixologiyaning asosiy prinsiplari.
- G.Olportning shaxs nazariysi va tiplari.
- A.Maslou shaxs nazariysi.
- Maslou ehtiyojlar piramidasi.
- K. Rodjersning shaxs nazariysi.
- Men konsepsiyasini xarakterlovchi jihatlar.
- Shaxs markazlashgan psixoterapiyaning asosiy prinsipi.
- R.Meyining shaxs hislatlari nazariysi.

Adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 553-593.
2. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright, 2005. – 550p.
3. George Boeree C. Personality Theories / Sigmund Freud. Psychology Department Shippensburg University / Original E-Text-Title [<http://www.ship.edu/%7Ecgboeree/perscontents.html>]. – P.6.
4. Гозиев Э.Ф. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
5. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
6. Хелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

5-bob. SHAXSNING EKZISTENSIAL PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Ekzistensial psixologiyada shaxs.*
2. *V.Frankl: Ekzistensial analiz va logoterapiya nazariyasi.*
3. *L.Binsvanger va M.Boss: shaxsnинг ekzistensial nazariyasi.*

Ekzistensial psixologiyada shaxs

An'anaviy hayot mazmuni muammolari falsafaning predmeti hisoblanadi. Faylasuflar odamning hayoti mazmuni nima va u qanday bo'lishi kerakligi masalasini muhokama qildilar va echimini topishga harakat qildilar. O'z navbatida, psixologiya fanlar tizimida ham hayot mazmuni muammolariga yo'naltirilgan, aniq ta'riflangan, maxsus intizom yo'q (bunga o'xshaganlarning bir qismi biologik sababdan tortib g'oyaviy sababgacha bo'lgan barcha bosqichlarni ko'rib chiqadigan ruhlanish (motivatsiya) nazariyasini o'z ichiga oladi). Shuning uchun hayot mazmunining muammoysi bilan alohida maktab – ekzistensial psixologiya shug'ullanadi. *Ekzistensiya* tushunchasining o'zi, so'zmaso'z tarjima qilganda "paydo bo'lish", "vujudga kelish", "shakllanish" ma'nolarini anglatadi. Bu butun ekzistensializmning mohiyatini nafaqat psixologiya va psixoterapiyada, balki falsafa, san'at, adabiyot va hokazolarda ham aniq aks ettiradi. Unda odam psixodinamik mexanizmlari, xulq-atvor shakli, tabiiy va shaxsiy sifatlarining statik to'plami sifatida emas, balki doim bor bo'lgan va bo'lувchi mavjudot sifatida asosiy rol o'ynaydi.

Psixologiyada ekzistensial yo'naliш XX asrning birinchi yarmida Evropada ikkita g'oyaning chegarasida vujudga keldi: bir tomonidan, bu o'sha paytda odamning xolis va ilmiy tahlilining ko'rsatmasi va deterministik qarashlari bilan hukmronlik qilgan ko'plab psixolog va terapevtlarning qanoatlanmasligi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, bu psixologiya va psixiatriyaga katta qiziqish uyg'otgan ekzistensial falsafaning shiddatli rivojidir. Natijada psixologiyada Karl Yaspers, Lyudvig Binsvanger, Medard Boss, Viktor Frankl kabilar tomonidan taqdim etilgan yangi – ekzistensial oqim vujudga keldi. Ekzistensializmning psixologiyaga ta'siri asl ekzistensializm yo'naliшining shakllanishi bilan chegaralanib qolmadi. Juda ko'plab psixologik maktablar u yoki bu miqyosda mana shu g'oyalarni o'ziga singirdilar.

Ayniqsa, E.Fromm, F.Perls, K.Xorni, S.L.Rubinshteynning ekzistensial motivlari juda kuchli. Shunday qilib ekzistensial psixologiya quyidagilarni o'rganadi:

- 1) o'lim, hayot va vaqt muammolarini;
- 2) tanlash va javobgarlik erkinligi muammolarini;
- 3) yolg'izlik, sevgi va muloqot muammolarini;
- 4) mavjudlikning mazmunini qidirish muammolarini.

Ekzistensial psixologiyaning asosiy predmeti – odamzod hayotining mazmuni, uni yo'qotish, o'zgartirish va erishishning shart-sharoitlari. Viktor Frankl, Rollo Mey, Jeyms Byudjental kabi mualliflar tomonidan ekzistensial falsafa asosida ishlab chiqilgan umumpsixologik nazariyalar va psixologik praktikaning metodologik asoslari bugungi kunda ekzistensial psixologiyaning cho'qqilari hisoblanadi.

V.Franklning ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasи

Psixologiyada V.Frankl yaratgan ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi odam tabiatiga, shaxsning normal rivojining mexanizmlari va patologiya (g'ayritabiylig)ga, shaxs rivojidagi anomallarni yaxshilash yo'lli va uslubiga bo'lgan tibbiy, falsafiy va psixologik qarashlarning murakkab tizimini o'z ichigi oladi.

Psixolog Frankl nazariyasi uch asosiy qismga bo'linadi: mazmunga intilish haqidagi ta'lilot, hayot mazmuni haqidagi ta'lilot va erkinlik irodasi haqidagi ta'lilot. Mazmunga intilishni va odam o'z hayotining mazmunini anglashini V.Frankl barcha insonlarda mavjud bo'lgan va shaxs rivoji va fe'l-atvorini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lgan tug'ma motivatsion g'oyasi sifatida ko'rib chiqadi. V.Franklning fikricha, hayotiy kuzatuvlar, klinik amaliyotlar va empirik ma'lumotlar shuni o'z ichiga oladiki, odam yashashi va faol harakat qilishi uchun o'zining qilmishlari ega bo'lgan mazmunga ishonishi kerak.

Biroq sevgi ham hayotni anglashning zarur sharti yoki eng yaxshi varianti hisoblanmaydi. Hech qachon sevmagan va sevilmagan individ ham o'z hayotini ancha ma'no-mazmunli etib tashkil qilishi mumkin.

3) Inson o'zgartirishga qodir bo'lмаган sharoitlar iskanjasida qolganda munosabatlар qadriyatiga murojaat qiladi. Ammo har qanday shart-sharoitda insonda ularga nisbatan ongli pozitsiyaga ega bo'lish va o'z uqubattalariga chuqr hayotiy ma'no berish erki mavjud.

O'z asarlarida Frankl butun hayotning ma'nosi emas, balki muayyan insonning muayyan momentdagi hayotining ma'nosi masalasi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Insonning qanday qilib o'z mohiyatini

anglashi logoterapiya amaliyotida hal qiluvchi masaladir. Ma'nolar bizga berilmagan, biz o'zimizcha ma'nolarni tanlab ololmaymiz, biz faqatgina ma'noni anglab etishga zamin yaratuvchi chorlovnii tanlashimiz mumkin. Biroq, ma'noni topish – bu yarim ish, uni amalga oshirish ham kerak. Inson o'z hayotining noyob ma'nosini amalga oshirishga mas'ul.

Shunday qilib, Frankl ta'limotining bosh tezisi: inson hayoti hech qanday shart-sharoitda ma'nosini yo'qotmaydi, hayoti mohiyatini har doim topish mumkin.

Frankning uchinchi ta'limoti – iroda erkinligi haqidagi ta'limotning asosiy tezisiga ko'ra, inson hattoki erki obektiv sharoitlar bilan chegaralangan holatda ham o'z hayot m'anosini topishi va amalga oshirishga erkendir. Frankl insonning o'z qiziqishlari, irsiyati va tashqi muhit sharoitlariga nisbatan erki haqida so'z yuritadi.

Qiziqishlarga nisbatan erkinlik ularga "yo'q" deyish, ularni qabul qilish yoki rad etish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Iroda erkinligi ta'limotining muhim masalasi bu inson nimaga erkinlikka egaligidir. Bu o'z taqdiri uchun mas'uliyatni o'z bo'yning olish, vijdoniga quloq tutish va taqdiri bo'yicha qaror qabul qilish erkinlidir.

Ko'pgina mualliflar asarlarida Viktor Frankl ma'no va bema'nolik masalasiga eng katta hissa qo'shganligi ta'kidlanadi. U klinik amaliyotda uchraydigan nervozlarning 20% noogen xususiyatga ega ekanligi, ya'ni hayot ma'nosining yo'qligi orqali vujudga kelganligiga alohida urg'u beradi. Shu bois ham aynan ekzistensial terapiya nazariyasi va amaliyoti boshqa tadqiqotchilar izlanishlarida o'z rivojini topgan.¹

L. Binsvanger va M. Bossning shaxsga ekzistensial yondoshuvi

Psixologiya va psixoterapiyada ekzistensial yo'nalişning yorqin vakillari shvetsariyalik psixiatrlar Lyudvig Binsvanger va Medard Boss. Ular o'z konsersiyasini nemis faylasufi Martin Haydeggerning ekzistensial nazariyasi asosida ishlab chiqishgan.

Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya bir qator o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Avvalo, ular psixologiyaga tabiiy faniardan sababiylilik tamoyilining olib kirilishiga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, inson hayotida hech qanday sabab-oqibatga asoslangan munosabatlar yo'q. Asosan, xulq-atvorning ketma-ketligi

¹ Boeree C.G. Viktor Frankl/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.8

mavjud bo'lib, bu ketma-ketlik orqali sababiylikni keltirib chiqarib bo'lmaydi¹.

Shunday qilib, Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya kazuallikni rad etgan holda, positivizm, determinizm va materializmni ham inkor qiladi. Ushbu olimlar ta'kidlashicha, psixologiya boshqa fanlarga o'xshamaydi va ular kabi model asosida qurilishi kerak emas. U o'z metodini (fenomenologiya) va tushunchalarini (hayotdagi mavjudlik, mavjudlik moduslari, erkinlik, mas'uliyat, aylanish, transendensiya, makoniylilik, temporallik va b.q.) talab qiladi. Binsvanger va Boss ekzistensial nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri motivatsyadir. Motivatsya doim sabab va oqibat munosabatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri tushunishni talab qiladi. Bir xil yoqea turi sabablar oqibatida yuzaga kelishi mumkin, shu jumladan, tabiiy omillar tufayli, lekin faqat insongina mazkur harakatni amalga oshirish, biror bir maqsadga erishish uchun motivatsityaga ega bo'ladi. Turli individlar turli maqsadlarga erishih uchun bir xil harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, inson tomonidan u yoki bu maqsadga erishish bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin va bu bosqichning har biri o'z oqibatiga ega bo'ladi. Umuman olganda, mazkur holatda inson motivastiyasini tushunish inson xulq-atvori, hattiharakatini anglashning bosh mezoni bo'ladi. Binsvanger va Boss konsepsiysi subekt (ruh) va obekt (tana, muhit, materiya) o'rtasidagi dualizmga salbiy qaraydi. Ushbu fikrni birinchi bo'lib Dekart ilgari surgan va keyinchalik inson kechinmalari hamda harakatlarini muhit stimullari hamda tana holati nuqtai nazardan ko'rib chiqishda keng qo'llanila boshlandi. Ekzistensial nazariya individning dunyoda birligini ta'kidlaydi va bu birlikni buzuvchi har qanday qarashni falsifikatsiya va inson vogeligini yagona oqimini bo'lib tashlashga bo'lgan urinish deya baholaydi. Boss so'zlariga ko'ra, ekzistensial psixologiyaning maqsadi – insonning bog'liqlik strukturasini yuzaga chiqarish. U o'z g'oyasida "bog'liqlik faqatgina buzilmagan butunlikda mavjud va bog'liqlik butunlikdan kelib chiqadi", deb yozadi.

Ekzistensial psixologiyaning ushbu yo'nalishi, shuningdek, fenomenlar ortida ularni tushuntirib yoki aniqlab berishi mumkin bo'lgan nimadir bor degan farazni ham inkor etadi. U inson xulq-atvorini an'anaviy bo'lgan "Men-konsepsiya", ongsiz, psixik va

¹ Boeree C.G. Medard Boss/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997.
– p.3

jismoniy energiya, instinktlar, miya elektrik jarayonlari, arxitiplar va b.q. orqali talqin qilishni tan olmaydi. Binsvanger va Boss fenomen mohiyatini tushuntirib berishmaydi, ular faqat fenomen borlugini tan olishadi va psixologiyaning bosh vazifasini ularni chuqur yoritish, tushuntirish yoki isbotlash emas, deb aytib o'tadi. Bu tadqiqotchilar har qanday psixologik nazariyalarga salbiy munosabatda bo'lganlar, zero nazariya ostida doim u yoki bu faraz yotadi, mazkur olimlar uchun esa inson tomonidan his qilingan, uning boshidan o'tgan va anglab etilgan hodisalar haqiqiyidir, ilmiy farazlar emas. Bu yonalish tarafдорлари fikricha, o'rganish hech qanday gipoteza va stereotiplarsiz ko'ra olishdir.

Binsvanger va Boss individga buyumdek qarashga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, insonga bunday munosabat nafaqat psixologiyaga insonlarni hayotdagи mavjudligi pozitsiyasidan anglash imkonini bermaydi, balki oqibat shaxs degumanizatiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ular insonlarning texnisizm, byurokratiya, mexanizatsiya natijasida chetga chiqib qolishi, uzlatga chekinishi va buzilishi haqida so'z yuritgan. Olimlar nuqtai nazariga ko'ra, insonlar bilan buyum kabi munosabatda bo'lganda, ular ham o'zlarini ega bo'lish, nazorat qilish, shakl berish, ishlatish mumkin bo'lgan buyum deb hisoblay boshlashadi. Natijada bunday insonlar haqiqiy inson hayotini yashab o'tishga qodir bo'lmay qoladilar. Inson o'z xatti-harakati uchun erkin va mas'uldir. Boss aytadiki, erk bu insonlar ega bo'lgan nimadir emas, bu shundoq ham mavjud hodisa. Binsvanger va Boss ekzistensial falsafaisda juda katta o'rin inson o'limi mavzusiga ajratilgan. Mazkur mutaxassislar asarlarida o'lim oldidan qo'rquv hayot masalasidan kam o'rganilmagan. Binsvanger va Boss konsersiyasining fundamental tushunchasi "dunyoda mavjudlik" (Dasein)dir.¹

Inson mavjudigi dunyosining 3 darajasi bor: 1) biologik yoki jismoniy atrof-muhit (landshaft); 2) insoniyat muhiti; 3) insonning o'zi, uning tanasi. Inson mavjudligining mohiyati masalasiga to'xtalar ekan, Binsvanger va Boss insonlarning o'zi dunyo mohiyati ekanligini, ular o'z dunyosiga ega ekanligini, ammo doimo bu dunyo chegarasidan chiqishga harakat qilishini aytib o'tadi. Mazkur holatda, dunyo chegarasi ortidagi mavjudlik haqida so'z borar ekan, olimlar o'zga – narigi olamda

¹ Boeree C. G. Medard Boss / Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3

yashashni nazarda tutmaganlar, balki mavjud bo'lgan muhitdan yangi dunyoga, muhitga o'tish haqida fikr yuritganlar.

Nazorat savollari

1. Ekzistensial psixologiyada shaxs muammosining o'rganilishining o'ziga xosligi.
2. Psixologiyada epigenez qonuniyati.
3. Epigenetik va preformistik psixologik nazariyalar.
4. Ilk etuklik davrida izolyasiya hissi.
5. Psixikaning kompensatorlik imkoniyatlari.
6. V.Frankl: ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi.
7. L. Binsvanger va M.Boss: shaxsning ekzistensial nazariyasi.

Adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 553-593.
2. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright, 2005. – 550p.
3. George Boeree. C. Personality Theories / Sigmund Freud. Psychology Department Shippensburg University/ Original E-Text-Site: [<http://www.ship.edu/~7 Ecgboeree/perscontents.html>]. – P.6.
4. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
5. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
6. Хъелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

6- bob. TURLI XIL PSIXOLOGIYA MAKTABLARINING SHAXS NAZARIYALARI

Reja:

1. *G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi.*
2. *J. Kellining shaxs konstruktлari nazariyasi.*

G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi

Ayzenk Kettelning: "psixologiyaning maqsadi xulq-atvorni oldindan aytib berishdir", – degan fikriga qo'shilib, uning shaxsni tavsiflashda faktorli analizdan foydalanganligini ma'qullaydi. Lekin Ayzenk faktorli analizni Kettelga nisbatan o'zgacharoq qo'llagan. Ayzenkning fikricha, tadqiqot strategiyasi tadqiqotchini qiziqtirgan qandaydir shaxs xususiyatini belgilab, to'liq asoslangan ilmiy farazdan boshlanishi kerak. Unga qarama-qarshi o'larоq, Kettelning aytishicha, shaxsni tashkil qiluvchi asosiy elementlar batareya testlari hamda ma'lumotlarni qayta ishlash orqali namoyon qilinadi. Shunday qilib, Ayzenk nazariyasi Kettelnikiga qaraganda, ancha shafqatsiz yondashuvga ega. Ketteldan farqli o'larоq, Ayzenkning ta'kidlashicha, shaxs xulq-atvori namoyon bo'lishini tushuntirish uchun uchta superbelgi (u bularni tiplar deb ataydi) zarurdir. Esingizda bo'lsa, Kettel shaxs strukturasini tashkil qiluvchi 16 ta belgi yoki faktorni belgilagan edi. Va nihoyat, Ayzenk individ rivojlanishida asosiy e'tiborni genetik omillarga qaratadi. Bu bilan, Ayzenk tashqi muhit ta'sirini inkor qilmagan, balki shaxs xususiyatlari va tiplari, avvalo, irlsiyatga aloqador ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lган. Hozirgi paytgacha, genetikaning shaxs xulq-atvoriga qay darajada ta'sir etishi aniqlanmagan bo'lsa-da, ko'п psixologlar bu borada Ayzenkning fikrlariga qo'shilishadi.¹

Ayzenk nazariyasining mohiyati shundan iboratki, shaxs elementlari ierarxik joylashishi mumkin. Uning sxemasida (6-4 rasm) ekstraversiya singari ma'lum bir shaxs xususiyatlari yoki tiplari keltirilgan bo'lib, ular xulq-atvorga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, har bir keltirilgan superbelgililar bir qancha tarkibiy belgilardan tashkil topganini ko'rsatgan. Bu tarkibiy belgililar asosiy tipning yuzaki aksi bo'lishi yoki bo'lmасам, shu tipga tegishli o'ziga xos xususiyat sifatida ko'riliши

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck / Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.5

mumkin. Va nihoyat, belgilar ko'p sonli odatiy reaksiyalardan tarkib topgan bo'lib, ular o'z navbatida, ko'plab o'ziga xos reaksiyalardan shakllanadi. Misol uchun, biron shaxsni kuzatadigan bo'lsak, agar u boshqa bir inson bilan iliq yuz va samimiy tabassum bilan qo'l uzatib ko'rishsa va bu holat har safar kim bilandur uchrashganda sodir bo'laversa, bu uning odatiy reaksiyasi hisoblanadi. Ushbu odatiy reaksiya boshqa odatiy reaksiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Dularga misol qilib, boshqa odamlar bilan suhbatlashish, turli bazmlarga horishni yoqtirish va hakazolarni aytish mumkin. Bu odatiy reaksiyalar guruhi kirishimlilik xususiyatini shakllantiradi. 6-4 rasmda ko'rsatilganidek, kirishimlilik bosqichida aktiv va o'ziga ishongan xatti-harakat asosiy hisoblanadi. Umumiy holatda bu xususiyatlar superbelgi yoki tipni tashkil qiladi. Ayzenk uni ekstraversiya deb ataydi.

Shaxsning asosiy tiplari

Ayzenk insonlar haqida ma'lumotlar olish uchun o'zini o'zi kuzatish, ekspert baholash, biografik ma'lumotlar analizi, fizik va fiziologik parametrlar, shuningdek, obyektiv psixologik testlar singari ko'plab metodlardan foydalangan. Olingan ma'lumotlar shaxs strukturasini aniqlash uchun faktorli analizda qo'llanilgan¹. O'zining dastlabki tadqiqotlarida Ayzenk ikki asosiy tipni ajratgan – introversiya/ekstraversiya va neyrotizm / barqarorlik (ba'zi holatlarda bu faktor beqarorlik/barqarorlik deb ham ataladi). Shaxsning bu ikki o'Ichovi ortogonal bo'lib, ular statistik jihatdan bir-biriga bog'liq emas. Shunga muvofiq, insonlarni to'rt guruhga ajratish mumkin. Bunda shaxs o'zida yuqori yo quyi diapazondagi bir tip bilan yuqori yo quyi diapazondagi ikkinchi bir tip kombinatsiyasini namoyon etadi. Jadvalda ko'rsatilishicha, har qaysi tip bilan shaxs belgilarini izohlaydigan nomlar birlashtiriladi. Bu 4 guruhni ko'rib chiqishda 2 ta narsani inobatga olish kerak. Birinchidan, ikkala masofa (diapazon) tiplari me'yoriy taqsimotga ega, uzlusiz hisoblanadi va keng individual farqlar spektrini ko'rib chiqadi. Ikkinchidan, har bir tipga mos belgi ta'rifi boshqa hodisalarini o'z ichiga oladi. Ko'plab odamlar o'rta nuqtaga yaqin bo'lishga moyil – ikkala tip masofalarida – va shuning uchun 1-jadvaldagagi kabi ekstremal tavsifga uncha ega bo'lishmaydi.

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

Ayzenk tomonidan ikki mustaqil parametrlar asosida shaxslarning to'rt kategoriysi ta'rifidir.

Har bir kategoriya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, introversiya va ekstraversiyaning yuqori va quyi darajasi hamda barqarorlik va neyrotizmning yuqori yoki quyi darajasi kombinatsiyasini tijas hisoblanadi.

1-jadval

	Barqaror	Nevrotizm
Introvert	Xotirjam, muvozanatlashgan, ishchqli, nazorat qiluvchan, tinchliksevar, e'tiborli, g'amxo'r, passiv	Kayfiyati tez o'zgaruvchan, xavotirlanuvchan, rigid, mulohazali, pessimist, mahdud, muloqotchan emas, indamas
Ekstravert	Lider, beg'am, quvnoq, ko'ngilchan, hozirjavob, muloqotchan, do'stliksevar, kirishimli	Jizzaki, halovatsiz, agressiv, qo'zg'aluvchan, o'zgaruvchan, impulsiv, optimist, aktiv

Jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, introvert va barqaror shaxslar, qonun-qoidalarga amal qiladigan, g'amxo'r va e'tiborli insonlardir. Va aksincha, introvert va neyrotizm kombinatsiyasi individ xaddi-harakatlarida xavotirlanish, pessimistik kayfiyat va mahdudlikka sabab bo'ladi. Ekstravert va barqaror shaxsning xulq-atvorida mehribonlik, ko'ngilchanlik va kirishimlilik ko'zga tashlanadi. Va nihoyat, ekstravert va neyrotizmga moyil shaxslarda agressiv xulq-atvor, impulsivlik hamda tez qo'zg'aluvchanlik singari xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ayzenk asosiy e'tiborini individual farqlarga qaratgan. Demak, bu kombinatsiyalar ichida birini ikkinchisidan afzallik tarafi yo'q. Ularning har birini ijobiy va salbiy jihatlari mavjuddir.

Keyinchalik Ayzenk o'z nazariyasiga shaxsni o'Ichashdag'i uchinchi tipni, ya'ni *psixotizm* – *Super-ego kuchini* kiritgan. Bu xususiyatga ega shaxslar egotsentrik, impulsiv, boshqalarga nisbatan befarq, jamiyat normalariga qarshilik qilishga moyil bo'ladi. Ular ko'pincha xavotirda bo'lishadi, insonlar bilan muloqotga kirishishga qiyinalishadi va boshqalarga ko'ngilsizliklar olib kelishadi. Ayzenkning fikricha,

psixotizm genetik xususiyatga ega bo'lib, bu holat ayollarga nisbatan erkaklarda ko'proq uchraydi¹.

Xususiyat va tiplarning neyrofiziologik asoslari

Ayzenk ishlardagi eng e'tiborga loyiq jihatlardan biri – bu uning shaxs xususiyatlari yoki tiplarining neyrofiziologik asoslarini topishga harakat qilishi bo'ldi. Introversiya-ekstraversiya bosh miya qobig'i aktivatsiyasi bilan bog'liq. Bu narsa elektroensefalografik tadqiqotlarda ko'rildi. Ayzenk "aktivatsiya" terminini qo'zg'alish darajasini aniqlash maqsadida qo'llagan. Bu qo'zg'alish daroji quiy chegaradan (uyqu holati) yuqori chegaragacha (yahimalanish holati) o'zgarishi mumkin. Uning fikricha, introvertlar o'ta qo'zg'aluvchan, ya'ni tashqi stimullarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo'lishadi. Shu sababdan ham, introvertlar ularga kuchli ta'sir qiluvchi holatlardan qochishga harakat qilishadi. Va aksincha, ekstravertlar esa unchalik qo'zg'aluvchan bo'lmay, tashqi stimullarga nisbatan sezgir emas. Shuning uchun ham ekstravertlar doimo ularni qo'zg'ata olishi mumkin bo'lgan holatlarni qidirishadi.

Ayzenkning fikricha, barqarorlik-neyrotizm bo'yicha individual farqlar avtonom nerv sistemasining stimullarga bo'lgan reaksiyasi kuchini aks ettiradi. Xususan, u bu holatni motivatsiya va emotsiyal xulqqa ta'sir qiluvchi limbik sistema bilan bog'laydi. Neyrotizm yuqori bo'lgan shaxslarda barqaror shaxslarga nisbatan kasallikkarga, xavotirli vaziyatlarga reaksiya tezroq bo'ladi. Bunday toifa shaxslarda stimullar yo'qolishiga qaramay reaksiya uzoq mudat davom etishi ham mumkin.

Psixotizm sabablarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar hali nihoyasiga etmagan. Lekin shunga qaramay, Ayzenk gipotezesiga ko'ra, bu holat anrogen ishlab chiqarish tizimi (ichki sekretsiya bezlari ishlab chiqaradigan kimyoviy moddalar bo'lib, qonga tushganda erkaklarning jinsiy belgilari rivojlanishi va saqlanishini boshqaradi) bilan bog'liqidir. Ammo bu sohadagi empirik tadqiqotlar juda kam bo'lib, jinsiy gormonlar va psixotizm aloqasi haqidagi Ayzenk gipotezasini tasdiqlash etarli emas.

Ayzenk tomonidan taklif etilgan shaxs xulq-atvorining neyrofiziologik interpretatsiyasi uning psixopatologik nazariyasi bilan bog'liqidir. Turli xil simptomlar va buzilishlar shaxs nerv sistemasining

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P. 7

funksiyasiga bog'liq. Misol uchun, yuqori darajadagi introversiya va neyrotizmga ega shaxsda obsessiv-kompulsiv buzilishlar, shuningdek, fobiyalar kabi xavotirli holatlar bilan bog'liq kasalliklarning rivojlanish ehtimoli yuqoridir. Va aksincha, yuqori darajadagi ekstraversiya va neyrotizmga ega shaxslarda psixopatik (antisotsial) kasalliklarga chalinish ehtimoli kuchli. Lekin, Ayzenk shuni qo'shimcha qilib aytadi ki, insondagi psiik buzilishlar uning genetik tuzilishining avtomatik natijasi emas. Genetik irsiylik shaxs ma'lum bir vaziyatlarga tushganda o'zini qanday tutishiga sababchi bo'ladi. Ayzenknинг fikricha, psixik buzilishlar genetik asosga ega bo'ladi, lekin atrof-muhit omillari uni rivojlanishini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin.

Shaxs xususiyatlarini o'chash

Kettel singari Ayzenk ham shaxsning uchta super xususiyatidagi individual farqlarni aniqlash uchun ko'plab o'zini-o'zi baholash so'rovnomalarini ishlab chiqqan¹. Ularning eng oxirgisi "Ayzenk shaxs so'rovnomasi" hisoblanadi (Eysenck Personality Questionnaire, EPQ). EPQ punktlaridan namunalar 2-jadvalda berilgan. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu so'rovnama shaxs strukturasini shakllantirishda muhim hisoblangan mazkur uch faktorli punktdan iborat. Bundan tashqari, EPQ o'z ichiga yolg'on shkalasini ham kiritgan bo'lib, uning yordamida shaxs o'zini yaxshi ko'rsatish maqsadida yolg'on ishlatisini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, 7-15 yoshdagи bolalarni test qilish uchun "O'smir shaxs so'rovnomasi" (Junior EPQ) ham ishlab chiqilgan.

2-jadval

Ayzenkning shaxs so'rovnomasi punktlaridan namuna

<i>Ekstraversiya-Introversiya</i>	
1. Jamoat joylarida bo'lishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
2. Odamlar bilan muloqot qilishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
3. O'zingizni omadli deb hisoblaysizmi?	Ha Yo'q
<i>Barqarorlik/beqarorlik</i>	
1. Sizning kayfiyattingiz tez-tez o'zgarib turadimi?	Ha Yo'q

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.5

2. Siz tez hayajonga tushadigan shaxsmisiz?	Ha Yo'q
4. Siz ko'pincha tushkun kayfiyatda bo'lasizmi ?	Ha Yo'q
<i>Psixopatiya</i>	
1. Siz uchun yaxshi xulq va ozodalik muhimmi?	Ha Yo'q
2. Siz insonlar bilan qo'pol muomalada bo'lmaslikka intilastizmi?	Ha Yo'q
3. Siz boshqa kishilar bilan hamkorlik qilishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
<i>Yolg'on shkalasi</i>	
1. Siz ba'zida uyatsiz hazillar qilishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
2. Bolaligingizda sizga buyurilgan ishlarni hech qanday norozilik va shikoyatlarsiz bajarganmisiz?	Ha Yo'q

G.Ayzenk va R.Kettell faktorlashtirishda turli xil shaxs so'rovnomalardan foydalanishi, shaxsni ta'riflashda muhim hisoblangan sususiyatlar sonida farqlar yuzaga kelishining asosiy sababi hisoblanadi. Bu erda faktorli analiz natijalari bevosita olinayotgan ma'lumotlar tipi va manbaasiga bog'liqdir. Ayzenknинг shu narsaga ishshonchi komil ediki, uning ikki kriteriyasi – introversiya/ekstraversiya va barqarorlik /neyrotizm boshqa ko'plab shaxs so'rovnomalarni o'tkazgan bir qancha tadqiqotchilar tomonidan empirik jihatdan tasdiqlangan. Ushbu nuqtai nazar to'g'ri ekanligini isbotlovchi asosiy dalillar ekstravert va introvertlar xulq-atvorini tadqiq etilishi natijasida olingan.

Introvert va ekstravertlar o'rtasidagi farqlar

Ayzenk o'zining nazariy konsepsiyalarida katta e'tiborni aniq o'lchovlarga qaratdi. Bugungi kunga qadar uning ishlarini katta qismi introversiya-ekstraversiyaga bog'liq ravishda shaxs xulq-atvorida farqlar mayjud bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan edi¹.

Ayzenknинг ta'kidlashicha, xulq-atvordagi individual farqlar faktori analiz orqali aniqlanishi, so'rovnomalarni hamda laboratoriya sharoitlarida o'lchanishi mumkin.

Ayzenk nazariyasini doirasidagi test natijalari orqali olingan tadqiqotlarga ko'ra, bir qator e'tiborga loyiq faktlar keltirilgan. Masalan, ekstravertlar introvertlarga qaraganda, og'riqqa ancha chidamli bo'lib,

¹ Boeree C.G. Hans Eysenck / Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

ish paytida suhbat qurish va kofe ichish uchun ko‘proq pauza qilishadi. Ulardagi qo‘zg‘alish harakat va faoliyatlarini samarali bo‘lishini ta‘minlasa, bu narsa introvertlarga to‘sqinlik qiladi¹.

Ekstravertlar va introvertlar o‘rtasidagi ba’zi bir empirik o‘rnatilgan farqlar quyida keltiriladi.

- Introvertlar nazariy va ilmiy ko‘rinishga ega bo‘lgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishni yoqtirishsa (masalan, injenerlik ishlari va ximiya kabi), ekstravertlar esa insonlar bilan ishlashni ma’qul ko‘rishiadi (masalan, savdo-sotiq ishlari, ijtimoiy xizmat).

- Kolledjda introvertlar ekstravertlarga qaraganda ko‘proq muvaffaqiyatlarga erishishadi. Kolledjni psixiatrik sabablarga ko‘ra qoldiradigan studentlarning aksariyati introvertlar bo‘lsa, akademik sabablarga ko‘ra, qoldiradiganlarining asosiy qismini ekstravertlar tashkil qiladi.

- Introvertlar ertalab o‘zlarini ancha tetik his qilishsa, ekstravertlarda bunday holat kechqurun kuzatiladi. Bundan tashqari, introvertlar ertalablarini yaxshi ishlashadi, ekstravertlar esa kunning ikkinchi yarmida.

Introvertlar va ekstravertlar o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning stimullarga bo‘lgan sezgirligidir. Bu farq “limon tomchisi testi” yordamida oson aniqlanishi mumkin. Agar bir odamning og‘ziga 4 tomchi limon suvi tomizilsa, introvertlarda ekstravertlarga qaraganda ikki baravar ko‘p so‘lak ajralar ekan. Bu holat introvert va ekstravertlar fiziologik faoliyati bilan bog‘liq hisoblanadi. Ayzenkning fikricha, introvert hamda ekstravertlarning stimullarga bo‘lgan reaksiyasiidagi farqning asosiy sababi ularning bosh miya stvolidagi retikulyar shakltsiyaning faoliyatiga bog‘liq.

Ayzenkning shaxsnинг to‘liq suratini yaratishda qilgan sa‘y-harakatalari tahsinga sazovordir. Ko‘pchilik psixologlar uni ilmiy asoslangan shaxs strukturasi modelini yaratishda bиринчи darajali mutaxassis deb hisoblashadi. O‘zining har bir ishida Ayzenk, individual xulqdagi farqlarni tushuntirishda neyrofiziologik hamda genetik omillar roliga e’tibor qaratgan. Bundan tashqari, uning ta‘kidlashicha, ishonchli shaxs nazariyasi yaratishdagi asos – bu aniq o‘lchov ishlari hisoblanadi. Shuningdek, uning kriminologiya, ta‘lim, psixopatologiya va xulqdagi o‘zgarishlar sohalaridagi tadqiqotlarini alohida tahlidlab o‘tish joiz. Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Ayzenk nazariyasining shuhratı

¹Boeree C. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

halibundanda yuqoriga ko'tarilib, olimlar tomonidan uni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammallashtirish davom etadi.

Dj.Kellining shaxs konstruktлари nazariyasi

Djordj Kelli (1905-1966) – amerikalik psixolog, Ogayo universiteti professori. 1955-yilda nashr etilgan, o'zining asosiy ishi bo'lgan "Shaxs konstruktлари psixologiyasi" ustida Kelli 20 yil ishlagan. Uning nazariy konsepsiysi E.Erikson, A.Maslou va boshqalar psixologlarniki singari boy amaliy va psixoterapevtik tajribaga tayanadi. Eng asosiysi, ularni bir fikr birlashtiradi. Unga ko'ra, shaxsga alohida elementlarga bo'lib bo'lmaydigan, bir butun sistema sifatida qarash kerak. Shunga qaramasdan, Kellining nazariyasi psixoanaliz va gumanistik psixologiya doirasida ishlab chiqilgan klassik ishlardan ajralib qoldi¹.

Har bir shaxs nazariyasi o'zining konkret tushuntirish prinsipiga asoslangan markaziy nuqtasiga ega. Misol uchun, psixoanalizda markaziy tushuncha – bu "ongsizlik ta'siri" hisoblanib, shaxs modeli ikki asosga ko'ra quriladi. Bular ongsizlik holati va jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalardir. Z.Freyd instinktiv kuchlar (ong osti, ong oldi va ong) shakllanish darajasiga e'tiber qaratib, shaxs podsistemasini uchga bo'ladi (Id, Ego, Super-Ego). Shaxs dinamikasi ong osti faoliyat natijasi hisoblanadi. K.Rodjers nazariyasining asosini shaxs o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi va o'z-o'ziga baho berishi tashkil etsa, K.Levinda esa maydon tushunchasi etakchi o'rinda turadi. Ko'pchilik zamonaviy psixologlar uchun shaxs tahlilining asosiy obyekti – shaxsning motivatsion sohasi, uning yo'nalganligi, prinsipi esa psixik determinatsiya hisoblanadi.

Ba'zi bir ishlarda shaxsning individual xususiyati sifatida barqaror kognitiv strukturalari qabul qilingan. Bu – shaxs bilish jarayonining tarkibiy eleenti hisoblanadi.

Odatda, an'anaviy shaxs kotsepsiylarida kognitiv (ong oldi) xarakteristika boshqa tushunchalar yordamida ifodalangan. Bir necha o'n yillar avval Amerika, shuning bilan birga jahon psixologiyasining bir qismini bixevoizm maktabiga tegishli deb hisoblashgan. XX asrning 50-yillardidan chet el psixologiyasida psixika tuzilishining asosi ong deb qaralgan. Shu bilan birga, G'arbda eksperimental psixologiya sohasida yangi yo'nalish – kognitiv psixologiya vujudga kelishi bilan

¹ Boeree C.G. GeorgeKelly/Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – p.3

bog‘liq o‘ziga xos revolutsiya sodir. Bilish jarayonlari – idrok, tafakkur, diqqat va xotira bilan bog‘liq tadqiqot ishlari soni ko‘paydi.

Psixologiyaning predmet va metodlari yangicha talqin etila boshladi. Kognitivistlarning fikricha, shaxsnинг xulq-atvorini uning bilimlari boshqarardi. Bilimlar rolini ajratish tadqiqotchilarning umumiy yo‘nalishini belgilab berdi. Endi tashqi shart-sharoitlar va stimullarni tasniflash birdan bir maqsad bo‘lmay, bilimlar tizimini, ya’ni obyektlar, holatlar va boshqa insonlarning ichki reprezentativlari(tasavvurlari)ni namoyon qiluvchi vosita sifatida chiqdi.

Shunday qilib, kognitiv psixologiya, zamonaviy psixologiyaning etakchi yo‘nalishlaridan biriga aylanib, bixevoiristlar tomonidan psixologik jarayonlar shakllanishining ichki strukturasini rad etilishi va psichoanaliz tomonidan shaxs faoliyatida bilimning rolini pasaytirilishiga qarshi reaksiya sifatida vujudga keldi.

Kognitiv psixologiya psixik jarayonlar kechishidagi va shaxs xulq-atvoridagi bilimlar, kognitiv strukturalar va sxemalarning hal qiluvchi roliga asoslangan holda shakllanadi. Kognitiv psixologiya rivojlanishining birinchi bosqichi D.Brodbent, U.Naysser, R.Atkinson va boshqa olimlar tadqiqotlari bilan bog‘liqidir. Dj.Bruner, S.Shexterlar emotsiyaning kognitiv nazariyasi asoschilarini hisoblanadi. M.Ayzenk esa individual farqlarning kognitiv nazariyasini taklif etgan bo‘lsa, Dj.Kelli, M.Makoni va Tomslar shaxs muammolari bilan shug‘ullanishgan.

Biz faqat Dj.Kellining shaxs kognitiv nazariyasiga to‘xtalib o‘tamiz. U erda shaxs konstruktlar sistemasi sifatida talqin etiladi.

“Ong” kategoriysi ichidagi xulq-atvor ko‘rsatkichlari sifatida yo bizning tasavvurlarimiz tarkibi (o‘z-o‘zini baholash, sotsial tarkib), yoki bo‘lmasam ongning shakll xarakteristikasi (kognitiv maydon strukturasi, kognitiv balansning mavjudligi yoki dissonans) qabul qilinadi. Ongning shakll xarakteristikasi (masalan, kognitiv dissonans, konsonans) bilan Leon Festinger shug‘ullangan. U ishlab chiqqan maxsus nazariyaga ko‘ra, individning ongida biron-bir obyekt yoki hodisa haqida qarama-qarshi ma’lumotlarga duch kelinsa, unda noqulaylik hissi vujudga keladi. Subyekt bu noqulaylikdan qutilish uchun ushbu obyekt haqidagi bilimlarini qaytadan yangilashga, yoki bo‘lmasam o‘zining sotsial ko‘rsatmalarini o‘zgartirishga intiladi. Qarama-qarshilikdan qutilish konsonans holatiga olib keladi.

Kellining konsepsiysi kognitiv deb nomlanishiga, unda insonning unga ta’sir qiluvchi stimullarni idrok etishi, ushbu stimullarni o‘z xulq-atvorida talqin qilish va o‘zgartirish yo‘llari e’tiborga olinishi sabab

bo'lgan. L.Festingerdan farqli o'laroq, J.Kelli ongning nafaqat shakll, balki mazmuniy xarakteristikasini tadqiq qilishga harakat qilgan¹.

U o'zining tadqiqot metodi va nazariyasini ishlab chiqishga 20 yildan ko'proq vaqt sarflagan. 1955-yilda uning "Shaxs konstruktllari psixologiyasi" nomli kitobi nashrdan chiqqanida unchalik muvaffaqiyatga erisholmagan. Chunki, o'sha paytda faqat kamdan-kam nazariyalardagina psixika analizi birligi sifatida "kategoriya" tushunchasi ishlatilgan (ularning ichida I.Tolmen va Dj.Brunerlar bo'lgan). Hozir esa shaxs konstruktllari nazariyasi psixologiyadagi asosiy fundamental nazariyalardan biri hisoblanadi.

Kellining fikricha, insонning bilish bilan bog'liq faoliyati real faktlarning klassifikatsiyasi hamda interpretatsiyasi bilan boshlandi. oxirgisi o'z holicha emas, balki faoliyat subyektiga bo'lgan munosabatidagi reallik sifatida o'rganiladi. Interpretatsiya tushunchasining o'rniغا, u "konstruktlash" so'zini ishlatadi. Inson faktlar ma'noga ega bo'lgan konstruktlar sistemasidan foydalangan holda reallikni konstruktlaydi (uni tushuntiradi, talqin qiladi). Allaqqachon qurib bo'lingan konstruktlar sistemasiga asoslanib, inson voqeа va hodisalarni prognоз qilishga harakat qiladi. Shaxs psixikasining asosiy funksiyasi – kelajakni prognоз qilish hamda xulq-atvorni boshqarish maqsadida realikni tadqiq etishdir. J.Kelli nazariyasining asosiy postulati ham aynan shunda.

Konstrukt tushunchasi

Shaxs mohiyatini interpretatsiya qilish uchun maxsus analiz birligi – konstrukt ishlatiladi. "Konstrukt" termini tushuncha so'ziga o'xshash bo'lib, materialni umumlashtiradi va voqeа-hodisalarni oldindan aytib berish imkonini yaratadi.

Ilmiy tushuncha – bu aloqaning mantiqiy tasdig'i bo'lib, deduksiya yo'li bilan hodisalarning haqiqiy aloqasini tushuntirib berish mumkin. Ilmiy tushunchaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- voqeа-hodisalarni umumlashtirish;
- ular o'rtasidagi aloqani tasdiqlash;
- yangi hodisalarni oldindan aytib berish imkoniyati

Shaxs konstrukt tushunchasi Kelli tomonidan kiritilgan.

¹ Boeree C. G. GeorgeKelly / Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.4-5

Shaxs konstruktı alohida olingen mavjud narsalardagi o'xshashlik va ularning boshqa elementlardan farqli jihatlarini namoyon etishi bilan xarakterlanadi. Konstruktlar bipolyar tushunchalar shakliga ega (oq-qora, egoist-altruist va b.). Shunisi bilan ular ilmiy tushunchadan ajralib turadi. Bundan tashqari, ilmiy tushuncha tabiatda mavjud bo'lgan voqe'a-hodisalarga tegishli bo'lsa, shaxs konstruktleri esa subyekt tomonidan yaratilgan hisoblanadi.

Konstrukt – tajribani mantiqiy shakllantirish vositasi. U shakllanadigan va tushuntirishda foydalaniladigan elementlar turli xil predmetlar, ularning xususiyatlari, shuningdek, odamlar va ularning munosabatlari bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, konstruktlar olamni tushuntirish usuli va vositasi hisoblanadi. Turli hil faktlar kuzatuvchi nuqtai nazariga, uning konstruktlariga muvofiq qarab chiqiladi. Masalan, baland va past, mehribon va yovuz odamlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tasdiqlash konstrukt shakllanishiga olib keladi.

Konstruktarning paydo bo'lishi va ularning tiplari

Konstruktlar shakllanishining umumiyligi usuli shundan iboratki, unga ko'ra ularning tashkil topishi uchun uch element zarurdir. Bu elementlardan ikkitasi o'xshash, uchinchisi esa ulardan farqli bo'lishi kerak. Ikki elementning o'xshashlik belgisi – o'xshashlik qutbini, ularning uchinchi elementga qarama-qarshi belgisi esa kontrast qutbni shakllantiradi. Bu erda elementlar – olamdagi mavjud narsalar va obyektlar. Obyektlar turli xil xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tushunish subyekt tomonidan tanlangan konstruktga bog'liqidir.

Konstruktlar uch turga bo'linadi:

- 1) cheklangan;
- 2) konstellyator;
- 3) propozitsional.

Cheklangan konstrukt – elementlarni faqat konstruktning o'z ichidagina tushuntirishga imkon beradi. Misol uchun, agar bu – kitob bo'lsa, demak bu faqat kitobdir.

Konstellyator konstruktlar – uning elementlari bilan bog'liq qanchadir miqdordagi alternativalarni qayd etadi. Bu turdagagi konstruktlar stereotip tafakkurni ta'minlaydi: "agar bu kitob bo'lsa, u holda u bir qancha sahifalar va matnlardan iborat bo'lib, ustida muqovasi bo'ladi".

Propozitsional konstruktor alohida xususiyatlarni boshqa elementlarga tegishli hisoblamaydi. Shu konstruktor hisobiga obyektga nisbatan falsafiy yondashuv ifodalananadi: "Kitob – bu bilim manbai.

Konstruktarning asosiy xarakteristikasi

Konstrukt bipolarligi hamda qo'llanilish diapazoni va individualligi bilan xarakterlanadi. Konstruktning bipolarligi, uch element o'rtaida o'xshashlik va farqlarni topish yo'li bilan olingan ikki qu'tbning mavjudligini ifodalaydi. Konstruktning qutblari individual bo'lib, ular bir-biriga aynan antonimdek qarama-qarshi bo'lishi shart emas. Shunday qilib, bir shaxsdagi "beparvolik" qutbiga qarama-qarshi qilib "qayg'u-rish", "rahmdilik" qutblarini, boshqasida esa aynan "beparvolik"ka – "emotsionallik", "zavqlanish"ni ko'rsatish mumkin. Shaxs konstruktlarini namoyon etishda sinaluvchida qutblardan birining verbalizatsiyasida qyinchilik tug'ilishi mumkin. V.V.Stolin ta'kidlashicha, bir qutbli konstruktlar shuni ko'rsatadi-ki, inson o'z ongida boshqa bir voqe-a-hodisa tafakkur jarayonidan tashqarigachiqarib yuboradi. J.Kellining fikricha, bu yashirin konstruktlar bo'lib, ongda namoyon bo'lmaydi.

Qo'llanilish diapazoni – bu ushbu konstrukt yordamida talqin etilishi mumkin bo'lgan obyektlar.

Individuallik shaxsnинг anglashi bilan bog'liq bo'lib, shaxs reallikning aktiv tadqiqotchisi sifatida tayyor bilimlarni shunchaki o'zlashtiribgina qolmay, ularni tadqiq etadi, konstruktlaydi hamda gipotezalar chiqaradi. Hodisalarni effektiv talqin eta oladigan konstruktlar saqlani, effektiv bo'imaganlari esa buzilib ketadi. Har bir shaxs o'zining shaxsiy, unikal konstruktini yaratadi.

Bundan tashqari, har bir konstrukt o'zining fokusi va maydoniga ega bo'lib, uni chegarasidan tashqarida prognoz uchun ishlatalish effektiv hisoblanmaydi. Konstrukt maydoni – inson ushbu konstrukt yordamida talqin qiladigan barcha voqe-a-hodisalardir. Fokus esa mazkur konstrukt yordamida tavsiflash effektli hisoblangan voqe-a-hodisalar bo'lib, yanada aniq prognoz qilishga olib keladi.

Konstruktlar sistemasining rivojlanishi

Kellining fikriga ko'ra, har qanday konstrukt motiv va bilish jarayonlarining rolini bajaruvchi funksiyaga ega bo'lib, hodisani oldindan aytib berishga xizmat qiladi. Konstruktlash va prognozlashning

aloqasini tasdiqlash – shaxs konstruktleri psixologiyasining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Konstruktiv sistemani takomillashtirishning ikki xil yo‘nalishi bo‘lib, ulardan biri aniqlash prinsipiiga ko‘ra, ya’ni kam sonli hodisalar haqida aniq fikrga ega bo‘lish bo‘lsa, ikkinchisi kengaytirish prinsipiiga ko‘ra, hech bo‘lmaganda noaniq tasavvurlar bo‘lsa ham, lekin narsalar doirasi etarlicha keng bo‘lishi kerakligi haqidagi ko‘rsatmalar shakllanadi.

Tajriba yig‘ish yangi konstruktlar shakllanishi hisobiga amalga oshadi. Sotsial o‘zaro ta’sir jarayoniari konstruktlar o‘zgarishining asosiy sababi sifatida ko‘riladi va bunda konstruktlar o‘zgarishi xulq-atvor o‘zgarishiga olib keladi.

Konstruktarning o‘zgarish xarakteri ularning o‘tkazuvchanligiga bog‘liqdir. O‘tkazuvchan konstruktlar deb, ularga yangi elementlar joriy etilishi mumkin bo‘lgan konstruktlar tushuniladi. O‘tkazmas konstruktlardan o‘tgan voqealarni tushuntirishda foydalaniлади.

Repertuar panjaralar testi

Shaxs konstruktleri diagnostikasida repertuar panjaralar testi qo‘ilaniladi¹. Testning birinchi bosqichida tadqiq etiluvchi qism tanlanib, obyektlar nabori (elementlar repertuari) beriladi. Elementlar tadqiqot vazifasiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Bu konkret elementlar nabori (real insonlar ismi, adabiy qahramonlar, predmetlar nomi, rasmlar), rollar ro‘yxati (ota, ona, men 10 yildan so‘ng, ijobil ‘baholanuvchi erkak va b.) yoki tadqiq etilayotgan mavzuga oid boshqa ixtiyoriy elementlar sanab o‘tilishi mumkin. Elementlar soni 8 tadan kam va 25 tadan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida konstruktlar aktualizatsiyasi qo‘llaniladi. Bunga misol qilib, triad metodi yoki minimal kontekst metodini aytish mumkin. Repertuar tanlovdan 3 ta element tanlanadi. Har bir uchtalikda 2 ta o‘xhash obyekt ajratiladi va ularning o‘xhashlik belgisi aytildi. Keyin uchinchi obyektning avvalgi ikkisidan farqli jihat topiladi. Agar elementlar kam bo‘lsa, 30 ta uchtalikdan keyin kamdan-kam holatda yangi konstruktlar chiqishi ehtimolligini hisoga olgan holda uchchalasini ham olish mumkin. Elementlarning o‘xhash va farqli jihatlarini aniqlovchi parametrlar konstruktarning qutblari hisoblanadi.

¹ Boeree C. G. GeorgeKelly / Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.14-15

Test natijalarini analiz qilishda konstruktarning mazmuniy tomoni, ularning soni va bir-biri bilan aloqasi hisobga olinadi. Konstruktlar ierarxik sistema bo'lib shakllangan va ikki prinsipga ko'ra o'zaro bo'ysunadi:

a) qismiy o'zaro bo'ysunish – bunda bo'ysunuvchi konstrukt qutbi o'zidan yuqori ierarxiyadagi konstrukt qutbining bir elementi sifatida namoyon bo'ladi ("aqli-axmoq" konstrukt o'z qutblari bilan "yaxshiyomon" konstrukt ichiga kiradi);

b) ko'ndalang – bo'ysunuvchi konstruktning ikkala qutbi o'zidan yuqori konstrukt qutblaridan birining tarkibiga kiradi ("aqli-axmoq" konstruktning ikkala qutbi "baholovchi-tavsiflovchi" konstruktning "baholovchi" qutbiga kiradi).

Shaxsiy jarayonlar konstruktlar boshqaruvi orqali yo'naladi va ular hodisalarni oldindan ko'ra bilishga xizmat qiladi. Bu sistema harakatchan, o'zgaruvchan, lekin strukturalashgan hisoblanadi. Har bir konstrukt o'zida ikki yo'nalishda harakat qila olish mumkin bo'lgan bir ko'cha singari namoyon bo'ladi. Yangi konstrukt yangi harakatni belgilab beradi. Stress holatida inson yangisini qo'llamay, eski konstrukt yordamida boshqa yo'nalishda harakat qiladi.

Konstruktlar va boshqa psixik hodisalar

Shaxs yadrosi konstruktlar sistemasi tomonidan ko'rsatilgan. Boshqa barcha – shaxsiy va bilish xususiyatlari – bevosita konstrukt fenomeni orqali tavsiflanadi. Shunday qilib, bezovtalik holati konstruktlar o'zgarishi natijasida vujudga keladi, deb qaraladi. Konstruktiv sistemaning biron hodisaga fokusirovkalaniishi diqqatni anglatса, konstruktiv sistemaga bog'langan hodisa – xotira, strukturalanmagan hodisa esa unutishni bildiradi.

Kelli shaxsni ong va prognozlashtirishning dastlabki faol subyekti sifatida qarab, unda motivatsiya tushunchasidan foydalanmaydi. Bu termin, uning fikricha, shaxs qachonki tadqiqotchi tomonidan passiv mavjudot sifatida qaralsagina ma'noga ega bo'ladi.

Oxirgi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, konstruktiv sistema shaklanishining murakkabligi berilayotgan stimullarning murakkabligiga bog'liqidir. Bunda bola va kattalar o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'yinaydi. Lekin hanuzgacha bolaning konstruktiv sistemasi rivojlanish jarayoni to'liq ochilmagan.

Shaxsni rekonstruksiya qilishda mijoz bilan psixoterapevtik ishni amalga oshirish muhimdir. Kellining fikricha, psixoterapiyaning

maqsadi – konstruktlar sistemasini qayta tiklashdir. Bu tiklanish keyinchalik faoliyatda, tadqiqot jarayonida va reallikni prognoz qilishda sinovdan o‘tadi¹.

Nazorat savollari

1. G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi.
2. Shaxsnинг asosiy tiplari.
3. Xususiyat va tiplarning neyrofiziologik asoslari.
4. Shaxs xususiyatlarini o‘lchash.
5. Introvert va ekstravertlar o‘rtasidagi farqlar.
6. Dj.Kellining shaxs konstruktleri nazariyasi.
7. Konstrukt tushunchasi.
8. Konstruktarning paydo bo‘lishi va ularning tiplari.
9. Konstruktarning asosiy xarakteristikasi.
10. Konstruktlar sistemasining rivojlanishi.
11. Repertuar panjaralar testi.
12. Konstruktlar va boshqa psixik hodisalar.

Adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 553-593.
2. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright, 2005. – 550 p.
3. George Boeree. C. Personality Theories / Sigmund Freud. Psychology Department Shippensburg University/ Original E-Text-Site: [<http://www.ship.edu/%7Ecgboeree/perscontents.html>]. – P.6.
4. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
5. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
6. Хъелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

¹ Boeree C. G. GeorgeKelly / Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.13.

7-bob. SHAXS PSIXOLOGIYASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Reja:

1. Rossiya psixologik maktablarida shaxs muammosi.
2. Shaxs psixologiyasi doirasida o'tkazilgan zamonaviy tadqiqotlar.

Bir necha o'n yillar davomida milliy psixologiya tadqiqotlari shaxs faoliyati prinsiplariga asoslangan edi. Bu prinsiplar mualif haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar yo'q. Bu prinsiplar birinchi bo'lib 1922-yil Rubenshteynning "Shaxs ijodiy faoliyati prinsipi" maqolasi orqali yuzaga kelgan degan fikrlar ham mavjud. Bundan tashqari o'tgan asarning 20-30 yillarida L.S.Vigotskiy tomonidan yozilgan bir necha asarlar ham bu prinsiplarning fundamental g'oayalariga asos bo'lgan degan ma'lumotlar ham mavjud. Bu prinsipning ma'no mazmuni milliy psixolog L.Y.Galperin yoritgan edi. Uning yozishicha shaxs ijodiy faoliyati faqatgina shaxs tor doirasida emas, subektning tashqi va obektiv faoliyatini o'z ichiga olib o'rghanish kerak; shaxs ijodiy faoliyati psixikaning zarurligini, unig tarkibi va tuzilishi tashqi faoliyat bilan uzzviy bog'liqligini o'rghanish; psixologik faoliyatda shaxs ishtirok etmaydigan protses emas subektning muommoviy holatdagi faoliyati bilan ko'rib chiqish.

Milliy psixologiyada shaxs ikki qarash bilan o'rghaniladi.

Barcha psixologik jarayonlar – e'tibor, xotira, fikrlash shaxsga tobe bo'lgan tanlangan xarakterga ega aktiv holtaga egadir. (motivatsya, qiziqish, maqsadga, xarakter).

Shaxsni o'z-o'zidan o'rghanish qarshi bilan sturukturasi, uning shakillanishi nazaryasini o'rgandi.

L.S.Vigotskiy (1896) – metodolog psixolog, ko'p yillar davomida bola psixikasini o'rghanishda empirik usullardan foydalanish programmasi ustida ish olib brogan. 10 yil davomida olib borilgan tinimsiz va intensiv izlanishlar orqali u 180 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Bun basarlar orasida "San'at psixologiyasi", "Fikr va nutq", "Pedagogik psixologiya", "Psixologik krizisning tarixiy mazmuni" kabi asarlari mashhurdir. Vigotskiy alohida e'tibor qaratgan "Markaziy kategoriga insonni ongi edi. Vigotskiy marksizm g'oayalariga asoslanib, psixik o'zgarishlarga tavsif qidirishga harakat qildi.

Ichki psixik jarayonlarni tushunish uchun. Inson organizmi doirasi-dan chiqib, uning atrof-muhit bilan bo‘ladigan munosabatini o‘rganish karak edi.

Uning konsersiyasi ma’naviy-tarixiy deb atash mumkin edi, chunki ong va psixik jarayonlarga interpretasiyani faqatgina ularning rivojlanishi va qurilishi orqali berish mumkin edi. Vigotskiyning asosiy g‘oyasi, yuqori psixik funksiyalarning rivojlanishini tasqidlash bilan bog‘liq edi. Ular yosh bolada kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi. Vigotskiyning fikricha, rivojlanish, ma’naviy belgilarni. Ularning ichida eng soddasi bo‘lgan so‘zlarni o‘zalashtirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Oliy psixologiya doir muommolar birga insonda tug‘ilishdan mayjud bo‘lgan funksiyalar xususida han babs yuritiladi. Vigotskiyning fikriga ko‘ra rivojlanish ikki yo‘nalishga bo‘ladi:

Bola rivojlanishida bu ikki yo‘nalish ham ishtirok etadi, va biz ularni izdir holatda filogenezda uchratishimiz mumkin: bular; biologik va tarixiy, tabiiy yoki ma’naviy xulqning rivojlanishidir. Ontogenezda bu ikki jarayonlar o‘z paralellariga egadir.

Tabiiy funksiyalar bular mexanik xotira, e’tibor, obrazli fikrlarni organik rivojlanishlar bo‘lib ular tashqi muhit bilan bo‘lgan aloqa davomida shakillandi. Oliy psixik funksiyalarga – logik xotira, dunyoqarash, tushunchalarda fikrlash. Birinchi-tabiiy stimul reaksiya prinsipi asosida, ikkinchisi esa qonun bilan rivojlanadi.

Vigotskiy ikkita gipotezani ilgari surgan:

- 1) oliy psixik funksiyalarning tarqalishi;
- 2) tashqiintegratsiyayo‘liorqaliichikfaoliyatningvujudgakelishi.

Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, xulq-atvorni o‘zlashtirish avval tashqi (sotsial) planda, kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi va shundan so‘ng funksiyalar ichiga aylanadi. Bu qonuniyat, ma’naviy rivojlanishning umumgenetik qonuni deb ataladi. Shaxsning shakillanishi, Vigotskiyning fikricha, moddiy rivojlanishni aks etadi. Uning fikricha bola shaxsiyati bilan moddiy rivojlanish o‘rtasida teng belgisini qo‘yishimiz mumkin. Shaxs shunday tarixiy rivojlanishda shakllanadi. Shaxsning ko‘rsatkichi deb tabiiy va oliy psixik funksiyalar tarzda ko‘rishimiz mumkin. Insonda qancha ma’noviy funksiyalar ko‘p bo‘lsa unda shuncha dunyo va o‘z xulq-atvori ustidan bo‘lgan boshliqligi kuchayadi.

A.N.Leontev (1903-1979) – psixolog, ilm tashkilotchisi, faoliyat nazariyasi asoschisi. Uning asarlari orasidan “Psixika rivojlanishi”, “Faoliyat, ong, shaxs”, kabilari mashhurdir. Leontev konsersiyasi inson

rivojlanishida ijtimoiy determinatsiyaning o‘rnii haqidagi qarashni ma’qullab, qaysidir ma’noda Vigotskiy yo‘lini davom ettirgan. Leontevning shaxs teoriyasini asosiy prinsipi yordamida insonning natural faoliyatini tushunish bilan ifodalash mumkin. Uning konsersiyasining asosiy tushunchasi bu faoliyat kategoriyasidir. Faoliyat fenomeni sabab, atrof olam ta’sirida yuzaga keladigan jarayon tekshiriladi.

Faoliyatning asosiy shaklsi uning tashqi faoliyatidir. Daliliy ma’nosini bu so‘z ma’nosini bilan solishtiriladi. Leontev ta’kidlab o‘tganidek, ma’no fiqatgina bitta taalluqli bo‘la olmaydi, chunki harakatni individ bajarmaydi. Tarixiy rivojlanishning tashqi faoliyat davrida ichki funksiyalar yuzaga kelishi mumkin, ular tez shakllanib 2ta shaklga aylanadi.

Predmetli faoliyatda asosan o‘z-o‘zini ta’minlay oluvchi-harakat va operatsiyalar ajralib chiqadi. Ichki faoliyatda motiv va maqsad shularga kiradi. Butun bir faoliyatni o‘rganishdan maqsad ichki sistema bog’lamishlar va munosabatlarni tadqiq qilishdir.

A.N.Leontev fikricha shaxs bu faoliyatning ichki momenti, shaxs tushunchasi asosan individ tushunchasi bilan adashtiriladi. “Individ” tushunchasi konkret subektning bo‘linmasligi, butunligi va o‘zgacha ekanligini ifodalaydi. Individ filogenetik va ontogenetik rivojlanishning so‘nggi mahsulidir. Shaxs strukturasi motiv va faoliyat orqali yuritiladi. Uning ta’kidlashicha, insonning alohida psixologik yoki sotsial-psixologik tomonlaridan kelib chiqgan holatda “Shaxs strukturasini” hoslil qilish mumkin emas, bu shaxs o‘zagida unga o‘rnatilgan genetik programmalarida, uning mavjud salohiyatida emas balki bilimi va faxnidadir.

Shaxs analizi birligida shaxs mazmuni inson ongida motivni maqsadga bo‘lgan munosabati sifatida o‘rtaga chiqadi. Shaxs mazmun shaxs analizi sifatida o‘rtaga chiqsa olmaydi chunki uning haqiqiy ko‘rinishi individ bilan bo‘lgan munosabati bilan o‘lchanadi. Mazmun bu haqiqatning umumlashtirgani bo‘lib, asosan, so‘z va gaplarda kristallahib, fiksirlashib boradi. Bu jamoa tajribasining ideallashtirilgan ruhiy shaklidir.

A.N.Leontev faoliyat motivining o‘zagarishi shaxs mazmuni o‘zgarishi bilan birga amalga oshiradi. Misol uchun, talaba tomonidan bitobning mutoola qilinishi uning maqsadini ifoda etadi. Uning motivi esa mutoola qilish orqali kelajakdagi kasbga tayyorlash yoki imtihonga tayyorlashdir. Shaxs fikrlarini o‘rganish muomolarini Leontev ishlab

chiqgan g'oyalar asosida o'rganishn psixologiyaning turli xil jabhalarida qo'llaniladi.

S.L.Rubenshteyn (1889-1960) mashhur psixolog, faylasuf va psixolog, fikrlash psixologiyasini muommosi ustidan tadqiqotlar olib borgan, psixologiya asoslari yaratuvchisi, "Umuman, psixologiya asoslari" nomli darslik muallifi. "Ijodiy faoliyat prinsipi" maqaolasida u ongni aktiv faoliyat deb baho berdi. Bu g'oya asosida ong birligi va faoliyati prinsipini yaratadi. Ong birligi va faoliya haqidagi g'oyalar psixologiyaning rivojlanishining ayni bir etapida vujudga kelgan bo'lib XX asrning 30-40 yillarida introspektiv psixologiya va behaviorizm bilan bog'liq muommolarni hal qilish uchun ham vujudga kelgan. Ong birligi va faoliyat tasdiqi ong va psikani passiv bir mavjudlig deb emas subekt faoliyati, real individ va inson faoliyati uni atrof-muhit bilan bo'lgan munosabati jarayoni o'rganiladi.

S.L.Rubenshteyn alohida ta'kidlab shuni aytadiki, insonga faqatgina faoliyat emas balki shaxs ham tanlov huquqiga ega holda ta'sir o'tkazish kuchiga egadir: Shaxsni o'rganish davomidagi muhim daqiqalardan biri, Rubenshteyn fikricha faqatgina faoliyatini yoki hayot emas bundan kengroq jabhalarnio'z ichiga oladi.

V.S.Merlin (1898-1982) shaxsiyatining integral nazariyalarini ishlab chiqadi va quyidagi bosqichlarini ko'rsatdi.

1. Bickimyoviy.
2. Somatik.
3. Neyrodinamik.
4. Psixodinamik (temperament bosqichi).
5. Shaxsiyat.
6. Jamiyatdagi sotsial roli.

Bu bosqichlarni orasida bir tomonlama emas, aksincha, ko'p tomonlama bog'liqlik bor, ya'ni bir bosqich bir vaqtda bir necha bosqichda aloqada bo'ladi. Temperament bosqichda quyidagilarni farqlaydi.

Ekstreversiya – obektiv holatdan kelib chiqib, psixik o'zini tutish. Sergaklik – to'siq bo'layotgan holatda qochishnorqali reaksiyaga kirishish.

Reaktivlik – xatti-harakatga shunday javob qaytarish.

Impulsivlik – tezlik undaemotsiyalar xatti-harakatning kuchi.

Emotsiyalarni uyg'onishi qo'yilgan maqsadga aktiv harakat qilish. Shaxsiy faoliyat haqidagi gapirdanda, shuni nazarda tutganki, psixologik vositalarning tizimi shundayki, inson o'zining shaxsiyatini ko'rsatish

uchun harakat siz ulardan qochadi. Temperament B.S.Merlin fikricha, o'zgarticish mumkin emas, chunki u genetic joylashtirilgan, lekin uni kompensatsiya qilsa bo'ladi. Uning eng mashhur ishlardan biri – "Temperament nazaryalari to'g'risidagi ocherk", "Eksperimental shaxs psixologiyasi", "Shaxsiyatning integral tadqiqotlari".

2. Shaxsiyat psixologiyasining zamonaviy tadqiqotlari.

XX asrning 80–90-yillarda shaxsiyat psixologiyasining rivojlanish bosqichi bo'ldi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari K.A.Abulxanova-Slavskayaga ko'ra quyidagicha:

- haqiqiy shaxsiyatga qaratilgan tadqiqotlar;
- shaxsiyat psixologiyasining etikaga o'zini tutishning tomonlariga tafakkur va motivatsyaga yaqinlashgan;
- B.F.Lomovning tizimli yondashuvi "shaxsiyat psixologiyasi"ning asosiy muomolariga aniq yondashuv.

Nazorat savollari

1. G'arb psixologiyasi bilan rus psixologiyasidagi shaxs nazariyalarning o'ziga xosligi.
2. Rus psixologiyasida shaxs nazariyalarini davrlashtirish.
3. A.Lazurskiyning shaxs nazariysi
4. V.S.Myasishevning shaxs nazariysi.
5. Shaxsnинг faoliyat nazariysi.
6. Shaxsnинг zamonaviy nazariyalari.

Adabiyotlar:

1. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 553-593.
2. Duane P. Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright, 2005. – 550p.
3. George Boeree. C. Personality Theories / Sigmund Freud. Psychology Department Shippensburg University / Original E-Text-Site: [<http://www.ship.edu/%7Ecgboeree/perscontents.html>]. – P.6.
4. Гозиев Э.Ф. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
5. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
6. Хъелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

8-mavzu. SHAXS TARAQQIYOTINI DAVRLARGA BO'LISH

Reja:

1. Psixik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch muammosi
2. Yosh tushunchasi. Psixologik yosh va psixik rivojlanishni davrlashtirish.
3. Insonning hayot yo'li va hayot tarzi.

Turning rivojlanishi – filogenezdan farqli ravishda individning taraqqiyoti “ontogenet” tushunchasi bilan ishlataladi. Bu tushunchani nemis biologi E.Gekkell taqdim etgan. Psixika ontogenezi insonning tug'ilganidan to umrining yakunigacha davom etadigan uzlusiz rivojlanishi sanaladi.

Psixik taraqqiyot haqidagi masala boshqa so‘z bilan, ya’ni psixik taraqqiyotning harakatga keltiruvchi kuch masalasi orqali psixologiyadagi eng muhim muammolardan bir sanaladi. Uzoq yil davomida olimlar ushbu muammoga yondashgan bo‘lsalarda, ammo yagona bir to‘xtamga kelmadilar. Yosh psixologiyasi – psixologiyaning alohida sohasi bo‘lib, inson taraqqiyotining davrlari va qonuniyatlarini o‘rganadi¹.

Psixik taraqqiyotni belgilovchi ikkita an'anaviy kategoriya mavjud: biologik va sotsial.

“Muhit”, jamiyat taraqqiyotini asosiy belgilovchi roli to‘g‘risidagi tasavvur tarafdarları mavjud bo‘lib, ular *sotsiogenetiklar deb nomlanadi*. Ushbu yo‘nalish vakillaridan bir ingliz filosofi J.Lokk hisoblanadi. Uning talqinicha bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo‘lgan toza doskaga (tabula rasa) o‘xshaydi. Olimlar shaxsning har qanday qirrasi shaxs tajribaga bog‘liq, tug‘ma omillar katta ahamiyatga ega emas degan g‘oyani qo‘llab quvvatladilar. Insonning psixik taraqqiyotida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati bilan bog‘lovchilar hozirgacha mavjud. Masalan, shaxs nazariyasining “vaziyatlilik” yondashuviga ko‘ra insonlar boshidan pok va pok emas, mehribn yoki vahshiy, fidoiy va egoist bo‘lmaydilar, ular vaziyatning bosimi ostida tarkib topadilar degan g‘oyaga tayanadilar.

Yuqoridagi yondashuvga qarama-qarshi g‘oyani ilgari surganlar esa fransuz faylasuflari R.Dekart va Jan-Jak Russolardir. Bu yo‘nalish vakillari *biologizatorlar hisoblanadilar*. Ularning fikricha shaxs

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P.173

taraqqiyotida belgilovchi rolni nasliy, genetik omillar belgilashi ta'kidlanadi. Bola tabiat qonuniyatlariga muvofiq rivojlanadi

Shaxs rivojlanishida har ikkala yondashuvni uyg'unligini ta'minlovehi qarashlar mavjud bo'ldiki, bu *konvergensiya nazariyasi deb ataladi va V.Shternga tegishli*. U psixik taraqqiyot tug'ma xususiyatlarni va tashqi ta'sirlarni oddiy namoyon bo'lishi emas, balki ichki imkoniyatlarni taraqqiyotning tashqi shart-sharoitlari bilan o'zaro konvergensiysi deb hisobladi.

Konvergensiya nazariyasiga ko'ra, psixik taraqqiyot X – nasliy element va U-muhit elementlari ostida to'planuvchi jarayon sifatida qaraladi. Bu g'arb psixologiyasida eng keng tarqalgan konsepsiya sanaladi. Masalan, ingliz psixolog *G.Ayzenk 80% muhit ta'sirida, 20% irlsiyat ta'sirida aniqlanadi* deb hisoblaydi.

Ammo konvergensiya nazariyasi vakillari irlsiy omillarning o'rni muhim hisoblab, muhit nasliy belgilarning tartibga soluvchi ruyobga chiqishini ta'minlovchi sanaydi. Konvernetsiya nazariyasining biologik va sotsial omillarni mexanik qo'shishidagi cheklanganligi insonning tabiat va jamiyatdagi mohiyatini tushunishga olib kelmadidi.

Masalani hal etishga yo'naltirilgan boshqa bir yondashuv ikki omilning ta'siri bilan bog'liqlikni psixoanaliz va ko'pgina neofrey-distlarning ishlarida kuzatildi.

Z.Freydning shaxs taraqqiyoti davriylashtirishi. Z.Freyd shaxs taraqqiyotini qoniqish va reallik prinsiplariga bog'liq tushunishga harakat qildi. Qoniqish olishga intilish jinsiy mayllar bilan bog'liq bo'lib, biologik, tug'ma va tabiiy berilgan bo'lib, unga intilish ijtimoiy, jamiyatdagi muhit bilan o'zaro to'qnash keladi. Reallik prinsipiiga ko'ra inson dunyodagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya tufayli reallik va qoniqish prinsipi ziddiyatga uchraydi. Shunday qilib, ikkala prinsip o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli jamiyat bilan mayllar o'rtasidagi nizo shaxsnинг turli instatsiyalari – "Kayvoniy Men" va "U" o'rtasidagi tafovutda aks etadi. "Kayvoniy Men" o'zida shaxsnинг sotsial rollarni o'zlashtirishi, "U" esa insondagi tabiiy boshlang'ich manba, chuqr mayllarni ifodalaydi¹.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilalar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur

¹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 555.

nazariyaning yirik namoyondalaridan biri – bu amerikalik psixolog E. Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o‘ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr – go‘daklik. Ushbu davrda go‘dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan “ishonch” tuyg‘usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go‘dakda ishonch negizi paydo bo‘lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug‘ilsa, u taqdirda voyaga etgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinci davrda, ya’ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki, aksincha, ularning qarama-qarshisi bo‘lmish uyat va shubha hissi hosil bo‘ladi. Bolada mustaqillikning o‘sishi, o‘z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo‘lg‘usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas‘uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr – o‘yin yoshi deb atalib, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg‘usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istikani ro‘yobga chiqarishning yo‘li to‘sib qo‘ylisa, ushbu holatda bola o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya’ni guruhiy o‘yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko‘rishiga, xayoloti o‘sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda boladaadolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

To‘rtinchi davr – maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o‘zgarishlar ko‘zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldarlikka intilish tuyg‘usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati – omilkorlik va mahsuldarlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko‘zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy hislatlari etarli darajada bo‘lmaqanligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni echishda aql-zakovatning etishmasligi, bilimlarni o‘zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr – o‘spirinlik, o‘zining betakror hislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o‘smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolning

uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davning eng muhim xususiyati "rolni kechiktirish"ning o'zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko'lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mayjud bo'lmaydi, vaholani bu kezda o'spirin rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtini yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo'zg'atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr – yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Etinchi davr – etuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsulorlik tuyg'usi unga uzlusiz ravishda hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg'unlik tuyg'usi nuqson sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya'ni qarilik insom tariqasida o'z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqsanligi) tuyg'ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko'ngil sovish his-tuyg'ularini ta'kidlab o'tish o'rnlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lislilik bu yoshdagagi odamlarning eng muhim jihat, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingen holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi¹.

J.Piage² intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uYushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 556.

² Boeree C. G. Jean Piaget/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P. 3-10

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha);
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha);
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha);
- 4) shakll (rasmiy) operatsiyalar davri.

Z.Freyd shaxs taraqqiyotini qoniqish va reallik prinsiplariga bog‘liq tushunishga harakat qildi.

Qoniqish olishga intilish jinsiy mayllar bilan bog‘liq bo‘lib, biologik, y tug‘ma va tabiiy berilgan bo‘lib, unga intilish ijtimoiy, jamiyatdagi muhit bilan o‘zaro to‘qnash keladi. Reallik prinsipiga ko‘ra inson dunyodagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Tarbiya tufayli reallik va qoniqish prinsipi ziddiyatga uchraydi. Shunday qilib, ikkala prinsip o‘rtasidagi ziddiyatlar tufayli jamiat bilan mayllar o‘rtasidagi nizo shaxsning turli instatsiyalari – “Kayvoniy Men” va “U” o‘rtasidagi tafovutda aks etadi. “Kayvoniy Men” o‘zida shaxsning sotsial rollarni o‘zlashtirishi, “U”da esa insondagi tabiiy boshlang‘ich manba, chuqur mayllarni ifodalaydi¹.

Yosh tushunchasi. Psixologik yosh va psixik rivojlanishni davrlashtirish

Yosh – bu psixologyaning fundamental va murakkab kategoriyalardan biri. Shaxsning individual rivojlanish tahlilii shuni ko‘rsatadiki, konkret shaxs hayot yo‘li nuqtai nazaridan yosh kategoriyasi bir qancha pozitsiyalarga ko‘ra qarab chiqilishi mumkin.

Biologik yosh organizm funksiyasi va moddalar almashinuv holatini mazkur xronologik yoshga tegishli bo‘lgan populyasiyaning rivojlanish darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichi bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Bunga asos qilib har bir inson organizmida sodir bo‘ladigan genetik, morfologik, fiziologik hamda neyrofiziologik o‘zgarishlar olingan.

Psixologik yosh individning psixik rivojlanish darajasi (aqliy, emotsiyonal va b.) bilan unga muvofiq keladigan normativ daraja o‘rtasida bog‘lanishni yuzaga keltirish yo‘li bilan o‘rnataladi.

Sotsial yosh shaxsning sotsial rivojlanish darajasini (masalan, ma’lum sotsial rollarni egallash yo‘llari) uning tengdoshlari uchun statistik normal daraja bilan solishtirish orqali o‘lchanadi.

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 555.

Shuningdek, shaxsning *subyektiv yoshi* bo'lib, u ichki hisob sistemasiga ega. Bunga ko'ra, inson o'z yoshiga o'zi baho beradi. Subyektiv yosh asosini o'z-o'zini his etish tashkil qiladi. Shunga ko'ra, subyektiv yosh xronologik yoshdan holi hisoblanadi. Inson o'zini haqiqiy yoshidan katta yoki bo'imasam kichik his qilishi mumkin.

Psixologik tadqiqotning predmeti shaxsning psixologik yoshi, asosiy vazifasi esa hisob sistemasini qidirish va xronologik birlikni o'lchash hisoblanadi. Shunga ko'ra, psixik rivojlanishni davrlashtirish amalga oshiriladi.

Har qanday davrlashtirishning maqsadi rivojlanish bosqichlarida bir-biridan farqlanuvchi o'ziga xos davrlarni belgilash hisoblanadi. Psixologiya tarihida bir necha bor psixik taraqqiyotni davrlashtirishga harakat qilingan. Uni sistemalashtirish L.S.Vigotskiyning "Yosh muammolari" nomli kitobida ishlab chiqilgan. O'sha vaqt dagi barcha davrlashtirishlarni olim uch guruhga ajratgan va buni metodologik jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Shuning uchun ham, uning bu sistemalashtirishi hozirgi paytda zamonaviy davrlashtirishlarda ham foydalilmoqda.

Davrlashtirishning birinchi guruhida rivojlanish jarayonining o'zi bosqichlarga bo'linmagan, balki boshqa xronologik tizimlarning bosqichma-bosqich shakllanishi analogiyasiga ko'ra yaratilgan. Bunga misol qilib, S.Xollning jamiyat rivojlanish bosqichlari haqidagi tasavvurlar analogiyasi bilan yaratilgan davrlashtirishini aytish mumkin. U er qazish va kovlash bosqichi (0-5 yosh), ov va bosib olish bosqichi (5-11 yosh), chorvachilik bosqichi (8-12 yosh), dehqonchilik bosqichi (11-15 yosh), savdo va sanoat bosqich (15-20 yosh)lariga ajratib, ularni jamiyat rivojlanishining hayvonot bosqichi, ovchili va baliqchilik davri, yovvoyilikning tugashi va sivilizatsiyaning boshlanishi bilan bog'lagan.

L.S.Vigotskiy ikkinchi guruhga rivojlanishning qandaydir bitta belgisi asos qilib olingan davrlashtirishlarni kiritgan. Bunga misol qilib, P.P.Blokskiyning sxemasini olish mumkin. U o'z sxemasini dentitsiya (tishlar chiqishi va almashinishi) prinsipiiga ko'ra ishlab chiqqan. Unga ko'ra, tishsiz bolalik, sut tishlari bor bolalik, tishlar almashinishi davri, doimiy tishlar bo'lishi bolaligi.

Ikkinchi guruh davrlashtirishidagi asosiy o'rinni asosida intellektual strukturalar rivojlanishi yotgan J.Piajening davrlashtirishi egallaydi. Intellekt rivojlanishi atrof-muhit bilan muvozanatga erishish omilida namoyon bo'lib, quyidagi to'rt bosqichda kuzatiladi:

- 1) tafakkurning operatsiyalar oldi bosqichi va uning reflekslar hamda moslashuvchan reaksiyalarini (sensomotor intellekt);
- 2) ong oldi va intuitiv tafakkur (obrazlar va simvollar bilan bog'liq ichki tafakkur);
- 3) konkretoperatsiyalar bosqichi;
- 4) shakll operatsiyalar bosqichi deb nomlaydi.

Tabaqalangan yoshdavrida bolalarda kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyoji tug'iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o'sishida muhim rol o'yaydi. Bir yoshgacha davrda paydo bo'lgan ehtiyojning tobora chuqurlashuvni bilan nutq davrigacha muloqot cheklanganligining nomutanosibligi bir yoshdagagi inqirozni keltirib chiqaradi. yuzaga kelgan nizolar ya'ni qarama-qarshilik o'z echimini nutq orqali muloqot davrida topadi va bola o'sishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tayotganini ifodalaydi. Bolaning nutq faoliyatini takomillashgan sayin muloqotning mazmuni boyib, ko'lami kengayib boradi. Natijada haqiqiy ma'nodagi shaxslararo munosabat vujudga keladi, bolaning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlari yaratadi. Mazkur davrda bolaning o'sishini ta'minlovchi obyektiv va subyektiv sharoitlar yaratilishi – bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo'ladi.

L.I.Bojovich olib borgan tadqiqotning natijasi tug'ilish davriga kelganda bolaning miya po'stlog'i faoliyat ko'rsata boshlasa-da, aslida u na anatomik va na funksional jihatdan rivojlangan bo'lishini ko'rsatdi. Vaholanki, uning psixik dunyosida vujudga keladigan ehtiyojlarning kuchi, davomiyligi, barqarorligi ana shu rivojlanishga bog'liqidir. Organlarning rivojlanishi bolaning funksional holatiga aloqadorligi sababli bosh miyaning rivojlanishi ham unga yangi qo'zg'atuvchilarining ta'sir qilişiga va bu ta'sirning bosh miya kaitta yarim sharlari po'stlog'ida faoliyat uyg'otishiga bog'liqidir. Bosh miya markazlari esa jadallahshgan orientirovka faoliyatining kuchliligi tufayli funksional jihatdan rivojlanadi.

Mohir tadqiqotchi N.M.Askarinning fikricha, katta yoshdagagi odamning tabassumi yoki yoqimli ovozidan boshqa hech qanday qo'zg'atuvchi go'dakda shunchalik quvonch va shodlik his-tuyg'usini vujudga keltira olmaydi. Shu sababli quvonch tuyg'usini uyg'otish va mustahkamlash uchun tarbiyachilar go'dak bilan tez-tez muloqotda bo'lishi, yoqimli ohangda, samimi suhbatlashib turishi lozim.

Harakatning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini qator tajribalar asosida o'rgangan olimlardan D.B.Elkoninning ishonch bilan

ta'kidlashicha, 2–3 haftalik go'dakda ko'z konvergensiysi vujudga kelsa ham, o'z nigohini turli jismlarga qaratib turish jarayoni juda qiyin kechadi, hayotining 3–5 haftalarida esa uning nigohi oz fursat bo'lsa-da, muayyan obyektga to'plana boshlaydi. 4–5 haftalik go'dakda 1–1,5 metr naridagi jismlarni kuzatish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Ikki oylik bola 2–4 metr uzoqlikdagi narsani kuzatishni o'rganadi, u uch oyligida 4–7 metr oraliqdagi jismlarni ham payqay oladi, niyoyat, 6–10 haftalik go'dak hatto, aylanayotgan narsalarning harakatini idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik hissiy organlarining ko'z bilan turli funksional aloqalar o'rnatishi qaror topadi. Go'dak to'rt oyligida uning jismga tilkiliishi va tomosha qilishi nisbatan barqaror bo'ladi.

D.Kolbergning fikrlariga qaraganda bolalarda qo'l harakati hali beixtiyor xususiyatga ega bo'lib, jismlarni maqsadga muvofiq harakatlantirishdan ancha uzoqdir. Bola 4 oyligidan boshlab narsaga qo'lini yo'naltiradi, asta-sekin unda paypaslash uquvi namoyon bo'la boshlaydi, 5–6 oyligida narsani ushslash va uni o'ziga tortib olish (qo'ldan yilib olish) ko'nikmalari shakllanadi. Harakat va teri tuYush organlari sifatida qo'sh vazifani o'tovchi ko'rish qobiliyati bir maromda rivojlanishdan birmuncha kechikadi. Bola 6 oyligida unda o'tirish, turish, emaklash, yurish, gapirish ko'nikmalari shakllanadi.

Yuqoridagi hollarning moddiy asosini o'rgangan J.Piaje bolada bosh miya yarim sharları po'stlog'i o'z funksiyasini boshlashini, bu hol barcha idrok qilish organlarida, eshituv, ko'ruv apparatlarida shartli reflekslar paydo bo'lganidan dalolat berishini uqtiradi. Olimning fikricha, eshitish, ko'rishning yuksak analizatorlari, hattoki, ularning kortikal bo'limlari rivojlanganidan keyin bolada harakat va harakat hodisasi rivojlanadi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotlaridan ko'zning rivojlanishi 4 oylik go'dakda ayrim harakatlarni va harakatlanuvchi obyektlarni kuzatish imkonini yaratadi, degan xulosa chiqaradi. Mazkur yosh davrida predmetning harakati ko'z harakatini vujudga keltiradi. Uning rivojlanishi qo'l bilan paypaslash harakati paydo bo'lishi bilan boshlanadi.

Bolaning harakati o'z qo'lini silash va ushlab ko'rishdan boshlanib, choyshab va ko'rpachalarni paypaslashga borib etadi. Odatda, bola qo'lini uzoq vaqt ko'rpacha va choyshab ustida harakatlantiradi. Tashqi ta'sirga javob sifatida paydo bo'lgan psixik jarayonning mazmuni qo'lning jism ketidan emas, balki jism bo'ylab harakat qilishidan iboratdir.

D.B.Elkonin L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy psixologiyadagi tajribasiga tayanib, har bir rivojanish davrini to'rt kriteriyaga asoslanib tahlil qilishni taklif etgan. Bularga:

- 1) sotsial holatlar rivojlanishi – bolaning munosabatlarga kirishish jarayoni;
- 2) asosiy (etakchi) faoliyat turi;
- 3) yangidan shakllanadigan rivojlanish;
- 4) krizis.

D.B.Elkonin har bir davrni ikki bosqichga ajratib, birinchi bosqichda shaxs motivatsion-ehtiyojlar sohasida o'zgarishlar bo'lishi, ikkinchisida esa operatsion-texnik sohani o'zlashtirish sodir bo'lishini ta'kidlagan. Olim tomonidan ketma-ketlik qonuni kashf etilgan bo'lib, unga ko'ra, har bir davrda faoliyat turi navbatma-navbat o'zgarib turadi: bir faoliyat turini amalga oshirganda, masalan, jamiyatdagi normalarga muvosiq tarzda boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishganda, albatta, keyingi faoliyat turiga, misol uchun, predmetlardan foydalanish usulida orientatsiyani amalga oshirishga o'tiladi. Har gal bu ikki orientatsiya turlari o'rtasida doimo qarama-qarshilik vujudga keladi.

D.B.Elkonin bo'yicha bola rivojlanish davr va bosqichlari:

- ilk bolalik davri ikki bosqichdan iborat: go'daklik tug'ilish krizisi bilan (shaxsning motivatsion-ehtiyoj sohasi) va ilk yosh davri, 1 yosh krizisi bilan (operatsion-tenik soha);

- bolalik davri 3 yoshlar krizisi bilan boshlanib, maktabgacha yosh davrini o'z ichiga oladi (shaxsning motivatsion-ehtiyoj sohasi). Ikkinchisida bosqich 7 yoshlar krizisi bo'lib, unga kichik muktab yoshi davri kiradi (operatsion-tenik soha);

- o'smirlik davri 11-12 yoshlar krizisi bilan boshlanadigan o'smirlik (shaxsning motivatsion-ehtiyoj sohasi) va 15 yoshlar krizisi bilan bog'liq ilk o'spirinlik davrlariga bo'linadi (operatsion-tenik soha). D.B.Elkoninning fikricha, 3 va 11-12 yoshdagi krizislar munosabatlar krizisi hisoblanib, uning natijasida shaxs munosabatlarida yangi orientatsiyalar shakllanadi. 1, 7 va 15 yoshdagi krizislar dunyoqarash bilan bog'liq bo'lib, olamdagagi narsalarga bo'lган orientatsiyalarni o'zgartiradi.

Zamonaviy yosh davrlari psixologiyasi bolaning psixik rivojlanishini davrlashtirishda etakchi sifatida D.B.Elkonin davrlashtirishini qabul qilishgan. Lekin ushbu davrlashtirish faqat ilk yosh davrlarini o'z ichiga olgan. Shunga ko'ra, zamonaviy psixologiya oldida turgan asosiy

muammolardan biri katta yoshdagi shaxslarning psixik rivojlanishini davrlashtirishdir.

Insonning hayot yo'li va hayot tarzi

Hayot davri yoki uning davomiyligi tug'ilish va o'lim orasidagi vaqtinchalik intervalni anglatadi. Hayot davomiyligi muhim sotsial va psixologik natijalarga ega: unga ko'p holatlarda avlodlar yashash davomiyligi hamda bolalarning dastlabki ijtimoiyashu jarayonlari bog'liqdir. Shunga qaramasdan, "hayot davri" shakll tushuncha bo'lib, shaxsning hayot mazmuniga bog'liq bo'lmay, individual mavjudligining xronologik doirasini anglatadi.

Hayot sikli shuni taqazo qiladi-ki, hayot yo'li ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi, uning bosqichlari ("hayot yoshi", "hayot davrlari") esa doimo o'zgarib turadi. A.Adler hayot yo'li tushunchasining o'mriga hayot uslubi tushunchasini ishlatgan. Uning qarashicha, hayot uslubi insonning olamga va o'z-o'ziga beradigan e'tibori bo'lib, maqsadlari intilishlari tomon yo'nalgan bo'ladi. A.Adlerning fikricha, hayotdagি mohiyat shaxsning 4-5 yoshlarida anglab bo'lmas hissiyotlar orqali erishiladi. 5 yoshlearning oxiriga borganda, bola turli muammo va vazifalarga nisbatan amalga oshiriladigan xaddi-harakat va shaxsiy uslubining namunasiga ega bo'ladi¹. Individual rivojlanishni tavsiflash uchun eng ko'p qo'llaniladigan zamonaviy ilmiy termin – bu "hayot yo'li"dir. Bu termin shaxs rivojlanish jarayonini bildirib, unda hayotiy jarayonlarni va shaxs shakllanishini boshqarish amalga oshadi. Oxirgi paytlarda hayot yo'lini tizimli o'rganish va biografik metod rivojlanish psixologiyasida muhim o'rinnegallagan. Zamonaviy fan rivojlanishdagi sisatiy siljishlar, sakrashlar hamda krizislар muammosiga katta e'tibor qaratmoqda. Modomiki, turli krizis davrlari va sotsial o'zgarishlar – ba'zida kasallik holatlari – psixologik qayta tiklanish shaklida kechadi. Shunga ko'ra, rivojlanish psixologiyasi "yosh krizislari yoki "rivojlanishning normativ krizislari" singari o'ziga xos tushunchalar kiritgan. "Krizis" tushunchasi – muvozanat buzilish holati, yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi, shaxs motivatsion sohasining qayta qurilishi kabilarda namoyon bo'ladi. Unga mos biologik hamda sotsial qonunlarni bilish, qaysi yosh davrida mazkur jamiyatdagи individ u yoki bu muammolar bilan to'qnashishi, bu muammolar qanday qilib o'zaro aloqador bo'lishi,

¹ Boeree C.G. Alfred Adler / Personality Theories. Electronic textbook / Psychology Department Shippensburg University. 1997. – p. 6.

qaysi faktorlarga ko‘ra muammo davom etishi va u qanday echimlarga ega ekanligi bilish mumkin bo‘ladi. Shaxs hayotidagi hech bir psixofiziologik (masalan, jinsiy etilish) yoki sotsial-psixologik (masalan, maktabga chiqish yoki turmush qurish) hodisalar quyidagi omillarsiz kechmaydi: a) individning xronologik yoshi; b) individning tug‘ilish sanasi; s) tarixiy davr va kalendar sanasi.

Amerikalik olimlar L.R.Sherrod va O.G.Brim insonning hayot yo‘li haqidagi tasavvurlarini quyidagi shaklda taqdim etishadi:

1. Rivojlanish jarayoni ham, uning natijasi ham pIYuralistik hisoblanadi: u ikkalasi bir tomonlama bo‘lmay, yakuniy natija ham bir xil bo‘lmaydi.

2. Rivojlanish homila davridan to o‘limgacha davom etib, uning plastiklik va o‘zgarishga bo‘lgan qobiliyati butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Rivojlanishning turli jarayonlari hayotning turli vaqtida boshlanishi, davom etishi va tugashi mumkin. Turli jabhalardagi rivojlanish albatta, o‘xhash traektoriya yoki qonuniyatga ega bo‘lishi shart emas¹.

3. Turli insonlardagi rivojlanish bir xilda kechmaydi. Individlararo farqlar o‘z ichiga jinsiy, sotsial-sinfiy va boshqa xususiyatlar kabi biosotsial jarayonlar differensiatsiyasini olishi mumkin.

4. Rivojlanish turli hayot faoliyati sohalarini omillari tomonidan boshqarilishi va bu sohalar o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin: ular bittayagona ta’sit tizimiga kirmaydi. Masalan, biologiya (rivojlanish etilishning sodda jarayoni emas) yoki muhit (rivojlanish tarbiya va ta’limning sodda jarayoni emas).

Hayotiy jarayonlar va perspektivalarning tizimli talqini – bu hayotiy reja bo‘lib, u o‘zida hayot strategiyasini namoyon etadi. Hayotiy taktikalar jamlanmasi hayot ssenariysini yaratadi. Hayot yo‘lini yaratish jarayonini tushuntirishning ikki yondashuvi mavjud bo‘lib, ulardan biri rejalashtirish, ikkinchisi ssenariy talqinidir.

Birinchi yondashuvni S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananev va boshqa olimlar o‘z ishlarida ko‘rsatishgan bo‘lib, unga ko‘ra, shaxs ongi ravishda hayot jarayonini tanlaydi va boshqaradi. Bunda boladagi hayot yo‘li maqsadlari va tizimlari haqidagi qarashlarning shakllanishida otanonaning roli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. S.L.Rubinshteynning fikricha, “shaxs hayotga bo‘lgan munosabatini o‘zi belgilaydi”.

Ikkinchi yondashuv tarafдорлари (A.Adler, K.Rodgers, E.Bern va b.) shaxs hayot rejasini va hayot ssenariysini ongsiz ravishda tanlaydi va bu

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 224

jarayon bola umrining dastlabki yillarida sodir bo‘ladi deb hisoblashadi¹. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, hayotiy reja shaxsiy hayot prognoz qilish va uni tasavvurlar va hissiyotlar orqali amalga oshirish sifatida ko‘riladi. Hayot ssenariysi esa shaxs hayot bo‘shlig‘ini cheklovchi hamda tizimlashtiruvchi, sekin-astalik bilan kengaYuvchi hayotiy reja hisoblanadi. Hayot ssenariysini tanlashga ta’sir qiluvchi omillar sifatida bolaning oilada tug‘ilish tartibi, ota-onasi, buva va buvisining ta’siri (ularning xaddi-harakatlari, beradigan bahosi, emotsiyonal qo‘lab-quvvatlashi yoki deprivatsiyasi va b.), bola tomonidan o‘z ismi va familiyasining qabul qilinishi, tasodifiy ekstremal holatlar va boshqalarini misol keltirish mumkin.

Nazorat savollari

1. Shaxs taraqqiyotini davrlashtirishga doir yondashuvlar.
2. Davrlashtirishga doir klassifikatsiyalar.
3. J.Piaje bo‘yicha davrlashtirish.
4. E.Erikson bo‘yicha davrlashtirish.
5. Z.Freyd bo‘yicha shaxs taraqqiyotining psixoseksual bosqichlari.
6. L.S.Vigotskiy bo‘yicha davrlashtirish.
7. D.B.Elkonin bo‘yicha davrlashtirish.

Adabiyotlar:

1. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 553-593.
2. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright, 2005.-550p.
3. George Boeree.C. Personality Theories / Sigmund Freud. Psychology Department Shippensburg University/ Original E-Text-Site: [<http://www.ship.edu/%7Ecgboeree/perscontents.html>]. – P.6.
4. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
5. Хьюлл Л., Зиглер Д. Теории личности. СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 553-593.

9-bob. ShAXS TARAQQIYOTINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. *Temperamentga oid qarashlar tarixi, asosiy yondashuvlar.*
2. *Temperament va uning nazariyalari.*
3. *Xarakter. Xarakter hislatlari.*
4. *Qobiliyat.*

Temperamentga oid qarashlar tarixi, asosiy yondashuvlar

Temperament shaxsning o‘zligini, ya’ni shaxs xulq atvorini umumiy shakll-dinamik xarakteristikasini namoyon qiladi. Temperamentni o‘rganishdagi asosiy muammolar uning biologik asosini ochib berish hamda genetik tabiatga ega ekanligini o‘rganish bilan bog’liq. Boshqa muhim bo‘lmagan masalalari esa uni tadqiq etish hamda temperamentni hosil qiluvchi psixologik mezonlari yoki uning tipologik asosini tashlik etuvchi hususiyatlari bilan bog’liq.

Temperamentning ayrim muhim masalalari: shaxs individual tuzilishda uning o‘rnini aniqlash, xarakter va umumiy qobiliyatlar rivojlanishida uning rolini ko‘rsatib berish hamda temperamentni professional faoliyatning muvafaqiyatga eltuvchi omili sifatida o‘rganishdan iborat.

Temperament lotincha “temperamentum so‘zidan olingen bo‘lib, “o‘ziga xos a‘zolarning o‘zaro bog‘lanishi” degan ma’noni anglatadi. Ma’lumki, temperamentning biologik asoslariga doir masalalarga bag‘ishlangan turli-tuman yondashuvlar mavjud. Gippokratning “Gumoral nazariyasi”, ernest Krechmer va Sheldon tomonidan o‘rganilgan shaxs somatik va temperament xarakteristikasining aloqasi, XX asrning 20-yillarida I.P.Pavlov Nerv sistemasining tipologiyasi va hususiyatlarni o‘rganish sohasida o‘lkan burilish yasadi va U bu hususiyatlarni Gippokrat taklif etgan tipalogiya (sngvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) bilan solishtirdi.

Teplov va Nebeletsin makatabidagi keyingi tadqiqodlar shuni ko‘rsatdiki, temperamentning biologik asoslarini o‘rganishda boshqa prinsipial qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha temperament tiplarini o‘rganish emas, balki Pavlov taklif qilganidek nerv sistemasining o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish kerakligi ta’kidlanadi.

V.S.Merlinning konsersiyasi tempermantning psixologik nazariyalari deya ataladi. Temperament ajralmas {integral} individualitikning umumiy tizimidagi alohida bir bosqich hisoblandadi. Ohirgisi quydagi darajalardan iborat: biokimyobi, somatik, neyrodinamik, psixodinamik, shaxsning hususiyatlari daroji, ijtimoiy o'rinnlar daroji. Temperamentning strukturasida quyidagilar ajratilib ko'rsatiladi: ekstroversiya, psixik faoliyat, obektiv holatga bog'liqligi kabi psixodinamik bezovtalik, havfli holat qutulishidan qochish reaksiysi kabi:

Reaktivlik rag'batlantirishga javoban reaksiya tezligidir.

Impulsilik u shunday tezlikki u yordamida emotsiyalar ma'lum bir faoliyatni rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'ladi.

Emotsiyalar mustahkamligi, emotsiyalarning nazorat qila olish hususitati kabi.

Emotsional nal uyg'onish, hissiy qayg'urish intensivligi kabi;

Aktivlik, faoliyatni maqsad sari yo'naltiruvchi kabi;

Egilmaslik, holat talabiga ko'ra faoliyat dasturini to'g'irlay olmaslik.

V.S.Merlin noaniqlik zonasi va faoliyatining individual uslubi tushunchalarni kiritadi. Noaniqlik zonasi faraziga ko'ra, inson 1) individual hususiyatlar va o'z qobiliyatlarini baholash; 2) faoliyat usullari va obyektiv vazifalar o'rtasidagi mos kemasligini aniqlash; 3) faoliyatga nisbatan turli darajada rag'batlantirishni hisobga olish kabilarga asosan ongli yoki ongsiz tarzda faoliyat usulini tanlashga qaror qabiuq qiladi.

Individual faoliyati ostida bir turdag'i psixologik tizm sifatida tushunib inson ongli yoki o'z o'zidan yahshiroq balansni ishga tushurish maqsadida unning individual ba mustaqil sharoitlar faoliyati bilan bog'liq. Boshqa yo'nalish esa, qizishqonlik nasldan naslga o'tishi mumkinligiga oid belgilarni qidirish bilan bog'liqdir. RAO psixalogiya instituti laboratoriylar birida, aynan shaxsiyat psixogenetikasida laborotoriyasida (I.V.Ravich-Chepotka boshchiligidagi) "egizak uslubi yordamida, turli yoshdag'i bololarning shaxsiy psixogenetikasiga ta'sir o'tkazadigan irlsiy va atrof-muhit omillarining o'zagarish surati tadqiq qilinmoqda. Nasldan naslga o'tish omili ko'rsatkichlari qiziqqonligi quysi guruhg'a oid ekanligini aniqlashga yordam beradi. Egizak uslubiga ko'ra quyidagi guruhlar mavjud:

1. Qarama qarshi (kontrast) guruhi uslubi monozigot va dizigot egizaklarni bir biriga uxshashlik jihatidan tatqiq qilishga yordam beradi.

2. Nazoratchi egizak uslubi(yoki guvoh egizak usuli) yani egizaklar juftligidan birini (eksperiment o'tkaziladigan guruh) tatqiqotga jalg etiladi. Boshqasini esa nazorat guruhiga jalg etilmaydi.

3. Ajratilgan egizaklar uslubi "genotip + muhit" muammosini hal qilishda tanqidiy eksperiment hisoblanadi. Chunki bu uslub tabiat (muhit) tomidan o'rnatilgan farqlklarni topishga yordam berdi.

Bundan shunday xulosa qilindiki, dezigota egizaklar o'rtasidagi farq ularga ota-onalari tomonidan qilingan munosabatlarda kuchayadi. Genotip bolalar orasidagi farqqa alohida hissa olib kiradi. Biroq har xil sharoitlardagi yashash tarsi bu farqlarni oshirishi mumkin. Ba'zan esa, teskarisiga ta'sir qiladi yani susayadi.

O'smirlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, genetic shart-sharoitlarni aktivlovchi va sotsial maromlikni tasdiqladi. Har xil o'tkazilgan izlanishlarda genotipning hissa bahosi $r=0,3$ dan $r=0,5$ gacha o'zgaradi.

Plaminning ko'rsatmasi va egizaklarning metodiga qiziqish, bolaning rivojlanishidagi temperamenti, uning o'sishida asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nisbiy va yangi o'ziga xos yo'nalishdir. Bu metod butun jahon bo'yicha namoyish etilgan.

1960-yillarning boshida Tomas va Chess rahbarligida uzoq muddat temperament borasida izlanishlari boshlangan edi. Ushbu izlanishlar natijasida quyidagi maqsad aniqlandi:

- 1) bolaning ontogenetic o'sish xususiyatlari, temperamenti;
- 2) yoshlikdagi temperament xarakterlari, katta yoshga etgandaligi bilan mos kelishi;
- 3) temperament a'loqalari har xil sotsial sharoitlarda, bolalikda va katta yoshga etgandagi holati.

Empirik tekshiruvlar natijasida temperamentning 9 xil xususiyati borligi aniqlandi:

- 1) aktivlik – harakat aktivligining darajasi, uning passivlik bilan bog'liqligi;
- 2) ritmlilik – bunga misol qilib bolaning engil uxbab qolishi, bir xil vaqtida ovqatlanishi va hokazolar;
- 3) yaqinlashish / ijobiy a'loqalarga moyilligi; o'z navbatida, voz kechish esa, salbiy emotzialardan voz kechishdir.
- 4) adaptivlik – yangi sharoitga moslashish;
- 5) reaktivlik bo'sag'asi – bunda katta shovqindan bola charchab qolishini misol qiliшимиз mumkin;
- 6) kayfiyat – quvnoq va qoniqarsiz kayfiyatning nisbati;

- 7) chalg'itish – bolani ovutish;
- 8) reaksiyalar intensivligi – mustaqil holatlarda energetic darajaning yo'nalishi;
- 9) diqqat hajmi – bir holatni ko'p marta takrorlash va harakatlar uning keyingi hayotiy harakatlarida qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Tomass va Chess klinik holatlarini tahlil qilayotib, temperamentning sindrom xususiyatlari hosil bo'ladi degan xulosaga keldilar. Bunda 3 ta sindrom xususiyatlar bor:

1) engil temperament – adaptatsiyaning tezligi, bolaning ovqatlanishga va uqlashga tez odatlanishlari, begona odamlardan qo'rqmasliklaridir. Kattalarda esa, muomilali, yangi ishlarga tez o'rghanib ketishlari kuzatiadi.

2) qiyin temperament – yuqoridagi xulosalarning teskarisidir;

3) vaqt mobaynida hosil bo'luvchi temperament - bunda insonga ovqatlarning yoqmasligi, yangi odamlarning yoqmasligi va tashqi ko'rinish va ifodalarning sekin astalik bilan ijobjiy tomonga o'zgarishi.

Bu xossalalar va uchchala sindrom ontogenetic stabillashtirishning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Ba'zi ota-onalar farzandlarini har xil muammolarni engishiga va omadsizlikka uchraganda nima qilish kerakligiga maxsus tayyorgarliklar bilan tayyorlaydilar.

15 yoshli egizaklarda o'tkazilgan tajribalarda T.Gensen izlanishlari monozigot egizaklarda, dizigot egizaklarga qaraganda o'xshashlik ko'proq. Biroq vaqt o'tishi bilan bu xususiyat kamayib boradi.

Monozigotli va dizigotli egizaklar o'rtasidagi farq ularning aktivliklarida ko'rindi ya'ni 6 yoshgacha bu farq kamaya boradi, 15 yosh atrofida yana aktivlashadi. 600 juft egizaklar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 0 yoshdan boshlab maktabgacha bo'lgan yoshdagi genetic hissalar diagnostic usullarga mos kelmaydi.

Xususan, shuni takidlash joizki, monozigotli egizaklar, dizigotli egizaklarga qaraganda ko'p jihatda o'xshashdirlar.

Oila ichidagi muhit egizaklarning xarakterlarini susaytirishi va oshirishi mumkin. Bunda ota-onalarning ularga munosabatlari mihim.

J.Ballegi fikricha, og'ir xarakterdagи bolalar qattiq qo'l oilalarda uchrasa, engil bolalar sevimli oilalarda, passiv bolalar esa, stimul etishmovchiligi bor oilalarda uchraydi.

1990-yillarning o'rtalarida laboratoriya sharoitida longetyud metodlari boshlangan edi. Tajribadan maqsad genotipning temperament

rivojlanishiga har xil yosh etaplaridagi hissasi edi. Bunda monozigot (genetic o'xhashliklari 1 ga teng) va dizigot egizaklar (0,5 ga teng) va bir o'zi tug'ilgan bolalar obekt qilib olindi (Sergeenko, Velenskaya va Dozartseva o'tkazgan).

Kuzatuvlar 3-4 oyli, 7-9 oyli, 9-12 oyligida uch marotabadan keyin esa, 2 yoshda va 6 oyda bir marotaba o'tkazildi. Monozigota egizaklardan 18 juft, 9 juft o'gil va 9 juft qizaloqlar, 22 juft dizigot egizaklar, 11 juft o'g'il bolalar, 11 juft qizaloqlar, 58 ta bittadan tanlab olindi.

J.Ballegi "Bola kuni" deb, nomlangan testdan va Beylining bolalar testlaridan foydalanildi. A.Balley testi bolaning temperamentini aniqlaydi. Ushbu temperament tiplari quyidagilardir:

- 1) og'ir temperament – katta ichki zo'riqish, past nazorat;
- 2) o'rtacha zo'riqish – yaxshi control, ijobiy va salbiy reaksiyalar;
- 3) engil – zo'riqishni mo'tadillashtirish, o'rtacha nazorat;
- 4) passiv temperament – past zo'riqish, sust control. Bu metod oilaviy tarbiyani aniqlashga yordam beradi;

5) haddan tashqari talabchan oila – bunda bola va ota-onalar o'rtasidagi o'suvchan munosabatlari, qattiq talab, oila, bola bilan munosabatlarning yoqimligi, ijobiy munosabatlari, qattiqqo'llikning kamligi;

- 7) passiv oilalar – ota-onalar bolalari bilan qiziqmaydi;
- 8) qattiqqo'l oila – ona farzand uchun qayg'uradi, zarur holatlarda ona nihoyatda qattiqqo'l ota o'zini zolim tutadi.

Aniqlanishicha, monozigot egizaklarda og'ir va passiv xarakterlar ko'p uchraydi (engil va o'rta zo'riqish).

Dizigotlarda esa, engil va passiv, o'rtacha zo'riqish xarakteri ularda juda kam uchraydi.

Yakka tug'ilgan bolalarda esa, temperament bazan o'rtachadir.

Temperamentning faktorli skalalariga ko'ra farqlari:

- 1) ota-onalarning munosabatlari kiradi;
- 2) zo'riqish holatlari – nohush holatlari, bunda monozigot egizaklarda bu shkala baland va past shkalalarda o'rtacha, yakka tug'ilgan bolalarda yuqori zo'riqish namoyon bo'ladi;
- 3) bu o'rtacha zo'riqish – insonlarga va buyumlarga munosabat shkalasidir;
- 4) monozigot egizaklarda otasi bilan munosabat shkalasi. Dizigot va yakka tug'ilganlarda esa, bu faktor kuchsiz.

Aniqlanishicha, temperament yosh o'sib borishiga ta'sir qilmaydi.

O'rtacha ta'sir tipi bo'yicha (tarbiyaviy tip) monozigot va dizigot oilalarda o'xshashlik bor. Bular: sevuvchi va qattiq qo'l oilalardir.

Yakka holda tug'ilgan bolalar oilalarida sevuvchi jihatni ko'proq shunday qilib, 12 oylik monozigot va dizigot bolalarda, 18 oyda qattiq oilaga o'zgaradi, 36 oyda stimullashgan oilaga o'sa boradi. Demak, Bellegi xulosalariga ko'ra temperamentning o'sish dinamikasi, yoshlik chog'idan boshlanar ekan. Ko'pgina avtorlarning takidlashlaricha temperamentning tabiatini haqidagi savol ochiq qolmoqda.

Xarakter¹

Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter hislatlarida o'z ifodasini topadi. *Xarakter* yunoncha so'z bo'lib, «cxarakter» bosilgan tag'ma yoki qiyofa, hislat degan ma'noni anglatса-da, lekin u psixologiyada torroq mazmunda qo'llaniladi. Xuddi shu boisdan insonning barcha individual xususiyalarini xarakter hislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi, chunonchi, aqlning tiyrakligi, topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi idrokning taniovchanligi singari individual psixologik xususiyatlarni bunga yorqin misoldir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanishi bilan bir-biriga mohiyati bilan muvosiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullari bilan bog'liq, faoliyat, muammolari va munosabatda namoyon bo'luchchi, mujassamlanuvchi, uning barqaror individual xususiyatlari majmuasi *xarakter* deyiladi. Shaxsning tabiatga, jamiyatga, o'ziga, ashylarga (narsalarga) nisbatan munosabatlari asosiy va muhim belgisi bo'lib hisoblanadi. Odatda shaxsning munosabatlari xarakter hislatlarining individual o'ziga xos xususiyatlarini ikki xil yo'sinda aniqlash imkoniyatiga ega.

1. Shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat, sharoit, holat, muhit hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos hislati uning munosabatlari bilan bog'liq. Misol uchun, ishlab chiqarishga yaqinda kelgan A. B. ning xarakter hislati mana bunday ro'yobga chiqadi: korxona ma'yus, o'zini jasoratda noxush sezadi, tortinchoq, rahbar va hamkasabalaridan cho'chiydi, xonardonida (mahallada) va tengdoshlari davrasida ko'tarinkи ruhda, kayfiyati a'lo darajada, ular bilan munosabati iliq, vaqtichog', o'zini atrofdagilarga

¹ Гуриев Э.Г. Умумий психология. - Т.: Ўқитувчи, 2010.

yaqin tutadi. Ushbu hodisani to‘g‘ri baholash uchun A. B. ning karakter hislatlarini aniqlash, uni namoyon qilgan harakatlari va qiliqlarini tasvirlash bilan cheklanib qolmasdan, balki bir nechta holatdagi hissiy kechinmalarni tahlillash hamda voqelikni to‘g‘ri tushuntirishga erishish lozim.

2. Har qanday favquloddagi tipik holatdagi (muhitdagi) harakatning sifatlari hamda individual o‘ziga xos usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir. Jumladan, yuqorida keltirilgan misolda A. B. ning xarakteri uning o‘zini ishxonada hamda mahallada tutishida o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga xarakterning hislati hisoblanmish mehnatsevarlik: a) mehnat insonlarga rohat tuyg‘usi keltirishida, ishsizlikda afsus chekishida; b) atrof-muhitdagi narsalarga diqqatini chalqitmay, vaqtini behuda sarflamay, vujudi bilan vijdonan mehnat qilishida ro‘yobga chiqadi.

3. Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari nafaqat uning munosabatlariga aloqador, balki insonning irodaviy, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarining individual xususiyatlariga ham bog‘liqidir. Chunonchi, mehnatda ko‘zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga: a) diqqatning to‘planishiga (markazlashuviga), b) harakatlarning aniqligi, maqsadga yo‘nalganligi, v) irodaviy zo‘r berishga, g) usullar mahsulorligiga, d) aqlning tiyrakligiga bog‘liq. Xarakterning aqliy, hissiy, irodaviy hislatlariga ajratishni harakat usullaridan hamda xilma-xil ruhiy jarayonlarning ustivorlik qiluvchi ta’siridan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin.

Xarakter hislatlari shaxsni muayyan faoliyatga chiqishi mumkin. Ma‘lumki, xarakterning aksariyat hislatlari shaxsning xatti-harakatlari muvaffaqiyatini belgilovchi turki va faol mayllar bo‘lib hisoblanadi. Odatda shaxslar o‘zaro o‘xhash sharoitlarda bir xil motivlar va munosabatlarga asoslanib, aniq maqsadga intilib, maqsadga erishishga mutanosib harakat usullariga nisbatan moyillikni namoyon etadilar. Moyilliklar negizida xarakter hislatlarining undovchanlik kuchi vujudga keladi va uning ta’siri tufayli inson tabiiy sharoitga zid, maqsadga nomuvofiq harakat usullaridan foydalanadi.

Shaxs ba’zida o‘z xarakter hislatidan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyasizlikdan xavfsirashga qaraganda, ular o‘z yutuqlarini yuksakroq qadrlaydilar va

yuqori baholaydilar. Muvaffaqiyasizlik ular uchun halokatli hodisa emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qo'l urishida davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyasizlikdan cho'chiydarlar, o'ta ehtiyyotkor bo'ladilar, qiyinchilikdan yuz o'giradi, engil ishga qo'l urishni lozim topadilar.

Maqsadga nomuvofiq, lekin shaxs uchun o'ziga xos harakat usullarini tanlashga moyillik kuchli irodaviy zo'r berish sharoitlarida, jiddiylik (zo'riqish) vaziyatlarida yorqin aks etadi. Inson uchun o'ziga xos harakat usuli favquloddagi sharoitda maqsadga muvofiq kelsa, u holda o'z hislatiga nomuvofiq, bir xil yo'sindagi usullaridan foydalanishga qaraganda ko'p kuch-quvvat, qat'iylik, ishchanlik namoyish qilinishni ma'qul topadi. Mabodo xarakter hislatlari talabiga (obyektiv) sharoit talabiga qarshi harakat qilishga undasa, uning hislatlari o'ziga xalaqit va pand beradi. Xarakter hislatlari sharoit vaziyat talablariga muvofiq tushsa, u holda bunda shaxs ijobjiy faoliyat ko'rsatadi, butun kuch-quvvatini jamlab harakat qilishga imkon tug'iladi.

Shunday qilib, harakat hislatlari shaxsni muayyan yo'sinda intilishiga, ba'zida sharoitga zid harakat qilishga undash bilan birga, ular murakkab vaziyatlarda yorqin ro'yobga chiqadilar. Haqqoniylilik, dadillik, to'g'rilik shaxsni noxush kechinmalarga olib kelishiga qaramay, uni davralarda haqiqatni tik aytishga undaydi, sobitqadamlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xarakter tuzilishi va xususiyatlari

Shaxsning xarakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro birqbiriga bog'liq, hatto tobe' yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter hislatlarining muayyan qismida xabardor bo'lishlik notanishlarni tashhis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatlari bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. «Simptom» yunoncha symptoma – belgi, mos tushish; «kompleks» latincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish, o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoqlik, o'zbirarmonlik, urishqoqlik, keksayishi

kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyligi bilan ajralib turadilar. Vogelikka shaxsnинг bir xil munosabati xarakter hislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Shaxsnинг munosabatlarini aks ettiruvchi xarakter hislatlarini to'rtta tizimga ajratish qonuniy holatga aylangan:

1. Jamoaga (guruhg'a) va ba'zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlari: yaxshilik, mehribbonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

2. Mehnatga nisbatan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, mas'uliyasizlik kabilar.

3. Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlari: ozodalik, ifloslik, ayash, ayamaslik va hokazo.

4. Shaxsnинг o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi hislatlar: izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, takabburlik, dimog'dorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

Shartli ravishda qabul qilingan «shaxs va atrof-muhitdagi insonlar» simptomokompleksi o'z tarkibiga nafaqat boshqa shaxslarga nisbatan munosabatlarni, balki o'ziga qaratilgan munosabatlarni mujassamlash-tiruvchi hislatlar ham kiradi. Chunonchi, o'ziga ishonch, o'z birarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik yoki aksincha xususiyatlari shular jumlasidandir. Shunday qilib, «shaxs va atrof-muhitdagi insonlar» degan shartli nom berilgan hislatlar tizimi o'zga kishilarga, jamoa (guruh) a'zolariga va o'ziga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni irlashtiradi. Turlicha munosabatlar o'zaro bir-biriga bog'langan tarzda muayyan tizimni tashkil qiladi, natijada «Men-Biz» munosabati o'zaro o'rinn almashtirib turadi, ya'ni o'ziga qaratilgan munosabat guruhiy xususiyat kasb etadi.

Shuning uchun shaxsnинг turlicha munosabatlari o'zaro bog'liqligi uning xarakteri tuzilishi xususiyatlari bilan uyg'unlashib ketadi. Umumiyligi va xususiy munosabatlar xarakter hislatlari bilan birlashgan holda muayyan ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu boisdan insonning xarakteri nisbatan butun, yaxlit xususiyatga ega. Shaxs munosabatlarining kelib chiqishiga asoslanib, ular markaziy (asosiy va ularga tobe', hosilaviy munosabatlarga ajratiladi. Shaxsnинг markaziy (asosiy) munosabatlari ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanganligi tufayli bunday munosabatlar hamisha ijtimoiy-tipik xususiyatga egadir. Masalan, ijobiy hislatlar mujassamlashgan shaxsnинг asosiy munosabatlari

o'zga odamlarga, jamoa (guruh)ga nisbatan munosabatlarda ifodalananadi. Shunday qilib, xarakter hislatlarining individual o'ziga xosligi, betakrorligiga qaramay, uning negizi tuzilishida hamma vaqt shaxsning ijtimoiy-tipik markaziy (asosiy) munosabatlari yotadi.

Xarakterning tuzilishi qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda muhim tarbiyaviy xulosalar chiqarish mumkin. Xarakter hislatlarining ba'zi nuqsonlarini (qo'pollik va yolg'onchilikni) bartaraf qilish, uning ijobjiy xususiyatlarini (xushfe'llik va haqqoniyilikni) shakllantirish muddaosi rejalashtirilgan dasturda amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki insonlarga nisbatan to'g'ri munosabatni tarkib toptirmay turib, illatga qarshi kurashib, ijobjiy fazilatni shakllantira olmaymiz. Shu narsa ma'lumki, shaxsda o'zaro bir-biriga bog'liq xususiyatlarning yaxlit bir tizimini mazkur toptirish mumkin, xolos. Mazkur jarayonda xususiyatlar tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri-bu shaxsning markaziy (asosiy) munosabatlari tarkib toptirishdan iboratdir.

Shaxs xarakterining yaxlitligi bus-butunligi mutloq narsa emas, albatta, chunki insonning asosiy munosabatlardan biri boshqa barcha munosabatlarni to'la belgilay olgandagina xarakter mutloq xususiyat kasb etadi. Lekin shaxsning munosabatlari ijtimoiy munosabatlarning aks ettirilishidan iboratligi tufayli uning munosabatlari bilan xarakter hislatlari o'rtasida ziddiyat hukm suradi. Bundan xulosaga kelgan holda shaxsning xarakteri nisbiy jihatdan yaxlidir deyishiimz mumkin, biroq uning bir butunligi ham individual, o'zigi xos xususiyatga egadir. Yaxlitlik nuqtai nazaridan qaraganda, turli qarama-qarshi xususiyatlari shaxslar qarshiliklar oqibatida harakatlarda va inson hulqida shunday holat hosil bo'ladi va ijtimoiy-ahloqiy me'yorlarni buzishini yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatlarda harakatdagi kamchiliklari bilan kurashishning asosiy yo'li – bu shaxs xarakteridagi qarama-qarshiliklarni engishga o'rganishdir.

Xarakterning tuzilishi ba'zi hislatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki uning yaxlitligiga mutanosib xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Xarakter tuzilishining qatoriga ularning chuqurlik darajasi kiradi va shaxsning asosiy munosabatlari bilan belgilanadi. Insonning boshqa odamlarga, jamoaga, mehnatga nisbatan fidoiy munosabatda bo'lishida belgilanuvchi xususiyatlari chuqurroq xususiyatlari deyladi. Mazkur mezonga qarab shaxslarning farqlanishini yuzaki tasavvur qilmaslik kerak, chunki insonga beriladigan tavsifnomalar simtomokomplekslarni ta'kidlab o'tishi bilan cheklanmasligi lozim. Aks holda shaxsning psixologik qiyofasining tavsifnomasi: birinchidan, simtomokomp-

lekslarni chuqurroq joylashtirishni, ikkinchidan, muayyan darajada chuqurroq mujasamlashtirishni, uchunchidan, bir oz yuzakiroq tizimni ajratishni taqozo qiladi.

Xarakter tuzilishi xususiyatlari jumlasiga faoliyot yoki xarakter kuchi kiritiladi va shunga asosan insonlar kuchli hamda kuchsiz xarakter turlariga ajratiladi. Shuningdek, xarakter tuzilishi xususiyatlari tarkibiga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi ham kiritilgandir. Xarakterning barqarorligi ham, o'zgaruvchanligi ham moslashishi faoliyatining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Shaxsning xarakter xususiyatlari turlicha turmush sharoitlarida, qarshilik qiluvchi vaziyatga uchrashiga qaramay, uning xatti-haraktlarini boshqaradi. Shu boisdan inson tashqi vaziyatga bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki tashqi vaziyatni uning shaxssan o'zi yaratadi, shuningdek, maqsadga muvofiqlashtiradi.

Bundan tashqari, shaxsning turmushdaga zaruriy sharoitlaridan biribu xarakterning muayyan darajada plastiklidir. Xarakterning plastikligi ikki xil ma'no kasb etadi. Xarakterning plastikligi uning barqarorligi singari muhitga faol ta'sir o'tkazishning shartlaridan hisoblanadi. Ish-amallari maqsadga muvofiq va foydali kechishi uchun ular o'zgaruvchan tashqi sharoitga moslashishlari lozim. Xarakterning plastikligi, mustahkamligi uni shakllantirishining zaruriy sharti sanaladi. Xarakterning barqarorligi, plastikligi o'ziga xos individual xususiyatga ega bo'lib, uni tuzilishining hislati sifatida mujassamlashadi.

Xarakter xususiyatlarining kuchi va barqarorligi markaziy tizimga boqliqligiga binoan muayyan darajada shaxs munosabatlarning mazmuni bilan belgilanadi. Biroq ular munosabatlар mazmuniga bog'liqligiga qaramay, ba'zan yuzaki xususiyatga ham ega bo'ladilar.

Xarakterning tarkib topishi

Psixologiyada irlsiyat bilan xarakterining munosabati to'g'risida xilma-xil qarashlar mavjud (Krechmer, Sheldon va boshqalar). Aksariyat psixologlarning e'tirof etishlaricha, organizmning nasliy xususiyatlari xarakter hislatlarining paydo bo'lishidagi shartlaridan biri hisoblanadi, xolos. Ma'lumki, xarakter xususiyatlari irlsiyatning biologik qonuniyatlar bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu masalani irlsiyatga bog'lab tushuntirishi gomozigot egizaklarni o'rganish orqali inkor qilinadi, chunki ularning nasliy xususiyatlari aynan bir xildir. Ular temperament xususiyatlari bo'yicha tubdan o'xshash bo'lsalar-da, lekin xarakter hislatlariga ko'ra bir-biridan keskin

farq qiladilar. Shuning uchun xarakterning shaxs turmush sharoitiga bog'liqligini: a) uning fiziologik asosi ham, b) tashqi taassurotlar tizimi tufayli vujudga keladigan shartli reflektor funksional holati ham tasdiqlaydi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshadi. Xarakterning har bir hislati shaxs munosabatlariga bog'liq bo'lsa, ular o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir qil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter hislatlari shakllanadi. Shu sababdan ijtimoiy tuzimni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlarigina emas, bilki xarakterning individual xususiyatlari (hislatlari) tarkib topishiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog'liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida hayrixohlik, o'rtoqlik, o'zaro yordamlashish, hamkorlik, yoki, aksincha, johillik, zolimlik, badjahllik kabi shaxslar aro munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzanlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlar ko'renishi, ota-onha munosabatiga asoslangan holda xarakterning o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi. Bolalar bog'chasidagi, maktabdagagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning mahsus hislatlarini tarkib toptiradi. Mehnat jamoalarida, norasimy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarda sezilarli o'zgarishlar yuzaga keladi. Ilk yoshlik davrida shakllangan xarakter hislatlari nihoyat darajada barqaror bo'lib, ularga ayrim o'zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Shaxsda mayillarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog'liq holda tarkib topgan munosabatlar o'zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xarakter hislatlarining chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi ko'p jihatdan shaxs munosabatlarining onglilik darajasiga bog'liq. Insonning haqqoniylig, mehnatsevarlik hislatlari tasodifiy tarkib topmagan bo'lib, uning ongli qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo'laveradi. Mamlakatimiz fuqorolari harakterining kuchi va mustahkamligi ularning istiqlol nashidasidadir va vatanparvarlik yuksak his-tuyg'usidadir. Shunday qilib, psixikaning individual sifat xususiyatlari shaxsning ijtimoiy-tipik munosabatlari bilan qo'shilgan taqdirdagina xarakter hislatlarini belgilash, tavsiflash imkoniyati vujudga keladi. Psixikaning individual xususiyatlari orasida temperament xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xarakter bilan temperamentning o'zaro munosabati ularni fiziologik asoslari bilan belgilanadi. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo'lib

aynan shu tarzda muayyan vaqt mobaynida kechishi dinomik xususiyat deyiladi. Xarakter hislatlarining dinomik xususiyati temperament xususiyatlariiga bog'liqdir. Ana shu holatga muvofiq ravishda temperament xususiyatlari ham xarakterning ma'lum hislatlarining vaqt davomida tashqi namoyon bo'lishi ham temperament tipiga bog'liq.

Taraqqiyot va tarbiyaning ijtimoiy sharoitlari hamda ularping psixikaning irsiy individual xususiyatlari bilan o'zaro munosabati xarakter hislatlarini to'g'ridan-to'g'ri tavsiflamaydi, balki shaxsning faoliyati orqali belgilaydi. Uning faoliyatiga taalluqli aynan bir xil ijtimoiy sharoitda ham xuddi shu bir xil irsiy xususiyalaridan turli xarakter hislatlari shakllanadi. Xuddi shu boisdan xarakterning rivojlanishi shaxsning faol faoliyati jarayonida uning xatti-harakatlariga bog'liq tarzda amalga oshadi. Xarakterning tarkib topishida faol faoliyatning roli shundaki, xuddi shu faol faoliyatiga xarakterning ifodalaydigan harakatning individual o'ziga xos usullari tarkib topadi. Harakt usullarining avtomatlashuvi muayyan dinomik stereotip hosil qilinishi bilan bog'liq shartli reflektor funksional holatning mahsulasidir. Avtomatlashuvning bir necha turdag'i psixologik mexanizmlari mavjud bo'lib, ulardan biri-bu odatlardir. Xarakter hislatlari tarkib topishining muhim shartlaridan biri-bu hislatlarni zaruriy xatti-harakatlarda chidam bilan mashq qilishdan iboratdir.

Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning roli katta bo'lib, harakt usullari avtomatlashuvining bosh manbai hisoblanadi. Tarkib topish jarayonida taqlidchanlikning ahamiyati ko'p jihatdan ifodali xatti-harakatlarning shaxs emotsiyal (hissiy) kechimlalariga ta'siri bilan belgilanadi. Taqlidchanlik xatti-harakat namunasiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan shaxs munosabatlari tomonidan motivlashtirilgandagina xarakter hislatlari shakllantirishning shartiga aylanadi.

Xarakterning shakllanishida muayyan psixik faoliyatga yaxlit obyektiv va subyektiv mayllik tarzidagi ko'rsatma berish (ko'rsatma) psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatma (ko'rsatma) odatlardan farqli o'laroq, muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo'lib qolmay, balki bilish jarayonlariga, hissiy va irodaviy reaksiyalarga ham tayyor turishlidir.

Xarakterning hosil bo'lishida nizoli vaziyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xarakter faqat murakkab va keskin vaziyatlarda (sharoitlarda yorqin namoyon bo'libgina qolmasdan, balki mazkur holatlarda u tarkib ham topadi. Odatta xarakter hislatlarining o'zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatlardan chiqish uchun qanday yo'l-yo'riq

topishiga bog'liq, binobarin, inson sharoitdan kelib chiqib, qanday xatti-harakatni amalga oshirishga qaror qiladi. Shunday qilib, shaxs o'zining butun hayoti va faoliyati davomida o'z xatti-harakatlari, odatlari bilan o'z xarakter hislatlarini o'zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi.

Inson xarakteri va shaxs kamolotи

Inson xarakteri tarkib toptirishning muhim omili tariqasida vaziyat (situatsiya) etakchi rol uynaydi va regulyatorlik funksiyasini bajaradi. Bizning fikrimizcha, vaziyat goho qo'sh stimul, juft determinator, qo'sh mexanizm sifatida uzlusiz ruhiy holatlar (qaysi muhitda bo'lishdan qat'i nazar) vujudga kelib turishini ta'minlashi mumkin. Vaziyatlar ekstremal (favqulodda), kazusli (tasodifyi), kazual (sababiy) kabi ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro muayyan darajada ajralib turadi.

Ekstremal vaziyatlar yo tabiiy omillar, hodisalar ta'siri, natijasi mohiyatidan kelib chiqib, ofatlar, larzalar, tabiatning injiqqliklari, mo'jizalari, dahshatli kuchlari shaklida namoyon bo'lishi, vujudga kelishi, kechishi va rivojlanishidan iboratdir. Individning muayyan darajada uyushgan guruh (etnik birlilik)ning munosabati xarakterologik xususiyatlarning shakllanishiga zarur obyektiv va subyektiv qulay sharoitlar yaratilishiga imkon yaratadi. Vaziyatlar o'zining mohiyati bilan rasmiy yoki norasmiy guruhrar, maxsus mutaxassislar tomonidan uyuşhtirilishi ham mumkin (harbiy mashqlar va hokazo). Ularning aks sadosiga nisbatan javob reaksiyasi (goho aksiya) sifatida vaziyatlarning qatnashchilari munosabati ularning xarakter xususiyatlarda ifodalananadi. Kutilmagan favkuloddagi vaziyatlar qatoriga psixoterapevtik ta'sir o'tkazish, gipnotik holatga keltirish, ongsizlikka tushirish oqibatlarida bir yoqlama ruhiy ta'sir o'tkazish hamda ta'sirga berilish (diada, triada, poliada) natijasida o'taishonch bildirish tufayli ta'sir doirasiga kirib qolish milliy xarakterning kuchliligi yoki kuchsizligini namoyish qiladi.

Mazkur vaziyatlar qatoriga alkogolizm, narkomaniya, taksikomaniya holatlaridan ongsiz ideomotor harakatlarga tortilganlik, insoniy qiyofadan hayvoniy hirslarga o'tish, fikrlarni uzatishda qo'pol nuqsonlarga yo'l qo'yish, o'zini o'zi ongli ravishda boshqarish (guruhiy jipslik) imkoniyatini yo'qotish jarayonlari shular jumlasidandir.

Subyektiv maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan sun'iy vaziyatlar ham xarakterologik hislatlarni sinashda muhim obyekt sifatida xizmat qiladi (masalan, shijoat, ehtiros, stress, affekt).

1. Kazusli (tasodifiy) vaziyatlar inson hayoti va faoliyatida alohida ahamiyat kasb etib, unda ishonch, qat'iyatlik, barqarorlik, mustaqillik, ta'sirga beriluvchanlik kabi hislatlar yoki illatlar ustuvorligi hamda barqarorligi haqida ma'lumot olishga zamin hozirlaydi.

Bunday vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri – bu tolerantlikning vujudga kelishi bilan neyrofiziologik, psixofiziologik mexanizmlardan iboratdir. Bizning ta'birimizcha, uni keltirib chiqaruvchi omillar, asosan, ikki qutbga taalluqli bo'lib, biri tasodifiy, yondosh qo'zg'atuvchilar ta'sirida yuzaga kelib tolerantlikka asoslanadi, ikkinchisi esa, ichki qo'zg'ovchilar «reaksiyalar» («aksiyalar») orqali ifodalanib, ko'proq subyektiv omillar mahsuli hisoblanadi, armonning har xil shakllari funksiyasini bajaradi. Omadlilik xuddi shunday ruhiy hodisalarни vujudga keltiradi, shaxsning (etnik birlikning, jamoaning) faollikka undovchi uzluksiz xatti-harakatlar qo'shstimul vazifasini muvaqqat bajarishga kirishishi mumkin. Birinchi holatda shijoat harakatlantiruvchi mexanizm rolini bajarsa, ikkinchisida esa ushalgan ezgu niyat, ichki ruhiy g'alayon, tug'ilayotgan fikrlarning «jangi», ularning o'zaro qarama-qarshi tayanch nuqtalariga ega ekanligi hal qiluvchi stimul funksiyasini ijro etadi. Shaxslararo munosabat negizidan kelib chiquvchi muvaffaqiyat va muvaffaqiyasizlik, omadlilik va omadsizlik kabilarni vujudga keltiradi. Masalan, talabaning yuqori ballga erishganligi uni yanada ilhomlantiradi, kursdoshida esa ikki xil xususiyatlari kechinmani yuzaga keltirib, bir tomondan xohish, ishtiyoy, ilhom, ezgulik his tuyg'ularining kuchayishiga olib keladi. Ikkinci tomongan esa g'ayrilik illati individni (shaxsni) faollik sari etaklaydi.

2. Kauzal (sababiy) vaziyatning paydo bo'lishi subyektiv kechinmalar, manbalar negizi bilan uyg'unlashib, xilma-xil ehtiyojlar, motivlar, egoistik yoki alturistik pozitsiyalar, tub ma'nodagi fidoyilik namunasining sababiy bog'liqliklar (determinatorlar) mahsuli ustiga quriladi. Vatanparvarlik tuyg'usi insonni (guruohni, jamoani) ijodiy izlanish sari etaklaydi, barqaror harakatlantiruvchi kuchlarni vujudga keltiradi, puxta mexanizmlar uzluksizligini

ta'minlashda ishtirok etadi. Qonuniyatlar ma'naviy jihatdan eskirishi, yangilarini ochishga intilish, muayyan nazariyalar yaratishga ishtiyoqlilik tug'ilishi ham jismoniy, ham huquqiy shaxs (guruh) oldiga istiqbol maqsadlari rejalarini qo'yadi.

Qobiliyat¹

Qobiliyat to'g'risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirish maqsadga muvofiq: a) qobiliyat shaxsnинг psixologik xususiyatlari ekanligi; b) mazkur xususiyatlarga bilim, ko'nikma, malaka orttirish bog'liq; v) ushbu xususiyatlarning o'zi bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli emasdir. Yuqoridagi voqeliklarning tahlilidan kelib chiqilganida, tovarga berilgan baho, tanlovlardagi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyasiz ishtirok etishga asoslanib, shaxslarning qobiliyatları yuzasidan qat'iy qaror kelinishi mumkin edi. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliv ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha «o'rtamiyona» talaba keyinchalik ijobiy tomoniga o'zgarishi, boshqa soha (tarmoq)da yuksak natijalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda o'zini ko'rsatishi mumkin. Ta'lim va ijtimoiy turmushda o'quvsiz, «Yaroqsiz» deb baholangan insonlar keyinchalik biron-bir sohaning etakchi mutaxassis sifatida elga talinilishi, yuqori lavozim egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisisi tajribada ko'p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni egallash (o'zlashtirish) jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da, lekin ular bilim, ko'nikma, malakalarga bevosita taalluqli emasdir xuddi shu boisdan, ular bir-biri bilan o'zaro munosabat va nisbatan nuqtai nazardan tahlil qilinganida qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko'nikmalar mohiyat, mazmun, ma'no jihatidan bir-biridan tafovut qiladi. Ushbu psixologik hodisa obrazliroq qilib tushuntirilganida, bilim ko'nikma, malaka mashqlanish tufayli egallaniladigan aniq voqelik deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsnинг ruhiy olamidagi hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatidir. Masalan, talabaning o'qishga kirishi u mutaxassis sifatida kasbiy kamolot uchun imkoniyat tarzida gavdalaniishi kabi (uning intilishi, obyektiv va subyektiv muhit, salomatligi va boshqalar), shaxsnинг qobiliyatları kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo'ladi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar egallandimi yoki yo'qmi,

¹ Гонис Э.Ф. Умумий психология. - Т.: Ўқитувчи, 2010.

imkoniyat ro'yobga chiqdimi yoki ushalmagan orzu sifatida qolib ketdimi-bularning barchasi ko'pgina omillarga va sharoitlarga bog'liqdir. Masalan, atrof-muhitdag'i odamlar (oila, maktab, mehnat jamoasi a'zolari, jamoatchilik) shaxsning u yoki bu bilim hamda ko'nikmalarni egallahsga manfaatdorligi, o'qish, o'rgatishga munosabati, ularni tashkil qilish va mustahkamlashga nisbatan mas'uliyat his qilish kabilarning barchasi-imkoniyatning ro'yobga chiqarish, uning voqelikka aylantirishning kafolatidir. Psixologiyaning metodologik asosining ko'rsatishicha, qobiliyatlar-imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatidagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanadi. Insonda namoyon bo'layotgan tasviriy san'at qobiliyatini uning rassom sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi. Rassomlikni egallashi uchun maxsus ta'lif berilishi, tabiatga o'zgacha munosabati, idrok qilish hayoloti, shaxsiy fazilati, salomatligi, matolar, mo'yqalamlar, bo'yoqlar, moslama asboblar va boshqa ijarah muhayyo bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tilgan vositalar, shart-sharoitlarsiz tasviriy san'at qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq, ilk ko'rinishidayoq so'na borishi mumkin. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot pallasida bunday hodisalar son-sanoqsiz bo'lib o'tganligi hech kimga sir emas, albatta.

Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jahhalari bo'lmish bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan, ularning birligini e'tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi, lekin shunda ham aynan shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos. Agar shaxs rasm solishga hali o'rganmagan bo'lsa, mabodo u tasviriy faoliyatning malakalarini uddalay olmasa, uning tasviriy san'atga nisbatan qobiliyatlar yuzasidan mulohaza yuritishga o'rin ham yo'q. Bularning barchasi bo'lg'usi rassomning ish uslubi, usullari, rangga munosabatlarini qanchalik tez va oson o'zlashtirishida hamda borliqdagi go'zallikni idrok qilish, tasavvur etishida yuzaga keladi.

Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi

Psixologiyada qobiliyat individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqa insondon tafovutlanadigan hislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlar bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay

bo'lishi mumkin. Qobiliyatning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdori tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, engil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, birinchidan, maqsadga turlicha yo'llar orqali erishishga imkon beruvchi «o'zgaruvchan miqdor» to'plami tariqasida, ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik hislatlari (fazilatlari) murakkab majmuasi ko'rinishida gavdalanadi. Masalan, fakultet dekanati va o'qituvchilar jamoasi tomonidan yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga ega deb baholangan IV kurs boshlig'i («oqsoqoli») Mahkamda mana bunday psixologik xususiyatlar majmuasini ko'rish mumkin, chunonchi, tashabbuskorlik, talabchanlik, mehribonlik, e'tiborlilik, kuzatuvchanlik, tengdoshlarini tashhis qila olishlik, kashfiyotchilik, javobgarlik, hamdardlik, jozibadorlik, hamkorlik, samiyimiylik, hissiy yaqinlik kabilalar. Mahkamning qobiliyatini boshqa tashkilotchilar qobiliyati bilan qiyoslanganda ko'lami keng, mohiyati chuqur bo'lish bilan birga, balki o'zining sifati bilan ham ajralib turadi. Xuddi shu fakultetning III kurs boshlig'i («oqsoqoli») Adham ham tashkilotchi, uddaburon shaxs, lekin faoliyatni amalga oshirish, o'zgalarga ta'sir ko'rsatish mutlaqo boshqa omillarga asoslanadi. Shuning uchun tashkilotchilik qobiliyati boshqa psixologik hislatlar majmuasini (turkumini) tashkil qiladi, chunonchi, zaiflarga nisbatan shafqatsizlik, jamaa a'zolariga tazyiq o'tkazishlik, uddaburonlik, amalparastlik, maqtanchoqlik va boshqalar.

Keltirilgan misollardan ko'rilib turibdiki, u yoki bu faoliyatni amalga oshirishda o'zaro o'xshash yoki bir-biri bilan farqlanuvchi turlicha qobiliyatlar turkumi (majmuasi, birikmasi) ishtirok etishi mumkin ekan. Bu psixologik hodisa tahlili orqali shaxs qobiliyatlarining muhim jabhalari yaqqol ko'zga tashlanadi, jumladan, shaxsdagi bir hislatning o'rnini boshqasi bosishi (kompensatsiya qilishi, latincha compensatio o'rnini bosishi, muvofiqlashtirish ma'nosini bildiradi) vujudga keladi, buning uchun inson o'zi ustida sabr-toqat, chidam bilan mehnat qilishi tufayli yuksak ko'rsatkichlarga erisha oladi.

Shaxsning qobiliyatida mavjud bo'lgan o'rnini bosish (kompensator)lik imkoniyati va eshitishdan mahrum insonlarni maxsus o'qitish

orqali ro'yobga chiqadi. Hayotda ko'r musiqachi, artist, shoir, rassom, muhandis va boshqa shu kabi kasb egalari etishib chiqqanligi ko'p uchraydi. Hatto eshitish qobiliyati past yoki umuman yo'qligi ham kasbiy musiqaviy qobiliyatining rivojlanishiga keskin xalaqit bermasligi mumkin. Bu psixologik hodisa (bir qobiliyatni boshqa qobiliyat yordami bilan o'stirish, ya'ni kompleksatorlik xususiyati) har bir shaxs uchun kasb tanlash va qayta kasb tanlash (ikkinchisi yoki uchinchi kasbni egallash ishtiyog'i) sohasida mislsiz keng qo'lamdag'i imkoniyatlarni ochadi. Ushbu vogelikni tasdiqlovchi qator misollarning o'zida silliq duradgor, mohir tikuvg'chi bo'lishi; yirik fan allomasi yirik san'atkor, etuk sportchi ekanligi uchrab turadi. Qobiliyatli shaxslar ijtimoiy turmushning turli sohalari hamda jahbalarida o'z o'rnini topa oladilar hamda yuksak yutuqlarga erishadilar, hatto bir necha faoliyat turida tekis muvaffaqiyatlar qozonish ham mumkin.

Qibiliyatning miqdoriy tavsifi va ularni o'lhash muammosi psixologiya fanida o'ziga xos rivojlanishning tarixiy o'tmishiga ega. Hozirgi davrda fanning mumtoz psixologlariga aylangan Spirmen, Permen Kettell va boshqalar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridayoq muayyan ixtisoslar uchun kasb tanlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadigan talabiar tazyiqida o'quv yurtlarida saboq olayotgan shaxslarning qobiliyat darajasini aniqlashga kirishdilar. Ularning taxminlaricha, insонning lavozimiga loyiqligi, uning mehnat faoliyatiga layoqatni, shuningdek, oliy o'quv yurtlariga, harbiy xizmatga, rahbarlik martabasini egallashga nisbatan layoqatlarini aniqlash imkoniyati mavjuddir. O'tgan asrda qobiliyatlarni o'lhash usuli, mezoni tariqasida aqliy iste'dod testlari ishlab chiqildi va AQSH, BuYuk Britaniya kabi mamlakatlarda o'quvchilarni saralash, harbiy xizmatga zabitlarni tanlash, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimiga tasiya qilishda foydalanildi. Hatto Buyuk Britaniyada universitetga kirish huquqini beruvchi test sinovi tizimi ham yaratildi. «Aqliy iste'dod» testlari ball yoki ochkolar bilan baholanib, echimga sariflangan vaqtini hisobga olib natijalar yig'indi holiga keltirilar edi. Masalan, Buyuk Britaniya maktablarida 11 yoshli o'smirga beriladigan test ko'rinish; «Pyotr Jemsga qaraganda balandroq, Edvard Petrdan pastroq. Kim hammadan ko'ra balandroq?» va tanlagan javobning tagiga chizib qo'yish talab qilinadi: 1) Pyotr, 2) Edvard; 3) Jeyms; 4) «ayta olmayman». Boshqacharoq testlar berilgan beshta so'zdan boshqalariga o'xshamanagini sinaluvchi tanlab olish kerak: 1) qizil, yashil, ko'k, ho'l, sariq; 2) yoki, ammo, agar, hozir, garchi va shu kabilar. Testlar

murakkabligi ortib borish tamoyili bo'yicha «Testlar batareyasi» tizimi yaratiladi. Testlar tuzilishi bo'yicha faqat so'zlardan iborat (verbal) sinovlar bilan cheklanmasdan, balki turlicha mohiyatli «labirintlar» (yunoncha labyrinthos – chigal holat, murakkab, chalkash ma'nosini bildiradi), «boshqotirma» va shunga o'xshash sinovlar kiritiladi.

Qobiliyatlar tuzilishi

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u xoh ta'lim, xoh mehnat, xoh o'yin, xoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariiga, aqliy hisiatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorlikdagi sa'i-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat harchand ustuvorlikka ega bo'imasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'imaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (hislat) faoliyatining yuksak mahsuldarligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch quvvat tariqasida vujudga keladi degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (hislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinnlidir.

Qobiliyat sifatida ro'yobga chiqadigan psixik hislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdag'i faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) umumiy qobiliyat: o'quv materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan engil o'tishlik, masala echishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinish turibdiki, mamavzutik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy texnik, konstrukturlik, tibbiy qobiliyat va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yaqqol qobiliyat tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning hislatlari, fazilatlari orasida ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyat tuzilishida etakchi hislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga uquvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazillariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarning etakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'limjarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatdan muayyan darajada umumiy va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda qobiliyatlar guruhiqa ajratish maqsadga muvofiq. Umumi qobiliyatlar (sifatlар) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda taqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatları ularni hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi.

Rus olimi I.P.Pavlov o'z ta'limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o'rta» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliv nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimsidan iboratligi to'g'risidagi ta'limotiga asoslanadi. Birinchi signallar va ikkinchi signallar tizimsi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar tizimsi I.P.Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sitizimsining signallari nisbatan ustunlik qilsa inson «badiiy» tipga taalluqlidir;

2) mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo'lsa-bu shaxs «fikrlovchi tipga» munosibdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) – bu inson «o'rta tipga» mansub odamdir.

4) tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. «Badiiy tip» uchun bavosita taa'ssirot, taassirotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

2. «Fikrlovchi tip» uchun, mavhumlarning, mantiqiy tizilmalarining, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarining ustunligi muvofiqdir.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyatning zaifligi yoki aqilning etishmasligini bildirmaydi, lekin bu o'rinda gap psixikasining obrazlari jahbalarini fikrlovchi tomonlari ustidan nisbatan ustuvorligi haqida borada, xolos. Biroq shuni ta'kidlash joizki, shaxsnинг ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimsidan ustunlik qiladi va bu ustuvorlik mutlaqlik xususiyatiga egadir. Ma'lumki, insonlarning hayot va faoliyatlarida til bilan tafakkurning o'rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan borliqni aks ettirish jarayoni so'zlar, fikrlov vositasida ro'yobga chiqariladi.

Shunday qilib, shaxsnинг u yoki bu faoliyatiga tayyorligi tariqasida yuzaga keladigan har qaysi yaqqol qobiliyatlar tuzilishi o'z tarkibiga etakchi va yordamchi, umumiyligida maxsus nomdag'i majmua sifatlarni (hislatlarni) qamrab olgan bo'lib, murakkab tizimdan iboratdir.

Iste'dodning paydo bo'lishi va tuzilishi

Iste'dodning ijtimoiy-tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Iste'dod (yunoncha *talant* qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy hislat degan ma'no anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan (yig'indisidan) iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berishiga qaramay, ularda asosiy belgilari ta'kidlab o'tiladi, chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qibiliyatlar majmuasiga *iste'dod* deyiladi. Iste'dodning asosiy belgilari: a) muvaffaqiyatni ta'minlash; b) faoliyatni mustaqil bajarish; c) originallik unsurining mavjudligi; d) qibiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi; e) individual psixologik hislatligi; f) ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyatligi kabilari.

Iste'dod ham qibiliyatga o'xshash ijodiyotda yuksak mahoratga, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati hisoblanib, ijodiy kutilmasi (yutuq) insonlarning ijtimoiy tarixiy turmush shart-sharoitlariga bog'liqdir.

Jamiyatda iste'dodli shaxslarga nisbatan muhtojlik sezilsa, bunday insonlarning kamol topishi uchun zarur obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yaratilsa, bunday vaziyatda barkamol odamlarning shakllanishiga imkoniyat tug'iladi.

Shuning uchun jahon sivilizatsiyasi, fan va texnikasi, san'at va adabiyot, moddiy va ma'naviy madaniyatini yaratishning (ichki ruhiy) imkoniyati hisoblanmish iste'dod taraqqiyotining harakatlantiruvchi omilidir. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning etishmasligi tufayli ko'pchilik iste'dod sohiblari o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlaridan mahrum bo'lgandir. Mamlakatimizning yaqin o'tmishida chorizm mustamlakachilik siyosatida, qatag'on yillarda qanchalab Iste'dodli davlat va jamoat arboblari, betakror fan, madaniyat, adabiyot namoyandalari o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga erisha olmay dunyodan ko'z yundilar. Bu-bizning moziyimiz, achchiq haqiqatimiz, turmush voqeligimiz, dinomik xususiyatli ko'ngil armonimiz, borliqqa aql-zakovat bilan munosabat bo'lishning ilmiy-psixologik mezondir. Iste'dodlarning uyg'onish (tug'ilish) ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lganligi, tufayli mustaqil mamlakatimizda iste'dodli yoshlarga nisbatan yuksak ehtiyoj sezmoqda, bu narsa yaqqol ko'rinish turibdiki, shunday mezonga loyiq shaxslar mavjud va ular kelajagi buyuk davlatimiz poydevori hisoblanadilar.

Iste'dod qobiliyatlar yig'indisi yoki ularning majmuasidan iborat bo'lishiga qaramay, alohida olingen yakka qobiliyatni hatto u taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgan, yorqin ifodalansa ham, u bilan tenglashtirish mumkin emas. Bu omilga asos bo'lib, XX asrning 20–30-yillarda moskvalik psixologlar tomonidan olib borilgan fenomenal g'oyat o'tkir, noyob (nodir) xotiraga ega bo'lgan insonlarni tekshirish natijalari hisoblanadi. Esda olib qolish qobiliyati (estrada sahna artisti) hech kimda shubha tug'dirmagan bo'lsa-da, lekin xotira ijodiyotning muvaffaqiyati, mahsuldorligi omillaridan biri ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib kelgan. Ma'lumki, shaxsning yaratuvchanlik faoliyatida aqlning epchilliga, boy fantaziya, kuchli iroda, barqaror xarakter, turg'un qiziqishlar, sermahsul bilish jarayonlari, motivatsiya, yuksak his-tuyg'ular va boshqa psixologik sifatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuni unutmasligimiz o'rinniki, noyob xotiraga ega bo'lgan ajoyib yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, yuristlar, jamoat arboblarining nomlari mashhurdir.

Psiyologik ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda ikki xil xususiyatlari fikrni alohida ta'kidiab o'tish iste'dod tuzilishini engilroq tushunish imkoniyatini yaratadi:

1) iste'dod – bu shaxs psixik hislatlarning shunday murakkab birikmasidirki, uni: a) alohida, yagona maxsus qobiliyat bilan; b) xotiraning yuksak mahsuldarligi orqali; b) hatto noyob (kamyob, nodir) sifat tariqasida o'lchab bo'lmaydi;

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mayjud emasligi hamda etarli darajada taraqqiy etmaganligi iste'dodning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o'rni bosib yuborishi (kompensatsiya qilishi) mumkin.

Moskvaning Umumiy va pedagogik psixologiya instituti xodimlari tomonidan o'quvchilarning iste'dodi iste'dod tushuncha negizida o'rganilgan. Aniqlangan muhim qobiliyatlar yig'indisi aqliy iste'dod tuzilishini vujudga keltirilgan. Ilmiy tadqiqotchilarning fikricha, yuksak iste'dod quyidagicha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin: a) bunday shaxsning birinchi xususiyati-ziyraklilik, shaylik, jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir; b) shaxsning ikkinchi xususiyati-uning mehnatga tayyorligi (mehnatga moyilligi, mehnatga intilishi, mehnatning ehtiyojga aylanishi)dir; c) insonning uchunchi xususiyati-unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi, aqlning tartibliligi, tahlil va umumlashtirishning yuqori imkoniyatlari, aqlning mahsuldarligidir. Ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, maxsus iste'dod tuzilishi yuqoridagi sifatiardan tashqari, aniq faoliyat talablariga muvofiq keluvchi bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi.

Iste'dod o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-biridan muayyan darajada tafovutlanadi. Iste'dod-katta, ijodiy va zo'r mehnat mahsulasidir. Mehnat esa hayotiy tajriba, ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti-bu hayotiy tajriba, zaruriy ko'nikma va malakalar yig'indisining mayjudligidir. Ijodiy faoliyat Iste'dodning ajralmas qismi hisoblaniib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldarligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Iste'dod imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat-haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat – bu shaxs iste'dodining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Nazorat savollari

1. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari.
2. Temperament – shaxsning dinamik xususiyati ekanligi.
3. Temperament nazariyaları.
4. Xarakter. Xarakter xususiyatlari.
5. Xarakter xususiyatlarining shakllanishi.
6. Xarakter aksentuatsiyasi.
7. Qobiliyat.
8. Qobiliyatning aniqlash yo‘llari.

Adabiyotlar:

1. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. P. 563-572.
2. Boeree C. G. Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3
3. Аверин В.А. Психология личности: Учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2003. – 352с.
5. Нельсон-Джоунс Р. Теория и практика консультирования. СПб.: Питер, 2000. -464 с.
6. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. М., 1998.- 796 с.
7. Хъелл Л., Зиглер Д. Теории личности. СПб.: Питер, 1997. – 608 с.
8. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. Т.: Ўқитувчи, 2010.

10-bob. SHAXSNING O'ZINI O'ZI ANGLASHI. MEN KONSEPSIYASI. SHAXSNING IJTIMOIY TASAVVURLARI

Reja:

1. O'zini o'zi anglash jarayoni va natijasi.
2. Men konsepsiyasi va jinsiy o'xhashlikning shakillanishi.
3. Gender o'xhashligi.
4. Ijtimoiy tasavvurlari: muammolar va istiqbollar

O'zini o'zi anglash jarayoni va natijasi

O'z-o'zini anglash jarayon va natija sifatida ko'rildi. Odatda, o'z-o'zini anglash obyektiv dunyoga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda alohida e'tibor ong va o'z-o'zini anglash nisbatiga, ong birinchiligi masalasiغا beriladi. S.L.Rubenshteyn ongga bo'lgan ideolistik qarashni tanqid qiladi, unga ko'ra "psixik mavjutlik uning anglashi bilan; psixikani moxiyati shundaki, u to'g'ridan-to'g'ri o'zini-o'zi bilishda; ruhiyat ong bilan, ong-ruxiyat bilan bir deb hisoblanadi. Natijada ruxiyat anglash doirasida cheklanib qoladi, uning ongi va bilishi – to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot borligi". O'z qarashini ong va o'z-o'zini anglash muammosida himoya qilib Rubenshteyn, o'z-o'zini anglash o'z ichiga, o'z-o'ziga munosabatni kiritadi, lekin to'g'ridan-to'g'ri emas, balki shaxsnинг butun hayoti va subyektning hayotiy ko'rinishlari vositachiligidagi, deb ta'kidlaydi. Ong o'z-o'zini anglashdan emas, balki o'z-o'zini anglash subyektning aktivligidan shakillanadi. "O'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilishning obyekti "toza" ong emas, balki ong insonning real material mavjudligida alohida, insonning o'zi esa o'z borlig'ining o'zluksiz butunligida".

O'z-o'zini anglashni jarayon va maxsulot sifatida ajralishini U.Djems tomonidan kiritilgan. U Men-anglovchi (I) va Men-obyekt kabi (Me) ajratgan. Men-angluvchi toza tajriba, o'z-o'zini anglashning protsessual xarakteristikasi. O'z-o'zini anglashning bu ikki aspektni biz faqat nazariyasiga nisbatan avtonom sifatida tasavvur qilishimiz mumkin, chunki ular real holatda bir-birisiz mavjud emas.

O'zini o'zi anglash jarayon sifatida

Bilish jarayoni bir necha parametrlar ko'rinishida ko'rsatilishi mumkin. K.Yasperga ko'ra, bunday parametrlar 4 ta: 1) o'zini aktiv shaxsiyat sifatida anglash; 2) o'zining birligini anglash; 3) o'zining

o'xhashligini anglash; 4) o'zinig boshqa dunyodan farqliligin anglash (obyektlar dunyosi va boshqa odamlar).

O'zini o'zi o'xhashligini anglash, vaqtida o'zi haqida barqaror qarashlar nuqtai nazaridan bu jarayonni ifodalaydi. Boshqa so'zlar bilan, inson hayoti davomida bo'lib o'tadigan o'zgarishlar suratida, u o'z-o'ziga sodiq bo'lib qoladi. Har doim kim bo'lsa, o'sha ekanligini his etgan xolda o'xhashlik hissining buzilishi, o'zini o'tmishda rad qilishi, o'tmish va hozir o'rtasidagi Men suratlарini buzilishi bilan bog'liq. O'zini atrofidagi dunyodan alohida ekanligini anglash, Men va Menemas tushunchasini aniq tushunilishida namoyon buladi, o'zining shaxsiyati o'rtasida ko'rinmas chegara borligini va atrofdagi obektlarning farqi borligini his qiladi. Chegaralarning buzilishi, o'zini boshqa odamlar bilan, yoki hatto jonsiz obyektlar bilan taqqoslashida hamda yaqinlashish va uzoqlashish konfliktida namoyon bo'ladi.

O'zini o'zi anglash natija sifatida

O'zini o'zi anglash jarayn sifatida o'zining tugallanishini bilish va o'zini anglash natijasida namoyon bo'ladi. Albatta, biz qandaydir tugallanish shartligi haqida gapirayapmiz, chunki o'zini o'zi anglashni to'xtatish va bekor vilish kam uchraydigan hodisa va u insonning hayotidagi ekstremal hodisalar bilan bog'liq. O'zini o'zi anglan natija sifatida Men konsepsiysi terminlarida ifodalanadi.

Karl Rojers fikriga ko'ra, Men konsepsiysi o'zining xarakteristikalari tasavvuridan va individ qobiliyatlaridan, boshqa odamlar bilan aloqa mavjudligi tasavvuridan, obyektlar va harakatlar bilan bog'liq bo'lgan qimmatli tasavvurlardan iborat¹.

Men konsepsiysi – bu inson ongidagi o'ziga bo'lgan tasavvurlri, suratlari, baholari sistemasidir. U o'z ichiga boshqalar ko'zida o'zining qanday ko'rinishi, qanday bo'lishi va qanday o'zini tutishini kiritadi. Bu aniqlashga ko'ra, Men-krnsepsiysi, real va ideal Men obrazlari o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks natijasi (Men boshqa odamlar tasavvurida, yoki Men aksi). Men konsepsiyasini barcha uchta qismalariuning usullari hisoblanadi.

Usullaridan tashqari, men krnsepsiysi krgnetiv (Men obrazi), emotsional (o'zini o'zi baxolash) va o'zini tutish (shaxsning o'zini o'zi aniqlash strategiyasi) komponentlari bilan namoyon etiladi.

¹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 565.

Men konsepsiysi va jinsiy o'xshashlikning shakillanishi

Men konsepsiysi aniq funksiyalarni bajaradi:

1. Shaxsning ichki mosligini (Rojers buyicha muvofiqliq) ta'minlaydi. Mustahkamlikning muhim nuqtasi, o'zi haqidagi inshakliyani tashqi inshaklitsiya bilan to'g'ri kelishi hisoblanadi. Men konsepsiysi qila oladi: 1) Men suratiga tegishli tajribaga yo'l qo'ymoq; 2) oddiy himoya usullarini qo'llab uni rad etmoq; 3) yanada etuk himoya mexanizmlari orqali uni o'zgartirmoq; 4) o'zining o'zgartirish.

2. Atribut proeksiyasiga o'xshatib tajribasini interpretatsiya qiladi, jamiatni o'zining ichki dunyosiga taqqoslab, agar yosh yigit ayloga joy bersa, unda ayol uning harakatini yaxshilik namoyondasi deb hisoblashi mumkin, yoki yoshiga ishora, yoki tanishishga harakat.

3. Izlanish va yutuqlarni yo'nalishini aniqlab, kelajakdagi yutuq va mag'lubiyatlarni ogohlantiradi, yutuqning kutilishi ijoby emotsiyalar bilan kuzatiladi. Pozitiv shakllangan maqsadlar bilan, instrumental mablag'lar shakllanishi, yutuqqa etishishga yo'naltirilgan, mag'lubiyatni kutish esa boshqa strategiya va hissiyotlar negativ emotsiyalar bilan, uning maqsadida avvaldan mag'lubiyat haqida tasavvur mavjud bo'ladi.

4. O'zi haqidagi tasavvurlarning sistematizatsiyasida jinsiy o'xshashlik ahamiyati ilmiy adabiyotlarda aktiv muhokama qilinadi. Shunday qilib R.Berns o'zining aniq bir jinsga tegishli deb bilishi o'sib kelayotgan insonning Men konsepsiyasida katta axamiyatga ega emas. Boshqa tarafdan F. va R.Taysonlar bu omilga qattiq ahamiyat berishgan va turli yosh jarayonlarida, Men surati aspektlarini susayishi va kuchaishi, shaxsning Men konsepsiyasida namoyon bo'ladi.

Jinsiy o'xshashlik biologik namoyon bo'lgan. "Aytish joizki, biologik protsesslarni o'rni o'zaro xromosom, gormonal, morfologik va ijtimoiy faktorlarning kelishishidan iborat va ularning xammasi jinsiy o'xshashliq hissining normal rivojlanishini aniqlaydi¹."

Gender o'xshashlik

Har vaqt va madaniyatlarda insonlarning tarqalgapn klassifikatsisi odamlarning erkak va ayollarga bo'lininshi V.A.Geodakyan nazariyasiga va evolutsion nuqtai nazarga ko'ra, jinslarning defferensiatsiyasi ularning mutaxasisligi bilan bog'liq va ularning maqsadi, yashash joyiga moslashish va tirik qolish hisoblanadi. Jinsiy

¹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 162-163

demorfizm ayollar va erkaklar orasidagi psixologik farqlarda aniqlanadi. Shunday qilib erkaklarda analitik ong yaxshi rivojlangan, ayollarda esa-intuitiv, shakliy va hissiy. Ayol stress holatida unng sabablariga bog'lanadi, erkak esa ulardan uzoqlashadi, boshqa muamollarga bog'lanadi.

Ayol va erkaklar o'zining himoya mexanizmlari bilan farqlanadi, Erkaklar ko'nikishga moil, ayollar – inkorga.

Oxirgi kunlarda ilmiy adabiyotlarda bir necha marta jinsiy va gender xususiyatlarni, jinsiy va gender o'xshashlikni farqlashlik, zarurlik masalalari qo'yilgan. "Psixologlar gender terminini ishlatalishni lozim topishadi. Va shu bilan ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqni, madaniyat orqali ifodalashnishi idir. "Jins" so'zi aniq biologik so'z bilan bog'liq". Gender o'z nuqtai nazaridan insonning sotsial, psixologik o'rnini maskulinnost va femininnost nuqtai nazaridan ko'rsatadi.

Ikki ko'rsatkich - maskulinlik va feminlik 4 ta gender o'xshashligini tashkil etadi:

- 1) maskulinlik;
- 2) feminlik;
- 3) androgen;
- 4) nodifferensial.

Adabiyotlarda ular, maskulinlik va femininlik komplekslari odamning adaptatsiyasi bilan bog'liq, qarama-qarshi ma'lumotlar bor. Psixologik sog'lom shaxs, erkaklarning fikriga ko'ra, aniq ifodalangan maskulin xarakteristikalariga ega bo'lishi shart. Ayollarga esa psixologik adaptapsion shaxs femininlik deb hisoblanadi.

Bir qator tadqiqotlar natijasi androgen ruhiy salomatligiga ekvivalent emas, lekin salbiy mardlik erkaklar da va ayollarda ham g'am belgilari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Psixopatolog erkaklar va ayollarda erkaklik ko'rsatkichi kamligi bilan bog'liq va nazokat faqat erkaklar o'rtasida qayg'uning bir sifatidir.

Bilish mumkinki, erkaklik va ayollikning barcha kombinatsiyalarini uchun, erkaklar va ayollarning ruhi bir ongli sifatida integratsiya qilinib, bu xususiyatlar birikmasi o'zgartirilishi mumkin, biologik jins xususiyatlariga tegishli va behush belgilari, inson hayotining turli davrlaridada birlashtirish turiga va individual moslashish bilan munosabatlari sifatida ozgarishi mumkin.

Taxminlarga ko'ra, o'sayotgan yoshda, kuchli farq tendensiysi kuzatiladi, ya'ni erkaklik va nazokatlilik xususiyatlari o'smirlar idrokida

o'zları va qarama-qarshi jinsdagi shaxs haqida buyuk farq, bir xil jinsdagi shaxs rasmida va ta'rifida kuzatilgan bo'lishi kerak.

Bizga ma'lum bo'lgan bugungi natijalar, faqat o'smirlar uchun ma'lum bir namuna sifatida, chegaradan chiqmaydigan psixik va somatik o'sishdir. Asosan, bu kichik guruhda erkaklik va ayollik hususiyatlarini differensiyalashuvi va ularning qisman integrallashuvi kuzatiladi. Bu taxminlar o'smirlarda ko'rmoqchi bo'lgan "Konvertatsiya" hususiyaning yo'qolishini kechikishiga asoslangandir.

Muayyan empirik tadqiqotda ko'rsatilishicha balog'at yoshidagi qizlarda adaptiv rivojlantirish, o'z vaqtida nafaqat gormonal va tana o'zgarishlari bilan, balki boshqa jins bilan konstruktiv munosabatlarni rivojlantirish bilan bog'liq. O'smirlarning rivojlanish bosqichiga mos ravishda keyingi integratsiya xususiyatlari, qarama-qarshi biologik jins elementlari bilan erkaksiz va nazokatlilikni farqlash differensiysi aniqlangan.

O'g'il bolalardan farqli o'laroq qizlarning ko'pchiligi uchun, ayol nazokatli ko'rindi va erkak tasviri ko'proq erkak sifatida ko'riladi, biroq ayol jinsida bu hususiyatlar ko'proq kuzatiladi.

Aftidan, bu jismoniy va ruhiy o'zgarishlar tajribasi boshqa odamning bilim tajribasi bilan ko'proq tahlil etilishi lozimdir. Bu xususiyat har bir yosha normal va adaptiv rivojlantirish uchun xarakterli bo'lgan namuna qismi uchun xarakterlidir.

Qachon ota-onada o'rtasida jinsiy kechikishlar yoki munosabatlarda muammolar kuzatilsa, qizlar o'sish qatlamida sekinlashuv kuzatiladi (ya'ni bir beqaror nazorat xatti bilan birlashganda salbiy hissiyotlar kelib chiqishi). Har qanday holatda ham, qizlar va ayollar bu ikki guruh uchun tipik defeminizatsiya maskulizasiya ko'rsatkichi bilan bog'liqdir.

Aytish mumkinki, qiz bolaning jinsiy o'zgarish vaqtidagi to'g'ri rivojlanish yo'li uch faza orqali kechadi; birinchisi – erkaklik va nazokatlilik xususiyatlarida Men obrazining differensiyalashuvi, ikkinchi bosqichi – giperdifferensialashuv, uchinchi bosqichi – ularning Men shaklida integratsiyalashuvi.

Balog'at davri davomida o'g'il bolaning adaptiv rivojlanishi ham bir xil omillar bilan belgilanadi. Faqat qizlar guruvida, vs o'g'il bolalarda ham o'zları va qiz / ayol idrok kam farqli haqidagi fikrlar ham erkaksiz va nazokatli xususiyatlar kontrastini kuzatiladi. Shu bilan birga, bu holda jinsiy va ruhiy kechikishlarda rivojlanish buzilgan bo'ladi.

O'g'il bolalar uchun ayolni erkaklarga xos xususiyatlarga moyil qilinishi kuzatiladi. Bu hodisani tushuntirish maqsadida, bu hodisa

jamiyatning maskulinlashuvr oqibati va erkaklar va ayollar o'rtasida jinsi rollarning aralashuvi, deb taklif qilindi. Qo'shimcha o'rganishlar uchun, yosh erkaklar (17-18 yosh) guruhida bir sinov "Inson-rasm" usuli yordamida o'tkazildi. Bu yigit rasm sezilarli darajada o'zgarar ekan. Ayollar har bir tasvir tanlangan klasterlari eril ko'proq ayol xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu ayollar, o'smir o'g'il gipermaskulizm, degan xulosalagan edi, balki juda ko'p ijtimoiy bir ruhiy hodisalar va bola rivojlanishining o'ziga xos jihatlari kabi hisoblanadi. Tashqi ko'rinishiga ko'ra, quyidagi tarzda amalga oshiriladi obyekt, aniqlash bir plastik o'zgarishi bilan bog'liq ayollar erkaklarga xos xususiyatlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish: ona bilan aniqlash - uning otasi bilan aniqlash – onasi va otasi bilan aniqlash orqali olib boriladi.

O'g'il bolaning adaptatsiya yo'li, ayolnikidan farqli o'laroq, gipermaskulinlashuv bilan aniqlanadi: Birinchi holatda – erkak tuzilishi, qismanayol tuzilishi, ikkinchi holatda – ayol.

O'zini o'zi anglash, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, dinamika va shaxsga oid tushunchalar to'g'risidagi qarashlar tashkil etadi. Mazkur tushunchalar o'zaro ierarxik tuzilmaga ega bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi va o'ziga xos muayyan tizimni vujudga keltiradi.

Psixologiya fanida axloqiy o'zini o'zi anglash ruhiy jarayon, hodisa, voqelik, xususiyat sifatida alohida o'rganilmaganligi tufayli uni tahlil qilish o'zini o'zi anglash, axloq, milliy xarakter, ma'naviyat, qadriyat kategoriyalari bilan bevosita bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Axloqiy o'zini o'zi anglash «o'zini o'zi anglash»ning xususiy (alohida) ko'rinishi, jabhasi bo'lganligi tufayli uning ruhiy tuzilishi, tabiat, o'ziga xosligi, tarkib topishi, rivojlanishi va takomillashuvi, obyektiv, subyektiv, ichki hamda tashqi shart-sharoitlari, eng avvalo, o'zini o'zi anglash jarayonining ichki xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi zamon psixologiya fanida o'zini o'zi anglashning tabiatini tushuntirishda, talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish mavjud bo'lib, ular bir-biridan keskin darajada tafovutlanib turadi. Birinchi yondashishga qaraganda, o'zini o'zi anglash-bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir, xuddi shu bois u inson ongingin maxsus ko'rinishi demakdir. Ushbu talqin sobiq sovet psixologiyasida keng tarqalgan nazariya bo'lib L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, E.V.Shoroxova, I.I.Chesnakova, V.V.Stolin va ularning shogirdlari tomonidan ilmiy amaliy jihatdan tadqiq qilib kelinmoqda.

Bu sohadagi ikkinchi mulohaza S.L.Rubinshteynning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, keyingi davrlarda uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda izchil ravishda rivojlantirilmoqda. Uning fikriga binoan, ong va o'zini o'zi anglash jismoniy real hamda yuridik shaxsga taalluqli xususiyatlardan iborat bo'lib, ular uning hayoti va faoliyatini vosita yoki «qurol» sifatida ta'minlab turuvchi ruhiy jarayondir. Bizningcha, ikkinchi yondashish o'zini o'zi anglashning tabiatini yuzasidan to'g'ri (adektiv) ma'lumot berish imkoniyatiga ega, binobarin, metodologik nuqtai nazardan uni ilmiy-nazariy va amaliy-tatbiqiy jihatdan tadqiqot qilish yuksak ko'rsatkichlar berish mumkin.

Yuqoridagi o'zini o'zi anglashning ruhiy tabiatini haqidagi ikki xil munosabatning mavjudligi – uning paydo bo'lishi sabablarini, yo'nalish obyektini, tadqiqot predmetini turlicha yoritilishga olib keladi. Birinchi yondashashga ko'ra, o'zini o'zi anglashni vujudga kelishining bosh sababi – inson bilan jamiyat o'rtaсидаги munosabatning o'zaro nomutanosibligidir. Inson muayyan jamiyatda, mikro va mize muhitda yashar ekan, u xuddi shu muhitda (makro, mikro, mize) mavjud bo'lgan qonun-qoidalarga va tartib-intizomga bo'ysunishga hamda shular asosida, ularning negizida o'z xulq-atvori, munosabatlarini idora qilishga, boshqarishga majburdir. O'z xulq-atvori va munosabatlarini o'zi idora qilish jarayoni (uquvi) esa, ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyojlarni, xohish istaklarni, motiv va mayllarni, maqsad va qiziqishlarni (imitatsiya, identifikatsiya, refleksiya bosqichlari kechishini) boshqarishdan iboratdir. Bunday ko'rinishdagi, tuzilishdagi, mazmundagi anglash va uni idora qilish psixologik nuqtai nazardan ehtiyojning individual ongdagi ifodasini hamda ular o'rtaсидаги bo'ladigan munosabatlarni tartibga solishni taqozo etadi. Uning paydo bo'lishining bosh sababi ham, yo'nalish obyekti ham ongdir, ya'ni u ongning ichki barqarorligi natijasida yuzaga keladi va barqarorlikni (ichki muvofiqlikni) shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Shu narsani ta'kidlash o'rinniki, birinchi yondashishning namoyandalari talqinida ongning ichki beqarorligini vujudga keltiruvchi elementar (tarkiblar, ruhiy tuzilma qismlari) yuzasidan oladigan ma'lumotlarga qaratadi. Bunday ma'lumotlar inson tomonidan o'zlashtirilgandan keyin bir xil mazmunga ega bo'Imaganliklari tufayli o'zaro qarama-qarshilikka uchraydi, ularning o'zaro mutanosibligini ta'minlash uchun inson ijtimoiy ongiga murojaat qiladi va shu yo'l orqali ma'nolar o'rtaсидаги ziddiyatni bartaraf etadi. Xuddi shu boisdan

ham L.S.Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o'zini o'zi anglash turli xil ma'nolar o'rtasida birlikni (umumiylikni) vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi.

A.N.Leontev talqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongdagi mohiyat bilan mazmun o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir. A.N.Leontevning shogirdi V.V.Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning asosida (negizida) «menlik» ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi.

B.G.Ananev izlanishlarida aks etishicha, o'zini o'zi anglashning paydo bo'lishi omili- odamning individual xosiyati, faoliyat subyektliligi shaxslilik xususiyatlarining tarkib topishidagi notejislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko'ra, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta'minlab turadi.

Amalga oshirilgan psixologik tahlildan ko'rinib turibdiki, birinchi yondashuvda, o'zini o'zi anglash xulq-atvorni va munosabatlarni belgilovchi hamda idora qiluvchi mustaqil subyektga aylanadi, natijada real inson tadqiqot markazidan uzoqlashadi, uning o'rnini ong va o'zini o'zi angldash egallaydi. Bizningcha, o'zini o'zi anglashni bu tarzda tushunish (va tushuntirish) uning psixologik tabiatini atroficha, to'liq yoritishga imkon bermaydi va nazariy jihatdan noto'g'ri (noadekvat) xulosa chiqarishga, shoshilinch qaror qabul qilishga olib keladi.

Ikkinci yo'nalishning asoschisi S.L.Rubinshteynning tadqiqotlariga asoslanib, biz o'zini o'zi anglash muammosini tadqiq etishga asosiy diqqat-e'tiborni, eng avvalo, uning subyektiga, ya'ni insonga-shaxsga qaratish maqsadga muvofiq, deb hisolaymiz. Ushbu fikrni boshqacha so'z bilan ifodalaganda, o'zini o'zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo'lmasdan, balki insonning tarkib topishi va rivojlanishi sanaladi. Ruhiy faoliyatning maxsus holdagi (vaziyatdag'i) obyektiv shart-sharoitlar sifatida odamlarning hayoti, umumiylash sharoti deb yozadi S.L.Rubinshteyn, – aks ettirish faoliyatining sharti haqida gap ketganda, odamning turlicha namoyon bo'lishining, umumiylash shartlari ichidan xuddi mana shu in'ikos etish faoliyatining maxsus shartini ajratib olishimiz zarur bo'ladi. O'zini o'zi anglashning paydo bo'lishini ta'minlovchi maxsus shartni aniqlash uning subyekti to'g'risidagi muammoni hal qilishni, muayyan yo'l-yo'riqlar va oqilonaga usullarga asoslanuvchi echimni talab qiladi.

Jahon psixologiyasi fanida to‘plangan ma’lumotlardan ma’lumki, inson (shaxs) o‘zini o‘zi anglashi uchun xuddi shu o‘zini o‘zi angash xususiyatining (jarayonining) subyekti bo‘lishi muqarrar.

E.G. G‘oziev o‘z-o‘zini anglashning quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish maqsadga muvoqidir:

- 1) o‘tmishdagi “Men” (“O‘zlik”);
- 2) hozirgi “Men” (“o‘zlik”);
- 3) bo‘lg‘usi “Men” (“o‘zlik”);
- 4) ideal “Men” (“o‘zlik”);
- 5) dinamik “Men” (“o‘zlik”).

O‘z-o‘zini angash jarayoni milliy o‘zligini angash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, muayyan vaqt, muddat o‘tishini, ya‘ni ma’lum davrni taqozo etadi, lekin u ham evolutsion, ham revolutsion yo‘l ta’sirida amalga oshishi mumkin. O‘z-o‘zini angash borliq va jamiyatni in’ikos etishning yuqori bosqichi sanalib, pirovard natija sifatida yuzaga keladi, insonning donishmandligini namoyish qiladi. O‘z-o‘zini angash besh tarkibdan iborat bo‘lib, u o‘ta murakkab jarayon hisoblanib, uning tarkiblari birin-ketin anglashinish imkoniyatiga ega emas. Chunki insonda o‘zining hayoti va faoliyati yutuqlari, nuqsonlarini, xulq-atvor ko‘nikmalarini, aql-idrok darajalarini, ichki imkoniyat zaxiralarini, qadriyat hamda ma’naviyat ko‘rsatkichlarini oqilona baholash qurbi etishmaydi. Shaxsda tanqid va o‘z-o‘zini tanqid, baholash va o‘z-o‘zini baholash, tekshirish va o‘z-o‘zini tekshirish, nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish, boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish, takomillashtirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish, rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish mutanosibligi maqsadga javob bera olmaydi. Individual va ijtimoiy ongni tobora rivojlanib borishi mazkur mutanosiblikni amalga oshirishni ta’minlaydi, bu esa muayyan muddatni talab qiladi.

Inson o‘z-o‘zini angash jarayonida ko‘pincha reallikdan boshlaydi, hozirgi va favquloddagi holatni tahlil qiladi, shaxsiy imkoniyati bilan taqqoslaydi, ma’lum mezon yoki namuna, ibrat tanlab, unga tenglashishga intiladi. Keyinchalik esa kelajak, istiqbol rejalarini uni qiziqtiradi, o‘zining nimalarga qodirligi yuzasidan mulohaza yuritadi va bu borada muayyan qaror qabul qilishga erishadi, lekin uning ongliligi yoki oqilliliga shubhalanadi. Uni bir necha marta tahlil qilish, qiyoslash, unga o‘zgartirishlar kiritish, yangilash orqali bo‘lg‘usi “Men” iga aniqlik kiritadi va faollik mexanizmiga aylantiradi.

O‘z-o‘zini angashning navbatdagi bosqichida shaxs o‘tmishini tahlil qiladi, undagi qusurli va ibratli jihatlarni o‘zaro qiyoslab ustuvorlikni

topishga intiladi, bu borada ayrim siljishlarga erishadi. Ijtimoiy hayctdan u o'ziga ideal bo'lувчи shaxsni tanlaydi va undagi ijobjiy hislatlar, xususiyatlar va ko'rinishlarni, ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtira boradi. Shaxs o'z-o'zini anglash davomida dinamik harakatsiz hech bir narsani ro'yobga chiqara olmasligiga iqror bo'ladi, natijada uzlusiz harakatlar asta-sekin, birdaniga, tavakkaliga amalga oshirish lozimligini tushunib etadi. Dinamik holatni baholash, tekshirish, nazorat qilish, boshqarish natijasida dinamik "Men" shakllana boshlaydi. O'z-o'zini anglashning besh tarkibiy qismi bir tekis insonning ma'naviy dunyosiga aylansa, demakki, unda mukammallik, barkamollik darajasi vujudga kelganligidan dalolatdir.

O'z-o'zini anglash shaxsning fazilatiga aylanishi uchun muayyan davr, vaqt, muddat talab qiladi, shuning uchun o'quvchilar, talabalar va respublikamizning boshqa fuqarolari bilan dasturiy tadbir-choralar o'tkazish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

«Men» obrazni asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlari bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, mактабда bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobjiy munosabati, doimiy maktovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi, ko'pincha, atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetrokda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchhsizlik qayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy

sifatlar va hatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, Ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'z-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sunhiy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, o'quvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo'lmanida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog'i erdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog'dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar ota-onasiga, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinni va asosli baholari, real samimiy munosabatlarning mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa, to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi – referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergen tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-onasiga, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob kahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho – o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida

mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir.

Nazorat savollari

1. Shaxsning o'zini o'zi anglashi.
2. O'zini o'zi bilishi va o'zini o'zi baholashi.
3. O'zini o'zi anglash bosqichlari.
4. "Men" tushunchasi.
5. Shaxsning "Men-konsetsipsiyasi".
6. "Men" qirralarining darajalari.
7. Shaxs "Men"ining turlari.
8. "Retrospektiv Men", "real Men" va "ideal Men"ning mohiyati.

Adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 563-572.
2. Boeree C.G. Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3
3. Аверин В.А. Психология личности: Учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2003. – 352 с.
5. Нельсон-Джоунс Р. Теория и практика консультирования. – СПб.: Питер, 2000. – 464 с.
6. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998. – 796 с.
7. Хьюлл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.
8. Гозиев Э.Ф. Умумий психология. – Т.: Ўқитувчи, 2010.

11-bob. SHAXS TARAQQIYOTINING PSIXOTIK, CHEKLANGAN VA NEVROTIK DARAJALARI

Reja:

1. Xarakter tuzilishi va uning diagnostikasi.
2. Shaxs tuzilmasining nevrotik darajasi.
3. Shaxs tuzilmasining cheklanganlik darajasi.
4. Shaxs tuzilmasining psixotik darajasi.
5. O.Kernberganing strukturali yondashuvi.

Xarakter tuzilmasi va uning diagnostikasi mezonlari

Xarakter bilan bog'liq muammolari bilan bog'liq hal etiladigan masalalardan biri uning buzilish bo'lib, uni qanday mezonlar orqali baholash bilan bog'liq. Xarakterga bag'ishlangan jahon psixologik adabiyotlarida xarakter shaxs xususiyatlarining tizimlashuviga ko'ra aniqlanadi va unga quyidagilar kiradi:

- 1) barqaror ehtiyojlar va motivlar;
- 2) shaxsnинг irodaviy sifatlari (maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, tashabbuskorlik va boshqalar);
- 3) barqaror emotsiyonal reaksiyalar. Barqaror ehtiyojlar va motivlar, shaxsnинг irodaviy sifatlari psixikaning mazmuniy xossasini, emotsiyonal reaksiyalar esa psixikaning dinamik xossasini tashkil etadi.

Psichoanalitik adabiyotlarda xarakter muammofiga quyidagi nuqtai nazardan qaraladi: Z.Freyd drayv nazariyasiga ko'ra: 1) libido rivojlanishining bir necha bosqichi qayd etiladi; 2) ego-psixologiya pozitsiyasidan xarakter himoya mexanizmi, ya'ni xavotirdan qochish sifatida namoyon bo'ladi¹.

Xarakter diagnostikasiga va shaxs buzilish darajasi ham Z.Freydning drayv nazariyasi asosida shakllantirilgan. N.Mak-Vilyamsning modeliga ko'ra, xarakter modeli va uning diagnostikasi bo'yicha o'ziga xos yondashuv mavjud.

N.Mak-Vilyamsning xarakter tuzilmasi mazmuni ikki mezon asosida aniqlanadi:

- 1) shaxs tuzilmasini rivojlanish darajasini baholash (Freyd bo'yicha), shaxs individuatsiyasi yoki patologiya darajasini aks ettiradi.

¹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

Mak-Vilyams taraqqiyotni to‘rt darajaga ajradi: psixotik, cheklangan, nevrotik va normal.

2) shaxsning himoya uslubi yoki xarakter tipi diagnostikasi (masalan, paranoid, shizoid, depressiv va boshqalar.).

Mak-Vilyams modeli vujudga kelishi bilan odatdagи psixologiya xarakteriga nisbatan chetdan qarashni to‘xtatdi. Ammo birdaniga yuz bermasdan, balki unga qadar kundalik ongda ikki kategoriyadagi insonlarga ajratiladigan odamlarni ajratuvchi mulohazalarga olib kelgan: bemorlar (“psixlar”) va sog‘lomlar (“psix emaslar”). Differensial nuqtai nazardan o‘tkazilgan diagnozda amaliy jihatdan bunday yondashish qat’iyan shart emas.

Bu yo‘nalishga bog‘liq diagnostik maqsadlarda uzoq vaqt davomida standart baholash uslubidan foydalanilgan. Bu psixiatr va psixoterapevtlarni qoniqtirib kelgan.

Ushbu sxemaga ko‘ra, real voqelikda sog‘lom yoki normal insonlar degan xulosaga olib keluvch holatidir. Unga nisbatan og‘ishni aks ettiruvchi boshqa bir munosabat esa reallik haqidagi ma’lumotlarga zid munosabatni aks ettiruvchi bemorlar guruhiga ajratishga olib keldi.

Odatda isterik, fobiyali, kompulsiv, maniakalli yoki depressivli tendensiyalilarga ma’lum psixologik qiyinchiliklarga uchraganlarga mijozlar deb murojaat qilinadi. Assotsial mijozlar esa, axloqiy jihatdan aqlsiz mijozlar sifatida tasniflanadi.

XX asrning o‘rtalariga qadar nevrotik va psixotik darajali patologiya o‘rtasidagi farqlarni tahlilchilar shaxs buzilishidagi oraliq shakllardan foydalanmasdan tafovutlashga olib keldilar.

Nevrotik voqelikni tushunishi, ammo shaxsiy muammolari borasida shaxsiy qiyinchilikka duch keladiganlar hisoblangan. Uning tayanch xususiyatlari haddan tashqari mexanik va qayishqoq bo‘limgan psixologik himoya mexanizmlardan iborat. N.Mak-Vilyams nevrotiklarni kopqog‘i mahkam berkitilib, qaynatilayotgan xumchaga o‘xshatadi.

Psixotiklar esa voqelikdan munosabatni ajratib qo‘ygan va kuch himoya mexanizmiga ega bo‘lganlar sanaladi.

XIX asrdayoq salomatlik bilan bemorlik o‘rtasidagi “cheklangan maydonga” ega mijozlarga ajratishga olib kelgan edi. XX asrning o‘rtasiga kelib, nevrozlar va psixozlar o‘rtasidagi oraliq zona haqidagi g‘oya paydo bo‘ldi.

Xelen Doych buni “go‘yoki shaxslar deb” nomladi. Xox va Polatin “psevdonevrotik shizofrehiya” kategoriyasi olib kirishdi. 1953-yilda

Nayt cheklangan holarlar haqidagi esseni e'lon qildi. 1968-yilda Grinker cheklangan sindromning asoslovchi tadqiqot o'tkazdilar.

1980-yillarda umumqabul qilingan DSM-IV (Diagnostics and Statistics of Mental Disorders) atamasi paydo bo'ldi. Bemorlarning ajratilgan guruhi xususiyatlari psixotiklarda gallyusinatsiya yoki alahsirash mavjud emas, ammo nevrotiklarda nostabil va aytib bo'lmaydigan xulq-atvor mavjud. Mijozlarning psixoanalitik davolash vaqtida mijozlar vaqtinchalik psixotik bo'lib, psixoanalitikdan tashqari holatda barqarorlikni namoyon qiladi¹.

Mak-Vilyams psixotik, cheklangan va nevrotik darajalari E.Erikson bo'yicha shaxs taraqqiyot darajasiga to'g'ri keladi.

Psixotiklar Erikson bo'yicha taraqqiyotning bиринчи darajasiga to'g'ri keladi. Ular ishonish yoki ishonmaslik, cheklangan shaxslarda separatsiya/individuatsiyalar, nevrotiklar – tashabbuskorlik yoki aybdorlik tuyg'usini kechirish bilan identifikasiyalashgan.

Uch darajadagi shaxs taraqqiyotiga mansub kishilar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun maxsus standartlashgan so'rovnomalar mijozlar o'rtasida o'tkazilgan.

U quyidagi savollar bilan yoritiladi:

- ustuvor sanaladigan himoyalari;
- identiklikni integratsiyalashgan darajasi;
- testlashtirishning vogelikka mosligi va o'zining patologiyasini kuzatishga qobiliyatli;
- asosiy nizolar tabiatini;
- ko'chish va ko'chishga qarshi xususiyatlari;
- ushbu sxema oqibatida shaxsnинг alohida darajasi haqidagi xulosaga kelinadi: psixotik, cheklangan va nevrotik jihatlat.²

Shaxs tuzilmasining nevrotik darajasi

Nevrotik atamasi nisbatan emotsiyal buzilish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keluvchi sog'lom kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Taraqqiyotning bиринчи darajasida – oral va anal bosqichda xarakterda hech qanday ortiqcha buzilish kuzatilmaydi.

Biroq edip kopleksi bosqichida (3-6 yosh) nevrotik tuzilmada o'ziga xos o'zgarish kuzatiladi. J.Berjerida kuzatilishicha, o'smirlilik yoshida bu holat yaqqol kuzatiladi va Menning nevrotik oldi nevrotik tuzilmaviy

¹ Myers D.G. Psychology. HopeCollege. Holland, Michigan, 2010. - P. 597.

² Myers D.G. Psychology. HopeCollege. Holland, Michigan, 2010. - P. 202.

ko'rinish olishi va nevrozga o'sib o'tishi kuzatiladi. Menning psixotik tuzilmasi esa psixozga o'sib o'tishi xosdir.

Nevrotiklar ancha yuqori himoyalanishni boshdan kechirishadi. Ular oddiy himoya mexanizmlarini takomillashtirib, o'stirib boradilar. Nevrotiklar yetuklik sifatida – siqib chiqarish, intellektuallashtirish, ratsionallahtirish kabi himoyalanishdan foydalanadilar. Shu bilan bir qatorda inkor etish, proaktiv identifikasiya, izolyasiya va boshqa primitiv himoyalashdan asoslanadilar.

Ular idetifikatsiyaning integrallashgan tuyg'usini egallaydilar va qiyinchiliklarsiz xarakter hislatlarini, qizqizishlari, temperament xususiyatlari, qadriyatlari va kamchiliklarini aniqlaydilar. O'z navbatida, nevrotiklar boshqa insonlarga ham izoh beradilar.

Nevrotiklar voqelik bilan ishonch bilan aloqaga kirishadilar. Ularda gallYusinatsiya, maniakallik tajriba talqini yo'q. Ular psixoterapevt bilan bir dunyoda yashaydilar. Ammo mijozning bir qator ego qismlari bezoviste'dodiradi va ular psixoterapevtga murojaat qiladilar. U – ego-diston. Nevrotik darajadagi paranoid shaxs boshqa insonlarga shubha bilan qarashida ichki ziddiyat va agressiv tarzda idrok etishi oqibatida yuz beradi. Paranoidlar cheklangan yoki psixotik rmijozlar hisoblanadilar. Ularning qiyinchiliklari tashqi tafakkur bilan bog'liq va uning kasalligi va buzilishlari atrof olam xususiyatlari belgilaydi.

Shaxs tuzilmasining cheklanganlik darajasi

Bu darajadagi shaxslar nevrotik bilan psixotiklar o'rtasidagi holatni egallaydilar. Ular birinichi va ikkinchisi bilan solishtirilganda muvaqqat barqarorlikka ega bo'ladilar. J.Berjer bo'yicha cheklanganlik tuzilmasi bolalarning lat eyishlari orqali shakllanadi va cheklanganlik tuzilmasini hosil qiladi.

Cheklangan shaxslar oddiy himoya usullarini qo'llaydilar. Bu bilan ayrim hollarda psixotiklardan farq qilmaydilar. Ularning o'rtasidagi tafovut suhbatni to'g'ri tashkil etilishi orqali aniqlanadi.

Cheklangan shaxsda Men ajralib qolgan, ziddiyatlar kuzatiladi. O'zini izohlashga to'g'ri kelganda qiyinchilikni boshdan kechiradi. Cheklangan mijozlar bilan to'g'ri suhbat uyuştirish psixotiklardan farq qilish imkonini beradi va o'zining patologiyasini kuzatishga maqbul bo'ladi. Ular atrofdagilar bilan ambivalentlikni boshdan kechiradi.

Bir tomondan yaqinlik xohishi, ishonish munosabati aks etsa, boshqa tomondan esa boshqalar bilan munosabatga kirishishda qo'rquv hosil bo'ladi.

E.Erikson bo'yicha shaxs taraqqiyotining ikkinchi bosqichidagi nizo kuzatiladi: avtonomiya/uyat (separatsiya/individuatsiya). Cheklangan shaxsga xos xususiyat u bir vaqt ni o'zida yordamga chaqirishi va uni inkor etishi ham mumkin. Cheklangan bolalarda obyektiv diadik munosabat kuzatiladi¹.

Cheklangan shaxslar bilan terapevtik maqsadda ishlash oqibatida ularda o'ziga va atorofdagilarga nisbatan muhabbatni shakllantirishdan iborat.

Shaxs tuzilmasining psixotik darajasi

Bu darajadagi shaxslar bo'shab qolgan, buzilgan holatda bo'ladilar. Bu xususiyatlar "Men"ning ilk bosqichdagi cheklanishlari oqibatida shakllanadi. "Men"ning psixotik tuzilishi "Men"ning nevrotik tuzilmasi oqibatida kelib chiqishi mumkin. U so'ngra nevrotikka, keyinchalik esa psixotik va psixozga aylanishiga olib keladi.

Psixotiklar verbalgacha, ratsionallikkacha bo'lган himoya mexanizmlarga intiladilar. Psixotiklar "Men kimman?" savoliga qiyinchilik bilan javob beradilar. O'zini yuzaki izohlaydi va xatolarga yo'l qo'yadilar.

Vоqelikni chalkash, noadekvat testlashtiradi. Psixotiklarning mulohazalarни talqin qilishi ekzistensial qo'rquvni keltirib chiqarishi hamda mijozda yanada yomonroq holatga o'zini ifodalashiga sabab bo'lishi mumkin.

Ekzistensial nizoning asosiy tabiatи hayot va o'lim, xavfsizlik bilan qo'rquv o'rtasida kechadi. Bu muammo ishonch yoki ishonchsizlik, otanalarning qat'iy yoki noaniq munosabatlari bilan bog'liq (masalan, mazohist ona va sadist otaning mavjudligi). Psixotiklar uchun monadik obyektiv munosabatlар tipikdir.

O.Kernbergning tuzilmaviy yondashuvi

Otto Kernberg psixoanalizning ikki shoxchasini o'zarо birlashtirdi, ya'ni mayllar nazariyasi bilan obyektiv munosabatlар nazariyasini birgalikda rivojlanishini ta'minladi.

U ikkita tayanch g'oyadan kelib chiqdi: birinchisi – insonda ikkita mayl mavjud – libido va agressiya; ikkinchisi – Men-reprezentatsiya obyekt-reprezentatsiya bilan ma'lum munosabatlarda mavjud.

Kernberg psixoterapevtning psixik buzilishlar bilan ishslash yo'naliishini izohlashga xizmat qiladi. Cheklangan shaxslar bilan ishslash

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 202.

uchun ekspressiv psixoterapiyani va mashhur tuzilmaviy intervyuni ishlab chiqdi.

O.Kernbergning tuzilmaviy yondashuvi quyidagilarni yoritishga xizmat qiladi:

- 1) obyektiv munosabatning sifatini;
- 2) super-ego integrallashganlik darajasini;
- 3) primitiv ko'chish tabiatini.

U uch xil tipdag'i shaxs tuzilmasini aniqlash orqali muhim vazifalarni hal qiladi:

- a)identiklikni integratsiya darajasini aniqlash;
- b)himoya mexanizm tiplarini yoritish;
- c)voqelikni testlashtirishga qobiliyatini aniqlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun maxsus tuzilmaviy intervyu ishlab chiqildi. Tuzilmaviy intervyu mijoz bilan mijoz o'zaro ta'sirlashuviga asoslangan. Bu usul muammoni shaffof o'rganish imkonini beradi. Uning oqibatida mijozning motivatsiyasi, psixoterapiyaga shayligi, qarshilik ko'rsatish shakli, psixoterapiya tipini baholashga imkon beradi. U yordamida mijozning ijobiy sifatlari yoritiladi.

Kernberg tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv psixoterapevt bilan muomala vaziyatida namoyon bo'ladigan mijozning qiyinlashuvi, simptomlari va nizolariga alohida e'tibor qaratgan. Tuzilmaviy intervyu uchta fazaga ajratiladi: boshlang'ich, o'rta va yakunlovchidir.

1. Boshlang'ich fazada terapevt mijozga asosiy simptomlar, mijozning kutilmalari va qiyinchiliklari haqidagi sovollaridan iborat. Bu fazada mijoz qanchalik savollarni tushunishi va o'zining xatolarini anglaganligini, uning kutilmalar voqelikka qanchalik mos kelishini yoritishga xizmat qiladi.

Strukturali intervyuning birinchi fazadayoq shaxs tuzilmasi darajasini aniqlash mumkin. Agar mijoz simptomlarni aniq va to'liq tasvirini berishga maqbul bo'lsa, u holda terapevt quyidagi qo'shimcha savollarni berishi mumkin bo'ladi: O'zingizni simptomlaringizni alohida jihatini izohlay olishingiz mumkinmi?, "ular qanday rivojlandi, ular bilan bog'liq qanday hodisalar mavjud?" Aynan ushbu bosqichda voqelikni testlashtirish darajasi tekshiriladi.

2. Intervyuning o'rta fazasida mijozning identikligini baholash vazifalari shakllantiriladi. Men qirralari yoki mijoz timsoliga ziddiyatli bo'lgan timsol haqidagi ma'lumotlar olish bilan bog'liq diffuz identiklik aniqlanadi. Oqibatda Men-reprezentativlik bilan ziddiyatli bo'lgan diffuz identiklik yoki to'liq Men konsepsiysi aniqlanadi. Ego-

identiklikni o'rganish bilan bir qatorda mijozning reprezentlashuv qobiliyati tekshiriladi va uning uchun ahamiyatli boshqalar izohlanadi.

Mijozning muammosi o'rganilayotgan vaqtida unda xavotirlanish ortishi, bezovtalanishning o'sib ketishi, himoya mexanizmlari faollashishi mumkin. Terapevt ularning etukligini baholaydi. "Men"ning ego-o'ziga xoslik jiahtlarini yoritadi.

"Men"ning nospetsifik jihatlari – bezovtalikni ko'chirish qobiliyati, impulslar ustida nazoratning mavjud/mavjud emasligi va etuk sublimatsiya qiladigan usulni mavjud va mavjud emasligi tekshiriladi.

Bezovtalikni ko'chirish qobiliyati mijozning emotsiyal zo'riqishlarga bardosh qilishi mumkinligi darajasini tavsiflaydi. Impulslar ustidan nazorat mijozning instiktiv xohishlarni kechirishi mumkinlik darajasini va impulsiv harakat qilmasligi darajasini tavsiflaydi. Sublimatsianing samaradorligi mijozning qanchalik tarbiya va ta'lim bilan bog'liq bo'limgan holda ijodiy qobiliyatni rivojlanitirishini belgilaydi.

Bu fazada Super-egoni to'liq yoki xususiy integratsiyasining mavjud emasligi testlashtiriladi. Buning uchun quyidagi mezonlardan foydalananiladi: 1) mijoz qanday darajada etikaviy qadriyatlar bilan identifikasiyalashgan bo'lishi mumkinligi va 2) aybdorlikning me'yordagi tuyg'usi uning xulq-atvorini ahamiyathi regulyatori ekanligi.

Haddan tashqari kuchli aybdorlik hissini kechirish va keskin Super-ego nevrotiklar uchun integratsianing buzilishi va Super-ego integrallashmagan o'tnishdoshlarining mavjudligi – cheklangan va psixotik mijozlar uchun xarakterlidir.

Me'yordagi insonda Super-ego integrallashgan, ya'ni 1) individ etikaviy prinsiplar asosida o'zining xatti-harakatlarini tartibga soladi; 2) ekspluatatsiya va manipulatsiyalashdan tiyiladi; 3) tashqi majburlash mavjud bo'limganda pok va axloqiy qimmatli bo'lib qoladi. Strukturalashgan intervuning o'rta fazasida nevrotik simptomlar va xarakterning patologik qirralari, asosiy himoya mexanizmlari, diffuz indentiklik sindromi, voqelikni testlashtirish darajalari o'rganiladi.

3. Strukturalashgan intervuning yakuniy fazasida mijozga psixoterapevdan ma'lum qilmagan muhim bo'lgan nimanidir taklif qilishi so'raladi. Quyidagi tartibda savol beriladi: "Sizning fikringizcha sizdan so'ramagan yana nimani so'rashim mumkin?"

Bu bosqichda terapevt mijozning svollariga javob beradi, kutilmagan bezovtalik va boshqa qiyinchiliklarga e'tibor qaratadi. Intervuning har bir bosqichda terapevt mijoz bilan o'zaro aloqada

bo‘ladi: u bilan holati, terapiya, diagnostika haqidagi yakuniy xulosalarni muhokama qiladi.

Butun intervyu uchun 1,5 soat (10-15 daqiqali intervalli 2 ta 45 daqiqali seans)ni tashkil etadi. Terapevt uchta muhim vazifani hal etadi:

1) Mijozning subyektiv olamini tadqiq qilish; 2) mijoz bilan o‘zaro munosabat vaqtida xulq-atvorini kuzatish; 3) mijozga shaxsiy emotsiyal reaksiyasi orqali e’tibor qaratish.

Terapevt mijozning xulq-atvori va tafakkuri, emotsiyasidagi noadekvat namoyon bo‘lishlarni baholash, ubilan o‘z kuzatishlarini muhokama qilish, o‘zini taktik tutish, mijozning unga qanchalik empatiya bilan munosabatga egaligini kuzatish.

N.Mak-Vilyams modelidagi, xarakter diagnostikasi va uning buzilishiga doir O.Kernbergning strukturali yondashuvu ikki asosga ko‘rib chiqiladi: shaxs taraqqiyot darajasi va inson xarakter tipi.

Mijozning birinchi asos bilan muvofiqligida shaxs taraqqiyct darajasi va buzilganlik darajalariga ko‘ra tafovutlanadi: psixotiklik, cheklanganlik va nevrotiklik. Bu darajalari o‘zida diskret birliklarni emas, balki qandaydir xususiyatlar kontinuumini ifodalaydi.

Ikkinci asos – xarakter tipi inson uchun ma’lum darajadagi ichki himoya stilini aniqlaydi. Xarakter tiplarini muhokama qilish – psixopatik, narsiss, shizoid, paranoid, depressiv, mazohistik, obsessiv/kompulsiv differensial psixologiyaga aloqadorligi sababli bizning muhokamiz vazifasi hisoblanmaydi.

Ma’lum ma’noda xarakter tipi quyidagi tartibda baholanadi:

1. Etakchi mayllar, affektlar, temperament.
2. Mening adaptiv va himoya funksiyasi.
3. O‘zaro ta’sirlashuvning internallashtirilgan patternlari yoki obyektiv munosabatlari.
4. Shaxsiy Menning subyektiv tajribasi: chegara, qadriyatlar, o‘zini idrok etishi.
5. Ko‘chish va ko‘chishga qarshilikda o‘zi haqidagi tasavvurni namoyon qilish.
6. Davolanishga tavsiyalar.
7. Differentsial tahlil uchun asos.

Sanab o‘tilgan xarakter tiplari sog‘lom kishilarda ham uchrashi mumkin, ammo bemorlardan farqli ravishda sog‘lom inson xarakteri uning psixik taraqqiyoti va moslashuviga to‘sqinlik qilmaydi.

Obsessiv inson tafakkur atrofida o‘z hayotini tashkil qiladi: ta’lim olishga, mantiqiy tahlilga, atroficha rejlashtirishga va sog‘lom qaror

qabul qilishga intiladi¹. Patologik obsessiv inson aqliy saqich bilan mashg'ul bo'ladi, xulq-atvorini tartibga sola olmaydi doira atrofidan cheksiz aylanadi.

"O'yangan va bajarilgan" joyda harakatlantiruvchi psixologik motivlar sifatida eshitish, o'ynash, orzu qilish, sezish, san'atdan qoniqish olish qobiliyati bilan disproportsiya vujudga keladi. Bu obsessiv-kompulsiv strukturali shaxslar bilan ish olib borishga olib keladi².

Shaxs tiplari va ularning darajalarini qiyoslashni terapiya diagnozi, uning turlari va natijalarining barqarorligi aniqlaydi.

Nazorat savollari

1. Shaxsdagi buzilish.
2. Shaxsdagi norma bilan patologiya.
3. Shaxsdagi buzilishlarga doir izlanishlar tavsifi.
4. Xarakter tipini baholash.
5. Xarakter tuzilmasi va uning diagnostikasi mezonlari.
6. Shaxs tuzilmasining nevrotik darajasi.
7. Shaxs tuzilmasining cheklanganlik darajasi .
8. Shaxs tuzilmasining psixotik darajasi.
9. O.Kernbergning tuzilmaviy yondashuvi .
10. N. Mak-Vilyams modeli.

Adabiyotlar:

8. Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010.
– P. 563-572.
9. Boeree C.G. Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University, 1997. – P.3
10. Аверин В.А. Психология личности: Учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999.
11. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2003. – 352с.
12. Нельсон-Джоунс Р. Теория и практика консультирования. – СПб.: Питер, 2000. – 464 с.
13. Холл К., Линдсей Г. Теории личности. – М., 1998.- 796 с.
14. Хьюлл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1997. – 608 с.

¹ Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 603.

² Myers D.G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 603.

АННОТАЦИЯ

Учебное пособие посвящено науке психологии и адаптировано к требованиям программ психологии высших учебных заведений.

В книге с внедрением национального менталитета широко используются новейшие научно-теоретические материалы, научные исследования, научные мнения и теории зарубежной психологии.

В учебном пособии отражены, введение в психологию, понятие о личности и его структура, теории и основные методы психологии, познавательные процессы, потребности, мотивация, эмоции (чувства), характер, волевые особенности, способности, темперамент личности и вопросы изучение их в мировой психологии.

Учебное пособие обогащен теоретическими и практическими психологическими материалами.

Учебное пособие имеет возможность снабдить психологов теоретическими и практическими знаниями.

Учебное пособие предназначен для студентов по образовательному направлению 5210200-Психология (общая психология), преподавателей Вузов, практикующих психологов, а также кадров системы повышение подготовки.

ANNOTATION

The manual is devoted to the science of psychology and adapted to the requirements of psychology programs of higher educational institutions.

In the book with the implementation of the national mentality widely used the latest scientific and theoretical materials, scientific research, scientific opinions and theories of foreign psychology.

The manual reflects the introduction to psychology, the concept of personality and its structure, theories and basic methods of psychology, cognitive processes, needs, motivation, emotions (feelings), character, volition, abilities, temperament of personality and questions studying them in world psychology.

The manual is enriched with theoretical and practical psychological materials.

The manual provides the opportunity to provide psychologists with theoretical and practical knowledge.

The manual is intended for undergraduate students, university teachers, practicing psychologists, as well as cadres of training systems.

MUNDARIJA

Kirish	3
I qism UMUMIY PSIXOLOGIYAGA EVOLUTSION KIRISH.....	5
1-bob Evolutsion psixologiyaga kirish.....	5
2-bob Psixikaning evolutsiyasi va vujudga kelishi	16
3-bob Tabiiy va jinsiy tanlanish nazariyalari.....	27
4-bob Evolutsiya jarayonida shaxs rivojlanishi.....	38
5-bob Kognitiv jarayonlarni shakllanishi. Insonda aks ettirish darajalari.....	59
6-bob Psixik jarayonlarni shakllanishida tilning ahamiyati.....	69
7-bob Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi.	79
8-bob Miya va psixika.....	95
9-bob Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaga kirish. Hayvonlar psixik faoliyatining umumiy tavisi.....	118
10-bob Hayvonlarning psixik faoliyatini ontogenezda rivojlanishi.	131
II qism SHAXS PSIXOLOGIYASI.....	161
1- bob Shaxs psixologiyasining metodologik prinsiplari.....	161
2- bob Klassik psixoanaliz va uning modifikatsiyalari.	175
3-bob Psixologiyada shaxsnı o‘rganishlar nazariyasi.....	185
4-bob Gumanistik psixologiyada shaxs.....	193
5-bob Shaxs ekzistensial psixologiyasi.....	201
6-bob Har xil psixologiya muktabalarida shaxs nazariyalari.....	207
7-bob Rus psixologiyasida shaxsga yondashuvlar.	222
8-bob Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo‘lish.....	226
9-bob Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari va ularning roli.....	239
10-bob Shaxsnı o‘z-o‘zini anglashi va Men-konsepsiysi. Shaxsnı sotsial tasavvurlari.....	264
11-bob Shaxs taraqqiyotining psixotik, chegaralangan va nevrotik darajalari.....	276

СОДЕРЖНИЕ

Введение

I часть.

- Эволюционное введение в общую психологию.
Введение в эволюционную психологию.
Возникновение и эволюция психики.
Теория естественного и полового отбора.
Эволюционное развитие личности.
Формирование когнитивных процессов. Уровни отражения у человека. Происхождение и развитие сознания.
Значение языка для формирования психических процессов
Развитие психики человека в онтогенезе.
Проблема отношения психических процессов и мозга.
Действие как единица человеческой деятельности.
Уровни построения движений.
Введение в зоопсихологию и сравнительную психологию.
Развитие психической деятельности животных в онтогенезе.

II часть.

- ### **ПСИХОЛОГИЯ ЛИЧНОСТИ.**
- Методологические принципы психологии личности
Классический психоанализ и его модификации.
Теории обучения в психологии личности.
Личность в гуманистической психологии.
Экзистенциальная психология личности.
Теории личности различных психологических школ.
Теория личности в российской психологии.
Периодизация развития личности.
Индивидуально-психологические особенности личности.
Самосознание личности. Я-концепция. Социальные представления личности.
Психотический, пограничный и невротический уровни развития личности.

MUAMEDOVA DILBAR GAFURJANOVNA,
MULLABOYEVA NOZIMA MAXMUDJANOVNA,
RASULOV ABDIMUMIN IBRAGIMOVIČH.

UMUMIY PSIXOLOGIYA

*Nashriyot muharriri: Mahkam Mahmudov
Musahhiha: Gulnigor Murodova
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev*

*«MUMTOZ SO'Z»
mas'uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti*

*Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.
Tel.: 241-60-33*

*Nashriyot litsenziyası AI № 103. 15.07.2008
Bosishga ruxsat etildi 27.12.2018
Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog'ozı.
Times New Roman garniturası. Hisob-nashriyot tobog'i 26,5 b.t.
Shartli bosma tobog'i 18. Adadi 500
Buyurtma №193. Bahosi kelishilgan narxda*

O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Talabalar shaharchasi

ISBN 978-9943-5561-4-0

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-5561-4-0.

9 789943 556140